

## **SHAYX MAHMUD AS'AD JO'SHON**

# **RAMAZON va TAQVO**

Tarjimon: **Sayfiddin SAYFULLOH**

«Movarounnahr» 2004

Mas'ul muharrir: **Shayx Muhammad Sodiq MUHAMMAD YUSUF**

Muharrir: **Shahobiddin ODILOV**

Taqrizchi: **Abdurrazzoq YUNUSOV**

Imom A'zam mazhabidagi atoqli alloma, Naqshbandiyya tariqatining murshidi komili, yurtimizda o'nlab asarlari tarjima bo'lgan professor, Shayx Mahmud As'ad Jo'shonning (1938-2001) ushbu kitobida ro'zaning farzligi, bu xususdagi fiqhiy ahkomlar, uning moddiy va ma'naviy foydalari, jamiyat hayotiga ijobiy ta'siri va taqvoning ahamiyati haqidagi bir qator muhim shar'iy masalalardan bahs yuritiladi. Shuningdek, asarda muborak uch oylar va muborak kechalar fazilati haqida ma'lumot va tavsiyalar berilgan. Kitob sodda, xalqchil, suhbat uslubida tartib berilgan bo'lib, keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

© **Sayfiddin Sayfulloh**

### **RAMAZON – RAHMAT OYI**

Bizni inson qilib yaratgan va imon gavhariga musharraf etgan mehribon Alloh taologa behad hamdu sanolar bo'lsin!

Olamlarga rahmat bo'lib kelgan sevimli, mushfiq payg'ambarimiz hazrat Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallamga salotu salomlar yo'llaymiz.

Muborak ramazon oyining ro'zasi Islomning besh shartidan biri bo'lib, payg'ambar yuborilgan har bir ummatga farz qilingan. Qur'oni karimda: «Sizlarga ham sanoqli kunlarda ro'za tutish farz qilindi», «Sizlardan kim bu oyga hozir bo'lsa, ro'za tutsin» kabi xitoblar bilan ro'zaning farzligi sobit bo'lgan va fiqhiy asoslaridan bahs yuritilgan <sup>1</sup>.

Hadisi qudsiylardan birida: «Ro'za men uchundir va uning mukofotini men beraman», – deyiladi va ro'zaning xos ibodat hamda ulug' savobga ega ekanligiga ishora qilinadi.

Dinning ustini namoz bo'lsa, jamiyatniki – zakot, ruhniki esa ro'zadir. Ro'za ruh shifosidir.

Har bir ilohiy amrda o'ziga xos hikmat bor. Ro'zaning barcha xususiyati va hikmati

yolg'iz Allohga ayon. Bir narsa aniqki, Ramazon - rahmat va mag'firat oyi, oylarning sultoni va eng ulug'idir. Ro'za jasadga ham, ruhga ham fayz bag'ishlaydi, uni qayta tiriltiradi. Moddiy va ma'naviy zararlardan muhofaza etadi.

Boshqa oylarga nisbatan bu oyda Allohga yaqinlashish, ulug' ajru mukofotlarga sazovor bo'lish imkoniyatlari ko'proq. Qadr kechasinig ming oydan afzalligi, bu kechada qilingan ibodatning ajri ming oylik qilingan ibodatning savobidan ortiqiligini bir tasavvur qilib ko'ring! Bu oyda ixlos, samimiyat ila tavba qilsak, gunohlarimiz kechiriladi, duolar qilsak, ijobat bo'ladi, inshoalloh! Hatto farishtalar ham bu oyda Allohning maxsus farmonini bajarish uchun yerga tushadilar...

---

<sup>1</sup> Baqara surasi, 183-187-oyatlar.

Qur'oni karim shu oyda nozil bo'ldi. Allohning Rasuli Islom diniga da'vatni shu oydan boshladi. Shu oydan boshlab Islom dini zafarga, kuch-quvvatga, nurga to'laverdi... Shuning uchun ham ramazon oyi va ramazon ro'zasi butun ummat tarafidan buyuk bir muhabbat va ayricha hurmat bilan e'zozlanadi.

Bu oyda yer yuzining turli tarafidagi musulmonlar mushtarak tuyg'u va mushtarak qarashlar bilan birlashadilar... Bir xil vaqtda ochiqadilar, chanqaydilar, jamoat bo'lib tartibli, e'tiqodli holatda Allohga taslim bo'ladilar, muhabbat namunasini ko'rsatadilar. Yaxshilik, xayru hasanot barchaga barobar ochiladi. Allohning afv va mag'firat xazinasidan har bir mo'min o'z ulush va nasibasini olishga harakat qiladi. Mo'min-musulmonlar ro'za davomida ruhlarini sabr-qanoat, mashaqqat va qiyinchiliklarda toblaydilar, Alloh bergan ne'matlarning qadriga yetish haqida o'ylay boshlaydilar...

Shubhasiz, ro'za islomning boshqa ahkamlari va ibodatlari kabi jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xatmi Qur'on, tarovih va iftorliklar musulmonlarni yanada jiplashtiradi, ularda mehr-oqibat, dinu diyonat tuyg'ularini junbushga keltiradi.

Ammo hayf va yoziqlar bo'lsin ul kishigakim, shu ulug' oyni pisand qilmasdan, ro'za tutmasdan muborak ramazon oyining savobi, fayzu barakotidan mahrum qoladi!

Ushbu kitob muallif tomonidan tadqiqot sifatida yozilmagan. U turli joylarda, turli vaqtlarda ma'ruza qilingan suhbatlardan tarkib topgan. Shuning uchun ham ba'zi o'rinlarda takroriy fikrlar uchraydi. Qolaversa, kitobxonlarga ilohiy amr va farmonni takrorlab, uqtirib turish foydadan xoli emas.

Alloh barchamizni ro'za ibodatini mukammal va ixlos bilan ado etadigan taqvodor va solih bandalaridan aylasin. Omin! Valhamdu lillahi rabbil olamin.

**Sayfiddin Sayfulloh,**  
*Filologiya fanlari nomzodi, Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofotining sohibi*

## ASSALOM, MOHI MUBORAK!

Assalom, ey mohi oliy qadru qiymat, assalom,  
Assalom, ey manbai judu<sup>2</sup> karomat, assalom,  
Assalom, ey boisi xayru saxovat, assalom,  
Assalom, ey mohi pur lutfu latofat, assalom,  
Bizni shod etting kelib, ey mohi bahjat<sup>3</sup>, assalom!

Intizor erduk yo'lingda, ey mahi rahmatnamo,  
Xush kelibsan, xoki poying diydam uzra to'tiyo,  
Sen erursan kulli ummatga merosi Mustafo,  
Hurmatingdin osiylarni mag'firat aylar Xudo,  
Sen kelib, olamni qilding g'arqi rahmat, assalom!

El ichinda garchi mahsan, martabang kundan ziyod,  
Kelganningda kull<sup>4</sup> maloiklar qilurlar xayrbod,  
Yilda bir olam eliga ko'b yetar sandin murod,  
Necha mufsidlar boshidin aylading daf'i fasod,  
Yer yuzin pok aylading, bo'lgil salomat, assalom!

Kelganningdin shukri lillah, shod bo'ldi xosu om,  
Masjid ichra bo'ldi mo'minlar hama sohib qiyom,  
Ham xuzu'u<sup>5</sup> ham xushu'u<sup>6</sup>, ham qilib xatmi kalom,  
Ne'mati bisyorni iysor<sup>7</sup> etarlar vaqti shom,  
Qaysi mahda bor muncha xayru barkat<sup>8</sup> assalom!

Ahmadi mursal ayog'in bo'sa qilg'on mohsan,  
Nav arusi shab, falakda sohibi xirgohsan,  
Odatulloh bu erurki, gah to'la, gah ko'tohsan,  
Ramzi «Van shaqqal qamar»ning<sup>9</sup> sirridin ogohsan,  
Tozadan har shab kiyib egnida xil'at, assalom!

Ro'zi avval qurbi pokingni azim etmish G'afur,  
Bobi do'zax bastadur<sup>10</sup>, ul kun ochiq bobu surur,  
G'arqi nurdur, balki fayzing birla amvoti qubur<sup>11</sup>,  
Kim sani izzat qilur, izzat topar yavmi nushur<sup>12</sup>,  
Bu masaldir: «Yaxshidin yetgay sharofat», assalom!

Ey, sanga behad erur ikromu fayzu xosiyat,  
Avvaling rahmat erur beshak, miyoning mag'firat,  
Oxiring ozodi do'zax, farzi avvaldur niyat,  
Qaysiga hosil o'libdi muncha qurbu makramat,  
Maqdaming ko'z uzra ey mohi saodat, assalom!

Bordur sakkiz eshik jannatga doim barqaror,  
Biridur Rayyonu yoqutdin shu'oi beshumor<sup>13</sup>,  
Kim hadis aydi bu darga Ahmadi Rafraf suvor,

Bul erur mahshar kuni maxsus bobi<sup>14</sup> ro'zador,  
Ey mahi xayriyati ro'zi qiyomat, assalom!

Ey bahaqqi hurmati mohi siyomi purfutuh<sup>15</sup>,  
Tavbamizni aylagil maqbul monandi Nasuh,  
Ey, xususan, jismdin bir kun judo bo'lg'anda ruh,  
Qilmag'il g'arqi g'azab ul kun misoli qavmi Nuh,  
Go'r ichinda aylagil lutfu inoyat, assalom!

Yo rasulalloh, erursan hashrda<sup>16</sup> sohib rivoj,  
Masnading<sup>17</sup> taxti shafolat, nurdin boshingda toj,  
Shiri<sup>18</sup> shafqat birla ummat dardiga qilsang iloj,  
Chashmi «Mozog' al-basar»ni<sup>19</sup> jonibi Muxlisga och,  
Qilmag'il rad, man desam, vaqti shafolat, assalom!

---

\*Muxlis Namangoniyni tug'ilgan yili va vafoti haqida aniq ma'lumot yo'q. Namanganda tavallud topgan, Buxoroda tahsil olgan. Amir Nasrulloh davrida Labi Hovuz devonbegi maydonida va'z aytgan. «Tuhfatul obidin» («Obidlar tuhfasini») muallifi Obid Namangoni Muxlis Namangoni xususida Qori Isomiddin Voizdan eshitganlarini shunday yozadi: «Nomini Mulla Muhammadyor debdir. Kichikroq bir devoni bor bo'lib, adabiy qoidalardan yiroq muxammaslari qasida shaklida xotima bo'lib ketadir. So'fiyona she'rlari ko'pdir. Buxoro shahrini ko'p madh etadir» (Po'lat Qayumov. «Tazkirai Qayumiy», 3-jild, 614-bet). Mazkur muxammas ham «Tuhfat ul-obidin» kitobidan olindi (Toshkent, 1915, 90-91 betlar).

<sup>2</sup> Jud – in'om, ehson, saxiylik.

<sup>3</sup> Bahjat – shodlik, xursandchilik, zavqu shavq.

<sup>4</sup> Kull – barcha, jumla.

<sup>5</sup> Xuzu' – kamtarlik, o'zini xor tutish.

<sup>6</sup> Xushu' – xokisorlik, o'zni past tutib yolvorish.

<sup>7</sup> Iysor – ehson, bag'ishlash.

<sup>8</sup> Barkat – barakat, baraka.

<sup>9</sup> «Van shaqqal qamar» - Muhammad alayhissalomning oyni ikkiga bo'lgan mo'jizalariga ishora (Qur'on, 84:1)

<sup>10</sup> Basta – yopiq.

<sup>11</sup> Amvoti qubur - qabrdagi o'liklar, qabr ahli.

<sup>12</sup> Yavmi nushur – tirilish kuni, qiyomat.

<sup>13</sup> Shu'oi beshumor – had-hisobsiz nurlar, shu'lalar.

<sup>14</sup> Bob – eshik.

<sup>15</sup> Mohi siyomi purfutuh – juda barakali, fayzli ro'za oyi.

<sup>16</sup> Hashr – to'planish, tirilish, barcha tiriladigan va to'planadigan joy.

<sup>17</sup> Masnad – suyanchiq, taxt, yuksak o'rin.

<sup>18</sup> Shir – sut.

<sup>19</sup> «Mozog' al-basar» – Me'roj kechasi faqat Haqning oyat va alomatlariga nazar solgan va o'ngga ham, so'lga ham og'magan Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning muborak ko'zlariga ishora (Qur'on, «Van-najm» surasi, 17–18-oyatlar).

## Ramazonning fazilati

**Alhamdu lilla'hi rabbil a'lami'n. Hamdan kasiran tayyiban muba'rakan fi'h. Kama' yanbag'i' lijala'li vajhihi' va liazimi sulta'nih. Vassala'tu vassala'mu ala' sayyidina' Muhammadin va ala' a'lihi va sahbihi va man tabiahu bi ihsa'nin ajma'i'n<sup>20</sup> .**

(Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beaded, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!)<sup>21</sup> .

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuhu aziz va muhtaram musulmon birodarlar!

Alloh taolo barchamizdan rozi bo'lsin... Bu go'zal, xayru barakatli, fayzu karamli oying rahmatidan, ne'matlaridan, o'zining sevikli bandalariga taqdim etgan ikromlaridan bizning ham bahramand bo'lishimizni Parvardigor hammamizga nasibu muyassar aylasin!

Aziz va muhtaram qardoshlar! Yaxshi bilasiz Salmoni Forsiy roziyallohu anhu Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning eng sevgan sahobalaridan edilar. Hazrat Rasul alayhis-salom u muborak zot haqida: «Salmon bizdandir, ahli baytimizdandir», – deganlar. Salmoni Forsiy roziyallohu anhu shunday rivoyat qiladilar:

Ya'ni, «Sha'bonning oxirgi kunida Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bizga shunday xutba o'qidilar: «Ey insonlar! Ulug' va muborak bir oying soyasi ustingizga tushdi. (Chunki bu kun sha'bonning oxirgi kuni, hali ramazon oyi kirmaganligi uchun shunday dedilar). «Shunday bir oyki, unda ming oydan afzal bir kecha bor...»

---

<sup>20</sup> Yonida apostrof belgisi (') qo'yilgan mad harflari (cho'ziq unillar) qoidasiga muvofiq cho'zib o'qiladi.

<sup>21</sup> Keyingi maqolalarda keltirilgan hamd, sano va salavotlar faqat tarjimada beriladi (Tarjimon).

Ming oydan yaxshi bo'lgan bu kecha – qadr kechasidir. Qadr kechasi ramazon oyida mavjud bo'lib, qaysi kundaligi yashirilgan, sir tutilgan. Sevimli Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Ramazonning oxirgi o'n kunidagi toq kunlardan izlang», – deb aytgan bo'lsalar-da, aniq qaysi kunligi maxsus ma'lum qilinmagan. Ba'zan ramazonning boshlanishi biror kunga siljib qolishi mumkin. Shuning uchun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam muborak qadr kechasini topib, undan foydalanish uchun, ramazonning oxirgi o'n kunini uylariga bormasdan, masjidida toat-ibodat bilan e'tikofda o'tkazardilar. Aziz payg'ambarimizning bu sunnatlariga jiddiy ravishda amal qilishimiz lozim.

Aziz va muhtaram birodarlarim! Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Allohning rasuli, habibi – eng yaxshi ko'rgan bandasi, sayyidul avvalin val oxirin, ya'ni o'tgan va keladigan barcha insonlarning eng ulug'i va mukammali, sarvari anbiyo – Payg'ambarlarning eng yuksak martabalisi, maqomi Mahmudning sohibi... Har holati, butun umri, har soniyasi go'zal... Xulq-atvori, har so'zi va har holi go'zal bir insondir. Shunday bo'lsa-da, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Uch oylar kelishi bilan ibodatga yanada ko'proq berildilar. Har lahzalarining o'zi ibodat bo'lishiga qaramay, yanada go'zalroq ibodat qilishga kirishib ketardilar. Albatta, bu bizlar uchun bir ibratdir...

Rajab oyi kelishi bilan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam boshqa oylarga qaraganda yanada ko'proq ro'za tutardilar. Ramazondan ikki oy oldin keladigan rajab oyida rag'oib kechasi mavjud bo'lib, bu kechadan musulmonlar muborak bir oy kelganligini bilib, farqlab olar edilar. Bu kechada inson Allohning buyuk ne'mat va ikromlariga erishadi... Rajabning yigirma yettinchisida Xotamul anbiyo payg'ambarimiz me'rojga chiqqanlar<sup>22</sup>. Boshqa hech bir basharga nasib bo'lmagan eng ulug' ne'mat – Alloh taoloning Oliy dargohiga chiqish va Alloh taoloni ko'rish ne'mati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga me'roj oyida nasib etgan<sup>23</sup>.

---

<sup>22</sup> Bu borada boshqa xil qarashlar ham mavjud.

<sup>23</sup> Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ummatlariga: «Alloh diydorini o'lgandan keyin ko'rasizlar»,- deb bashorat berganlar. Bu hadis butun insoniyatga tegishli bo'lsa ham aksar ulamolarimiz Hazrat Payg'ambarimizning Me'roj kechasida Alloh diydorini hadsiz va kayfiyatsiz holda ko'rganliklari haqida ittifoq qilganlar. Ba'zilar Rasululloh Xudoni qalb ko'zi bilan ko'rgan deyishsa, ayrimlari ko'z bilan ko'rganliklarini aytishgan. Ayrim toifa olimlarning yozishlaricha, ham qalb ko'zi bilan, ham ko'z bilan ko'rishga muvaffaq

bo'lganlar, ya'ni butun vujudlari ko'zga aylangan edi...

"...Va ham rivoyat qilar Oishai Siddiqa raziyallohu anhodinki aydilar: «Man za'ama anna Muhammadan alayhissalotu vassalamu rao rabbahu biayni ra'sihi faqad a'zamal fir'yata». Ya'ni, har kimarsa za'm bila (tasdiqlab) aytsaki, albatta, onhazrat alayhissalotu vassalom Parvardigorini bosh ko'zlari ila ko'rgondurlar. Bas, ul kimsa ulug' yalg'onni paydo etibdur. Ko'z ila ko'rmadilar, balki muborak badanlarini farqi saridin to qadamlarig'acha har zarrasi ko'z bo'lg'on erdilar. Hamai a'zolari ila mushohada qildilar. (Qarang: Shayx Akbarobodiy. «Nodirul Me'roji turkiy». Toshkent: «Aziya» nashriyoti. 1329 hijriy-qamariy, 289- 292 betlar)

Alisher Navoiy «Lison ut-tayr»da Rasuli akramning «Mahbubi haqiqiy vaslig'a» yetganligini quyidagi baytlar orqali ta'riflagan:

*Ham ko'rub jonon jamolin ko'z bila,*

*Vaslidin ham bahra topib so'z bila,*

*Aylabon idrok to'qson ming kalom,*

*Lek asnosida yuz ming ehtirom.*

*Osi(y) ummatning gunohin istabon,*

*Borcha ahvolin tabohin istabon.*

*Har ne istab Hayyi Mutlaqdin topib,*

*Haq tilab, Haqdin tilab, Haqdin topib.*

(Alisher Navoiy. «Lison ut-tayr». Toshkent, 1991, 26-bet) (Tarjimon izohi).

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam rajabdan keyingi sha'bon oyida ham ibodatlarini, ro'zani davom ettirar edilar.

Sha'bonning o'rtasida baroat kechasi bor. Bizlar u kechani ham o'tkazdik va mana ramazonga ham yetdik.

Salmoni Forsiy roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisi sharifni sharhlashda davom etaman:

Dastlab, bu oying barakotli, fayzli, muazzam bir oy ekanligini muborak so'zlari bilan bayon qildilar. Bizga eng birinchi aytganlari, bu – ichida ming oydan ham afzalroq bir kechasi bor bo'lgan oy, deganlaridir... Qadr kechasi Ramazonning ichida bo'lgani uchun ham bu oying hamma kechalarini qadr kechasi deb bilishimiz kerak. Zotan, buyuklarimiz: «Har kechani qadr bil, har kishini Xizr bil!» – deb bejiz aytmaganlar. Faqir ekan, qiyofasi g'arib ekan, kambag'al ekan, soch-soqoli o'sgan ekan deya, qarshingdagi insonni xor ko'rma, balki u Xizr bo'lishi mumkin. Kechalarni g'aflatda o'tkazma, balki u qadr kechasidir. Demak, bobokalonlarimiz har kechani qadr kechasi bilib, uni savobli ishlar bilan o'tkazishni, Ramazonda axloqimizni tuzatib, zikru ibodatlar qilishni va ko'p savoblarga noil bo'lishni tavsiya qilganlar.

Alloh taolo: «Menga bandalarim duo qilsalar, duolarini ijobat etaman, ixlos bilan so'raganlarini beraman», – deb va'da bergan. Shuning uchun ham bu muborak oyda qalbdan, ich-ichdan, astoydil dunyo va oxirat saodatini so'rab duo qilishimiz kerak. Inshoalloh, duolarimiz ijobat bo'ladi.

Hadisi shariflardan ma'lumki, bir kishi shahidlikni orzu qilib: «Yo Alloh! Sening yo'lingda shahid bo'lmoqchiman, Sen uchun jonimni berishga tayyorman!» – deydi. Ya'ni, vatani, dini uchun jonini berishni xohlaydi, ammo urush yo'q, balki shahid bo'lmas, balki issiq yotog'ida, to'shagida o'lar... Qaysi holda bo'lishidan qat'iy nazar, «jonu dildan shahid bo'lishlikni xohlagan biror kishi issiq yotog'ida, qulay bir shaklda o'lsa ham, Alloh taolo uni shahidlik martabasiga yetkazadi», – deb Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida marhamat qilganlar. Demak, niyat – hammasidan ham eng ahamiyatlisi ekan...

Yana bir narsani aytib o'tish kerak. Yaxshi bilasizlar, qurbon bayramida qurbonlik so'yiladi, hammamiz so'yamiz. Boy-badavlat kishilar avvaldan semiz qo'chqorni tanlab, qurbonlik qilishga harakat qiladilar. Alloh dargohida qabul etsin... «Ushbu oy kelishi bilan qurbonlik so'yamiz, inshoalloh!» – deb oldindan niyat qilamiz. Yaxshi narsalarga oldindan niyat qilish doimiy odatimiz bo'lib qolsin. Qurbon bayramida hamma qurbonlik

so'yadi, chunki bu vojib amal. Ammo ramazon bayramida qurbonlik so'yishning ham savobi, hikmati bor. Bu oyda qurbonlik so'yganga yetti yuz savob beriladi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam yetti yuz savobga ega bo'lgan to'rt narsani sanab o'tganlar:

1. Insonning Alloh yo'lida haj, jihod, umra kabi amallar uchun xarajat qilishi;
2. Ota-onaning yeyishi, kiyishi, yo'l xarajatlari uchun xarajat qilish;
3. O'z oilasiga qilgan xarajatlari. Shubhasiz, Islom oila muhabbatiga yuksak ahamiyat beradi. Inson bola-chaqam yesin-ichsin deb, to'rva-xaltasini to'ldirib, uyiga olib boradi. Bolalarining qorni to'yadi. Hamsoyasining olmasiga qo'l urmaydi, birovning qo'lidagiga ko'z olaytirmaydi. Uyda hamma narsa bor, ko'zlari to'q bo'ladi. Uyga qilgan xarajatlar uchun yetti yuz savob berilishining hikmati ham shunda.

Ramazon bayramida qurbonlik so'yish. Nega endi ramazon bayramida? Chunki, ramazon bir bayram. Qurbonlik so'ydingizmi, uyga fayz-barakot yog'iladi, mehr-muhabbat yanada ortadi. Mehmon-musofirlarning hurmatini joyiga qo'yish yanada osonroq bo'ladi. «Marhamat, o'tiring, ovqat yeng!» – deb iltifot ko'rsatiladi.

Bu suhbatimizda asosan ikki narsani eslatdik: birinchisi, Payg'ambarimizning hadisi shariflariga ahamiyat berib, qadr kechasini topishga harakat qiling. Ikkinchisi, Alloh sizga boyluk bergan bo'lsa, ramazonda qurbonlik so'ying, yetti yuz savobdan bahramand bo'ling!

Davom etamiz:

**«Alloh taolo ramazon oyida kunduzlari ro'za tutishni farz qildi. Kechalari turib namoz o'qishni tatavvu' qildi».** Tatavvu' – farz bo'lmagan holda bajariladigan ixtiyoriy go'zal nafl amallardir. Biz kunduzlari ro'za tutamiz, ammo kechasi o'qiladigan tatavvu' namozni o'qiyapmizmi? O'qiyapmiz, o'qidik, shu kungacha o'qib keldik... Xo'p, biz yana nima qildik? Xufton namozidan keyin tarovih namozini ado etdik. Bu – o'sha kechening tatavvu' qilingan namozi. U boshqa vaqtlarda o'qilmaydi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning sunnati bo'lganligi uchun ham ishq bilan o'qiyamiz.

Alhamdu lilloh, biz «Yangi jome» masjidi ichidan joy topolmadik, sunnatni tashqarida – hovlida o'qidik va keyin ichkariga kirdik. Insonlarga masjidlar sahnining yetishmasligi, jamoatning ko'chalarga qadar to'lib-toshishi bu islomning barakatini ko'rsatadi. Xudoga shukur, bu, yoshlarning islomiy go'zallikni tushunganligi va uning hayotiyliigi uchun sevib, o'zlashtirganidan dalolat beradi. Minnatdorchilik bildirib, buning davomli bo'lishi va ziyodalashuvini xohlaymiz.

Yuqoridagi hadisi sharifda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Agar bir kishi ramazon oyida Allohga yaqinligini mustahkamlamoqchi bo'lib, biror ibodat yoki xayrli amalni bajarsa, go'yo ramazondan boshqa oyda bir farzni bajargandek bo'ladi. Va kimki, ramazonda bir farzni ado qilsa, go'yo ramazondan boshqa oyda yetmishta farzni ado qilgandek savobga ega bo'ladi», – deya marhamat qiladilar. Masalan, zakotni ramazonda berish kerak degan hech qanday majburiyat yo'q, ammo o'sha farz (zakot) ramazonda ado etilsa, ramazondan boshqa oyda ado etilgan yetmishta farz amalning savobiga teng bo'ladi.

Masalan, ramazon oyida umra ziyoratini ado etsa nima bo'ladi? Boshqa oyda borganga nisbatan ko'proq savobga erishadi. Aniqrog'i, ramazonda umra ibodatini ado etgan odam Haj qilgan bilan barobar bo'ladi. Bu haqda Payg'ambar alayhissalomning hadislar bor. Bu – ramazonning barakoti tufaylidir. Hadisi sharifdan tashqariga chiqmaganligim uchun ramazon bilan aloqador bo'lgan boshqa hadislar hali gapirganimcha yo'q. Ramazon oyida Alloh taolo jannatni, osmonni, yerni va ma'naviy olamni yaxshilab tayyorlab qo'yadi. Mo'minlarga jannat eshiklari ochiladi, jahannam eshiklari yopiladi. Samo bezatiladi. Bu oyda Alloh taolo Jabroil alayhissalomga amr qiladi: «Borib, shaytonlarning boshliqlarini zanjirband qilib dengizga uloqtir!» Hadisi sharifda ma'lumot berilishicha, bu oyda shaytonlarning oyoq-qo'llari bog'lanadi, kuch-quvvati ta'sirsizlantiriladi, insonlarni yo'ldan ozdirish faoliyatlari kamaytiriladi. Bu – biz insonlar uchun Alloh tarafidan berilgan juda ham yaxshi bir fursatdir.

Osmonning bezatilishi, jannatning ziynatlanishi, uning eshiklari ochilishi kabi xushxabarlar ramazonning nechog'li ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Qarang, agar bu oyda biror yaxshilik qilinsa, bir farz bajarilsa, boshqa oyda qilingandan yetmish barobar ortiq savobga erishilar ekan. Muhtaram birodarlar! Bu degani qo'lingdan kelguncha, imkon qadar xayrli ish qilishga harakat qil, degani... Xayrli ish qilish bilan insonning g'ayrati ortadi, ma'naviy kamoloti oshadi... Shunday emasmi?..

«Ramazon – sabr oyi». Alloh taolo ramazon oyida ba'zi halol narsalarni ta'qiqlagan: «(Ramazonda) suv ichmang, kunduzi ovqatlanmang va hokazo». Xo'p bo'ladi, deymizda, buyruqni bajaramiz. Tashna qolsak ham suv ichmaymiz. Hozir, qish kunida kun qisqa bo'lgani uchun ro'za tutish osonroq. Ammo yozda kunlar uzayadi. Buning ustiga o'rim-yig'im mavsumi, shunga qaramay, bobolarimiz suvsizlikdan og'izlari qurisa ham, lablari yorilib ketsa ham ro'za tutishni davom ettirganlar. Sabr qilganlar. Chunki bu – sabr oyidir.

Hammamizga ma'lumki, yer – sharsimon. Fasllar ham turlichadir. Masalan, bir oy oldin Avstraliyada edik. Bu yerda qish, Avstraliyada esa yoz... Bu yerda siz ro'zani qisqa tutasiz, chunki kunduzlari qisqa. Ammo Avstraliyadagi birodarlarimiz uzun tutardilar, chunki yoz kunlari uzun bo'ladi, dunyoning har bir yeri vaqt jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Demak, ramazonda ozmi-ko'pmi sabr imtihonini topshiramiz. Tongdan shomga qadar sabr qilsak qanday baxt!.. Sabr qilamiz: suv ichmaymiz, ovqat yemaymiz, ammo men bu yerda sabr deganda ko'proq jahl va g'azabdan tiyilishga urg'u bermoqchiman: bolalaringiz, xotiningiz, hamsoyangizga qizishmaysiz, yumshoq muomalada bo'lasiz, halim va salim bo'lasiz! Shuningdek, haromga qaramaysiz, tilingizni tiyasiz, ko'zingizni saqlaysiz! Bularning hammasi sabr bilan bog'liq ezgu ishlardir.

«Sabrning savobi, mukofoti – jannatdir». Inson sabr etish uchun qiynaladi, tishini-tishiga qo'yadi, ranj chekadi, ammo sabr qilganligi uchun jannatga sazovor bo'ladi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam o'zlarining bu so'zlari bilan sabr qilganlar jannatga erishajagidan xushxabar bermoqdalar.

Bu oy shahrul muvosodir. Ya'ni boshqalarga moddiy jihatdan yordamlashish, yedirish-ichirish oyidir. Ko'magimiz tufayli o'zgalar ham ne'matlar bilan ta'minlanadi.



«Bu oyda Alloh mo'minning rizqini ko'paytiradi». Haqiqatan ham xuddi shunday. Uyingizdagi umumiy ovqatlanish rejasi jadvalini chizib ko'ring. O'n bir oy ichidagi yeyish-ichish ozuqalari bilan ramazon oyi dasturxonigizdagi holatni taqqoslab ko'ring. Ramazon oyiga kelganda jadval darhol o'zgaradi. Nega bunday? Chunki, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytganlar: «Ramazon kelishi bilan mo'minning rizqi ortadi, dasturxon fayzu barakaga to'ladi».

Alloma ustozimiz Muhammad Zohid Qo'tqu hazratlari «Rizq – bu inson tomog'idan o'tgan luqmadir, kissasidagi narsa emas», – degan so'zni ko'p aytardilar. Ya'ni insonning tomog'idan o'tgani uning rizqi hisoblanadi.

O'zimiz guvoh bo'lib turibmizki, ramazonda mo'minlarning rizqi ortmoqda. Har xil oziq-ovqatlar, sharbatlar dasturxonni bezamoqda. Ularni sanab ulgurmaymiz. Chunki Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: «Mo'minning rizqi orttiriladi», – deb aytganlar.

Yuqoridagi hadisda ta'kidlanishicha, «Agar kishi bu oyda biror ro'zadorga iftorlik bersa, bu gunohlarining mag'firat qilinishiga sabab bo'ladi». Qarang, bu yerda masalaning boshqa tomoni ham bor ekan... Demak, dasturxonimizni, ko'nglimizni, dilimizni ochiq qilib, «Marhamat, biznikida iftorlik qiling», – deb saxovat ko'rsatishimiz kerak.

(Va itqa raqabatihi' minan-na'r). «Va u kishining bo'yni jahannamdan ozod qilingan bo'ladi. (Va ka'na lahu misli ajrihi'). «Va u kishiga, ya'ni iftorlik bergan kishiga, ro'zador qancha savobga ega bo'lgan bo'lsa, shuncha miqdorda ajr-savob beriladi» (min g'ayri an yanqusa min ajrihi' shay'un). «Ya'ni ro'zadorning savobidan hech bir narsa kamaytirilmasdan, xuddi o'shancha miqdordagi savob iftorlik bergan kishiga ham beriladi».

Bu ham juda ahamiyatli ish, unga jiddiy e'tibor berish lozim. Chunki, bir ro'zadorga iftorlik berish bilan siz ham uning topgan savobiga teng sherik bo'lib, savob topasiz.

Hadisi sharif davomida yana bir mujda kelmoqda:

Bilasizki, sahobai kiromlar juda og'ir ahvolda yashaganlar. Shu bois: «Ey, Rasululloh! Biz iftorlik beradigan, dasturxon bezatadigan holatda emasmiz! «Uyida yeydigan-ichadigan ortiqcha narsasi bo'lmagan kishilar nima qilishadi!», – deb so'raganlarida, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bunday deganlar:

«Bir kishi biror ro'zadorga bir dona xurmo yoki bir qultum suv yoxud ozgina sut bergan bo'lsa, Alloh u kishini savob bilan siylaydi». Ya'ni u kishi boy bo'lmasa ham ro'zadorga biror narsa berib, u qilgan amallar savobicha ajrga noil bo'ladi.

Shuning uchun boriga qanoat qilib, saxovat qo'llarini ochib iftorlik berishga shoshiling! Hattoki, agar kishi cho'ntagida bir dona xurmo olib yursa ham ko'p foyda qilishi mumkin. Yo'lda ketishda inson har xil sabablarga ko'ra iftorlikka yetolmasligi mumkin. Shu vaqtda u xurmoni in'om qiladi.

Biz kecha yo'lda edik. Izmirga kiraverishda iftor vaqti bo'lib qoldi. Men o'z oilamga qarab: «Qani og'iz ochishga biror narsa bo'lsa bering, savobga ega bo'ling!» – dedim. Ular orqadan ba'zi yeguliklar jo'natdilar. Hadisi sharifdagi va'daga ko'ra bu bilan ular

bizning savobimiz qadar savobga ega bo'ldilar.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ramazon oyining fazilatlarini madh etishda davom etmoqdalar: «Bu shunday oyki, uning boshi rahmatdir». Ya'ni, inson bu oyda Xudoning rahmatiga doxil bo'ladi. Inshoalloh, biz ushbu oyda Allohning rahmatiga sazovor bo'lib turibmiz, alhamdu lilloh...

(Va avsatuhu mag'firatun). Ramazonning «o'rtasida esa, qulning gunohlari mag'firat etiladi». Gunohkormiz, aybdormiz, yuzimiz qora, kechmishimiz qorong'u... Qusurimiz ko'p bo'lsa-da, ramazonning yarmiga yetganimizda tutgan ro'zalarimiz evaziga Alloh gunohlarimizni kechiradi.

(Va a'xiruhu itqun minan-na'r). «Ramazonning oxiri esa bu oyni ro'za tutib o'tkazgan qullari uchun jahannamdan ozod bo'lishdir». «Ey qulim, sen ro'za tutding, men esa seni afv qildim, mag'firat ayladim, jahannam azobidan ozodsan!» – deya marhamat qiladi Alloh taolo.

Alloh bizni ham jahannamdan ozod bo'lgan o'sha baxtiyor qullaridan qilsin!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday deydilar: «Kim quliga bu oyda yuklaydigan ishini ozgina yengillatsa, (qullarning ba'zilari musulmon bo'lardi) Alloh u qulning sohibini mag'firat etib, jahannamdan ozod qiladi».

Va yana, «Ramazon oyida to'rt ishni ko'p bajaring». Bu to'rt ishning ikkitasi bilan Rabbingizning roziligini topasiz, qolgan ikkitasi ham siz voz kecha olmaydigan, o'zingiz muhtoj bo'lgan va qo'lga kiritishingiz lozim bo'lgan ishlardir» – dedilar.

Bu ishlar nima ekan? Rabbingiz rozi bo'ladigan, Uni rozi qiladigan bu ikkita ishning birinchisi: «Ashhadu an la ilaha illalloh» – deyish. Bu juda ham muhim so'z! «Men shahodat beramanki, Alloh taoloning sherigi, naziri yo'q, faqat Alloh bor». Ikkinchisi esa istig'for aytishlik. Demak, ramazon oyida «Ashhadu alla' ila'ha illalloh» bilan «Astag'firulloh»ni ko'p aytamiz. «Astag'firulloh al-azi'm va atu'bu ilayh» deyishimiz ham mumkin.

Men avval ham maqolalarimda: «Ramazon – tasavvuf oyi», – deganman.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam tasavvufni qanday tushuntirayotganliklarini ko'rib turibmiz. Ramazonda ko'proq «La' ila'ha illalloh», «Astag'firulloh» – deysiz. Bu bilan «Rabbingizni rozi qilasiz», deb buyurmoqdalar. Qarang, Rabbimiz naqadar lutfkorki, biz «La' ila'ha illalloh» deymiz, u rozi bo'ladi, «Astag'firulloh», «Meni kechir, ey Rabbim!» – deymiz, Rabbimiz yana rozi bo'ladi. Naqadar go'zal dinimiz bor bizning, alhamdu lilloh.

Bu ikki kalimani mazmuniga yetib takrorlash so'fiylikning bosh talablaridandir. Allohning o'zidan panoh so'raladigan ikki narsa: «Allohdan jannatini istashingiz, jahannamdan Allohga sig'inishingizdir». Ha, demak: «Yo Rabbi! Bizni jannatingga doxil ayl! Ey Rabbi! Bizni jahannamdan saqlagin!» – deb aytamiz.

«At-targ'ib vat-tarhib» kitobida shunday hadis kelgan:

Ya'ni, «Kim bu oyda bir ro'zadorni serob qilsa, Alloh unga Kavsarimdan bir sharbat in'om qiladi, ichgan kishining chanqog'i bosiladiki, boshqa aslo tashna bo'lmaydi».

Bu bilan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ro'zadorni ikrom etgan kishini Alloh taolo ham havzi Kavardan ikrom etishining xabarini berdilar.

Bu hadisi sharif bizni hushyorlikka chaqirib, quyidagi amallarini bajarishga da'vat qiladi: qadr kechasini topishga harakat qilamiz. Buning uchun ramazonning oxirgi o'n kunida e'tikofga kiramiz. Ramazon bayramida, agar boyligimiz yetsa, birorta qurbonlik so'yamiz. Bu oyning sabr oyi ekanligi uchun sabr qilamiz va sabrning muqobili jannat ekanligini mushohada etamiz. Bu oyda bajarilgan biror xayrli amal, boshqa oyda qilingan yetmish xayrga tengligini unutmaymiz va savobli ishlarni qilishga shoshilamiz.

Bu oyda rizq ko'payadi. Shuning uchun «alhamdu lilloh», deymiz. Bu oy moddiy jihatdan faqirlarni qo'llash oyi bo'lganligidan, ularga moddiy yordam beramiz. Xoh pul bilan, xoh kiyadigan yoki yegulik narsalar ikrom qilish orqali yordamlashamiz. Hamma bayramni nishonlaydi, ramazon oyi mobaynida bir yaxshilab dam olamiz.

Ro'zadorlarning bir-birini iftor qilishi ulug' savobdir. Kimki, ro'zadorga iftorlik bersa gunohlari mag'firat qilinadi, jahannamdan ozod bo'ladi va iftorlik bergan kishi o'sha ro'zadorning savobidek ajr oladi. Buning uchun nima qilamiz? Oqshomlari dasturxonimizni yozamiz – musofirlarni, ro'zadorlarni iftorlik ziyofatiga taklif qilamiz. Agar bunga imkonimiz bo'lmasa, bir qultum suv, bir dona xurmo yoki biroz sog'ilgan sut ikrom qilinsa, u ro'zani ochishga sabab bo'lsa, shu bilan ham xuddi o'sha savobni olish mumkin.

Bu oyda «La ila'ha illalloh»ni, «Astag'firulloh»ni ko'p takrorlaymiz, Allohdan jannatni istaymiz va jahannamdan Allohga sig'inamiz. Allohga ko'proq yolvorib so'raymiz: «Bizni afv et... bizni jahannamga tashlama, ey Alloh! Bizni jahannamdan ozod qil!» – deymiz.

Alloh taolo bizni Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bu hadisi shariflarda xabar bergan barcha yaxshiliklarga muvaffaq aylasin! Qanchadan-qancha muborak ramazon oylariga Allohning suyukli qullaridek yetishishni, Alloh yaxshi ko'rgan shaklda bu oylarni ihyo etib, yashab, ibodat bilan bezab, bu oylarning fayzu barakatidan, savoblaridan, ilohiy ne'matlaridan foydalanishni Alloh hammamizga nasib etsin...

Umrimizni Alloh rizoligi ichida kechirib, sevgan qullaridek bo'lib, qalbimiz nurlanib, ichimiz ishqulloh-muhabbatullohga to'lib, umrimizni Allohning rizoligida o'tkazishimizni Alloh o'zi barchamizga nasib etsin.

Bu dunyodan husnu xotima ila vidolashib oxiratga borishni, huzuriga o'zi sevgan, rozi bo'lgan, yuzi yorug' va nurli qullardek borishimizni nasib aylasin. Rabbimiz jannati bilan, jamoli bilan barchamizni musharraf aylasin. Sharafli Payg'ambarimiz Muhammad Mustafoga qo'shni qilsin! Uning havzi Kavardan to'yib-to'yib ichishimizni Rabbimiz barchamizga nasib etsin!..

Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakatuh!

*2 fevral 1995 / 2 Ramazon 1415*

## TAQVO AHLI BO'LING

A'uzu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beadam, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin. Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!

Alloh taolo Qur'oni karimda buyuradi:

**«Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqinglar va (har bir) jon erta (Qiyomat kuni) uchun nimani (ya'ni qanday ezgu amalni) taqdim etganiga qarasin. Allohdan qo'rqinglar! Albatta Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardordir».**

Kishi ertaga, oxirat uchun nima taqdim etganiga, oxirat uchun nima yuborganiga hozirdan qarasin, diqqatli bo'lsin! Oxirat uchun nima ishlar yuborayotganini kuzatsin, nazorat qilsin!.. Diqqat qilsin... (Vattaqulloh) Allohdan qo'rqing! (Innalloha xabirun bima ta'malu'n). Alloh jalla jaloluhu siz qilayotgan hamma amallaringizdan xabardor, hammasini ko'rmoqda, eshitmoqda, bilmoqda».

Darhaqiqat, inson oxirat uchun nima hozirlamoqda? Dunyoda qilgan barcha yaxshi va yomon amallari oxiratdagi hayotini belgilaydi. Iftorlik bergan bo'lsa, sadaqa, zakot bergan, masjid qurgan, ro'za tutgan, namoz o'qigan, umraga borgan, haj qilgan, jihod qilgan, g'ayrat qilgan, ibodat qilgan bo'lsa, bularning savobi qaerga ketadi? Oxiratga ketadi. Inson dunyodalik vaqtidayoq qilgan amallarini oxiratga yuboradi. Aksincha, gunoh ishlar qilgan bo'lsa, aroq ichgan, qimor o'ynagan, zulm, haqsizlik, zino, nomussizlik qilgan bo'lsa, xullas, Alloh sevmaydigan nimaiki ishlarni qilgan bo'lsa, ular ham hammasi oxiratga ketadi.

Shuning uchun ham Alloh taolo: «Inson bu dunyoda qilgan zarra qadar yaxshiligining mukofotini oxiratda oladi; zarra qadar qilgan yomonligi ham hisobga tortiladi, oxiratda jazosini oladi. Oxiratga nima bilan borayotganiga inson farzandi bu dunyoda e'tibor bersin!» – demoqda. Bu bilan nima demoqchi? «Ey qullarim, ogoh bo'ling! Oxiratga yaxshi narsalarni yuboring! Oxiratda yuzingizni kuldiradigan, Alloh taolo devonida sizga qalqon bo'ladigan, sizni ne'matlarga erishtiruvchi amallarni yuboring! Yaxshi amallar qiling!» – deya buyurmoqda.

Allohdan qo'rqinglar, Alloh qilayotgan ishlarimizdan xabardor! Batahqiq xabardor, o'z haqqi bilan xabardor! Bunda nima demoqchi: «Alloh barcha qilayotgan amallaringizni bilib turadi. Unga zid bir ishni qilmang!» – yashirin qilsangiz ham, aslida yashirin ham qilolmaysiz. Tanho qilsangiz ham aslida tanholikda ham hech narsa qila olmaysiz. Chunki:

**«Sizlar qaerda bo'lsangizlar U sizlar bilan birgadir!»** Ham Alloh yoningizda, ham Allohning maloiikalari yoningizda... Ikki yelkangizdadir...

**«...yozib turguvchi ulug' (farishta)lar bordir. Ular sizlar qilayotgan ishlarni**

## **bilurlar».**

Bu farishtalar bajaradigan ishlaringizni yozib turadilar. Insonning shunday bir amal daftari borki, unga farishtalar insonning yaxshilik va yomonliklarini yozadilar. Insonning yonidan ayrilmaydigan, a'zolariga, butun vujudiga vazifador farishtalar bor. Uni yomonliklardan saqlaydigan, amallarini yozadigan farishtalar bor... Yerga, osmonga, bulutlarga, yomg'irga, shamolga, quyoshga hukm qiluvchi farishtalar bor... Demak, insonning atrofi farishtalarga to'la ekan. Bo'sh joyning o'zi yo'q! Inson yolg'izman deb o'ylab, tanholikda qilgan ishlarini atrofda mavjudotlar ko'rib turadi. Ularning hammasini esa Alloh ko'rib-kuzatib turibdi. Shuning uchun inson, uni Alloh ko'rib turganligini bilib, oxiratga nima yuborayotganligini idrok aylab, diqqat-la harakat qilish kerak.

Shu bois Alloh taolo:

**«Allohdan qo'rqinglar»** – demoqda.

Yana boshqa bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

**«Ey mo'minlar, Allohdan haq-rost qo'rqish bilan qo'rqinglar va faqatgina musulmon bo'lgan hollaringda dunyodan o'tinglar!»**

Hazrati Ali: «Ey Rabbim! Sen men xohlaganimdek Parvardigorsan, senga hamd bo'lsin! Meni ham O'zing xohlaganing kabi qul qilgin», – deb aytganlar. Alloh xohlaganday qul bo'lish qanday bo'ladi? Bunday qul taqvo ahli bo'lishi kerak... Taqvodor qul bo'lgandan keyin Alloh xohlaganidek qul bo'ladi. Bunday zotlarni atrofimizda uchratishimiz mumkin. Hech kimni ranjitmaydi, qo'lida tasbeh, tilida zikru duo, fe'li go'zal, zarif, shirin so'z, yaxshilikni sevadigan, farishtadek... Bunday insonlar haqida so'z ketganda: «Bu odam taqvodordir» – deymiz. Xo'sh, taqvo nima degani o'zi?

Taqvo, bu arabchada saqlanmoq, qo'rqmoq degan ma'noni bildiradi. Arabchadagi buning asosi «voqaya»dir. Voqaya qilish – degani bu biror narsadan asranmoq, saqlanmoq degani. Taqvo bu – insonning o'zini harom ishlardan saqlashi va qo'riqlashi. Nimadan asraydi? O'zini Allohning g'azabidan asraydi. Chunki Alloh taolo – kuch-qudrat sohibi. U oxiratda insonlarning qilgan amallariga yarasha javobini beradi.

Din so'zi bu yerda, javob-badal ma'nosida kelmoqda. «Alloh insonga amalining mukofotini, javobini beradigan kun sohibi». Kim nima ish qilgan bo'lsa, javobini u kunda ko'radi. Badalini ko'rish, qilgan ishiga evazini topadigan kun...

U kunning egasi bo'lganligi uchun Alloh yaxshilarni mukofotlab, yomonlarni jazolaguvchi zot hisoblanadi. Biz nima qilishimiz lozim? Allohning azobidan saqlanishimiz lozim!.. Chunki Alloh yomonlarni jahannamda azoblab, yoqadi. Ko'zlar ko'rmagan, aqllar bovar qilmagan qo'rqinchli azobga giriftor qiladi. Shuning uchun ham Uning azobidan saqlanish kerak.

Hozir ramazon oyidamiz, suhbatimiz ham ramazon haqida. Alloh taolo farz qilgani uchun ramazon oyi ro'zasini tutamiz. Qaysi oyati karima bilan Alloh ro'zani bizga farz qildi?

**«Ey mo'minlar! Taqvoli kishilar bo'lishingiz uchun sizlardan ilgari o'tganlarga farz qilingani kabi sizlarga ham sanoqli kunlarda ro'za tutish farz qilindi».**

Ey imon keltirgan – ya'ni bizlarga xitob kelmoqda – Allohga ishondik, Rasulullohga ishondik, Qur'onga ishondik degan, «amantu»ni (imolni mufassal) aytgan, ey musulmon qullar! (Kutiba alaykumus siyamu). Ro'za sizlarning zimmangizga farz qilindi. (Kama kutiba alallaziyna min qoblikum). Sizdan oldingilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro'za farz qilindi (la'allakum tattaqun). Shoyad taqvo ahli – yaxshi bir musulmon bo'lsangiz».

Bu oyati karimadan ro'za tutishga qudrati yetgan har bir mo''minga ro'za tutish farz ekanligini bilib olamiz. Farzligini tushunyapmiz: chunki (kutiba) «Bo'yningizga yozildi» – demoqda. Bu bir...

Ikkinchisi: «Sizdan oldingi ummatlarga yozilgani kabi, sizga ham yozildi» – deb buyurmoqda. Ma'lum bo'ladiki, ro'za tutish bu faqatgina bizga farz bo'lmagan, bizdan oldingi ummatlarga ham amr qilingan ekan.

Uchinchidan: «Toki taqvo ahli – yaxshi bir musulmon bo'lsangiz». Demak, ro'za tutgan odam taqvoga erishishi lozim! Taqvo ahlidan bo'lgan yaxshi bir musulmon bo'lish kerak!..

Alloh ta'olo yuqoridagi oyati karimalarida bizni taqvo ahli bo'lishga chaqirib «Taqvo ahli bo'ling!» deb, uning yo'li qanday bo'lishini ham ko'rsatib qo'yibdi. Ha, taqvodor bir qul bo'lamiz, yomon ishlardan saqlanamiz, odobli, tarbiyali, muborak, komil bir musulmon bo'lamiz, ammo bunga qanday qilib erishish mumkin?

Uning yo'li va chorasi ro'za tutmoq. «Oldingi ummatlarga farz qilinganidek, sizga ham farz qilindi, toki siz ham taqvo ahlidek taqvodor inson bo'lsangiz». Demak, asl musulmon bo'lishning, Alloh taolo sevgan bir taqvodor mo''min bo'lishning yo'li ro'za tutmoqdir. Bu oyati karima, taqvo sifatiga erishmog'imiz uchun, bizga ro'za yordamchi bo'la olishini ochiq ko'rsatib turibdi.

Aziz va muhtaram birodarlarim! O'zingiz yaxshi bilasiz, inson farzandining bir tanasi bor... Tanamizda esa, ikki qo'limiz, ikki oyog'imiz, boshimiz, ko'zimiz, qulog'imiz bor. Bundan tashqari, ruhimiz ya'ni jonimiz ham bor... Ruh tirikligida bu qosh, bu ko'z, ya'ni bu badanning qiymati bo'ladi, ammo ruh jasadni tark etishi bilan badan hech narsaga yaramay qoladi. Bir oz avval gaplashayotgan bir odam vafot etsa, ruhi chiqib ketsa, endi gapirmaydi, qimirlayotgan bo'lsa, endi qimirlamay qoladi. Ruh ketishi bilan bu jasadning qiymati qolmaydi.

Oyati karimalardan yana shuni bilamizki, inson farzandining nafs degan bir borlig'i bor. Bu nafsning vazifalari nimalardan iborat?

Inson nafs vujud bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun yaratilgan... Ya'ni, badanning jilovidan tortib turish, uni boshqarish uchun yaratilgan. Demak, u badanning rahbari. Nafs nima ish qiladi?.. Masalan, och qolgan vaqtda: «Bor, tez ovqat yegin! Ochlikdan darmonim qolmadi. Oyoqlarim tolib ketdi, ko'zlarim suzilib ketdi. Tez bir narsa yegin!» – deya ovqat talab qiladi. Agar suvsab qolsa: «Og'izlarim quridi, lablarim qaqrab ketdi, ozgina suv top, to'yib-to'yib, mazza qilib ichay!» – deb suvga bo'lgan ehtiyojini bildiradi.

Agar vujudni ko'proq ishlatib qo'ysa: «Uh, ko'p charchadim. Agar shunday ketaversa, ehtiyoj ortib boradi, vujud esa kasalga chalinadi. Biroz dam ol!.. Uxlash kerak!» - deb vujudagi ehtiyojlarni talab qiladi.

Nafsning istaklarini **shahavoti nafsoniya** deb aytamiz. Shahavot - xohishlar, orzular degani. Nafs ichkaridan xohishlar hosil qiladi va aytadi: «Voy, och qoldim, voy, suvsadim! Voy, dam olishni xohlayman, uxlamochiman!..» va hokazo shunga o'xshash orzular.

To'g'ri, bu istaklar tabiiy ehtiyojdir. Parvardigorimiz hech bir narsani o'rinsiz yaratmagan. Parvardigorimiz bularning vujudda bo'lishini xohlab yaratgan ekan, hikmatdan xoli emas, albatta, bir ma'noga ega... Rabbimizning hikmatsiz biror ishi yo'q.

Inson o'z-o'zini nazorat qilmog'i lozim! Inson vujudining nazoratchisi bu - nafs. Insonga vujudining ehtiyojini bildirish jihatidan u lozimdir. Ammo bu nafsni o'z holiga tashlab qo'yilsa, haddidan oshib ketadi. Ya'ni shahavoti nafsoniya - nafs orzularining chegarasi bo'lmaydi, davom etib ketaveradi. Chegaradan chiqib ketganidan keyin insonni gunohlarga boshlaydi. Masalan, o'g'irlik qildiradi, birovning nomusiga ko'z olaytiradi, tanballikka da'vat etadi, ko'p uxlashga giriftor qiladi, boshqalar ishlasin, men tekinga yashayman, deb vasvasaga soladi va shunga o'xshash boshqa gunoh ishlarga chorlaydi.

Nafsning ushbu holatiga **nafsi ammora** deb ataladi. U shunday nafski, insonlarni yomonlikka amr qiladi... Inson nafsi tarbiyalanmadimi, u albatta, razolatga boshlaydi, jaholatga buyuradi. Yusuf surasida:

**«Chunki nafs – agar Parvardigorimning O'zi rahm qilmasa – albatta barcha yomonliklarga buyurguvchidir»**, degan oyat bor.

Nafsning haddan oshib ketayotgan orzularini to'xtatish lozim! Kim to'xtatadi? Bolani otasi to'xtatadi: «Futbol o'ynama! Kinoga borma! O'tir, darsingni qil! Tur, uxlama!.. Uy vazifasini bajar, keyin tashqariga chiqib o'yna!» va shunga o'xshash. Kimdir uni boshqarib turadi.

Xo'p, bola ulg'ayib kuchli-quvvatli yigit bo'ldi, o'z-o'ziga buyruq beradigan bo'lib qolgan bo'lsa, uni kim idora etadi?.. U insonning nafsini kim boshqaradi, tarbiya qiladi? Insonning nafs tarbiyaga muhtoj! Agar nafs tarbiya qilinsa, inson najot topadi. Qaysi dalilga ko'ra, qaysi hujjatga ko'ra qutuladi? Alloh taolo bunga javoban Qur'oni karimda shunday buyuradi:

**«Darhaqiqat uni (ya'ni o'z nafsini – jonini imon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topdi. Va u (jonni fisq-fujur bilan) ko'mib xorlagan kimsa nomurod bo'ldi»**. Nafsini tarbiyalab poklagan, isloh qilgan qutuladi. «Nafsini tarbiya qilmagan, ezgulikdan mahrum qoladi, zalolatga ketadi, pushaymon yeydi, dunyoyu oxirati kuyadi». Shu uchun ham nafs tarbiyasi, bu mo'min kishi ahamiyat beradigan eng muhim ishdir. Chunki, tasavvuf bu - tarbiyalangan nafs ustiga qurilgan bino. Insonning nafs tarbiyalangan bo'lishi lozim!.. Boshliqning, xo'jayinning, xotinning, erkakning, har bir kishining nafs tarbiyalanishi lozim!.. **Nafsi tarbiyalangan odam komil inson bo'ladi**. Yusuf Hamadoniy, Abdulqodir G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Ashraf o'g'li Rumiy, Ibrohim Haqqi Arzirimiy, Bahovaddin Naqshband,

Ibrohim Adham kabi nafsini tarbiyalagan komil insonlar bo'lishgan. Hammalaridan Alloh rozi bo'lsin! Bularning barchasi tarixda nomi qolgan sevimli buyuk insonlardir.

Shurayh hazratlari o'zlari qozi ekanlar. Bir kuni mahkamaga ikki kishi kirib kelibdi. Biri - musulmon, ikkinchisi - nasroniy edi. Shunda u kishining yuragi bir jiz etdi va «Inshoalloh, musulmon haqlidir» – dedilar. Ko'ngillari tarafkashlik qildi. Qarang, da'volarini aytish uchun da'vogarlar qozining huzuriga keldilar. Qozining ko'ngli esa musulmon kishiga mayl etdi. Musulmonni sevdi, chunki u dindoshi, yo'ldoshi, hamzikri edi.

Kelganlarning arzini eshitgach, baxtga qarshi, musulmon haqsiz, nasroniy haq bo'lib chiqdi.

Qozi Shurayh da'voni bitirdilar, ammo umrlarining oxirigacha iztirobda yashadilar: «Nega qalbim mendan adolat so'rab kelgan ikki kishining birinchisiga oldinroq mayl etdi?» - deb o'zlarini ayblab yurdilar. Qarang, insonning nafs tarbiyalangandan keyin o'z-o'zini qanday jiddiy nazorat qiladi.

Demak, nafs tarbiyalanishi kerak! Nafsni tarbiya qilishning yo'llaridan biri bu – ro'za tutish. Shuning uchun ham Alloh taolo bir oz emas, balki bir oy davomida musulmonga mashq qildiradi, ko'nikma hosil qildiradi. Alloh taolo bir oy nafs orzularini to'xtatish va jilovlash mashqlarini bajartiradi.

Bizning nafsimiz nimani xohlaydi?.. Yeyish, ichish, uylanish, o'ynash kabi narsalarni xohlaydi. Ammo Ramazonda Alloh taolo nima demoqda: «Tongdan to shom namozigacha ovqat yemaysizlar!»

«Bu ovqatlarni yeyish harommi?» – Yo'q, halol.

«Ovqat halol bo'lsa ham shu vaqtdan shu vaqtgacha tanovul qilmaysan qulim!» - deb aytmoqda.

«Suv ham ichmaysiz!..»

«Suv harommi?..»

«Suv harom emas, ichkilik emas u, ammo shu vaqtdan shu vaqtgacha suv ichmaysizlar!» – deb buyurgan.

Bu ikki narsa bizga juda ham lozim! Suv ham, ovqat ham juda lozim! Bu ikki zaruriy moddani Alloh taolo oldimizga surib, «Bu narsalarni yemaysiz!» - deb amr qilmoqda.

Nima qilamiz endi? Juda ham xohlab turibmiz. Qishni emas, yozni tasavvur qiling! Uzun, mashaqqatli yoz kunini ko'z oldingizga keltiring. Havoning issig'ligini o'ylang, Antaliya issig'ini eslang! Chanqagan joni suvni istab turibdi! Sovuq narsalarni ko'rishi bilan, ichimliklarni ko'rishi bilan yutinib qo'yadi, ichgisi keladi, joni xohlaydi, lekin...

Ma'lumki, do'xtirlar bolalarni epidemiya kasalligidan saqlash uchun emlaydilar. Shunda agar: «Nima uchun bolaga ozor berasiz?» desak, doktor quyidagicha javob beradi: «Uning vujudiga terlama kasalligining mikroblaridan biroz yuboraman. Vujud ularni o'ziga oladi, ularni yengadi, shunda bolaning bir oz issig'i chiqadi. Ammo shundan so'ng bu o'ldiruvchi kasallikka aslo chalinmaydi».

O'tmishda biror shaharda bu kasallik tarqalsa, uning aholisini qirib tashlar edilar.



Usmonlilar davrida chechak kasalligining davosini bilgan ekanlar. Uning oldini olish uchun mahalla ko'chalarida emlash ishlari olib borilgan. Shuning uchun ham bu kasallikning oldi olinib, hech qanday zarari yoyilmas ekan. Yevropada esa u zamonlarda bu kasallikka uchragan shahar aholisining yarmini, uchdan birini qirib tashlashar ekan. Ular uchun bu juda ham xavfli, davosiz bir kasallik hisoblangan.

Ramazonda esa o'ttiz kun biz o'zimizga juda ham lozim bo'lgan narsalarni bajarish bilan, halol bo'lgan ne'matlardan bir muddat o'zimizni tiyish orqali nafsimizga hokim bo'lishni o'rganamiz. Zamonaviy ta'bir bilan aytganda, universitet darslarini tushuna oladigan darajada irodamizni chiniqtirish sabog'idan ta'lim olamiz. Bu bilan biz o'zimizni tutishni, vujudimizni boshqarishni o'rganamiz va ruhan barkamol inson holiga kelamiz.

Bir kun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning oldilariga oppoq kiyim kiygan nuroniy yuzli, ozoda bir kishi kirib keladi. Bu kishini sahobalar tanishmaydi... «Agar Madinadan kelganida edi bu kishini tanigan bo'lardik. Madinalik bo'lmasa, demak, uzoqdan kelgan bo'lsa kerak. Lekin uzoqdan kelgan bo'lsa, ustida, kiyimlarida biror safar nishonasi, chang-tuproq bo'ladi. Tuyaga minib-tushganida terlashi kerak». Bu kishining usti-boshida safar nishonasi yo'q edi.

U kishi to'g'ri kelib Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning oldilariga kelib, tizzasini tizzalariga tekkizib, o'tirdi. Atrofidagilar bu holatni ko'rib hayron qoldilar, bu odamning kimligi hammani qiziqtirar edi. Shundan keyin u kishi Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga har xil savollar berdi, har savoliga javob olganidan so'ng «To'g'ri aytdingiz!» – deb tasdiqlab ham qo'yar edi. Buni ko'rgan sahobalar hayron qolishib, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga ham savol berib, ham to'g'riligini tasdiqlayotgan bu kishi kim ekan, deb turgan edilar. Mehmon eng oxirgi savolni so'radi:

«Ehson nadur, yo Rasululloh sallallohu alayhi vasallam?» – dedi. Ehson, bu Allohga bandalikni go'zal ado etishdir. Yuqorida ham bu haqda aytib o'tgandik. Alloh bizdan yaxshi qul bo'lishimizni xohlaydi. Haligi kishi xuddi shu narsani so'radi: «Ehson, ya'ni qullikni yaxshi ado etish qanday bo'ladi, ey Rasululloh?» Shunda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam shunday javob berdilar:

«Ehson bu – Allohga muhabbat bilan ibodat qilish. Uni ko'rib turgandek ibodat qilish. Agar sen Allohni ko'rmayotgan bo'lsang ham, u har yerda hoziru nozir bo'lib, seni ko'rib turibdi», – deb javob berdilar. U kishi «to'g'ri aytdingiz», deb tasdiqladi va yana bitta savol so'rab, uni ham tasdiqlagach, chiqib ketdi.

Shunda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytdilar:

«Bu kishining kimligini bilasizlarmi?».

«Yo'q, taniy olmadik, ey Rasululloh» – dedilar.

«Bu Jabroil alayhissalom. Sizga dinimizni o'rgatish uchun inson suratida kelib, mendan savol so'radi, men esa javob berdim» – deb aytdilar.

Hadisi Jabroil deb nomlangan bu voqea Hazrati Umar tomonidan rivoyat qilingan.

Demak, yaxshi-solih qul Allohni ko'rib turgandek ibodat qiladi. Bir kishi unga qarab tursa, u o'tirishi, turishi, gapirishi va bajaradigan ishiga diqqat bilan e'tibor qiladi. Alloh ham bizni ko'rib turgani uchun, biz qulligimizni shunga ko'ra bajarishimiz lozim.

– Xo'sh, qanday qilib solih banda maqomiga erishish mumkin?

– Taqvo bilan, o'zini haromdan saqlashlik bilan, ya'ni, gunoh qilmaylik, xato qilmaylik, toki bizni do'zaxga tushirmasin... Bilmay qilgan xatolarimiz uchun bizni jazolab, jannatga kirishdan mahrum qilmasin deb, aql yurgizib ehtiyotkorlik bilan harakat qilamiz.

Hazrati Umar ajoyib bir inson edilar... Har xil savollar bilan u kishiga murojaat etishar edi. Rivoyatlardan birini sizga aytib beraman, keyin mavzumizni davom ettiramiz: Abdulloh ibn Abbas yosh bola, ammo ko'p bilimdon edi... Hazrati Umar xalifa bo'lganlaridan keyin uni doimo o'zlari bilan birga suhbat va majlislarga olib boradigan bo'ldilar. Buni ko'rgan Qurayshning kekxa sahobalari bir-birlaridan: «Bu bolani nega safimizga qo'shyapmiz? Bizning ham bu boladek farzandlarimiz bor, nega endi xalifa Umar uni bizning davramizga qo'shmoqda?» – deb so'ragan ekanlar.

Hazrati Umar – ashobning eng martabasi yuksaklaridan edilar. Ibni Abbosni chaqirtirdilar.

Yosh sahoba bola, roziallohu anhu, uni ham, otalarini ham Alloh lutf etsin, roziligiga vasila etsin, bizlarga ham Payg'ambarimiz alayhissalomning shafotlarini nasib aylasin... Chaqirtirib, o'tqazdilar. Yoshi katta sahobalarni ham chaqirdilar va «Nasr» surasini tushuntirib berishni so'radilar.

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«(Ey Muhammad), qachon Allohning yordami va g'alaba kelsa va odamlar to'p-to'p bo'lishib Allohning dini (Islom)ga kirayotganlarini ko'rsangiz, darhol Parvardigoringizga hamd aytish bilan (U zotni har qanday «sherik»lardan) poklang va U zotdan mag'firat so'rang! Zero, U tavbalarni qabul qilguvchi bo'lgan zotdir».**

Shunda kekxa sahobiy aytibdilar: «Ey, amiral mo'minin! Alloh bu sura bilan insonlarni dinga, Islomga da'vat qilib, musulmon bo'lib, guruh-guruh Islomga kirganlarini ko'rib (Fasabbih bihamdi rabbik) «Rabbingga hamd aytib, Rabbingni ulug'lagin! (vastag'firhu) Undan mag'firat so'ragin!» – demoqda. (innahu' ka'na tavva'ba'). U qullarining tavbasini qabul qiluvchidir! Qullariga tavajjuh qiluvchidir. Ya'ni, fath kelishi bilan, Allohning yordami kelishi bilan, Alloh Payg'ambarimizga «hamd aytgin, istig'for aytgin», deb amr qilmoqda» – deya tushuntirdilar.

Shunda Hazrati Umar roziyallohu anhu Abdulloh ibni Abbas roziyallohu anhuga yuzlanib: «Sen nima deysan? Sen ham shunday deysanmi?» – dedilar.

«Yo'q».

«Xo'sh, nima deysan, bu sura haqida?»

«Bu surada Alloh taolo Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam vafotlarining yaqinlashganidan xabar bermoqda» - deb aytdilar.

Chunki bu yerdagi fath so'zidan maqsad – Makka fathi. Makka fath qilindi. Quraysh kofirlari zulm qilib, kuchaygan davrda musulmonlar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bilan birga Madinaga hijrat qilganlar. Badr, Uhud, Xandaq janglari sodir bo'ldi. Undan keyin Makka ham fath qilindi. Fathdan so'ng Arabiston yarim orolida Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga qarshi birorta kofir qavm qolmagan edi. Insonlar guruh-guruh bo'lib islomga kira boshladilar.

Hazrati Umar ham: «Men ham bundan boshqasini bilmayman, bu suraning ma'nosi shundan iboratdir. Asl ma'nosi shu: «Ey, Rasulim, sening vazifang tugamoqda, topshirig'ingni bajarib bo'lding. Rabbinga hamdu sanolar aytib, Uning mag'firatini so'ra, safar yaqin!» deb aytdilar.

Qarang, o'zi yosh bola bo'lishiga qaramay, bir suraning mohiyatini chuqur anglab yetgan. Shu iqtidori bilan mavqei boshqalarga nisbatan baland.

Hazrati Umar roziyallohu anhu esa Jabroil alayhissalom hadisini rivoyat qilgan kishi... Ya'ni insonlar, Alloh taolo ularni ko'rib turgandek ibodat qiladilar. Qanday ibodat qiladi?.. Taqvo bilan, taqvoga asoslangan bir ruhiy holat bilan ibodat qiladilar. Agar bir xato qilib qo'ysa, Alloh uni ko'rib turganini va jazolashini anglab, bordi-yu yaxshi amal bajarsa, uning mukofotiga sazovor bo'lishini o'ylab, shunga muvofiq harakat qiladi. Bu ham ehson maqomi bo'lib, ibodatni ehson yo'li bilan go'zal tarzda bajarish va Qur'oni karimda tavsiya qilingan taqvo ahli bo'lishdir. Ya'ni qul Allohdan qo'rqib, jazoga uchrashdan, do'zaxga tushib qolishdan saqlanishi, jannatga erishishni qo'ldan boy bermasligi, qiladigan ishini o'ylab qilishi lozim.

Hazrati Umar hamma narsaga qiziquvchan va ashyoning asl ma'nosini idrok eta bilgan kishi edilar. Ubay ibn Ka'b roziyallohu anhudan so'radilar: «Alloh taolo Qur'oni karimda taqvoni ko'p amr qilgan. Taqvo o'zi nima?» Qur'oni karimni jamlagan, uni juda ham yaxshi bilgan olim sahobalardan biri bo'lgan Ubay ibni Ka'b roziyallohu anhu juda ham mazmundor javob beradilar: «Ey Umar, sen tikanli dalada yurganmican?»

«Yurganman!»

«Qanday qilib yurding?»

«Etaklarimni yig'ib oldim». (Arablar uzun ko'ylak kiyadilar...)

«Nega bunday qilding?»

«Tikanlar etaklarimni yirtmasligi va oyog'imga tikanlar kirmasligi uchun. Oyog'imga tikan kirsa, qonatadi va og'ritadi».

«Taqvo ham shunday!» - deb javob berdilar Ubay ibni Ka'b roziyallohu anhu.

Qarang, qanday javob bermoqda? **Tamsil** yo'li bilan, ya'ni o'xshatish bilan, esda qoladigan bir misol bilan tushuntirmoqda.

Demak, taqvo tikanli bir dalada ko'ylagini yirtmasin deb, etagini yig'ib, oyog'iga tikan kirib qonatmasligi uchun ehtiyot bo'lib yurishga o'xshar ekan. Shunday ekan, bir musulmon ham hayoti davomida tikanli bir yerda yurayotgandek yashaydi. Tikan deganda nima nazarda tutilgan?.. Haromlar, gunohlar. Haromga yaqinlashgan inson, undan aziyat chekadi... Harom ishni qilsang, ma'naviyatingni yaralaysan, usti boshing ham ifloslanadi. Shuning uchun gunoh tikanlarini bosmasliging kerak! Gunoh tikanlariga ko'ylagingni ilintirmasliging lozim! Diqqat bilan yurishing darkor! Ehtiyot bo'lib yursang, harom ishni ham qilmaysan. Hushyor bo'lsang gunohkor bo'lmaysan.

– Ammo, insonlar bu gunohlarni bilmaganliklaridan qilmoqdalarimi?

Ichkilik, qimor, yolg'on, foizning (sudxo'rlikning) gunohligini hamma biladi. Bilmasdan qiladiganlari juda ham oz. Alloh harom qilganligini bilgan hamda tushungan holda yana nimaga bu gunoh ishlarni qilmoqdalar? Chunki nafsga hokim bo'lolmaganliklaridan o'zlarini tutolmaydilar. «O'zimni tutolmadim, nafsimga hokim bo'lolmadim, kechirasiz!»,

– deydilar. Yoki «Shaytonga ergashdim, nafsga bo'ysundim», – deb uzrxohlik qilishadi.

Demak, nafsga ergashmaslik uchun musulmon ramazonda bir oy ta'lim oladi. Qanday ta'lim oladi? Suv ichmaslik, ovqat yemaslik, xotiniga yaqinlashmaslik orqali bilim va malakasini oshiradi. Ya'ni Alloh imtihon qilish va tarbiyalash uchun inson farzandining ichiga eng jozibali, eng kuchli orzularni qo'ygandirki, bularni bajarmang, qani bir ko'raylik-chi nima bo'ladi demoqda. Ularni qilmaslik bilan inson taqvoni, ehtiyotkorlikni o'rganadi.

Endi quyidagi oyati karimaning ma'nosi anglashilayotgandir?

**«...Sizlardan ilgari o'tganlarga farz qilingani kabi sizlarga ham ma'lum kunlarda ro'za tutish farz qilindi».** Chunki, ularning ham ishlari xuddi shunday... Uning ham nafi bor, agar nafsiga hokim bo'lsa, yaxshi inson bo'ladi. «Shoyad saqlana oladigan, saqlanishni bajara oladigan, nafsiga hokim bo'la oladigan insonlar bo'lsangiz...»

Shuni unutmaylikki, aziz birodarlarim, ro'za faqat shakliy ibodat emas... Balki, ro'zadan asl maqsad ruhiyatni poklash, taqvoni kuchaytirishdir.

Misrlik bir imom domladan:

«Misrliklar Qur'oni karimni juda ham chiroyli o'qiydilar, bizga biror oyat o'qib bermaysizmi!» – deb iltimos qildik.

«O'qiyman, lekin bir shartim bor. Marhamat qilib, Qur'oni karimni quloqlaringiz bilan emas, balki qalblaringiz bilan tinglang!» dedi u.

Chunki ko'p insonlar quloq bilan eshitadilar, ammo qalb quloqlari eshitmay qoladi. Bolaga otasi nasihat qilganida u eshitmaydimi? Eshitadi. Unday bo'lsa, nega yana yomonlik qildi?.. Demak, to'la qabul qila olmagan. Biz buni bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqib ketdi, deymiz. Aslida u qabul qila olmadi, eshita olmadi. Demak, anglay olmadi, eshitganni esa amalga oshirish lozim! Eshitganini qalbiga joylashtirishi lozim! Ibrat nazari bilan ko'rishi lozim, ko'rganini esa qalbgaga naqsh qilishi lozim!

Shu sababdan ham imom domla «Men Qur'on o'qiyman, ammo, iltimos, meni quloqlaringiz bilan emas, qalbingiz bilan eshiting!» deb bejiz aytmagan. Xuddi shuningdek, muhtaram birodarlarim, siz ham ro'zani shakliy tutmang, och qoldim, suvsadim deb o'ylamang! Ro'zaning ma'nosiga yetishga, uning ma'naviy tarbiyasini olishga harakat qiling!

Ro'za sizni bizni irodasi kuchli taqvodor inson holiga keltiradigan ish-harakatdir. Ta'bir joiz bo'lsa, ro'za asrlar bo'yi davom etib kelgan ilohiy zamonaviy ish- faoliyat deyish mumkin...

Yigirmanchi asr insoni qidirib topolmagan iroda tarbiyasini ro'yobga chiqaruvchi ishdir. Lekin, afsuski, ba'zilar kechgacha ro'zasini tutishiga qaramay, iftorlikda birinchi bo'lib og'zini ochadi va shosha-pisha og'ziga sigaret oladi. Bu qanaqasi bo'ldi endi? Saqlansang-chi, chidasang-chi? Kuni bilan ro'za tutib chidadi, ammo shomga kelib ahdiga vafo qilmadi. Ro'za ta'lim-tarbiyasini davom ettirolmadi.

Demak, ro'za tarbiyasi orqali taqvoga ega bo'lasiz, yomon ishlardan saqlanishni o'rganasiz. Biror ishni harom yoki makruh deyilgan bo'lsa, gunoh ish bo'lsa, endi uni iftorlikdan keyin ham bajarmaysiz. Ramazondan keyin ham unga yaqinlashmaysiz.

Sizga achchiq va juda ham muhim bo'lgan bir haqiqatni aytish bilan so'zimni tugatmoqchiman: Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Ramazon – ibodatlarimiz qabul bo'lganligining alomati». Biz tarovih namozlari o'qidik, ajabo, u qabul bo'ldimikan? Ro'zalar tutdik, ajabo, u qabul bo'ldimikan? Kechalari tahajjud o'qidik, har xil yaxshiliklar qildik, sadaqalar ulashdik, iftorlar berdik, ajabo, bu qilgan xayrli ishlarimiz dargohi ilohiyda maqbul bo'ldimikan? Qabul bo'lishining alomati ramazondan keyin inson holining ijobiy tomonga o'zgarib davom etishidir!» – deb aytganlar.

Ramazondan keyin ham fe'lini tuzatmasa, ramazon ta'sir qilmagan bo'lsa, undan keyin yana eski yomon holatlarini davom ettiraversa, demakki, Alloh uning ramazonda qilgan ibodatlarini qabul qilmagan, ro'zaning ta'siridan bahramand bo'lmagan degan ma'no kelib chiqadi. Shuning uchun ham holatni o'zgartirishga harakat qiling! Ro'za tutishdan maqsad irodani mustahkamlash, o'ziga hokim bo'lish. Haromlardan, gunohlardan saqlanish, nafsni xohlasa ham unga yo'l bermasdan, bir quvvatga ega bo'lish va taqvo sohibi bo'lish. Shuning uchun ham bu asosiy vazifani hech unutmangiz! Iftordan keyin ham, ramazondan keyin ham unutmangiz! Doimo taqvo ahli bo'lib yashang! Chunki Alloh taolo jannatga muttaqiy qullarini kiritadi:

**«Jannat va undagi ne'matlar taqvodorlar uchun tayyorlab qo'yilgan...».** Ya'ni, agar siz ramazonda taqvoning haqiqiy ma'nosini tushunib, uni o'rganib, taqvodor, muttaqiy bir qul bo'lsangiz, jannat sizniki bo'ladi!»

Demak, insonlarni jannatga kiritadigan narsa – bu taqvo va go'zal axloq. Taqvoni esa ramazonda o'rganasiz. Ro'za tutib, nafsingizni yengishni o'rganib, taqvo ahlidan bo'lasiz. Aksariyat insonlar taqvolari bilan jannatga kiradilar.

Jannatga kirishning ikkinchi sababi nima edi: «husnul xulq». Go'zal axloq ham taqvodan hosil bo'ladi. Agar insonning irodasi kuchli bo'lsa, nafsini tarbiya qilolgan bo'lsa, xulqi ham go'zal bo'ladi. Sabr qiladi, marhamatli bo'ladi, jo'mard, yordamsevar bo'ladi. Birovga hasad qilmaydi, zulm yetkazmaydi, yomonlik qilmaydi. Bunday axloqi hamidaga erishish uchun esa bir oy katta bir muddat, oz vaqt emas. Har yili takror kelib turadigan oy. Har yili inson bu tarbiyani yangidan ko'radi. Ya'ni, bu bir oylik tarbiya vujudimizga, ruhimizga bir yillik ozuqa bo'ladi. Demak, taqvoni yaxshi anglab, chuqur o'rganib, ruhimiz va vujudimizga singdirishimiz lozim! Ramazon oyida irodamizni astoydil mustahkamlab, Allohning muttaqiy qullari orasidan joy olaylik! Chunki Alloh muttaqiy bandalarini sevadi, ularga husni xotima – so'nggi nafasda imon bilan jon berishni nasib etadi, ularni jannatiga kiritib, abadiy ne'matlaridan ehson qiladi.

Alloh taolo hammamizning ro'zalarimizni haqiqiy ma'nodagi ro'za o'laroq qabul qilsin, taqlidiy ro'zalardan o'zi saqlasin. Shaklan ro'za tutib, aslida ro'zaning ma'no-mohiyatini tushunmagan g'ofil insonlardan qilmasin. Irodamizga kuch-quvvat ato aylasin. Ko'nglimizdagi g'uborlarni ketkazsin. Ko'zlarimizni to'sib turgan botin pardalarini ochib, Janobi Haq rozi bo'lgan haq yo'lda yurishni, Uning yo'lini sevishni va Alloh taoloning diydorini ko'rishni nasib aylasin. Bundan keyingi umrimizda Allohning sevgan qullaridek, taqvo ahlidan bo'lgan qullaridek, isloh topgan qullaridek sirotal mustaqimga - to'g'ri, haq

yo'lga noil bo'lishni nasib etsin.

Bihurmati asrori suratil fotiha.

3 fevral 1995/ 3 Ramazon 1415

## RO'ZADORNING MUKOFOTI

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin!

Rasuli Muhammad Mustafo alayhi afzalus-salovot va akmalut-tahhiyyot vat-taslimot hazratlariga Parvardigorimizning o'zi ehtiromlarimizni yetkazsin. Shafoatlariga hammamizni noil qilsin.

Hadisi shariflarda bayon etilishiga ko'ra ramazon oyining boshi – rahmat, o'rtasi – mag'firat. Namoz o'qib, ro'za tutgan kishining mukofotlari ko'payadi va mag'firatga erishadi. Oxiri esa najot – jahannamdan ozod bo'lishdir. Musulmonning gunohlari sababli do'zaxga tushish ehtimolining yo'q bo'lishidir. Ya'ni jahannam tahlikasini o'zidan uzoqlashtiradi va:

**«Bas, kim do'zaxdan chetlatilib, jannatga kiritilsa, muhaqqaq (baxt saodatga) erishgay».** Bu go'zal oy uch muborak oyning oxiri, hosilot zamoni va haqiqatdan ham o'n bir oyning sultonidir.

Ibn Abbos roziyallohu anhu faqih bir sahoba bo'lib, «Abodilai arbaa»da kelgan to'rt Abdullohdan biri. Undan: «Oylarning eng xayrlisi qaysi biri?» deya so'raganlarida, U kishi: «Oylarning eng xayrlisi bu – ramazon oyi» – deb javob bergan ekanlar.

Abu Zarr G'iforiydan roziyallohu anhu shunday rivoyat qilinadi:

Ramazon oyining hiloli ko'ringan vaqt Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytdilar: «Agar insonlar ramazon oyidagi mukofotlar, savoblar, ne'matlar va rahmatlarni bilsalar edi, ramazonning yil bo'yi davom etishini xohlagan bo'lardilar».

Hammamiz bir oz ro'za tutamiz va kechalari ko'p rakaatlar namoz o'qiymiz. Buning mukofoti juda ham buyuk! Buning qiymatini bilganlar haqiqatda ham Payg'ambar alayhissalom aytganlaridek: «Qani endi yil davomi ramazon ro'zasi bo'lsa edi», – deb orzu qildilar.

Demakki, bu oyni qancha ehtrom qilsak, qancha sevsak va unda qancha g'ayrat qilsak, shuncha oz. Shunday go'zal bir oyga yetishib turibmizki, Allohga hamdu sanolar aytmaslikning iloji yo'q!

Bu hadisi shariflarni men Abdulqodir Giloniy hazratlarining «Gunyatut tolibin» nomli kitobidan o'qiyapman. Bu kitobni juda yaxshi ko'rib, doimo o'zim bilan olib yuraman. Chunki Abdulqodir Giloniy avliyullohning eng buyuklaridan, qodiriya tariqatining piri, ulug' olim, Payg'ambar alayhis-salomning sulolalaridan. Bu kitobda ro'za oyiga maxsus

bob ajratilgan bo'lib, unda boshqa kitoblarda topish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar mavjud.

Tabiiyki, biz bu kitobni o'qishimiz bilan ul zotga savob yoziladi. Chunki kitob sadaqai joriya. Agar inson kitob yozsa va birov undan foydalansa, kitob muallifiga savob yozilaveradi. Bir inson talaba yetishtirsa va u shogirdi Islom uchun, ilm-ma'rifat uchun xizmat qilsa, ustoziga ham savobi yetib turadi.

Ustozingiz sizga namozni o'rgatdi, alhamdu lilloh, birga namoz o'qidik. Bu namozdan hosil bo'lgan savob ustozingizga ham yetib boradi. Bundan tashqari sizni musulmon qilib yetishtirgan ota-onangizga ham savob yetadi. Hatto qabrda bo'lsalar ham savob yetib turaveradi.

Sizlarga bir xushxabar aytay, aziz birodarlarim. Jum'a kunlari marhumlarga bizning bu dunyoda qilgan ishlarimiz to'g'risida xabar beriladi: «Sening dunyodagi o'g'ling, qizing shunday ish qildi». Ular dunyodagi avlodlarining qilgan yaxshi amallaridan sevinar ekanlar, nurlari va xursandchiliklari yanada ziyodalashar ekan.

Nur degani bu bir yorug'lik. Qarang, agar shu yerda nur bo'lmasa, ko'z-ko'zni ko'rmaydi. Nur borligi uchun ham uning go'zalligi tufayli mana, bemalol o'tiribmiz, men esa bu kitobni harflarini ko'rib turibman. Shu uchun ham nur bu yaxshilikdir. Qabrda ham, Sirotda ham nur lozim. Ibodatlarimiz Sirotda oldimizda nur sohib turadi.

### **«Ularning nurlari oldilarida va o'ng tomonlarida yurur».**

Mo'min kishining qilgan ibodatlari uni oldi va orqasidan nurdek oydinlashtiradi, uning foydasini ko'radilar. Ularning nurlari, xursandchiliklari ortar ekan. Qabrlarida mamnun va masrur bo'lar ekanlar. Ammo avlodlari yomonlik qilsalar, harom ishlar qilsalar, o'tganlar ruhi ko'p g'amgin bo'lar va bezovtalanar ekan. Sizga ham ma'lumki yomonlikning ikki turi mavjud:

1. Yomonlik qilish.
2. Yaxshilik qilmaslik.

Agar inson farzlarni bajarmasa, u o'ziga boshqa bir yomonlikni qilgan bo'ladi. Yomonlikning o'zini qilgan bo'lsa, bu boshqa bir yomonlikdir.

Demak, bu yerdan shu narsa kelib chiqadiki, har bir farzandning o'tib ketgan ota-onasi uchun eng yaxshi hadyasi – uning yaxshi inson bo'lishi. Chunki, u qilgan yaxshi amallar savobining bir ko'rinishi ota-onasiga yuboriladi. U tashvish tortmasin, uning savobidan olib qo'yilmaydi. Alloh taoloning rahmati keng, ne'mati ko'p, xazinasi so'ngsiz. Ya'ni uning savobi qancha bo'lsa, savobi kamaytirilmasdan, ota-onasiga yuboriladi. Masalan, Bursa o'zining qandlari bilan mashhur. Biz bu shahardan o'tsak, albatta uning qand-qursidan olib ketamiz. Antaliyaning nimasi bor bilmadim, yoki Afyonning qaymog'i mazali, qaymog'li luqumlari bor hatto. Ya'ni har shaharning bir mashhur narsasi bor. Ammo «Marhumlarga nimani hadya qilib yuborsak bo'ladi?» – deb o'ylashingiz tabiiy narsa. Sizning yaxshi musulmon bo'lishingiz, bu – eng yaxshi hadya. Namoz o'qing, ro'za tuting, Qur'on o'qing, xatm qiling, yaxshilik qiling, xayr-hasanotlar qiling! Siz yaxshi inson bo'ldingizmi, oxiratdagi ota-onangiz xursand bo'lishadi. Tushingizga kirib, sizga rahmat aytishadi.

Muhammad alayhissalomning izidan yuramiz, chunki najot faqat uning yo'lidan bormoqdir. Barcha diniy ilmlarning manbai u Zoti bobarakotning hadisi shariflarida jamdir. Qur'oni karimni Alloh ularga tushirdi, vahiy ularga keldi va u zot bizga yetkazdilar. Ya'ni Qur'oni karim U zot orqali bizga yetib kelgan. Demak, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam va u kishining bizga topshirib ketgan sunnatlari boshimizning toji ekan. Unga loqayd qarash mumkin emas. Qur'oni karim menga yetadi, deyish mumkin emas. Chunki vahiyning mohiyatini aqllar qamrab ololmaydi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sunnatlari bu – Qur'onning izohi, sharhi, tafsiri va mujassam bir o'rnagi. Bir hadisi sharifda aytiladi:

Ya'ni: Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: (Navmus soimi iba'datun). Ro'zadorning mukofotiga qarang! «Ro'za tutgan kishining uyqusi ham ibodat». Ro'zador charchaydi, holsizlanadi, bir ozgina shu yerda cho'zilay, deydi. Axir, buning yozi bor, qishi bor, issig'i bor, sovug'i bor... Uzun-uzun kunlari bor...

Stokgolmgga bordik. Shimoliy Qutbga yaqin bo'lgan joylar. Qish mavsumi soat 9larda bomdod namozi bo'ladi. 12ga yaqin peshin, 13ga yaqin asr, 15larda shom namozi o'qiladi. Yozda esa umuman teskarisi: Tarovih namozini o'z vaqtida o'qish ham ancha qiyin. U yerda oddiy ishchi bo'lib ishlaydigan birodarlarimiz maxsus qozonlarda temir eritib qaynatadilar. «Ustoz! Issiqlik 60-70 gradus bo'lganda ko'zoynakni taqamiz va narsalarni eritib qaynatamiz. Shunday qilib, kemalar yasayapmiz» – deb aytgan edilar.

Ular shunday og'ir sharoitda ham ro'za tutishlariga to'g'ri keladi va o'z navbatida, uzun tunlarda dam olishlari kerak. Kechasi hech ham uxlay olmayaptilar. Shom namozini masjidida o'qiydilar. Iftorlik qiladilar. Xufton namozini tarovih bilan o'qiydilar. Keyin ozgina nafaslarini rostlab suhbat qiladilar va bomdod namozi kiradi, uni o'qib, yana ishga ketadilar. Haqiqiy fidokor insonlar. Albatta, kunduzi ish tugaganidan keyin dam olishlari lozim.

(Navmus-sa'imi iba'datun). «Ro'zadorning uyqusi ham ibodat». (Va samtuhu' tasbi'hun). «Gapirmasligi, sukut saqlashi tasbeh bo'lar ekan». «Subhanalloh» deganidek. To'yib gaplasha olmaganligi uchun biroz kayfiyati qochadi. Ana shundagi sabri-sukuti ham savob ekan. Ro'za insonni chiroyli qilib qo'yadi.

Uyqusi ibodat, sukut saqlashi tasbeh: (Va dua'uhu' mustaja'bun). «Duosi esa maqbul ekan». Ro'zadorning duosi ijobat. Chunki u Alloh yaxshi ko'rgan banda bo'lishga intilayotir. U Alloh uchun kunduzi yeyish, ichish va oilaviy munosabatdan uzoqlashadi. Alloh uchun nafsining kuchli orzularini tark etadi. U Alloh uchun fidokorlik qilganligi sababli ham Alloh uni sevmogda va duosi ijobat bo'lmoqda. Bunday fursatda ro'zadorning duosini olishga harakat qilish, uning ko'nglini olish lozim, unga ehson qilib, iftorlik qildirish, shunday yo'llar bilan uning mustajob duosini olishga harakat qilish zarur!

(Va amaluhu muza'afun). Qilgan amalining savobi ham orttirib beriladi. Ya'ni, ramazonda qilgan ibodatlari, boshqa vaqtlarda qilgan ibodatlari bilan bir xil bo'lsa ham, ramazondagi savobi yetmish marta ortiq. Bu ozmuncha farq emas, juda ham yaxshi bir mukofot.



Ramazonda kuniga 20 rak'at tarovih namozini o'qiymiz. Yetmishni yigirmaga ko'paytirsak 1400 rakat namoz o'qigandek bo'lamiz. Sadaqa bersak ham, tasbeh o'girsak ham yetmish marta ko'p savob olamiz.

Shuning uchun ham ba'zi oqil kishilar bu narsaning sirini ustozlaridan, buyuklaridan o'rganganlari bois, zakotlarini ramazon oyida beradilar. Zakot uchun bir nechta shartlar mavjud. Shulardan biri zakotga yetadigan mablag' qo'lga tushgandan keyin bir yil shu holatida turishidir! Masalan, hozir siz nisobga yetarli mablag'ga ega bo'ldingiz, bundan shu zahotiy oq zakot berish mumkin emas. Bir yil o'tishi kerak. Ammo ba'zilar o'sha miqdorni oldinroq ayirib, ramazonda beradilar.

Chunki ramazonda qilingan har bir ezgu ishga yetmish marta ko'p savob beriladi.

Abu Husaymadan shunday rivoyat qilinadi:

Ya'ni, «Katta gunohlar qilinmagan bo'lsa, ramazon bilan ramazon, haj bilan haj, jum'a bilan jum'a, namoz bilan namoz orasidagi gunohlarga kafforat bo'ladi».

Ramazonni yaxshi o'tkazsak, o'tgan ramazondan bunisigacha qilgan gunohlarimiz va qusurlarimizni Alloh kechiradi. Jum'a namozini ham maromiga yetkazib o'qigan vaqtimizda, oldingi jum'a bilan bunisi orasidagi gunohlar o'chiriladi. Albatta, uning ba'zi shartlari bor. Masalan, yaxshilab g'usl qilib, tahoratni yangilab, jum'aga kamoli hurmat bilan e'tibor bersa... Bir namoz oldingisi bilan orasidagi gunohlarni o'chiradi.

Hazrati Umar roziyallohu anhu ramazon oyi kelishi bilan aytar ekanlar:

«Xush kelding, ey yaxshiliklarga to'la oy, kunduzlari ro'zaga, tunlari esa namozga boy bo'lgan oy!».

Men yuqorida kechki namoz deb aytganimda, tarovih namozini nazarda tutdim. Ammo, ba'zi oshiqu sodiqlar tarovih namozi o'qigandan keyin uylariga borib, tahoratlari bor, yana bir ozgina namoz o'qiydilar. Ularning bu go'zal amallarini Alloh qabul qilsin!

Yoki bo'lmasam, kunduzi ish bilan band bo'lganligidan tarovih namozidan keyin biroz charchaydilar. Hozir qish bo'lganligidan kunduzi ham qisqa, soat 800-da hamma ish tugaydi. Ko'chaga chiqay desa, odamlar vaqtlarini yana behuda ishlar bilan o'tkazmoqdalar. Kel, dam olay, deb uxlaydi va erta tongda saharxo'rlikka turadilar. Shunda tahorat olib, ikki rakat tahajjud namozini o'qiydilar! Chunki bu namoz Payg'ambarimizga Qur'oni karimda tavsiya etilgan bir namoz.

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«Kechaning (bir qismida) uyg'onib o'zingiz uchun nafl (ibodat) bo'lgan namozni o'qing! Shoyadki, Parvardigoringiz sizni (Qiyomat kunida) maqtoqli (ya'ni, gunohkor ummatlaringizni shafolat qilib oqlaydigan) maqomda tiriltirur».**

Rabbimiz Payg'ambarimizga: «Kechalari tahajjud namozi o'qi!» deb buyurmoqda, tavsiya qilmoqda. Payg'ambarimiz ham bu namozni hech kanda qilmagan ekanlar.

Shu bois hadisi sharifda shunday aytiladi:

«Kechasi turib o'qilgan ikki raka'at namoz, dunyo va undagi barcha narsalardan

qiymatliroqdir».

Ramazondan boshqa vaqt tura olmaymiz. Chunki kech yotamiz, to'yib uxlay olmaymiz. Shuning uchun hatto bomdod namoziga ham turolmaymiz, ba'zi vaqtlar turishimiz juda ham qiyin bo'ladi. Mana, sizga oddiy xalqning, avomning umumiy holati. Ammo bizning dinimiz shunday go'zalki, shirinliklar, lazzatli taomlar bahonasida avomning ham havasini uyg'otib, ramazon oyida tahajjudga uyg'otadi. Bu fazilatli oyda yarim kechasi yosh ham, qari ham, kuchli ham, kuchsiz ham og'rinmasdan, uflamasdan, mamnuniyat bilan uyqudan turadi. Shu bois Hazrati Umar roziyallohu anhu «Har narsaning har qanday holati, kunduzidagi ro'zasi ham, kechadagi namozi ham xayrli bo'lgan, ey muborak oy, xush kelding!» – degan ekanlar.

Alloh taolo hadisi Qudsiyda marhamat qiladi:

«Ro'za – meniki, uni men o'zim qabul qilaman. Uning mukofotini ham hisoblab bo'lmaydigan shaklda men o'zim beraman». Chunki ro'za bu – yashirin ibodat. Namozga o'xshagan emas».

Namoz o'qib turganingda hamma ko'rishi mumkin. Ammo ro'za unday emas. Ramazonda hamma ro'zador, deb taxmin qilinadi-yu, ammo ramazondan boshqa vaqtda insonning ro'zador yoki ro'zador emasligi bilinmaydi.

«Marhamat, keling!» deysiz.

«Rahmat, yemayman!» – deydi.

«Marhamat, dasturxonimizga»

«Rahmat, ammo yeyaolmayman» – deydi.

Shunda siz: «Ro'zadormisiz?» – deb so'raysiz.

Ibodating pinhonasi maqbul bo'lganidan va ro'za nafsning ustidan hokimlikni kuchaytirganidan bu davrda inson nafsiga hokim bo'ladi, irodasini quvvatlantiradi.

Siz bir do'xtirlardan so'rab ko'ring, ochlikning juda katta tibbiy foydasi bor. Mana, Burdurda shakar fabrikasi bor. Ma'lum kompaniya bitganidan keyin fabrika to'xtatiladi va butun jihozlar qaytadan tekshiriladi, toza qilinadi. Ya'ni keyingi kompaniyaga tayyorgarlik ko'riladi. Agar shunday qilinmasa, keyingi yil uchun shakar ishlab chiqara olmaydi. Chunki butun jihozlar ishdan chiqib qolishi mumkin. Inson vujudi ham xuddi shundaydir. Me'damiz bir oy dam oladi. Parhez bezi ham, butun ichki a'zolar ham dam oladi.

Alloh taolo hammamizni g'aflat uyqusidan uyg'otsin, orifu ogoh qullaridan qilsin... Har bir kunimizni rizosiga uyg'un o'tkazishimizni nasibi ro'zi aylasin. Tafviqini rafiqlik qilsin, xos qullaridan qilsin... Husni xotimalar bilan oxiratga borishimizni nasib aylasin. Jannati va jamoli bilan barchamizni xushnud etsin.

Bihurmati asrori suratil fotiha!..

*4 fevral 1995/ 4 Ramazon 1415*

## GUNOHDAN VOZ KECHISH

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beadam, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin. Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin. Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin.*

Aziz va muhtaram birodarlarim!

Alloh taolo jalla jaloluhu shu muborak oyda barchamizni fayzu barakotidan hissamandu hissador qullaridan aylasin! Namozu niyozlarimizni, tarovihu ro'zalarimizni rahmatiga erishmog'imiz, rizosini qozonmog'imiz uchun vasila qilsin.

Alloh taolo Payg'ambarimizga nimalarni o'rgatgani ko'pchilikka ma'lum. Rasululloh bu haqda:

«Rabbim meni tarbiya qildi va tarbiyamni go'zal ayladi», – deya lutf etganlar. Bir yetim bolani Alloh taolo o'zi yetishtirdi va ulumi avvalinu oxirinni unga ato qildi. Hadisi shariflari kutubxonalarni shunday to'ldirdiki, inson ularni umr bo'yi o'qib tugata olmaydi. Alloh taolo Ul zotga ko'p narsalarni o'rgatdi, ko'rsatdi va hech bir bandaga nasib etmagan martabalarga erishtirdi. Unga me'rojni nasib etdi va hayotligi davrida o'z dargohi izzatiga qabul qildiki, bu bashar ahlidan hech kimga nasib etmagandi. Chunki u muborak zot sarvari anbiyo – Payg'ambarlarning sarvari, Habibi Mustafo – tanlangan sevgili quli. Shuning uchun ham ul zotga ko'p narsalarning sir-asrorini bildirdi.

Bir hadisi qudsiyda Alloh taolo buyuradi:  
Shu hadisni biroz izohlasak:

Ey odam farzandi! – deb xitob qilmoqda Alloh taolo, buni esa Payg'ambarimiz bizga naql qilmoqdalar. Payg'ambarimiz, Allohning so'zlarini o'z so'zlari bilan gapirgan bo'lsalar, u hadisi qudsiy deb ataladi.

Nima uchun bu kitoblarni o'qiyapmiz? Chunki undan keyingi keladigan gaplar chiroyli...  
«Siz shu ishlarni qiling, Men sizdan rozi bo'laman! Siz bu ishlarni qilib, Mening roziligimni toping! Bu chiroyli amallarni bajarib, Mening roziligimga erishing!» – deb aytilmoqda. Biz Alloh roziligiga erishishimiz uchun shularni o'qiyamiz.

Xuddi shu sababdan ham bu satrlarni tanladim:

«Ey Odam o'g'li! Menga isyon qilayotganingda, biror gunoh qilmoqchi bo'lganingda, mening gunohkorlarga g'azab qilishimni eslab, aql-hushingni yig'ib, gunoh qilishdan o'zingni hech orqaga tortdingmi?»

Masalan, Yusuf surasini eslang, unda aytilishicha:

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

Haqiqatan, Zulayxo Yusuf alayhissalomning visoliga intildi. Agar Parvardigorining ochiq hujjat alomatini ko'rmaganida, Yusuf alayhissalom ham Zulayxoga moyil bo'lar edi. Undan (Yusufdan) yomonlik va buzuqlikni chetlatish uchun uni o'z muhofazamizga oldik,

gunohdan asradik deya yuqoridagi oyatda xabar beriladi. Darhaqiqat, Yusuf alayhissalom g'oyat go'zal va eng chiroyli payg'ambarlardan bo'lganlar. Ammo Hazrat Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Yusuf alayhissalomdan ham xushro'y bo'lganlar.

Bir shoir yozgan ekan:

«Rasulullohning yuzlari qilich kabi yaraqlaydi». U vaqtlardagi porloq narsa qilich edi. Chunki u davrda bizning davrimizdagidek oynalar yo'q bo'lgan, kumushni yaltiratib, oyna o'rnida qo'llanilgan. Shuning uchun ham «Qilichdek yaltiraydi», – deb aytmoqda. Boshqa birisi esa: «Qanaqa qilich? Oy kabi, quyosh kabi edi», – deb tushuntiradi.

Shu muborak kunlarda so'raymiz: Alloh taolo hammamizga oxiratda jamolini ko'rishni nasib aylasin. Endi mavzuga qaytamiz.

Yusuf alayhissalom eshikdan kirishlari bilan xotinlar qo'llarini kesdilar. Qo'llarida olma bor edi, ammo ular bu husnu jamolni ko'rishlari bilanoq hamma narsani unutdilar, lol qoldilar, natijada qo'llarini kesa boshladilar.

**«Bas, qachonki uni ko'rishgach (ular beixtiyor uni) olqishladilar va (o'zlari sezmagani hollarida, qo'llaridagi pichoqlari bilan) o'z qo'llarini kesa boshladilar. Hamda: «Ey pok Alloh, bu bashar (farzandi) emas, bu asl farishtaning o'zi-ku», deb yubordilar».**

Yusuf alayhissalom Zulayxo validaning qo'lga tushib qoldi. Yusuf alayhissalom yosh bir yigit, Zulayxo volida esa yuqori tabaqaga mansub vazirning ayoli. U eshikni yopishi bilan ikkalasi ham bir-biriga havas qilib boqdi, lekin Yusuf alayhissalom shu vaziyatda o'zlarini tutdilar...

**«Agar Parvardigorining ochiq hujjat-alomatini ko'rmaganida...».** Rivoyatga ko'ra, o'sha vaqtda Yusuf alayhissalom qarshilarida Yaqub alayhissalomni ko'rgan ekanlar. Yaqub alayhissalom barmoqlarini tishlab turgan holatda namoyon bo'libdi. Shunda Yusuf alayhissalom es-hushini yig'ib, o'zlarini qo'lga olibdilar. Albatta, buni ko'rganlaridan keyin nima dedilar:

**«(Yusuf) dedi: «Parvardigorim, men uchun bular meni chorlayotgan narsadan ko'ra zindon yaxshiroqdir»** – deb, qamoqqa kirishni afzal ko'rdi. Nima uchun shunday dedi? Chunki Allohning mukammal tanlangan, go'zal, asl va mukammal quli, ya'ni Payg'ambar o'g'li Payg'ambar bo'lganligi uchun ham shunday dedi.

Demak, bu hadisi qudsiyda Alloh taolo biz Odam farzandlaridan: «Biror gunohni qilishga niyat qilib, uni bajarish uchun oyog'ingizni bosayotgan vaqtda Allohning g'azabini eslab, o'zingizni orqaga tortingizmi? Shu gunohni qilmaslikka muvaffaq bo'ldingizmi?» – deb so'ramoqda. Bundan agar siz shunday qilsangiz, men sizdan rozi bo'laman, degan ma'no chiqmoqda.

Xudovandi karim Yusuf alayhissalomga lutf qilib, qamoqdan chiqardi va vazir qilib qo'ydi. Taqdirida bor ekan, Zulayxo validaga uylantirdi, ammo halol yo'l bilan nikoh o'qildi. Gunoh bilan emas, savob yo'li bilan oila qurdilar. Mana sizga Allohdan qo'rqib, gunohdan voz kechishning ajru mukofoti.

Hazrati Ali roziyallohu anhu bir kun xizmatchisi bilan Kufadagi bir masjidga ot yetaklab, namoz o'qigani keladilar. Shunda masjidning oldida bir kishini ko'rib qoladilar va unga «Iltimos, otimizning jilovidan ushlab tursangiz!» – deb otni topshirib, namoz o'qigani masjidga kirib ketadilar. Namozni o'qib chiqayotganlarida otni ushlab turganga beraman, deb hamyonlaridan besh dirham oladilar. Ammo tashqariga chiqib qarasar, odam ham yo'q, ot ham yo'q. Atrofnı qidirib otnı topishibdi, ammo ot egarsiz. Haligi kishi egarnı o'g'irlab, otnı esa tashlab ketibdi. Hazrati Ali roziyallohu anhu xizmatchisiga besh dirham berib: «Borib bozordan egar olib kel!» – deb jo'natibdi.

Bir oz vaqt o'tgandan keyin xizmatchi bir egar bilan bozordan qaytibdi. Hazrat Ali ne ko'z bilan ko'rsinlarki, bu o'zlarining egarlari. Bir ozgina oldin buni bir kishi egarchiga sotib ketibdi, deb aytadi. Shunda Hazrati Ali roziyallohu anhu: «Qanchaga sotibdi?» deb so'raydilar. Xizmatchi: «Besh dirhamga sotgan ekan». «Voy bu bizning egarimiz-ku!» deb taajjublangan edim. Sotuvchi: «Foydasi kerak emas, o'g'riga bergan miqdorimni bersang kifoya!» – dedi.

Bu besh dirham masalasini ko'rgan Hazrati Ali roziyallohu anhu to'plangan odamlarga qarab: «Ey, jamoat, qarang, bu yerda juda katta ibrat bor! Hozir men bu o'g'riga, o'z hamyonimdan besh dirham ajratib, ko'nglim rozi bo'lib, halol qilib bermoqchi edim. Sabr qilganda besh dirham olar edi. Ammo sabr qila olmadi, natijada nima oldi? Albatta, besh dirham oldi. Lekin halolidan emas, balki haromidan oldi. O'g'irlab sotib va qochib ketdi. Alloh uning taqdiriga bugun besh dirham topishni yozgan edi. Biroz sabr qilsa, halolidan nasib etardi. Ammo u haromga chopib ketdi.

Hazrati Ali roziyallohu anhunging hamyoniga qaraydigan bo'lsak. Unda o'zgargan biror narsa yo'q. Besh darhamni ajratib, o'sha kishiga bermoqchi bo'ldilar, xolos. Niyatlariga ko'ra bu yerda u zot savob oldilar. Besh dirham esa cho'ntagidan chiqib, egarchining qo'liga borib tushadi. Egarchi ham hech narsa yo'qotmadi. Egarchi birovdan besh dirhamga sotib oldi va boshqa birovga yana besh dirhamga sotdi. Ammo bu yerda odamlar bajargan ishlariga ko'ra yo savob olmoqdalar, yo gunohga botmoqdalar. Taqdir o'zgarmayapti, ammo niyatiga ko'ra inson yo gunoh, yo savob olmoqda, ya'ni yo jannatiy yoki do'zaxiy bo'lmoqda.

Yusuf alayhissalom sabr qildilar, gunohga yaqinlashmadilar, qamoqni afzal ko'rdilar, natijada Alloh unga halol nikohnı nasib etdi. Biz bu rivoyatlarnı nimaga keltirdik? Inson o'zini harom ish qarshisida qanday tutishi lozimligini uqtirdik, xolos. Zero, inson farzandining hayotida har xil vaziyatlar bo'ladi. Ba'zi narsalarnı o'zi ham, nafsı ham xohlaydi. Uzatsa qo'li yetadi, uzib oladi, ammo «Yo'q, olmasligim lozim, bu olma harom!» – deb uni uzmaydi. Boshqa yerdan birortasi bir lagan olma olib keladi. Agar uning nasibasida olma yeyish bo'lsa, u o'zgarmaydi, faqatgina inson harom qarshisida turganda o'zini tutishi lozim! Shunday qilsa, albatta, Alloh u qulini sevadi.

Bu yerda Alloh yaxshi ko'rgan, unga ma'qul bo'lgan amallar haqida suhbatlashyapmiz. O'zimizni tutamiz, haromga ko'z tashlamaymiz. O'zimizni tutamiz, haromga quloq bermaymiz. O'zimizni tutamiz, haromga ko'maklashmaymiz. O'zimizni tutamiz, harom joyga qadam tashlamaymiz. Qur'oni karimda bildirilgan, ta'kidlangan taqvoning ahamiyati va mohiyatini yaxshilab o'ylab, tushunib unga amal qilishga bor kuch va imkoniyatimiz bilan jiddu jahd qilaylik. Gunohning oqibati - jahannamni ko'z oldimizga keltiraylik.

Demak, inson biror gunoh ishni qilmoqchi bo'lganda, uni qilmay, niyatidan qaytsa, bu uning taqvodorligidan nishona. Bu yerda Alloh taolo shuni so'ramoqda: «Biror gunoh ishga ro'para kelganda meni eslab, g'azabimni o'ylab o'zingni orqaga tortdingmi?» Demak, biz ro'za tutib, haromdan chekinishni o'rganamiz. Ramazonda olganimiz iroda tarbiyasini har kunimizga tadbiiq qilamiz. Haromga qo'l uzatmaymiz, unga qaramaymiz, uni gapirmaymiz, uni yemaymiz, haromga qadam ham tashlamaymiz.

«Men sizga amr qilgan farzlarimni buyurgan shaklda o'rniga keltirib qo'ydingizmi? Zakot berish kerak bo'lsa, berdingizmi? Namoz o'qidingizmi?»

Masalan, Alloh taolo (aqi'mus solah) deydi: ya'ni, «Namozni to'g'ri-durust iqoma qiling!» – deydi. (Sallus solah!) «Namoz o'qing!» – demayapti, «Namozni qoidasiga ko'ra iqoma, barpo qiling?» demoqda. Ya'ni, chiroyli o'qing, ma'nosida kelmoqda. (Va la taznu'). «Zino qilmang!» – demayapti. (Va la' taqrabuz zina'). «Zinoga yaqinlashmang!» – demoqda. Mo'min zinoning yaqiniga ham bormaydi. Zinoga yaqinlashtiruvchi ishlarni ham qilmaydi, u haqda gapirmaydi, unga qaramaydi. Zinodan saqlangan kishi uyatli, ornomusli va e'tiqodi sog'lom bo'ladi. Bularning hammasi Alloh taoloning marhamati bilan, yordami bilan bo'ladi.

Miskin-bechoralarga, faqirlarga mollaringizdan berdingizmi? Xayru hasanot qildingizmi?

Zakot bu fazilat bo'libgina qolmay, majburiyat ham. Zakot, bu faqirning boy ustidagi haqqi.

**«Ular topgan mol-mulklarida so'raguvchi va (mol-davlatdan) mahrum kishilar uchun ma'lum haq (ya'ni zakot) bo'lgan zotlardir».** Boshqa kimsaning haqqi. Kimning haqqi bu? (Lissoili val mahrum) ...faqir va nochorlarning haqqi bor». U mol uniki emas-ku, haqni haq sohibiga bermoqda. Chunki bu uning haqqi. Erkakmisan, mardmisan zakotdan ko'proq beraver! Saxiylikning o'lchovi 2,5% emasku?

Hazrati Abu Bakr Siddiq qancha berdi? 2,5% berdimi? Rasululloh sallallohu alayhi vasallam xohishlari bilan hammasini berdi. Buni ko'rgan sarvari olam so'radilar: «Ey Abu Bakr! Ahli oilangga, bolalaringa nima qoldirding?»

«Alloh va Rasulini qoldirdim!» – dedi.

Nega? Chunki ul zot siddiqiyat maqomida edilar. Bu maqomning martabasi shunday. Sidq bilan berdi va berganda ham hammasini berdi. Nima uchun? Chunki Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ham yo'qlikdan, mahrumiyatdan hech ham tashvishlanmas edilar. Ul zot ham Payg'ambarning xos ummati bo'lgani uchun kambag'al bo'lib qolishdan cho'chimadi.

Menda yaxshi taassurot qoldirgan bir voqeani sizga aytib bermoqchiman.

Bir badaviy Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamni ziyorat qilgani kelibdi. U bir qishloqdan, qabiladan, cho'ldan kelgan odam. Juda ham chiroyli qo'ylarni o'tlatib yurganlarini ko'ribdi va:

«Yo Rasululloh! Bular qanday chiroyli qo'ylar-a!» – debdi.

«Senga juda yoqdimi?» – deb so'rabdilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam.

«Juda ham chiroyli ekan! Juda yoqdi, yo Rasululloh!»

«Unday bo'lsa, ol hammasini» – deb aytgan ekanlar.

Biz nima qilamiz? Biz bir donasini so'yamiz yoki beramiz, yoki «Shu sonini kesib, unga

berib yuboring!» deymiz. Ko'pincha, kallani pishirish uyda xotinlarga mushkulligi uchun: «Boshini, shu narsalarini berib yuboring!» deymiz. Ammo Rasululloh sallallohu alayhi vasallam nima demoqdalar:

«Ol hammasini!»

«Hammasinimi, yo Rasululloh?»

«Ha, hammasini!»

Hammasini olibdi, jimgina ularni olib, kechga yaqin qabilasiga kirib boribdi.

«Allohu Akbar! Bu nima? Sen ertalab bir o'zing chiqib ketganding. Nima, talonchilik qildingmi yoki o'g'irlik qildingmi?» – deb taajjublanib so'rabdilar. Shunda u:

«Muhammad berdi. Faqirlikdan qo'rqmaydigan Muhammad berdi», – deb aytibdi.

Bizning esa faqirlikdan qo'rqqanimizdan qo'llarimiz titraydi: «Hoy, hoy, bola-chaqangga nima qoladi?» – deymiz.

Payg'ambarimiz faqirlikdan qo'rqmasdan butun borini beribdilar. Odamlar hayron qolishibdi, hammalari maftun bo'lib, musulmonchilikni qabul qilibdilar. Bir poda qo'y yaxshimi yoki bir guruh musulmonlar yaxshimi? Shu qadar musulmonga ega bo'ldilar. Qo'yni berdilar, musulmonni – mo'minni oldilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Bu bilan zarar ish qilmadilar? Yanada ko'proq foyda ko'rdilar, chunki xolis musulmonlar ko'paydi.

Ya'ni berishdan qo'rqmay berar edilar. Abu Bakr Siddiq ham bermoqchi bo'lganlarida qo'rqmasdan hammasini berar edilar.

«Miskinlarga mollaringizdan berdingizmi?» Beramiz. Nima uchun beramiz? Chunki ularning haqlari bor. Bizning mollarimizda ularning ham haqlari bor. Uni bergan vaqtimizda molimiz ma'nan tozalanadi, poklanadi. Shuning uchun ham arabchada zakotning ma'nosi tozalanish degani. Zakot berishing bilan moling poklanadi. Zakot bu – insonning Allohga itoatkorligini ko'rsatadigan belgi. Baxil bilan saxiy musulmonning farqi zakot berishda bilinadi. Zakot bergan insonni baxil deb aytolmaysan. Ammo zakot bu – saxiylikning eng quyi qismi, eng yuqori cho'qqisi bu siddiqiyatdir. Nimang bo'lsa, Alloh yo'lida hammasini berasan. Hatto jonlarini ham berganlar. Bir usmonli shoiri shunday deydi:

*Jonni jonon so'rabdi, bermaslik bo'lmas, ey dil,  
Har ne qilganim bilan u na meningdir, na sening!..*

Jonni jonon xohlaganidan keyin bermasdan iloji yo'q? Axir, bu meniki ham, seniki ham emas, Unikidir! Shundoq deb, jonini beribdi...

Demak, infoq-ehson qilganlardan Alloh mamnun bo'lar ekan. Shuning uchun ham Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadisi shariflaridan birida Ramazon «shahrul muvosot», ya'ni «... mol bilan, infoq-ehson bilan o'zgalarga yaxshilik qilish oyi», degan edilar.

Ramazonda bilasiz, Qur'oni karim o'qiladi, tarovih namozlari ado etiladi, ro'za tutiladi. Yana nima qilinadi? Xazinalar eshigi ochilib, faqirlarga ham ulush beriladi. Ularni sevintiriladi. Shunda Alloh rozi bo'ladi. Nega? Chunki, ko'ngil olish – Ka'ba qurishdek savob. Qalbni buzish – Ka'bani buzishdek gunoh.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Ka'baning oldiga borib:

«Qanday chiroylisan, qanday muboraksan, ey Ka'ba! Naqadar muhtaramsan, lekin Allohga qasam bo'lsinki, mo'min qulning qalbi Alloh nazdida sendan ko'ra qiymatliroqdir», – deydilar.

Mo'min qulning qalbi Ka'badan ko'ra hurmatliroq. Namozxon, niyozmand bir faqirga biror narsa berib ko'nglini olsangiz, qanchalik savob topgan bo'lasiz!

Istanbulda sodir bo'lgan bir voqeani aytib berdilar. Juda ham qiziq, aqlim lol qoldi. Qurbon bayrami kuni namozdan chiqishlari bilan bir boy kishi u yerdagi bir oq soqolli, o'rtacha bo'yli, jamoatning faqir kishilaridan birini qo'ltig'idan tutib masjid atrofidagi bir qo'y podasining oldiga olib boribdi va:

«Shu qo'ylarning orasidan eng chiroylisini, eng semizini tanlagin! Qaysi birining go'shti shirin va yaxshi bo'lishini sen yaxshi bilasan. Eng chiroylisini topgin!» – debdi.

Faqir eng katta, eng semiz qo'yni tanlab:

«Taqsir shunisini oling, shunisi eng yaxshisi!» – debdi.

«Xo'p bo'ladi! Chetga tortgin uni!» – deb buyuribdi.

Qo'yning haqini beribdilar. Keyin:

«Buni uyingga olib bor! Bolalaring bilan mazza qilib yegin!» – deb faqirga ehson qilib yuboribdi.

U bechora, boy qo'yni o'ziga tanlayapti, deb o'yladi. Holbuki, u faqirga bermoqchi edi.

Agar qo'yni unga berishini bilganida edi uyalaradi, kichigini tanlar edi. «Shunisi yetadi taqsir, shart emas!» – deb aytardi. Boy kishi o'ziga oladi deb, eng kattasini, eng semizini, ikki barobar qimmatini tanladi. Boy esa qo'yning pulini to'lagach, «Buni uyingga olib bor! Men bu qo'yni sen uchun oldim!» – dedi.

Bu juda ham hayratlanarli, shu bilan birga ibratli bir holdir. Qarang, men uni tanimayman, lekin eshitganimdan keyin duo qilyapman. Jo'mardlikni qilgan odam allaqachon o'lib ketdi, ammo ramazon oyida Ispartada uning haqqiga duo qilmoqdalar. Inson o'ladi, lekin orqasida qilgan yaxshi amali, ehtiromga sazovor nomi qoladi.

Endi hayotingiz xronologiyasini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-chi; Sizga yomonlik qilgan, yaxshilab jazolagan biror odamga yaxshilik qildingizmi? Demak, Alloh yomonlik qilganga yaxshilik qilganni sevadi. Shunday qilinsa, orada muhabbat paydo bo'ladi, yaralar bitadi. Agar shunday qilinmasa, qon da'vosi to'xtamaydi. Shu bois Alloh taolo: «Yomonlik qilganga yaxshilik qilganingizda savob topardingiz, rizoligimga erishardingiz. Molingizdan berganingizda rizoligimni qozonar edingiz. Farzlarimni tutganingizda savobimga erishardingiz. Mening xotiram uchun g'azabimdan qo'rqib, bir gunohdan o'zingizni tortganingizda, roziligimga erishgan bo'lar edingiz», deb ogohlantirmoqda. Bir hadisi qudsiy yodimga tushdi. Ertaga ro'zi mahsharda Alloh taolo bandasiga shunday der ekan:

«Bandam! Men kasal bo'ldim, meni ziyorat qilmading!»

«Subhanalloh! Ey Rabbim, sen olamlarning Rabbisidan, qanday qilib sen kasal bo'lasan? Bu nima degani?»

«Falonchi qulim kasal bo'lganda uni ziyorat qilganingda edi, Meni ziyorat qilgandek savob topar eding».

«Ey bandam! Men och qoldim, meni to'ydirmading!»

«Fasubhanalloh! Ey Rabbim, sen olamlarning Rabbisidan, sen och qolmaysan, sen bu sifatlardan poksan!»



Bu nima degani?

«Falonchi qulim och qolgan edi. Sen uni to'ydirganingda meni to'ydirgan bo'lar eding» – degan hadisi shariflar bor. Alloh taolo qullarining bir-birlariga mehru muruvvatli, marhamatli bo'lishlarini yaxshi ko'radi va rozi bo'ladi.

«Sizga zulm qilganni hech kechirdingizmi?» Kechirimlilik insonga juda katta mukofotlar keltiradi. Bu fazilat ham oyati karimada madh qilinmoqda:

**«G'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir»**. Bu – taqvo ahlining sifati. Hozir biz ramazonda taqvoni o'rganyapmiz, bir oylik taqvo kursida ta'lim olyapmiz.

**«Taqvoli kishilar bo'lishingiz uchun»**, deb buyurilmoqda. Xo'p, taqvo ahlining sifati nimalardan iborat ekan?

**«(U taqvodor zotlar) yaxshi-yomon kunlarida infoq-ehson qiladigan, g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir»**, jo'marddir – faqirlar uchun omborining, qopining og'zini ochadi (val ka'zimi'nal g'ayz). «G'azabi kelsa, o'ziga hokim bo'lib, g'azabini yutadi (val a'fi'na anin-na's). Insonlarni esa kechiradi». Mutasavvif Yunus Emro buni she'riy yo'lda chiroyli qilib bayon etgan:

*Yaratilganni xush ko'r,  
Yaratuvchi tufayli.*

Insonlar xom sut emgan, vafosiz, qusurli, yaxshilikni unutuvchi bo'lsalar ham, ularni Alloh uchun yaxshi ko'rgin. Nima ham qilardik boshqa?

Zulm qilganni kechirasan, shundagina jarohatlar bitadi, jamoalar go'zallashadi, yomonlar qilgan ishlaridan pushaymon bo'ladi. Ishlar shundagina tuzaladi. Aks holda jamiyatda ishning to'g'ri ketishi qiyin.

«Siz bilan aloqasini uzgan kishining huzuriga siz bordingizmi?» Esidan ko'tarilib ketibdi, sizni hech so'ramaydi, hol-ahvolingizdan xabar ham olmaydi, aloqani kesibdi, siz esa hech oldiga bordingizmi? Bu juda ham ahamiyatli.

Ustozimiz Muhammad Zohid Qo'tqu hazratlari bir shaharga kelganda:

«Falonchini ziyorat qilgani boramiz!» – deb qoldilar. Ziyoratiga boradigan odamimiz o'zlaridan yosh, o'zlarining muridlari va o'zlari haqida yomon gapirgan bir kimsa edi. Ig'vogarlik qilgan, odobsizlik qilgan, birovlar haqida gapiradigan bir kimsa... Shunda men ustozning oldilariga yaqinlashdim va:

«Ota! U odam siz haqqingizda bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirmoqda, sizni uncha yaxshi ko'rmaydi, sizga muxolif!» – deb aytdim.

Lekin, ular xossatan uning oldiga bordilar. U mening haqimda gapirmoqda ekan, deb o'tirmadilar. Natijada u odamning qanday o'zgarganini men yaxshi bilaman.

«Sizga xiyonat qilganga siz yaxshi vafoli bo'la oldingizmi?»

«Farzandlaringizni odobli qilib tarbiya qildingizmi?»

«Qo'shnilaringizni xushnud qila oldingizmi? Ular sizni duo qiladilarmi, mamnunmi

sizdan?»

«Adashib qolmayin deb, noto'g'ri ish qilib qo'ymayin deb, haqni o'rganaman deb, diniy mavzulardagi mushkulotlaringizni olimlaringizdan so'ratingizmi?»

«Chunki shubhasiz Men sizning shaklu shamoyilingizga va chiroyingizga qaramayman». Molu dunyongiz bor ekan, martabangiz baland ekan, har xil chiroyli sifatlangiz bor ekan, naslu nasabingiz toza ekan. Lekin ular meni qiziqitirmaydi. Yuzingiz ham, suratingiz ham va sizning yaxshi vasflaringiz ham meni qiziqitirmaydi, men ularga nazar tashlamayman. Faqatgina qalblaringizga boqaman! Qalbingiz qanday – pokmi, unda sof niyatlar bormi o'zi, shunga e'tibor beraman va niyatlaringizga qarayman.

«Mana shu aytib o'tganlarimni, men xohlagan shaklda bajarsangiz, mening rizoligimni toping! Bu vasflar orqali Meni rozi qiling!» – deb buyurmoqda Alloh taolo.

Alloh taolo shu muborak ta'lim-tarbiya oyida, taqvoni o'rganish oyida, ibodat oyida, rahmati jo'sh urgan oyda; avvali rahmat, o'rtasi mag'firat, oxiri esa jahannamdan ozod bo'lish oyida hammamizni tafviqoti samadoniyasiga mazhar aylasin! Bu tabarruk oying xayru barakotidan foydalanib, Alloh sevgan taqvodor solih bandalar holiga kelishni nasib aylasin! Yomon axloqlarimizni tark etib, go'zal xulq egasi bo'lishimizni nasib etsin! Bihurmati asrori suratil fotiha...

7 fevral 1995 / 7 Ramazon 1415

## **TAVBAGA SHOSHILING**

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologaga beaded, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!*

Alloh taoloning quyidagi amrini Hazrat Payg'ambarimiz naql etadilar:

«Ey Odam o'g'li! Ichingda tavba qilishdan gapirasan, o'ylaysan, niyat ham qilasan, ammo qachon tavba qilasan? Nega uning vaqtini kechiktirasan? Oxiratga ishonasan, lekin nima uchun oxirat uchun harakat qilishni orqaga surasan?»

Biz hammamiz Odam alayhissalom avlodlaridan bo'lganligimizdan, bu xitob hammamizga tegishli. Binobarin, bu savol har birimizni jiddiy o'ylantirishi lozim. Lekin yaxshi niyati boru uni amalga oshirishga harakat qilmayotgan odamlar bu savol haqida yanada ko'proq bosh qotirsinlar. Ko'pincha odamlar «Mening ko'nglim toza, niyatim pok. Asosiysi – shu. Qolgan ishlar – tavba, namoz, ro'za—ikkinchi darajali narsalar. Ha, endi, ertami-kechmi, bular ham amalga oshib qolar», – deb o'zlarini yupatib yuradilar. O'z-o'zingizga, nafsingizga aldanib qolmang, birodar! Agar yaxshi niyatu ko'ngil pokligining o'zi yetarli bo'lsaydi, Alloh bizlardan yaxshi niyatlaringni qachon amalga oshirasan, qachon astoydil tavba qilasan, deb so'ramagan bo'lardi.

Masalan, bir kishi hajga ketmoqchi. Lekin, «Bir ozgina vaqt o'tsin, hali erta, qariganda boraman», – deydi. Namoz o'qimoqchi yoki biror savobli ish qilmoqchi, lekin, «Bir oz vaqt o'tsin, bola-chaqamni uyli-joyli qilib olay, yoshim keksaysin», – deydi. Aslida esa inson har qanday yaxshi, xayrli ishni o'z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak! Balki, xayrli ishni kechiktirish mumkindir, lekin tavba qilishni kechiktirish katta fojeadir. Ba'zi insonlar «Bir ozgina vaqt o'tsin, qirq yoshdan-ellik yoshdan o'tay,, shundoq bo'lsin, bundoq bo'lsin» – deb yana uzoq bir muddatni ko'zlab yuradilar. Xuddi mana shu kechiktirishga tasvif deyiladi.

Bir birodarim bor edi. O'zi har jihatdan aqlli. Hattoki, fan nomzodi. Suhbatlashib golsangiz, uning musulmonligiga hech shubha qilmaysiz. Lekin namoz o'qimaydi.

«Qani, namozni boshla endi!» – desangiz.

«Bir oz vaqt o'tsin, boshlayman, domla! Xatolarimni bilaman, kamchiligimni tushunaman»,- deb yerga qaraydi.

«Bilsang, boshla!»

«Boshlayman o'qishni...»

Xuddi mana shu boshlayman deyish tasvif deb ataladi. Bu tasvif shaytonning o'yin-hiyalaridan biri. Chunki Shayton insonni xayrli ishlar qilishdan qaytarishga harakat qiladi. Aksincha, yomonlik qildirishni xohlaydi. Yomonlik qildira olmasa, yaxshilikni qildirmaslikka harakat qiladi. Yaxshilik qilishdan to'xtata olmasa, hech bo'lmasa uni kechiktirishga harakat qiladi. «Qilasan-da shu ishni, do'stim, lekin bir ozgina sabr qil! Bir necha yil o'tsin...» kabi soxta taskinlar bilan uni ortga qoldirib boraveradi.

Tavba bu – hayotning eng ahamiyatli ishi. Tavba bu – Alloh taoloning yo'lga qaytish degani. Odamlar tavbani qo'lga tasbeh olib, «Astag'firulloh! Tavba, ey Alloh! Tavba qildim, ey Alloh!» – deb aytishdangina iborat deb tushunadilar. Unday emas. Tavba bu- Alloh yo'lga kirish, Alloh yaxshi ko'rgan bir qul bo'lish.

Hazrati Ali roziyallohu anhu Kufa masjidlaridan biriga kiribdilar. U yerda bir kishi masjidning burchagida o'tirib tavba qilayotgan emish: «Tavba, yo Rabbii! Astag'firullohal azim va atubu ilayh...» Shunda Hazrati Ali roziyallohu anhu uning yoniga borib, ««Ey birodar! Faqatgina tili bilan «Astag'firulloh, tavba» deyish yolg'onchilarning tavbasidir», – debdilar.

Tavbaning mohiyati shundaki, agar inson noto'g'ri yo'lda bo'lsa, to'g'ri yo'lga kiradi. Namoz o'qimayotgan bo'lsa, namoz o'qiydi, ro'za tutmayotgan bo'lsa, ro'za tutadi, yomon axloqlari bo'lsa, ularni tark etadi. Alloh taoloning amrlarini bajarmayotgan bo'lsa, bajarishga harakat qiladi... Ya'ni haqiqiy qaytish qiladi. Buni ko'rgan kishilar: «Bu odam o'zgardi, yomon yo'ldan qaytdi», – deydilar.

Kimdir qaytishni, o'zgarishni xohlamoqda-yu, lekin bu ishni kechiktirmoqda. Shuning uchun ham Alloh taolo: «Tavba qilishni xohlaysan-u, ammo qachongacha uni kechiktirasan?» – deb so'ramoqda. Shu bois Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday marhamat qiladilar:

«O'limdan oldin tavbaga shoshilinglar». Qara, o'lim birdaniga keladi, qachon jon berishing ma'lum emas. Har xil noxush hodisalar, turli xastaliklar bor. Yoshni ham olib

ketadi, qarini ham. Kasal o'rnida yotaveradi, ammo unga qarab turgan qarovchisi ketadi. Bolasi o'ladi, otasi qoladi. Allohning ishini bilish qiyin! Shuning uchun ham o'lim kelmasdan burun tavba qilish kerak!»

Hadisda aytilishicha, Rajab – Alloh qullarini avf etadigan oy ekan.

Nima degani bu? Butun oylar, butun yillar, butun dunyo, butun oxirat, hamma narsa Allohnik. Rajab ham Allohnik bo'lib, bu oyda qullarini kechirib, tavbalarini qabul qiladi... Shuning uchun ham o'sha vaqtdan boshlab tavba qilish lozim. Aslida, inson tavba qilishi lozimligini anglagan zahoti bir muddat ham kechiktirmasdan, darhol tavba qilishi kerak!

Hadisi sharifda «O'zing ham oxiratni talab qilasan, ya'ni jannatga kirishni xohlaysan-u, qani amali solihing, qani qilgan xayru ehsonlaring, ibodatlarining? Jannatni xohlaysan-u, jannatiy amallarni qilmaysan. Hali ham boshlamagansan. Qachongacha buni kechiktirasan?» – deb aytilmoqda.

«Ey Odam o'g'li! Nima qilmoqdasan o'zi?.. Obidlarning so'zini gapiryapsan, ammo o'zing munofiqning ishini qilyapsan?» Odamlarning gaplari chiroyli bo'ladi. Shuning uchun eskilar shunday deganlar:

«Nasihat qilish oson, uni qabul qilish esa mushkul». Ammo yaxshi nasihatni eshitish bilanoq qabul qilish kerak. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam davridagi sahobiyalar yaxshi bir so'zni eshitishlari bilanoq qabul etar va unga amal qilar edilar. Bu zamonning odamlari esa nasihatni eshitadilar, uni qirq marotaba tushunib, haqli ekanligini bilib ham unga amal qilmay yuraveradilar.

«Ichkilik haromdir» oyati tushishi bilanoq Madinada kimning uyida ichkilik bo'lsa, darhol ko'chaga olib chiqib, to'kib tashladilar. Ko'chalarda aroq seldek oqdi. Nega shunday qildilar? Oyat nozil bo'lgani uchun, albatta. Hozir odamlarning otasi musulmon, onasi musulmon, bolasi esa ichkilikka berilgan, tashlamaydi. Ichkilik – gunoh deysiz, baribir ichaveradi. Ammo o'zi nasihat qiladi: boshqasini oldiga o'tqazib olib: «Sigaret chekma!»–deydi-yu, o'zining kissasida sigaret turibdi. Qarshisidagiga to'g'risini gapirmoqda, lekin o'zi teskarisini bajarmoqda.

Obidlarning gapini gapirib, munofiqning hayotini yashamoqda. Munofiqning bosh sifati nima? Munofiq – yolg'on gapiradi, va'dasida turmaydi, omonatga xiyonat qiladi, ya'ni, ishonchsiz bir inson. So'zi boshqa, ishi boshqa. Mo'min esa bunday emas: uning ishi sog'lom, so'zida sodiq turadigan ishonchli kishidir.

Bir kishi Istanbuldagi bir do'stimizning muborak otalaridan – (U muborak zot vafot etdilar. Alloh rozi bo'lsin. Merosini o'g'li darhol jome' qurishga sarf qildi). – «Hoji ota, anchagina ehtiyojim bor, qarz berib tursangiz menga», – deb aytibdi. «Bolam, kassa u yerda! Borib qancha qarz kerak bo'lsa, oling!» – deb yuboribdi. O'zi hatto kassasining oldiga bormagan ham. U esa, borib qancha kerak bo'lsa olibdi. Ma'lum bir vaqtdan keyin kelibdi va «Hoji ota, bilasizmi, men sizdan bir vaqtlar qarz olgan edim, o'shani olib keldim», – deb aytibdi. «O'g'lim, kassa o'sha yerda! Olib borib qo'ygin u yerga!» – deb jo'natibdi. Ana shu otaxon bir kuni o'g'lining ishxonasiga kelibdi. Qarasa, stolning ustida har xil qog'ozlar, fakturalar, veksellar, «Bular nima o'zi?» – deb so'rabdi. «Imzoli veksellar?..» «Voy, voy, voy! Ishlarimiz shunday qog'ozlarga qoldimi endi! Bizning

davrlarimizda bir og'izgina so'z bilan do'kondagi butun mollarni jo'natar edik, u ham bizga o'z haqqini belgilangan miqdorda berar edi», – deb ayblabdilar.

Hoji ota eski zamon odami bo'lganlari uchun bu zamoni ayblamoqdalar. Insonlar mo'minlikni tashlab, munofiqlashdilar. Inson so'zida turmaydigan bo'lib qoldi. Va bu hol ko'pchilik uchun oddiy, odatiy bir narsaga aylandi. Hattoki, ko'pgina namozxon birodarlarimiz ham bu qusurdan xoli emaslar. Bir joyda devorga shunday hadisi sharif yozilgan ekan: «Bir kishining namoz o'qishi, ro'za tutishiga qarab aldanib qolmagin. Muomalasiga qaragin-chi, qanday ekan? Ishi qanday? Ro'za ham tutmoqda, namoz ham o'qimoqda, lekin, ishi teskari, egri bo'lmoqda, yomon hiylali, buzuq, yolg'on bo'lmoqda».

Ispartalik birodarlarimizdan «Ispartada qo'lda to'qilgan joynamoz qancha turadi?»-deb so'radim.

«Domla! Chirigan xom-ashyolardan to'qiy boshlaganliklari uchun xaridorlarning talabi ham qolmadi unga», – deb javob berdilar.

Bir xaridorni bir marotaba aldaydi, xolos... Chirik ipdan bir dona to'qib sotdi, chirik bo'lganligidan bexabar xaridor ham bir marta oldi, ikkinchi marta olmadi. Vaholanki, har bir ishimiz mo'minning ishidek bo'lishi kerak! Alloh rozi bo'ladigan shaklda bo'lishi lozim!

«Senga biror narsa berilganida, unga qanoat qilmaysan! Alloh tarafidan boshingga bir imtihon kelganida sabr etmaysan!» Mo'min berilgan rizqiga qanoat qiladi!  
«Alhamdulillah, shukrlar bo'lsin shu holimga, shu kunlarimga!» – deb shukr qiladi.

Chanoqqal'ada birov bilan gaplashib qoldik. U kishi bizga: "Bu yerda tabarruk cholu kampir yashashadi. Juda ham dindor, yaxshi insonlar», – deb aytdilar. Men shularni bir ziyorat qilaman deb qaror qildim va birga bordim. Uylari yo'q, usti tunukadan berkitilgan bir kulbada yashamoqdalar. Shunchalik torki, faqat bir o'rindiq sig'adi, xolos. Cholu kampir o'sha yerda yashaydilar. Yo Alloh, xotin shunday ham mamnunki, og'zi duoda, shirin so'zli... «Astag'firulloh, shu ne'matlarni qarang!», «Shu holimizga qarang!» – demoqda. Oyoqda turib bo'lmaydigan, sandiqdek kulba ichidagi bu bechora qariyalarning holini ko'rib uyaldim, men uyalib ketdim. «Shu holimizga shukr bo'lsin». "Shu ne'matlarni bizga berib qo'ygan Allohga hamdu sanolar bo'lsin... Biz kimmiz o'zi, bizni ziyorat qilishga kelibsizlar, ziyoratga yaramaymiz?» – deb aytmoqdalar.

Qanoat, ko'ngil boyligi insonni ana shunday baxtli qiladi. Agar berilgan ne'matlarga nisbatan qanoatsizlik mavjud bo'lsa, u insonni juda ham behuzur qiladi. Allohga shukrlar bo'lsinki, qornimiz to'q, ustimiz but... Alhamdulillah, shukr qiladigan qanchadan-qancha ne'matlar bor. Ko'zimiz ko'radi, qulog'imiz eshitadi, aqlimiz ishlaydi.

Inson berilgan ne'mat qadrini bilib, unga qanoat qilishi lozim! Har bir kishining boshiga turli balolar kelishi mumkin. Sabr qilishi kerak. Chunki balolarga payg'ambarlar ham sabr qildilar.

«Insonlarni yaxshilikka buyurasan, o'zing esa qilmaysan. Yomonlikni qilmangiz, deysan-u, o'zing bajaraverasan! Bunday bo'lmaydi!»

«Solih bandalarni sevasan, ammo ulardan emassan! Munofiq'larga nafrat qilasan-u,

ularning sifati esa senda ham bor! Bunday bo'lmaydi, ey Odam o'g'li!» – deb aytmoqda Rabbimiz hammamizga umumiy qilib. Tabiiyki, umumiy qilib aytilgan so'zlardan har bir kishi o'z hissasini olaveradi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytadilarki: «Munofiqlarning sifatlari bor. Agar bir insonda bu sifatlarning hammasi mavjud bo'lsa, xolisu muxlis kishi ham munofiq bo'ladi qoladi. Agar bu sifatlardan bittasi mavjud bo'lsa, munofiqlikdan bir parchasi bo'lgan bo'ladi». Shuning uchun ham insonda bunga o'xshash narsalar bor bo'lsa, ularni tark etishi lozim!

Yosh bolaga: «Bolam, to'g'riso'z bo'lgin, yolg'on gapirma!» – deymiz. Bir ozdan keyin telefon jiringlasa, «Uyda yo'q, deb ayt», – deb buyuramiz. Xo'p, endi nima bo'ldi? Yolg'on gapirma, deb aytgan edingiz-ku? Bola buni juda yaxshi tushunadi: «Ota, siz menga yolg'on gapirma demaganmidingiz?» – deydi. «Dada, shunday ham bo'ladimi? Onajon, bunday narsa ham bo'ladimi?» – deb taajjublelanadi. Ular esa: «Jim tur, sen gapirma!» – deydilar. Lekin nega bola gapirmasin. Bu yerda u haq, kattalarning o'zlari nohaq.

Yaxshilikka buyurgan kishi unga avvalo o'zi rioya qilishi lozim! Shundagina so'zining ta'siri kuchli bo'ladi.

Bir kun Abdulqodir Giloniy hazratlari va'z o'qish uchun xutbaga chiqibdilar. A'uzu basmalani aytib, va'zlarini oddiy so'zlar bilan boshlabdilar: «Uyda edim, xonimim unday qildi, bunday qildi...» – deb. Hali ma'ruzaning asosiy mavzusiga kirmasdan, odamlarning ko'zlaridan yoshlar oqa boshlabdi.

O'g'li: «Men ham kursining ustiga chiqib, shunday narsalarni aytamanki...» – debdi. Otasi uning qanday holatda ekanligini darhol tushunibdi. «Xo'p, bu hafta sen va'z o'qiysan», – debdi. U ham yaxshilab tayyorgarlik ko'ribdi. Odamlar eshitibdilar, lekin na bir hayajon, na boshqa biror narsa bor... Nega shunday bo'ldi? Chunki otasining so'zlari hayotiy bo'lganligidan ta'sirli edi. Lekin balandparvoz so'zlar, hayajonli o'xshatishlar bilan gapirsa-da, agar o'zi uni amalga qilmasa eng ibratli so'zning ham ta'siri bo'lmaydi.

Inson biror yaxshilikni aytishdan oldin, avvalo o'zi uni amalga oshirishga harakat qilishi kerak! Solihlarni sevsa, ulardan bo'lishga harakat qilishi kerak munofiqlarni sevmasa, ulardan yiroqlashishga harakat qilishi lozim!

Munofiqlarning holati qanday? Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Erkaklar bomdod va xufton namozlarini masjidga o'qishlikka harakat qilsinlar, bunga ahamiyat bersinlar. Chunki munofiqlar bu ikki namozga kelmaydilar!» – deb aytadilar. Demak, biror kishi bomdod va xufton namozlarini o'qish uchun masjidga chiqa olmasa, bundan tashvishga tushib, «Ey voh! Menda munofiqlarning holati bor ekan, ularga o'xshab uyda o'tirishim kerakmi?» – deb shoshilib masjidga chiqishi kerak. Modomiki, munofiqlarni sevmas ekanmiz, u holda, ulardagi biror sifatning o'zimizda bo'lmasligi uchun harakat qilishimiz kerak. Modomiki, solihlarni sevar ekanmiz, ulardek bo'lish uchun intilishimiz lozim.

Biz muborak insonlarning manoqiblarini, hayotlarini o'qishda juda katta foyda borligini ko'rdik. Chunki inson farzandi, yaxshi insonlardan, dindor kishilardan ibrat olishga

intiladi, havas qiladi.

Hazrati Oyishai Siddiqa validamiz uylariga kelgan hamma narsani kechgacha miskin-bechoralarga tarqatib yuboribdilar. Shom namoziga azon aytilibdi, hammalari ro'zador ekanlar, xizmatchisi chiday olmasdan:

«Ey mo'minlarning onasi, bizga ham biroz ajratsangiz edi. Hammaga berdingiz, lekin o'zingiz ham ro'zadorsiz. Quruq non va xurmodan boshqa hech narsamiz yo'q!» – debdi.

«Vaqtliroq aytganingda buni ham bajargan bo'lardim. Aqlimga kelmabdi», – deb javob beribdilar.

Solih insonlarning holiga qarang: ular qanday xayru hasanot bermoqdalar!

Hazrati Ali oilalari bilan birga iftorlikka o'tiribdilar. Shu payt bir miskin kirib qolibdi va «Alloh rizosi uchun biror narsa bersangiz, qornim och», – deb so'rabdi. Shunda ular o'zlari yeydigan taomlarni beribdilar va o'zlari och qolibdilar. Sabr qilamiz debdilar, ertasiga yana ro'za tutish uchun niyat qilibdilar va och ro'za tutibdilar.

Ertasi kun ovqatni tayyorlab, dasturxonga olib kelibdilar va yana o'sha vaqtda eshik taqillabdi. Bir yetim kelib: «Och qoldik, yeydigan biror narsa bo'lsa beringlar!» – deb so'rabdi. Ikkilanmasdan, nasibalarini unga beribdilar.

Uchinchi kun och hollarida yana ro'zani davom ettiribdilar. Dasturxon atrofida o'tirganlarida bu safar bir asir kelib qolibdi. «Och qoldik, biror narsa bering!» – deb so'ragan ekan, darhol beribdilar.

Oyat nozil bo'libdi:

**«Va taomni suyib-xohlab tursalar-da, (o'zlari yemasdan) miskin, yetim va asirlarni taomlantirurlar»** – oyati karimasi Hazrati Alining bu saxovati haqida tushgandir.

Va bunday saxiy insonlar shunday deydilar:

**«(Ular ayturlar): Bizlar sizlarni yolg'iz Allohning yuzidan taomlantirurmiz. Sizlardan (bu ishimiz uchun) biron mukofot va minnatdorchilik istamasmiz – kutmasmiz»**. Evaziga molu dunyo ham istamaymiz, shukr ham xohlamaymiz. Qilganlarimiz faqat Alloh rizosi uchun, xolos.

Bunday ibratli voqealarni eshitgan kishilar muborak zotlarga havas qilib, ularga o'xshashga intiladilar. Shuning uchun ham solihlar hayoti haqida o'qish va ulardek bo'lish uchun harakat qilish lozim.

«Ey Odam farzandi! Bajara olmaydigan ishlaringni gapirasan va buyurilmagan ishlarni bajarasan».

Bu yerda odam farzandining ikki qusuri aytilmoqda:

Ba'zi kishilar tushunib-tushunmay, unday qilaman-bunday qilaman deb, ko'p narsani tiliga oladi. Bajara olmaydiganini gapirish to'g'ri emas. Uddasidan chiqadigan darajada

gapirib, aytgan so'ziga sodiq qolishi lozim. Buyurilmagan ishlarni esa bajarmaslik lozim.

«Buyurilmagan ishlarni bajarasan!» O'ylab ko'ring-a! Qilayotgan barcha ishlarimiz Allohning amrimi?.. Ishlarimizning qanchasi Allohning amri yoki Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning sunnatlariga mos?

«Bir kishida haqing bo'lsa, uni olishga harakat qilasan, ammo bировning haqi senda bo'lsa, uni qaytarishdan qochasan!»

Meros taqsimlanar ekan, falonchining bu merosda haqi bor. Shar'iy nuqtai nazardan qaraganda vafot etgan ayol merosida erkak jiyanlarining haqi bor. Ammo bugungi qonunlarga ko'ra haqi yo'q. Onadan qolgan merosni ikki qiz o'zaro bo'lishib oladilar. Ammo Qur'oni karimda buyurilishiga ko'ra faqat ikkovi emas, balki erkak jiyanlari ham ulush olishlari lozim. Bular nima qilyaptilar? Haqini bermayaptilar? Borib aytsang, buni qaerdan olding, deb janjal qiladilar. Buni men o'ylab topganim yo'q, axir bu Allohning amri-ku! Berishing kerak!

«O'z haqingni tiyinigacha olmaguncha qo'ymaysan. Ammo boshqalarning haqini bermayapsan, ey odam bolasi». Avval ignani o'zingga sanch. Bir kishi haqingni bermasa, qanchalik jahling chiqadi!.. O'rtaga advokat solasan. Unday bo'lsa, sen ham boshqalarning haqini to'liq ber!

«Hech bir yangi kun yo'qki, yer yuzi, tuproq, mana shu yer senga quyidagicha xitob qilmasa: Ey, Odam o'g'li! Hozir ustimda yuribsan, bir vaqt kelib ichimga kirasan! Seni qora tuproqqa ko'madilar. Hozir kulib yuribsan, lekin ertaga go'shtingni, suyagingni qurtlar yeydi».

«Qabr ham insonga shunday xitob qilar ekan: Ey inson bolasi, Men savol-javob qilinadigan manzilman, diqqat qil. Qabrda «Rabbing kim?.. Payg'ambaring kim?.. Dining nima?.. Kitobing qaysi?.. Qiblang qaer?..» degan savol-javoblar bo'ladi».

«Yolg'iz o'zing qoladigan joyman. Yoningda do'sting, yordamching, yo'ldoshing bo'lmaydigan joyman». Inson qabrga qo'yilgach, o'zi yolg'iz qoladi, shunda uning yo'ldoshi kimlar bo'ladi? Barcha qilgan ibodatlarini, amali-solihlari yo'ldosh bo'ladi. Namozini bir tarafida, ro'zasi ikkinchi tarafida, qilgan haji, o'qigan tilovatlarini, zikrlari, xayru-hasanotlarini bir tomonida uni qo'riqlaydilar...

Bir hadisi sharifda shunday aytiladi: Lahadga qo'yilgan inson vujudidan nur taralib turgan nuroniy, muborak, sevimli chehrali bir insonni qarshisida ko'rishi bilan undan so'rar ekan:

«Sen kimsan, ey muborak zot? Men qabrda yolg'iz boshim bilan shunday qo'rqib turgan bir paytimda seni ko'rib turibman. Sening yuzing juda ham nurli, juda ham sevimli, sen kimsan o'zi?»

U shunday javob berar ekan:

«Men sen o'qigan «Taborak» surasiman! Alloh menga bu suratni berib, sening yoningga yo'ldosh qilib jo'natdi!»

Amallarimiz, toat ibodatlarimiz bizga yo'ldosh bo'ladi qabrda. Shuning uchun ham hadisi



sharifning oxirida Alloh taoloning shu amrlari joy olgan:

«U holda, meni ma'mur qilishga harakat qil, ey Odam o'g'li! Meni xarob-vayron qilma, buzmagin!»

Qabr ibodat bilan ta'mir qilinadi. Gunohlar bilan xarob qilinadi. Inson qabrining ma'mur etishligi xayru ehsonlarni bajarishi, xarob etishi esa, gunohlar sodir etishi bilan bo'ladi. Shunday ekan, inson umri bo'yi qabrini ta'mir qilish uchun harakat qilishi lozim.

Alhamdulillah, ba'zan ko'rib qolaman: xotinlar qabr namozlarini o'qiydilar, xatmi Qur'on tushiradilar va shunga o'xshash boshqa amallarni qiladilar. Bularning hammasi qabr ta'miri bobida qilinayotgan yaxshi ishlardir.

Bu hadisi sharif Alloh taoloning biz insonlarga xitobi. Undan kelib chiqadigan saboqlar shulardir: Tavbani – Allohga qaytishni kechiktirmaslik kerak. Modomiki, oxiratni sevar va jannat uchun ish qilar ekanmiz, so'zimiz ahvolimizga uyg'un bo'lsin, ishlarimiz munofiq kofirlarning ishlariga o'xshamasin!

Men bozorni aylandim: o'zimizdagi musulmon ota-bobolarimiz ayol-qizlarimiz qaerdayu, bugungi yarim-yalong'och xotinlar qaerda! Hozir-ku bu yer biroz sovuq – 0 gradus atrofida, biroz qor bor. Lekin hozir sen borib Antaliyani ko'r! Qani bor, yoz kunida Antaliyada keza olasanmi?

Bizning bir birodarimiz Antaliyaning asl oilalaridan edi. O'zi Amerikadan kelgan, molu dunyosi bor. Chiroyli bir uy qurdiribdilar. Qarabdilarki, farzandlari qo'ldan keta boshlabdi, imonlari keta boshlabdi! Uyni ham, Antaliyani ham tashlab, qochib ketibdilar. Nima uchun? Chunki bu turistlarning dastidan yashaydigan hollari ham qolmadi.

Turistlarni bir chetga qo'yib tur, o'zimizning aholi ulardan ham battar bo'lgan? Ajnabiylardek kiyinyaptilar, taranyaptilar, bo'yanyaptilar, bezanyaptilar, xullas ular kabi yashamoqdalar... Namoz yo'q, tahorat yo'q, g'usl yo'q, ibodat yo'q, insof yo'q, harom-halolning farqi yo'q...

«Mening onam namozni boshlamoqchi, lekin o'qishga tili kelishmayapti», – deb aytadilar. Bu yoshga kelib, katta xotin bo'libdi, lekin oddiy narsalarni ham bilmaydi. Oxiri aytdim: «Kichkina bolalarga o'rgatiladigan «Inna a'tayna»ni, «Qulhuvallohu ahad»ni o'rgansin va namozlarni ular bilan o'qisin». Holimizga qarang!

Allohning bergan ne'matlariga qanoat qilamiz! Boshimizga Allohning imtihoni yuborilsa, unga sabr etamiz! Bu imtihon kasallik, faqirlik, kamchilik va boshqalar bo'lishi mumkin. Hammasiga sabr qilamiz!

Bizning universitetdagi talabalarimiz orasida bir qiz bo'lardi. Turmushga chiqdi, juda ko'rkam farzand ko'rdi. Haqiqatan ham oydek bir chaqaloq edi. Juda sevingan edilar. Kasalliklari bor ekan, bola biroz qiyinchilik bilan tug'ilibdi... Bir haftadan keyin Alloh bolani oldi. Nachora bergan ham Alloh, olgan ham Alloh. Sabrdan bo'lak ilojimiz yo'q.

Qiz esa Allohga qanday haqoratimiz so'zlarni gapirmadi, deysiz! Meni yuragim yorilayozdi, qo'rqib ketdim. U esa jinni bo'lib qoldi, aqli boshidan uchdi. Nima ham qilardik, Xudoning taqdiri ekan. Bergan ham Alloh, olgan ham Alloh... Sabrni o'rgan!

Bizning qishloqdagi masjidning bir imomi bo'lgan ekan. Farzand ko'rar ekan-u, bir oz muddatdan keyin vafot qilaverar ekan. Ba'zan qon quyilishi va shunga o'xshash sabablar bilan o'lavergan. Bundan g'am chekkan domla shunday yig'lar ekanki, shundayin ko'z yoshi to'kar ekanki! Bir nechta bolasi shunday bo'lib o'lib ketibdi. Bir kun qishloqqa olim, fozil, yoshi kattaroq bir kishi kelibdi. Xuddi o'sha vaqtda domlaning yana bitta bolasi vafot etgan ekan. Imom domlaning yig'lab-yig'lab qiynalganini ko'rib, «Ie, sen domlasan, qani, o'tir bu yerga!» – deb o'tqizibdi.

«Senga bu farzandlarni kim beryapti?»

«Albatta, Alloh beryapti».

«Xo'p, bu farzandlarni sendan kim olyapti?»

«Alloh olmoqda».

«Senga nima bo'lyapti o'zi? Sabr qil! Imom domla ham shunday bo'ladimi, mardlik ham shunday bo'ladimi? Allohning imtihoniga sabr ko'rsat!» – deb aytibdi.

U ham «Xo'b bo'ladi!» – deb so'z beribdi va sabr qilibdi. Keyingi tug'ilgan bolasi o'lmabdi. Imtihonni qarang!

Shuning uchun ham Allohdan ofiyat istaymiz. Alloh dunyoda ham, oxiratda ham ofiyat bersin hammamizga! Hamma kunlaringiz xush bo'lsin, hamma ishlaringiz rost kelsin! Agarda shunday bo'lmasa-chi? Sabr qilish kerak! Hamma vaqt ham yoz bo'lavermaydi, ba'zan qor ham yog'adi. Hamma vaqt ham to'qchilik bo'lavermaydi, ba'zan yo'qchilik ham bo'ladi. Hamma vaqt ham salomatlik bo'lavermaydi, ba'zan kasallik ham bo'ladi. Sabr qiling!

Yaxshi musulmon sabr qiladi, ovozini chiqarmaydi, g'iq etmaydi. Allohdan kelganini biladi, sabr qiladi. Sabr qilib savob topadi. Inson ikkita narsadan savob topadi:

1. Musibat kelsa, sabr qiladi, savob topadi.
2. Ne'mat kelsa, shukr qiladi, savob topadi.

Bir shukrdan savob topadi, bir sabrdan. Agar ne'mat kelsa-yu, shukr qilmasa, savob topmaydi, gunohga botadi. Imtihon kelgan vaqtda sabr qilmasa, ham kelgan narsaning achchig'ini totadi va sabr qilmaganligi sababli savobni ham qochiradi, gunohga ham botib qolishi mumkin.

Bir xotin sochlarini yulib-yumdalab, baqirib-chaqirib yig'layotgan ekan. Buni ko'rgan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam uning yoniga borib, «Ey xotin, sabrli bo'l! Allohning taqdiri, nima ham qilardik! Boshingga nima kelgan bo'lsa, kelgandir, sabrli bo'l!» – deb buyuribdilar.

Xotin ko'zini yumibdi, og'zini ochibdi: «Sen mening boshimga nima kelganini bilarmiding o'zi?» – deb bir qancha so'zlarni gapiribdi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam qarabdilarki, xotinning odobi nuqsonli, darhol undan uzoqlashibdilar.

Orqalaridan kelayotgan sahobalardan biri xotinning yoniga borib: «Ey xotin! Sen bilan gaplashgan odamning kim ekanligini bilasanmi o'zi?!» – deb so'rabdi.

«Yo'q bilmayman», – debdi xotin.

«U zot Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam edilar», – debdi.

«Shundaymi?» deb haligi ayol orqalaridan yuguribdi: «Yo Rasululloh! Men sizni

tanimadim. Meni avf eting!» – deb kechirim so'rabdi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuribdilarki:

«Sabr eng boshida bo'ladi. Endi sabr qilsang ham qiymati yo'q!» Shuning uchun o'zini darhol qo'lga olib sabr qilgan inson savob topadi. Darrov sabr qilmasa, savobni boy beradi.

Insonlarga xayrli ishlarni tavsiya qilish yaxshi narsa, ammo bu xayrli ishlarni biz o'zimiz birinchi bo'lib boshlashimiz kerak. Yomonlik qilma deb aytish, ya'ni nahyi anil munkar farzdir, demak buni ham birinchi o'zimiz bajaramiz, ya'ni hech kimga hech qachon yomonlik qilmaymiz. Solihlarni sevmochi bo'lsak, ulardek bo'lishga intilamiz. Munofiq'larga, kofirlarga achchiqlansak, ulardek bo'lmaslikka harakat qilamiz. Ularga nisbatan xilof ish qilamiz. Urf-odatlarini aslo bajarmaymiz.

Inson bajara olmaydigan ishlariga so'z bermasligi lozim! Katta-katta gap gapirmasligi kerak! Alloh buyurmagan va Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam tavsiya etmagan ishni ham bajarmasligi kerak! Har bir ishni Alloh rizosi uchun bajarishi, «Alloh menga nimani buyurgan bo'lsa, o'shani bajaraman!» – deb ertalabdan niyatni to'g'ri belgilashi lozim! Hayotini doimo Alloh va Rasulining buyurganlarini bajarish bilan o'tkazishga harakat qilishi lozim.

Agar birovning kimdadir haqqi bo'lsa va uni olishni qanchalik xohlasa, demak o'zi ham boshqalarning haqlariga xiyonat qilmasligi lozim! Boshqaning haqini yemaslik, birovning haqiga qo'l uzatmaslik kerak!

Yer yuzi har kuni bizga so'z qotar ekan, biroq bizning xabarimiz yo'q. «Sen bugun mening ustimda yuribsan, ammo, ertaga mening ichimga kirasan!» Bu qora tuproq shunday xitob qilmoqda. Bu xitob-o'lim haq, unga hozirlik ko'r degani.

Balx shahrida Ibrohim Adham deb atalgan bir podshoh yashab o'tgan. O'sha podshoh Alloh rizoligini topish uchun uyi, saroyi, xazinalari, toju taxtini tark etib darveshlar yo'lga kirgan. Odamlar undan: «Bizlarga nasihat qil», – deb so'rganlarida juda ham qimmatli oltita nasihatni aytgan ekan. Shularning birida aytiladiki:

«Insonlar qasrlar qurish bilan ovora bo'layotirlar, sen esa qabring imorati bilan mashg'ul bo'lgin». Qarang, qanday ibratli bir gap! Darhaqiqat, bugun ko'plab aqlli, es-hushi joyida bo'lgan, haqni tanigan insonlar ham dang'illama imoratlar, dachalar qurishga astoydil berilganlar. Bugun qo'lida ortiqcha mablag'i bo'la turib bola-chaqasiga imorat solmayotgan kimsaga hamma ta'na ham qiladi. «Go'ringga orqalab ketasanmi? Puling borida imorat qurib olsang-chi!» – deydilar. Lekin hech kim «Pulingni qabring uchun ishlat» demaydi. Holbuki, yer yuzida dang'illama imoratlar qurishga sarflanadigan pullarni «qabrga orqalab ketish» va qabrda, qabrdan keyingi hayotda ulardan foydalanish ham mumkin. Faqat buning uchun bu pullarni hamma yerda, hattoki oxiratda ham muomalada yuruvchi valyutaga-savoblarga almashtirib olish zarur. Ya'nikim, pullarini bu dunyoda dang'illama imoratlar qurish uchun emas, savob ishlar uchun sarf etgan kimsa qabr binosini bezagan bo'ladi. Ibrohim Adham ana shunday demoqchilar.

Bir shoir aytgan ekanki:

«Qabr-amallar sandig'i». Yana bir shoir aytadiki, qabr qizlarning kelinchaklik sandig'i kabidir. Ota-onalar qizlari uchun dastro'mol, kiyim-bosh, oshxona jihozlarini yig'ib, sandiqqa joylaydilar. Turmushga chiqqanida ishlatadi deb, sandiqni ashyolarga to'ldiradilar. Qabr ham insonning ashyo sandig'i. Qabrda rohat-farog'at bo'lsin deb, inson dunyodalik chog'ida yaxshi amallarni yig'ib, u yerga olib boradi.

Alloh taolo nasihatni eshitib unga amal qilish, undan foydalanish, fayz olishni va sevimli banda bo'lishni barchamizga nasib etsin!

4 fevral 1995/ 4 Ramazon 1415

## NAFSNI YENGISH OYI

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin! Habibi adibi, sevimli payg'ambarimizga, xonadon ahllariga va sahobalarga salotu salomlar bo'lsin!*

Xufton azoni aytildi, tarovih tugadi. Rabbimiz qilgan ibodatlarimizni o'z dargohida qabul qilsin. Hozir muborak jum'a kunida turibmiz. Jum'a – haftaning eng xayrli kuni, eng nurli kechasi. Eng nurli kecha va eng nurli oyda, Yer yuzining eng muborak joylaridan biri bo'lmish, Allohning uyi – masjidga to'planib turibmiz. Alloh jalla jaloluhu bir kishiga masjidga borishni nasib etgan bo'lsa, demakki, uy egasi uyiga kirishga ruxsat beribdi. Bu bir ne'matdir, kelmaganlarga ham bu baxtni nasib aylasin, ularni hidoyat etsin.

Alloh taolo buyuradi:

Xursand bo'ladigan, hayron qoldiradigan bir narsa! **«Alloh tinchlik diyori – jannatga da'vat qilur va O'zi xohlagan zotlarni to'g'ri yo'lga hidoyat qilur»**. Alhamdulillah, Allohning bu da'vatiga erishganlardan, jannatiga kirganlardan aylasin...

«Demak, Alloh xohlagan qullarini siroti mustaqimga kiritadi, hidoyatni nasib etadi». Xohlagan kishisiga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Hidoyat Allohdan. Hidoyat, ya'ni Allohning to'g'ri yo'lida bo'la olmoq, Allohning biz bandalariga bergan eng buyuk imkoni. Chunki bu - rahmat yo'li, jannat yo'li.

Allohning eng buyuk ne'mati bu - hidoyat yo'lida bo'lishlik. Chunki abadiy saodatga shu bilan erishiladi.

Bu go'zal ne'matni ba'zi bandalariga bermaydi. Alloh tomonidan sevilgan banda musulmon bo'la olmaydi! Sevilgan qul ibodatlarini bajara olmaydi! Xayrli ishlarni qila olmaydi! Masjidga bora olmaydi! Va nihoyat sevilgan qul Alloh zikrini ayta olmaydi! Alloh aytirmaydi, nasib etmaydi. Bular sevilgan bandalarga nasib etadi.

Alloh taolo o'ziga ishonmaydigan va inkor qiluvchilarni hidoyatga boshlamaydi. Kufroni ne'mat qilgan, Alloh bergan xayru in'omlarni sezmagani, ne'mat egasini ko'ra olmaydigan ko'rlarni hidoyat etmaydi! Xatosini anglab tavba qilganga hidoyat beradi-yu, Allohning

ne'matlarini tushunmaydigan, fahmlay olmaydiganlarga hidoyat nasib etmaydi! Dunyodagi barcha Ne'matning – suv, havo, ovqat, salomatlik, ofiyat, aql, fikr va hokazo... Hamma narsaning Allohning ikromi ekanligini bilish lozim! Bu ne'matlar qadrini bilmagan va ularning Alloh tomonidan berilganligini tushunmaydiganlarga hidoyat nasib etmaydi.

Shuningdek, zolimlarga ham hidoyat nasib etmaydi. Boshqalarga zulm o'tkazuvchi, o'z nafsiga zulm qiluvchi, Alloh buyurgan ahkomlarini bajarmasdan gunohga botib yurganlarga hidoyat nasib etmaydi.

Fosiqlarga, fisqu fujurda yashayotganlarga ham hidoyat nasib etmaydi. Allohning tavajjuhiga erishishning ilk sharti bandaning o'z xatosini tushunib, ularni tark etib, gunohlariga pushaymon bo'lib, u yo'ldan qaytishidir. Bu noto'g'ri yo'ldan qaytmay, avvalgi holatida davom etsa, hidoyat nasib qilmaydi. Alloh bunday kishining tavbasini qabul qilmaydi, unga tavajjuh etmaydi.

Inson qanchalik gunohkor bo'lmasin, xatosini tushunib yetdimi, afv etilish umidi bor.

«Yuz martaba tavbani buzgan bo'lsang ham yana kel, bu umidsizlik dargohi emas!» Mavlono Jaloliddin Rumi hazratlariga nisbat berib, uning maqbarasi ustidagi lavhada yozilgan bu so'zlar aslida eronlik boshqa bir shoirga tegishli. Ya'ni pushaymon bo'lib, «Ey Rabbim, so'z bergan edim, ammo chiday olmasdan yana gunoh qildim, meni afv etasanmi?..» Sidqi dildan xatosini tushunib, pushaymonlik his etib, u yo'ldan qaytganlarni Alloh taolo hazratlari afv etadi.

Inson o'z haddini bilishi, xatosini tan olishi, bo'ynini egib, «Yo Rabbi, bilaman, gunohkorman, qusurliman», – deb aytishi lozim!..

Qarang, arablar qamariy oylarni boshi, o'rtasi va oxiri deb uch qismga bo'ldilar. Boshidagi o'n kunga, ashri-avval, o'rtasidagi o'n kuniga ashri-avsat, oxiridagi o'n kunini esa ashri-oxir deb ataydilar. Bu muborak, go'zal oyning to'la o'n kuni ham o'tib bo'ldi. Ramazonning ashri-avvali qo'ldan ketdi. Qaytarilishi mumkin bo'lmagan ne'matlardan biri, bu zamondir. O'tdimi orqaga qaytarib bo'lmaydi. Qaytarish mumkin emas.

Mo'minga eng buyuk nasihat, eng buyuk dakki bu – vaqtning qadr-qimmatini bilishi, umrini yelga sovurmay, har soniyasini go'zal holda o'tkazishi, g'ofil qolmasligidir. Shuning uchun ham tariqat buyuklarimiz: «Darvesh «hush dar dam» – asosiga qat'iy amal qilib, har nafasda hushyor bo'lishi lozim!» – deganlar.

Payg'ambarimiz buyuribdilarki:

«Sizga ramazon oyi keldi». Barakot oyi. Ramazon oyi kelganda hamma narsada barakot bo'ladi. «Ashhadu anla' ila'ha illallohu va ashhadu anna muhammadan abduhu va rasu'luhu» – deb shahodat berganimizdek, ko'zimiz bilan ko'ramizki, ramazon barakot oyi. Dasturxonlar, zamonlar barakotli bo'lmoqda. Har narsada barakot hosil bo'ladi. Chunki, bu oyni Alloh taolo haqiqatan ham farishtalari vositasida mo'min bandalariga hozirlab beradi. «Alloh taolo Jabroil alayhissalomga shayton va uning rahbar askarlarini zanjirband qil deb amr etadi», – deya keladi hadisi sharifda. Ya'ni, insonlarni yo'ldan ozdiradigan, aldaydigan, bir-biriga urishtiradigan, zulm qildiradigan ana o'sha yomonlik manbai shaytonning harakatlari cheklanadi. Qo'l-oyoqlari bog'lanadi, zanjirband etiladi.

Shu tariqa mo'min qullarning joniga tegishi, ularni yo'ldan ozdirishi kamayadi.

Bu oyda Alloh taolo bir karra yomonlik manbalarini bog'lattirmoqda, xayru saxovat imkoniyatlarini esa orttirmoqda. Shuning uchun bu oyda har tomondan baraka yog'iladi. Jannat va osmonning eshiklari ochiladi. Osmon eshiklarining ochilishi oddiy ko'z bilan ko'riladigan narsa emas.

Chunki:

«**Darhaqiqat biz eng yaqin osmonni chiroqlar (yulduzlar) bilan bezadik**», deb buyuradi «Taborak» surasida eng yaqin osmonni yulduzlar bilan bezatgan Mavlomiz. Undan keyingi osmonlarni emas, balki mana shu eng yaqin osmonning narigi tomonini ham ko'ra olmaymiz. Shunday yulduzlar borki, ularning nuri bizga besh million yilda yetib kelar ekan. Nuri hali bizgacha yetib kelgani yo'q, uning orqasida boshqa yulduz mavjud bo'lsa uni umuman ko'rolmadik. Yoki bo'lmasam, nuri bizgacha yetib kelgan yulduz, besh million yil u yerda turgan bo'lsa, balki hozir o'sha joyida yo'qdir, balki portlab ketgandir. Chunki biz hozir uning besh million yil oldin taratgan yorug'ligini ko'rib turibmiz, aynan hozirgi holini ko'rayotganimiz yo'q. Ya'ni atrofimizda muazzam bir parda bor, bu pardaning orqa tomoni zamon, makon jihatidan pardali bo'lib, tushunib yetish mumkin emas, ko'rolmaymiz.

Osmon eshiklarining muhimligi shundaki, Habibulloh bo'lganligi uchun hech bir basharga nasib etmagan bir imtiyoz, bir ikrom bilan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga Alloh taolo me'rojini nasib etdi. Quddusi sharifdan samoga ko'tarilib, yetti qavat («Qoba qavsayni av adna») maqomlariga yetkazdi.

Shunday qilib, ramazon kelishi bilan osmonning eshiklari ochiladi, jannat bezatiladi, jahannam eshiklari yopiladi. Shaytonlar bog'lanadi. Bularning barchasi hadisi shariflardan bilganimiz ma'naviy o'zgarishlar. Biz esa ularning farqiga bormasdan, lekin ularning ta'sirida ramazon oyida chiroyli ibodat havosiga sho'ng'ib, rohatlanamiz va masjidlar to'ladi.

«Kapi Masjidi» ramazon bo'lmagan paytda ham xufton namozida shunday to'lib ketardimi? Men musofirman, lekin siz oldin necha saf bo'lgani, hozir necha saf ekanligini o'ylab ko'ring. Ramazon oyida ro'za tutgan bu birodarlarimiz ramazondan boshqa paytlarda ham ibodatga shunchalik berilganmidilar? Yo'q. Hamma vaqt shunday namoz o'qiydilar? O'qimaydilar.

(Shahru baraka'tin). Ya'ni muborak, barokatli, xayrli bir oy. (Fi'hi xayrun). «Bu oyda xayr bor». Bundan tashqari, uning ichida ming oydan afzal bir kecha bor. Qaysi kechaligini Alloh taolo yashirgan, aniq-tiniq bayon etmagan. Ming oydan xayrli bir kecha borligini Qur'oni karim bildirmoqda.

Payg'ambardan so'rabdilar:

«Yo Rasululloh, bu faqatgina sizning umringiz davomidami. Ya'ni dunyo tarixida bir marotaba keladigan kechami yoki har yili keladimi?»

«Har yili!» – deb buyuribdilar.

Har yili ramazon oyida ming oydan xayrli bir kecha keladi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam uning bir alomatini aytibdilar.

«Bu kechani ramazonning so'nggi o'n kunidan qidiring!»

Bu kechani qo'lga kiritgan, u kechada Allohning yaxshi ko'rgan ibodatini bajargan kishi, 83.3 yil ibodat qilganlik savobini oladi. Ming oy shuncha yil bo'ladi.

Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning uylari biznikiga o'xshab masjididan uzoqda emas edi. Masjid bilan tutashgan edi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam eshiklarini ochishlari bilan oyoqlarini masjidning ichiga bosar edilar. Xonalari jome'ga tutashgan edi. Shunga qaramay, ramazonning so'nggi o'n kunida masjidga kirar edilar. Va kechayu-kunduz ibodat bilan mashg'ul bo'lardilar.

Uch oylar kelishi bilan Muhammad alayhissalom ibodatlarga kuchli e'tibor berar edilar. Rajab oyi kirishi bilan toatni ko'paytirar, sha'bon oyi kirganda yanada ko'proq riyozat chekar va nihoyat Ramazon oyida toat-ibodatu zuhdu riyozatlari kamolga yetardi. Ramazonning so'nggi o'n kunligida esa masjidda e'tikofga kirardilar. Tabiiyki, sahobai kiromlar ham shunday qilganlar.

Bir gal juda ham qiziq bir hodisa ro'y bergan ekan. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam masjidga kiribdilar, qarasar, masjid chodirlarga to'la. Ma'lum bo'lishicha, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning xotinlari kelib chodir quribdilar. Ular bizning onalarimiz bo'ladi. Chunki Qur'oni karim buyuryaptiki:

«**Uning ayollari esa ularning onalaridir**lar». Hazrati Oisha onamiz, Hazrati Xadicha onamiz, shunga o'xshash ularning hammasi bizning onalarimiz.

Payg'ambarimiz esa: «Bular xayr ish qildik, deb o'ylayaptilarmi?» – debdilar. O'sha yili e'tikofga kirmabdilar, chunki xotinlar bir tomonda, erkaklar boshqa tarafda. Mumkin bo'lmasa-da, boshlashibdimi, oxirigacha yetkazsinlar, deb chiqarmabdilar. O'sha yili xotinlar ibodatni masjidda bajaribdilar. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ramazon o'tgandan keyin e'tikofga kiribdilar.

Xo'sh, ayol kishi e'tikofda qaerda bo'ladi? Albatta, o'z uyida bo'ladi. Ayol kishi o'z uyida e'tikofga kiradi. Erkak esa e'tikof ibodatini masjidda bajaradi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam va ashobi kiromning hammalari e'tikofga kirganlar. Siz ham e'tikofdan bahramand bo'ling! Ramazonning oxirgi o'n kunida siz ham u sharafni, u sevgini, u ibodatni totib ko'ring.

Bir ayol uyida e'tikofini bajaribdi va bizning bir domla birodarimizga aytibdiki: «Men bu ishni juda ham sevdim, bundagi ibodatlardan juda ko'p foyda olib qoldim». Albatta, e'tikofda inson olamlarning Rabbisi Alloh taolo bilan tanho qoladi, Unga munojot qiladi, dil rozini aytadi. Zikrning halovatini totadi.

Chunki Alloh taolo bir hadisi qudsiyda buyuradiki:

«Men meni zikr qilganning hammajlisi bo'laman, yonida birga bo'laman». Inson bunda Qur'on o'qib, zikr qilib, ibodatlarni bajarib, namozlarni va qazo namozlarini o'qib, vaqtini butunlay qattiq ibodatga bergan bo'ladi. Buyuk savoblarga erishadi.

Bir shoir yozgan ekan:

*Shakarlarda topolmadim,*

### *Zikrullohning ta'mini!*

Bir zoti muhtaram aytadi: «Agar hukmdorlar, qo'mondonlar, jahongirlar tasavvuf arbobi erishgan ma'naviy zavqlarning naqadar lazzatli ekanligini bilganlarida edi, shahar, o'lka yoki biror boylikni olishga borganlari kabi, bu zavqlarni bizlarning qo'limizdan tortib olish uchun qo'shinlarini boshlab kelgan bo'lardilar».

Bu ibodatning zavqini, mazasini, lazzatini, hayajonini, go'zalligini totib ko'rmagan bilmaydi, uni tushuntirib ham bo'lmaydi, eng yaxshisi totib ko'rmoq.

Yuqorida ham aytganimizdek, Ramazonda qilingan ibodatning savobi boshqa oyda bajarilgan amallarga nisbatan yetmish marta ortiq bo'ladi.

Shuning uchun ham har xil savobli ishlarni qidirib yuradigan ba'zi tashna, bilimli musulmonlar bor. Zakotni yilning xohlagan oyida berish mumkin, ammo ataylab ramazonda beradilar. Chunki ramazonda bergan zakoti yetmish martaga ko'payadi-da. Shu yerdan ham bir foyda undiradi.

Molining qirqdan birini hisoblaydi, undan ma'lum miqdorini zakotga ajratadi va zakot olishga munosib kishiga beradi. Bu bergani, aslida, faqirning haqqi, o'ziniki emas. Dalada o'zi ishladi, o'zi ekdi, o'zi boqdi, o'zi qaradi, o'zi zahmat chekdi, mahsulini ham o'zi oldi... Alloh, Alloh... Alloh taolo aytayaptiki: «Sening hosilingda, foydangda faqirning haqqi bor!» U ham sevinib-sevinib o'sha haqni ajratib beradi. Dehqonchilik hosillaridan qancha miqdorda zakot beriladi? O'ndan biri. Uni shuning uchun ham ushr – deydilar. Ashara – o'n, ushr – o'ndan biri degani.

Dehqonchilikning ham ushri bo'lib, uni ham zakot deydilar. U ham dehqonchilik hosillarining zakoti. Paykalning sug'orilishi va o'z-o'zidan tabiiy ravishda yetishtirilishi orasida farq bo'lgani kabi ushr ham o'ndan birga, yigirmadan bir miqdorlarida o'zgaradi. Pul bo'lsa, qirqdan biri, ya'ni yuzdan ikki yarim bo'ladi. Bularning hisob-kitobi bor. Masalan, beshta tuyadan bir qo'y, o'ttiz sigirdan bir bosh bir yoshga to'lgan tana yo ho'kiz, qirq qo'ydan bir qo'y beriladi va hokazo. Bundan keyin shuncha bo'lsa, shu qadar, buncha bo'lsa, bu qadar beriladi, degan bir ro'yxati bor. Zakot mana shu ro'yxatga ko'ra olib boriladi.

«Faqirning haqqi, qarzdorning haqqi, yo'lda qolib ketganning haqqi va boshqalar zakotning xarajatlari», – deyilgan. Zakotga muhtoj kishilarning maxsus ro'yxati bo'ladi. Shu ro'yxatga ko'ra beriladi, ammo ramazonda berilsa, bu safar zakotning bir savobi yetmish marotabaga ko'payadi. Ramazonda bir sadaqa berilsa, boshqa oylarda berilgandan yetmish martaga ziyoda bo'ladi. Bas, shunday ekan, bu oy barakali oy emasmi? Ramazonda yuz marta tasbeh o'g'irsa, yetmish marotabaga ko'payadi. Boshqa oyda esa, bir marta bo'ladi. Shu tariqa ibodatda ham, dasturxonda ham, savobda ham, zamonda ham barakot bo'ladi.

Hasan Basriy baroat<sup>24</sup> kechalarining birida uydan tashqariga chiqibdilar, chiqibdilar-u, ammo kasal odamdek, ya'ni yuzlari ter toshgandek juda ham ta'sirli bir vaziyatda ko'chaga chiqibdilar. Uni ko'rganlar:

«Yo muborak, nima bo'ldi? Kasal bo'ldingizmi, qorningizda og'riq bormi? Boshingiz



og'riyaptimi, qusdingizmi?» – deb so'rabdilar.

Hasan Basriy aytibdilar:

«Bu kecha – baroat kechasi! Bir yillik bajarilgan amallar maloikalarga topshiriladigan kecha. Yoshligimda, o'spirinligimda, kechasi, kunduzi qilgan barcha gunohlarimni bilaman. Tavba qildim, kechirishini so'radim, ammo kechirilganligi to'g'risida biror ishorat ko'rmadim, afv etildimmi, afv etilmadimmi noma'lum? Demak, kechirilganligim noma'lum ekan, mening gunoh ish qilganligim aniq, kechirilmasligim mumkin».

Alloh ba'zan kechirmaydi. Buning sabablari bor. Ularni bilish lozim!

Bu – hayotning eng muhim masalasi! Nima qilsam, Alloh mening gunohlarimni afv etadi, nima qilganimda dod desam ham kechirmaydi? Bularni bilish shart!

---

<sup>24</sup> Sha'bon oyining 15-kechasi.

Gunohlarimni bilaman - aniq. Kechirilgani noma'lum - qo'rqyapman. Ha, ibodatlar qilganman, ammo qabul etilganini bilmayman. Agar namozlarimning birortasi qabul etilmagan bo'lsa, men esa shu yoshga yetdim, endi ahvolim nima bo'ladi? Yetmish yoshga kirgan bir kishining tushida bir ishorat ko'rsatib: «Sening birorta ham namozingni qabul qilmadim!» – desa, Alloh saqlasin, nima bo'ladi ahvoli? Yetmish yillik ibodat havoga ketsa, inson juda ham qattiq parishon bo'ladi.

Demak: «Gunohlarimni bilaman – o'chirilgan yoki o'chirilmagani aniq emas,.. Ibodatlar qilganman – qabul qilingan yoki qilinmaganligi aniq emas. Mening ahvolimdan ham yomonroq kim bor?» – deb aytibdi sarg'ayib ketgan u muborak zot. Holbuki, Hasan Basriy tobeinlarning eng ulug'-muboraklaridan biri. Avliyo, lekin tabiiyki, bunday zotlar juda mutavoze' bo'ladilar. Allohning ogoh qullari, o'zlarini jannatiy qilish va jahannamdan saqlanish uchun bizga o'xshab tanballik qilmasdan, juda qattiq harakat qilganlar. Qarang, shu muborak oyning o'n kuni o'tib ketibdi. Shu o'tgan o'n kunni qanday o'tkazganingizga bir nazar tashlang!

Alloh bu xayrli oyda sizning ustingizga rahmat-mag'firatni yoyadi. Sizni xayrga o'raydi. Yer yuzi, musulmonning usti xayr bilan yopiladi. Keyin rahmat tushadi. Bu oyda osmondan Allohning rahmati yog'adi. Uylar, ko'ngillar, o'lkalar, shaharlar va masjidlarga rahmat yog'iladi.

Alloh bu oyda gunohlarni kechiradi. Kechayu kunduz, ham iftor paytida, ham sahar vaqtida kechiradi. Yolvorgan har bandani mag'firat qiladi. Bu oyda ko'plab insonlar mag'firatga erishadi, gunohlari kechiriladi.

«Alloh bu oyda duolarni qabul qiladi». Duo-Allohdan so'rash degani. Alloh duolaringni qabul qiladi degani-so'rayver, so'raganni Alloh beradi deganidir. Ammo Allohdan nimani so'rash lozimligini ham bilish kerak.

Savob haqida gapirayapmiz keling, sizlarga bir hikoyani aytib beraman: Bir podshoh vazirini olib, qiyofasini o'zgartirib, shalvarlar kiyib, qishloq aholisining hayoti bilan tanishishga ahd qiladilar. Yo'lda ketib tursalar, bir mo'ysafid chol yerga ko'chat

ekayotganini ko'ribdilar. Podshoh qiziqib so'rabdi:

«Amaki, buni nega ekayapsiz? Buning mevasini yeyishga sizning umringiz yetadimi?»

Podshoh-ku qo'rqmaydi, beparvo. Bu gapni eshitganidan keyin qariya shunday javob beribdi:

«O'g'lim, bizdan oldingilar ekdilar, bizlar yedik. Endi biz ham ekaylik, bizdan keyingilar yesin».

Javob podshohga juda yoqib tushibdi. Vaziriga ishora qilibdi:

«Bunga bir xalta tillo ber!»

Vazir podshohning amriga binoan bir xalta tillo chiqarib beribdi.

«Oling, amaki, bu xaltani! Javobingiz meni ta'sirlantirdi!» – debdi podshoh.

Qariya xaltachaga tikilganicha hayratlanibdi. Chunki u bir zumda boy bo'ldi-qoldi. Oltin to'la xaltacha qo'lida. Qarshisidagi odamning ulug' bir insonligini tushunibdi-yu, podshohligini bilmabdi. Jilmayganicha xaltani ko'rsatib:

«Qara bolam, ko'chatning mevasini ko'ra boshladim», – debdi.

Podshohga bu gap ham ma'qul tushibdi. Vaziriga yana ishorat qilibdi. Vazir yana bir xaltani uzatibdi. Qariya ikki qo'lida ikkita oltin to'la xaltani ushlagan holda juda mamnun bo'lib, podshohga o'girilib:

«Qarang! Siz mevasini yeyolmaysiz, deb aytgan ko'chatim bir soniyada ikki marta meva berdi», – debdi.

Qariyaning bu gapini ham podshohga yoqib tushibdi va vaziriga qarab:

«Yana bitta xaltachadan ber. Keyin qochib qolaylik buning oldidan! Bo'lmasa xazinamizni tugatib qo'yadi bu odam», – debdi.

Ha savobning turlari ko'p. Yuqorida aytib o'tganimizdek, daraxt ham sadaqai joriya. Daraxtlar ham savob keltiradi!

Bir inson biror daraxtning soyasida dam olsa, daraxtni ekkanga savob yoziladi. Bir qush kelib shoxiga qo'nsa, ekkanga savob yoziladi. Aytaylik, tut daraxti bo'lsa, tutlarini qushlar yesa, savob yoziladi. Bolalar yesa ham daraxtni ekkanga savob yoziladi. O'tinidan foydalansa ham, daraxtni ekkanga savob topadi.

Sadaqai joriya nima degani? Joriya bu yerda qul xotin, haramdagi xotin ma'nosida emas, jarayon etmoq, davom etmoq ma'nosida. Sadaqai joriya degani savobi oqib turadigan, davom etadigan, davomli savob ishlab turadigan deganidir. Shuning uchun ham bunga o'xshash ezgu ishlarni bajarib turish lozim!

Endi mavzuga qaytsak. Alloh bu oyda gunohlarni afv etib, duolarni qabul qilar ekan. Bu gaplarni qaerdan boshladik?.. Vaqtimizni behuda narsalarga sarf etayapmiz. Futbol, u-bu ishlar bilan o'tkazyapmiz. Bizlarga kerak bo'lgan narsalarni o'ylamaymiz. Qanday duo o'qishni bilmaymiz. Bizga dunyoda va oxiratda nima foyda beradi, uni o'rganib, bilib olaylik. Asl foyda shulardan keladi.

«Men jannatga kirmoqchiman, buning uchun nimalarni qilishim kerak?» – deb biror kimsa so'ramaydi.

«Jahamnamdan qutulishim uchun nima qilishim lozim? Alloh kimlarni sevadi?» – deb so'raylik!

Qur'oni karimda:

«**Alloh chiroyli amal qilguvchilarni sevadi**», – demoqda.

«**Albatta, Alloh taqvo qilguvchi zotlarni sevar**». Alloh sabr qilganlarni, sadaqa berganlarni, pokiza kishilarni sevadi. Alloh kimlarni sevsa, shunday bo'lishga harakat qil!

Muhim bo'lgan ish – Allohning sevgisini qozonish emasmi? Qariyalar o'tib borayapti, umrlar tugab borayapti, xalq esa bularni o'rganmasdan, bilmasdan o'tib ketmoqda. Holbuki, duoning qaysi biri maqbul, qachon aytish lozim, qanday aytish kerak, ularni bilish – biz uchun eng muhim ishlardandir.

«Chiroyli savol so'rash olimlik alomati, ilmning sharti». Insonning zehnda go'zal masalalar to'planishi, u savollarni inson ichida saqlab, qidirishi, javoblarini topishi kerak.

Istanbuldagi bir masjidida namoz o'qidik. Juda ham chiroyli, mukammal masjid. Menimcha, Me'mor Sinon qurdirgan bo'lsa kerak. Zol Mahmudposhsho masjidi. Domla bizlarga xufton namozini o'qitdi.

«Zol Mahmudposhsho kim?» – deb so'radim domladan.

Domla menga:

«Bu masjidni qurdirgan odam juda ham zolim bo'lgan ekan. Shuning uchun zolimning zolidan Zol Mahmudposhsho deb aytilgan ekan», – dedi.

Men yana dedimki:

«Zolim bo'lsa, masjid qurdirmaydi-ku odam. Dindor bo'lgani uchun bu chiroyli masjidni qurdirgandir?»

Masalaning mohiyatini aniqlashga kirishdim. Qomuslarga ko'z yugurtirdim, topdim, hech ham bunday emas ekan. Zol – qariya, eski, ko'hna, juda ham yoshi ulug' degani ekan. Demakki, bu Mahmud poshsho juda ham qari, oq soqolli, muborak zot bo'lgan. Boshqa Mahmud poshshodan ajralib tursin deb, Zol Mahmudposhsho deganlar. Bu qari Mahmud poshsho degani. U chiroyli masjid qurdiribdi. Alloh makonini jannat qilsin! Bizlarga ham Alloh masjid qurish, qurdirishni nasib etsin. Hammamizni rahmatiga yetishtirsin.

Domlaga xabar jo'natdim: «Masjidni qurdirgan kishi to'g'risida bunday gaplarni ayt mang! Zol Mahmud poshsho – zolim Mahmudposhsho emas, nuroniy, muborak Mahmudposhsho deganidir», – deb.

Masjidda imom, lekin masjidni, uning tarixini bilmaydi. Inson qiziquvchan bo'lishi kerak! Ilmning sharti qiziqmoqlikdir. Qiziqish, qidirish, o'rganish lozim! Inson qiziqsa, ko'p narsa o'rganadi, agar qiziqmasa, hech narsa o'rganolmaydi. Shuning uchun qaysi duo chiroyli ekan, o'rganing! Masalan, shunday bir savol aqlingizga kelmaydimi?

«Rasululloh sallallohu alayhi vasallam qanday chiroyli duolar qilgan ekanlar?» Qiziqadigan narsa emasmi bu? «Ajabo, Qur'oni karimning oyatlari ichida duolar bormi, qaysilari? Domla, bularni biror kitobga jamlaganmi?» Chiroyli savol emasmi bu? «Qur'oni karimning ichidagi duolarni men ham o'rganaman. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam qilgan duolarini men ham o'rganaman, men ham duo qilaman», – deyishimiz lozim! Bizlar esa shunday asarlar yozishimiz lozim! «Qur'oni karimdagi duolar», «Hadisi shariflardagi Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning duolari», – deb jamoatimizga yetkazishimiz lozim.

Hozir bu muborak jum'a kechasida dardlashyapmiz. Albatta, gapirish ham, eshitish ham, masjidida o'tirish ham savob. Insonning masjidida turgan muddati namozda turgan deb hisoblanadi. Hozir har biringiz va'z boshlanishidan boshlab namozga turganingizda necha rak'at namoz o'qisangiz, o'sha miqdordagi namoz savobi ichidasiz. Namozda balki xato qilarsiz, bu yerda o'qimasdan, eshitish yo'li bilan namoz o'qigandek bo'lganingiz uchun kamchiliksiz namoz o'qigandek bo'ldingiz, yanada yaxshi savob. Ilmdan bir bahsni o'rganish dunyodan va undagi hamma narsadan xayrli.

Ona tilini yaxshi bilishimiz lozim, shunday emasmi? Arabcha o'rganmaganmiz, ma'nolarini bilmaymiz, oyatlarga tushunmayapmiz. Nikoh o'qiydigan vaqtda, janozaga aloqador oyat o'qilyapti. Oila masalasi bahs mavzusi bo'lganda, ajralishga oid oyat o'qilmoqda. Nima uchun? O'qigan kishi oyatlarning ma'nosini bilmayapti. Ya'ni o'z o'rniga, maqomiga, makoniga mos qilib o'qimayapti.

Bu oyda duolar qabul bo'lar ekan. Men sizni qiziqtirish uchun bularni gapirayapman, endi unga amal qilish sizning ishingiz. «Bu oyda Alloh duolarni qabul qilarkan, qaysi duoni qilsam bo'ladi?» – deb o'ylasangiz, o'zingiz topasiz. Chunki duoning yuzakisi emas, balki qalbdan bo'lgani maqbul.

Kaftini ochadi – mehrobgga qaraydi, kaftini ochadi – tovonga qaraydi, kaftini ochadi – naqshlarga nazar soladi... Lahiyani, deyiladi bunga, ya'ni g'ofillik bilan, qalbi boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'lganda qilingan duoni Alloh taolo sevmaydi. Qalbdan, jonu dildan qilingan duoni sevadi. Shuning uchun chin ko'ngildan duo qilamiz.

Allohdan nima so'rashni bilaylik. Bundan tashqari, duolarning maqbul bo'ladigan zamonlari bor. Duolarimiz butunlay qabul bo'lishligi uchun qaysi vaqtlarda duo qilaylik? Temir qizigan paytda uriladi, duoni ham qaysi paytda qilamiz, bu – juda muhim!

Keyin: «Bir inson ota-onasi haqiga duo qiladi», – deb buyurmoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. «Birodariga, mo'min onasi farzandiga, ukasiga ular yo'qligi-g'oyibligida duo qilsa, duosi zudlik bilan qabul bo'ladi», – deb aytishmoqda. Demakki, duo to'g'risida o'rganishimiz lozim bo'lgan juda ham ko'p narsa bor. U holda, bu narsalarga qiziqib, domlalardan so'rab, ularning javoblarini topamiz!

«Bu oyda Alloh taolo sizlarning ibodatlaringizdagi g'ayratingizga qaraydi!» Ko'pchilik bo'lib, masjidlarga borasizlar va va'zlarni eshitasizlar. Xayrli ishlar qilasiz, iftorlik berasiz... Ha, Alloh taolo mana shu g'ayratlaringizga qaraydi. Zero Allohning bir marhamatining o'zi insonga yetadi. «Alloh qaramaydi», – degan inson tamom bo'ladi. Alloh qaramaydigan kishisiga iltifot ko'rsatmaydi.

«Ey musulmonlar, Alloh sizlar bilan farishtalariga maqtanadi». Qarang, mening qullarim g'ayrat bilan ibodat qilmoqdalar. Qanday ishq, zavq bilan ro'za tutmoqdalar, Qur'on o'qimoqdalar, namoz o'qimoqdalar, 20 rak'at, 33 rak'at. Qanday xayru hasanotlar qilmoqdalar. Uylarining eshiklarini ochib, faqirlarga, boylarga ziyofatlar bermoqdalar. Sadaqalar tarqatmoqdalar, guruh-guruh bo'lib faqirlarning uylarini topib, sevintirmoqdalar, deb maloikalariga maqtanadi.

«U holda, bu oyda Allohga bo'lgan xayr va qullik vazifalaringizni ado eting, bajaring! Ishlang, xayrli ishlar ketidan yuguring», – deb Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam sizlarga, bizlarga tavsiya bermoqdalar.

Endi, o'sha muhim, muhtasham jumlagi keldik: «Fainnash-shaqiyya». «Shaqiy-ashqiyo, ya'ni Allohning rahmatidan mahrum, jahannamlik inson... Jahannam yo'lchisi. Tavba qilmay o'lsa, jahannamga kiradigan inson...»

Kim ekan u? «Man hurima fiyhi rahmatallohi azza va jalla». Allohning rahmatidan mahrum bo'lgan kishi. «Bu oyda Allohning rahmatidan benasib bo'lgan, Allohning rahmatiga erisholmagan, Allohning rahmatini tutolmagan, Allohning rahmati yetishmagan kishi eng badbaxt insondir», – deb aytmoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam.

Quruq gapning hech ahamiyati yo'q! Inson so'zdan biror ibratni oladi-da, o'shanga ko'ra bajarishi kerak bo'lgan narsani amalga oshiradi! Bu oyning uchdan biri kelib ketdi. Bizda biror o'zgarish bormi, qarab ko'ring-chi o'zingizni! Yaxshi musulmon holiga kelganligingizga doir biror ishoratlar, alomatlar ko'rinyaptimi? Axloqingiz, ibodatingiz, zehniyatingiz, ko'nglingiz, aqlingizda buni bir sinchiklab ko'ring! Uchdan biri kelib ketdi, qolgani ham havodek o'tib bormoqda. Shuning uchun «Alloh taolo rozi bo'ladigan amallarni, xayrlarni bajarish borasidagi qullik vazifalaringizni chiroyli qilib bajarib, siz ham o'z burchlaringizni ado eting!» – deb aytyaptilar Payg'ambarimiz. G'aflatda qolib ketmang!

Aziz va muhtaram birodarlarim! Har bir ibodat, Alloh taoloning har bir amri, Islomning har bir buyruqlarida hikmat bor. Ya'ni har biri o'z o'rnida, biror sabab bilan insonga foyda beradi. Masalan, ro'zaning badanga, me'daga, ruhga, aqlga foydasi bor, savob jihatidan ham manfaati tegadi. Ramazon oyining muazzam foydalari mavjud.

Ramazon – Alloh jalla jalaluhuning sizni yaxshi bir banda bo'lishingiz uchun o'tkazadigan bir oylik sinov kursi. Yaxshi qul bo'lish uchun kursga olinasiz va bir oy mobaynida ta'lim olasiz. Turli kasblarda, mutaxassislik kurslari bo'ladi-ku. Kursni muvaffaqiyatli bitirganlarga mukofot beriladi. Maoshi ortadi, mansabi o'zgaradi, boshqa joyga topshiriq bilan jo'natiladi. Shu ma'noda, ramazon oyi – yaxshi musulmon bo'lish uchun kamolga erishish kursi. Bu oyda shu hikmat bor. Alloh taolo shaytonlarni shuning uchun bog'lab qo'yadi. Osmonning eshiklari shundan ochiladi. Duolarni shuning uchun qabul qiladi. Allohdan kechirishini so'rang, xayrlarni bajarishga shoshiling! Imkon berilgan, vaqtlar va shartlar bema'lol bo'lsa, harakat qiling, shu ta'lim kursini muvaffaqiyatli bitiring!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir jum'a kuni minbarga chiqib, bir oyoq bosganlarida «omin» dedilar. Ikkinchi qadamni tashlaganlarida yana «omin» dedilar. Zinadan ko'tarilib, uchinchi daf'a oyoq bosganlarida yana «omin» dedilar. Atrofdagilar

Payg'ambarimiz nima uchun «omin» dedilar, deb qiziqibdilar. Xutba tugab, pastga tushishlari bilan vaqtdan foydalanib, yaqinlariga kelib so'rabdilar:

«Yo Rasululloh! Siz bu safar xutba o'qimoq uchun chiqayotganingizda oldin hech ham qilmagan yangi bir ishni qildingiz. Minbar zinalaridan ko'tarilish uchun har qadam bosganingizda «omin» dedingiz. Buning sababi nima?»

Payg'ambarimiz aytdilar:

«Jabroil alayhissalom kelib, ota-onasi yoki ikkisining birining hayotligida ularning hurmatini qozonib, jannatiy bo'lib olmagan kishi xor bo'lsin, burni yerga ishqalansin!» – dedi. Men esa «omin» dedim.

Ota-onamiz salomat, hayot bo'lsalar, yaxshi farzandlik burchimizni bajarishimiz, duolarini olib, jannatni qozonishimiz kerak ekan. Jannat egallanar ekan.

Keyingisi:

«Ramazon oyi kelib ketadi, biror kishi o'z holini o'zgartirib, Allohning yaxshi quli bo'la olmasa ham xor bo'lsin, uning burni ham yerga ishqalansin», – dedi, unga ham «omin» dedim. Bunisi ayni zamonda bizlarga aloqador. Hozir ramazon oyining ichidamiz.

Ramazoning oxirida ikki tahlika bor:

1. Ramazonda ibodatlar qabul bo'lmasdan, ramazonni qo'ldan boy berish;
2. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytganlaridek, Jabroil alayhissalomning duoi badlariga muhtalo bo'lib qolasan.

Uchinchisi:

«Mening ismim biror kishining nazdida tilga olinganida, Muhammad Rasululloh deyilsa, u odam menga salotu salom aytmasa, «Allohumma salli ala sayyidina Muhammadin va alo ali sayyidina Muhammad», – demasa, Jabroil alayhissalom «U ham xor bo'lsin, uning ham burni yerga ishqalansin!» – dedi. Men ham «omin» dedim».

Demak, o'n ikki rak'atdan keyingi o'qiladigan duo, salavot va u kishini madh etgan na'tlarni yod oling! Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni seving! Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning oshig'i bo'lishimiz lozim! Hammamiz Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni sevishni o'rganaylik!

Sevgi ham bir ta'lim. Sevgi o'rganiladi, o'rgatiladi. Farzandlaringizni Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sevgisi bilan yetishtirasiz. Bola Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni jonidan ortiq sevadi! Siz ham Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni jondan sevasiz! So'zlarini, hadislarini, nasihatlarini mahkam tutasiz! Chunki, ichingizda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sevgisi bo'lmay turib, haqiqiy musulmon bo'lolmaysiz.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam:

«Jonim qo'lida bo'lgan Allohga qasam bo'lsinki, sizlardan birortangiz haqiqiy mo'min bo'la olmaysiz. Men unga otasidan, farzandlaridan ham sevgiliroq bo'lmagunimcha, u haqiqiy imon egasi bo'lolmaydi!» – dedilar.

Demak, mo'min kishi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni otasidan ham, bolasidan ham, seviladigan insonlarning hammasidan ham ortiq sevadi! Xotinidan ham ziyodaroq yaxshi ko'radi! Shunday qilmagunigacha haqiqiy mo'min bo'lolmaydi.

Har bir kishi biror narsaga odatlanib qolgan hozir... Har bir kishi o'zini qo'lga olib, atrofidagi insonlarga bir qarasin. O'tirish odati bor, kiyimlarga berilish, ko'p gapirish, hazillashish, kayfu safo qilish odati bor va hokazo.

Sening odatlaring Alloh rizosiga muvofiqmi yoki yo'qmi?

Ayniqsa, yomon odatlar juda ham buyuk balo. Xunuk odatlar balosiga giriftor bo'lgan inson, unga yopishib oladi, bajarishi lozim bo'lgan ishlarni qilmaydi! Tayyorgarliksiz o'lishi hech gap emas. Shunday ekan, birinchi bo'lib keraksiz odatlarimizdan xalos bo'lishimiz darkor.

«Hayotimning shu nuqtasigacha yetib keldim, bundan keyin yaxshi musulmon bo'lish uchun nima qilsam ekan? Bugungi ma'ruzagacha bu narsani hech o'ylamagan ekanman, domla to'g'ri aytyapti. Men bularni o'ylab ko'rishim kerak!» – deb aytasan. Inson fikrlashni boshladimi, savob qozonishni ham boshlaydi. Chunki:

«Tafakkur qilishdek qiymatli ibodat yo'q». Kim nimani xohlasa, Alloh oxirida o'shanga yetishtiradi. Allohni qidirgan Allohni topadi, balosini izlagan, balosiga giriftor bo'ladi!

**«Alloh tinchlik diyori – jannatga da'vat qilur».**

Alloh barchangizni jannatiga da'vat etmoqda. Marhamat, kiring jannatiga! Jannatiga kirish uchun nimalar qilish kerak bo'lsa, izlaning, amal qiling, shug'ullaning! Ramazondan foydalanib, shu ta'lim-tarbiya kursini muvaffaqiyatli bitirishga harakat qiling!

Yomon odatlaringiz eng buyuk dushmanlaringizdir! Nafsingiz eng buyuk dushmaningiz!

«Sening eng buyuk dushmaning ikki yelkang orasidagi o'z nafsingdir». Yaxshi musulmon bo'lishingga o'zing to'sqinlik qilyapsan, nafsing to'siq bo'lyapti, uni yengishing kerak!

Nafsni yengmasdan turib, komil ma'noda namoz o'qib bo'lmaydi. Nafsni yengmasdan, ro'za tutolmaydi. Nafsni yengmasa, ibodatga tura olmaydi. Nafsni yengmasa, gunohlardan to'xtamaydi. Eng buyuk dushman ichingda. Alloh ramazonda shaytonlarni zanjirband qilib bog'lab qo'ydi, lekin nafsing bor... Nafsingni yengasan!

**Ramazon – taqvoni o'rganish, nafsni yengish oyi.** Alloh qanday qilib yengdiryapti? Ro'za tutish yo'li bilan nafsni yengishni o'rgatmoqda. Zotan, ro'za tutishlik bilan nafs zaiflashadi.

Qora ko'z o'yinini ko'rdingizmi-yo'qmi, bilmadim. Qora ko'z o'rtaga chiqadi: «Yor menga bir tomosha», – deb baqirishni boshlaydi. Nima uchun? Insonning qorni to'ydimi, yor xohlaydi, ko'ngil ochishni xohlaydi, cholg'u, kayf-safoni istab qoladi. Qorni och bo'lsa, chuqur-chuqur o'ylay boshlaydi. Qorin g'amiga tushadi. Uning chorasini izlay boshlaydi.

Och turib, nafsni yengish o'rganiladi. Nafsning orzu-istaklari bajarilmaydi, uni yengish o'rganiladi. Kunduz nafsni yengasiz, kechroq nafs tirilib, sizni yengadi. Bo'lmaydi. Bo'lmaydi, bunda chempion bo'lolmaysan. Kunduz ro'za tutib, nafsni yengding: u zotan biladi, senga kuladi: bo'ldi, bo'ldi tushundik, ro'za tutibsan, kechgacha och turishni,

suvsiz-ovqatsiz turishni bilasan! Kech bo'lsin men senga ko'rsataman!» – deydi. Kechqurun esa ko'rsatadi.

Kunduzi ro'za tutadi, kechasi teatrqa, kafega, kayfu safoga boradi. Go'yo bu ramazon dasturi... Bu ramazon dasturi emas, shayton dasturi!.. Kayf-safo dasturi bu! Kunduz nafsni yengyapti, oqshom nafsiga yengilyapti.

Kunduzi ro'za tutdi, savob qozondi, kechasi teatrqa bordi, gunohga botdi. Bo'lmaydi bunaqasi! Kunduzi olgan kuch-quvvat bilan kechasi ham, ramazondan keyin ham nafsingni yengishing kerak. Shundagina yaxshi banda bo'lasan.

Seni tarbiyalash uchun kursga qabul qildilar. Nihoyat sen bir kursni bitirding. Qo'lingga to'pponcha bilan o'qni berib qo'yib, otishni o'rgatadi. Taqir-taqir otib bo'shatasan va har vaqt mo'ljalni to'g'ri olasan. «Bir oy ta'lim ko'rди va birinchi sinf o'q otari bo'ldi», – deydilar. Ramazondan keyin har qancha otmasin, barchasi havoga... Nima bo'ldi, qani bu bir oylik ta'lim? Komandir qo'lini ko'tarolmaydi, komandir harakat qilolmaydi. Komandir qarshisidagiga hech narsa qilolmaydi. Har safarida yengilaveradi. Nima bo'ldi buning ta'limi? Demakki, tutolmadi, o'zida saqlay olmabdi.

Ramazondan unumli foydalanmoq, uni haqiqiy ma'noda o'tkazmoq lozim! Ramazonda nafsni kunduzi qanday yenggan bo'lsa, kechasi ham shunday yengish kerak! Ramazonda nafsni yengishni o'rgangandan keyin yil davomida uni yengish joiz! Umr bo'yi Allohning yaxshi bandasi bo'lish lozim! Taqvoni o'rganib, Allohning sevgili avliyo bandasi bo'lish lozim! Do'stning do'st oldiga borishi kabi, Mavlono Jaloliddin Rumiy ta'biri bilan aytganda shabi arusga kirayotgandek borish lozim! O'lim to'y kechasi bo'lishi kerak! Sevinib-sevinib, ko'zidan pardalar olinib, jannatdagi maqomini ko'rib ketishi kerak inson. Shunga tayyorgarlik ko'ring!

Ramazon – jannatga tayyorgarlik ko'rish oyi. Ramazon – nafsni isloh etish oyi. Ramazon – yaxshi musulmon bo'lish oyi.

Alloh taolo barchamizni g'aflat uyqusidan uyg'otib, o'zining xos, orif, ogoh qullaridan aylasin.

Umrimizni rizosi yo'lida o'tkazishga muvaffaq qilsin! Tavfiqini rafiqlaylasin! Husni xotima bilan oxiratga borishimizni nasib aylasin. Jannatida barchamizni jamoliga musharraf aylasin.

Bihurmati asrori suratil fotiha.

*9 fevral 1995/ 9 Ramazon 1415*

## **RO'ZADORNING DUOSI**

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin! Habibi adibi, sevimli payg'ambarimizga, xonadon ahllariga va sahobalarga salotu salomlar bo'lsin!*



Men doim takrorlab turadigan hadisi muborakda kelurki:

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyurmoqdalarki:

«Sizlarga ramazon oyi keldi. Barakot oyi». Har narsada barakot bor: dasturxonda, vaqtda, umuman hamma narsada barakot hosil bo'ladi.

(Yanzurullohi tana'fusakum). Alloh taolo xayrli ishlardagi g'ayratingizga, hamjihatlikda bajargan ibodatlarigizga rahmat nazari bilan qaraydi.

(Va yuba'hi' bikum mala'ikatahu). (Farishta) maloikalariga sizlarni ko'rsatib faxrlanadi – mubohot etadi. «Maloikalarim qarang, siz tanqid etgan inson farzandlari qanday go'zal ibodat qilyaptilar!» – deya Alloh taolo sizlarning amallaringizni taqdirlaydi.

Abdulloh ibni Abu Avfa raziyallohu anhudan rivoyat qilingan yana bir hadisi sharifda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar:

Ajru-mukofotlar, xos izzat-ikromlar bu oyga xosdir. «Ro'zadorning uyquasi ham ibodat». Kechasi namoz o'qiydi. Saharlikka turadi, masjidga keladi, nasihat eshitadi, kun uzun bo'lsa ochlik-suvsizlikdan horib, uxlab qolishi mumkin.

(Va samtuhu tasbi'hun). «Sukuti esa tasbeh». Ya'ni inson ro'zador bo'lsa, darmonsizlashib rangi oqarib ketadi va so'zlashga majoli qolmaydi. Ammo uning sukuti ham tasbeh o'rnida bo'lib, savobga erishadi.

Zotan, sukut bir ibodatdir. Islomda sukut tafakkur qilishga sabab bo'lgani hamda insonni behuda so'zlarni aytishdan saqlab turganligi uchun ham ibodat hisoblanadi.

Musulmonlarning umumiy qanoatlari shundan iboratki, «Ibodat nima?» – deb so'ralsa, birinchi bo'lib esiga keladigan narsalar shular: namoz, ro'za, zakotdir. Islomning go'zalliklaridan biri shuki, pul bilan ham ibodat qilinadi. Bu esa zakotdir. Halol maldavlatigizdan kambag'allarga ulashasiz.

Haj esa ham jismoniy, ham ruhiy, ham moliyaviy ibodat bo'lib, Ka'bai musharafa va Madinai munavvara ziyorat qilinadi.

Shular qatori sukut ham ibodatdirki, uning qadru qiymatini ko'pchilik bilmaydi. Inson yo yaxshi so'z gapirishi kerak yo sukut saqlashi kerak! Agar uning sukuti tafakkur bo'lsa, u holda eng savobli ibodatlardan biriga aylanadi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyurganlarki:

«Tafakkur kabi savobli ibodat yo'qdir!»

Yana bir rivoyat ham bor:

«Bir soatlik tafakkur, bir yillik ibodatdan afzaldir».

Boshqa bir rivoyatda esa:

«Bir soatlik tafakkur, oltmish yillik ibodatdan xayrlidir», deyiladi.

Albatta, ikkala rivoyat ham to'g'ri bo'lishi mumkin. Inson fikrlayotgan narsaning ahamiyati u o'ylayotgan masalaning hayotdagi zaruriyatiga ko'ra, oltmish yillik ibodatdan afzal bo'lishi mumkin. Bir insonga qilgan xatosini aytganingizda yoki bir inson

hadisdan ibrat olgan vaqtida chuqur o'yga toladi, yomonliklarni tark etadi, to'g'ri yo'lga kiradi, tavba qiladi. Shunda bu tafakkur oltmish yillik ibodatdan xayrliroq bo'ladi.

(Va dua'uhu mustaja'bun). «Ro'zadorning duosi ham mustajob». Duo ham ibodat. Insonlar bilmaydigan xususlardan biri shu:

Biz namozimizni o'qib bo'lganimizdan keyin qo'llarimizni ko'tarib, Allohdan nimalarnidir so'raymiz. Alloh taolo duo qilganga xohlaganini beradi, ammo aynan mana shu so'rash, mana shu duo ham ibodat. Ya'ni, inson ertadan kechgacha Allohdan nimani so'rashidan qat'iy nazar ibodat qilgan bo'ladi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hayratga soladigan bir xushxabar aytadilar: «Duo qilmaydiganlarga Alloh taolo g'azablanadi». Hech qachon «Ey qulim, ko'p duo qilding, yetar endi, ko'p so'rayverma!» – demaydi, balki duogo'ying istak-xohishlaridan mamnun bo'lib, uni ibodat deb qabul qiladi. Aksincha, duo qilib, Allohdan biron narsa so'ramaydiganlarga Alloh g'azab qiladi.

Ba'zilar «Assalomu alaykum va rahmatulloh. Assalomu alaykum va rahmatulloh» – deya namozini tugatib turib ketadi. Birodar, namoz ham ibodat, orqasidan qilingan duo ham ibodat. U ham senga savob yetkazadi! Alloh so'ragan narsangni beradi!

Inson: «Men duo qilaman, lekin qabul bo'lmayapti», – deyishi mumkin. Shunday deydiganlar bor. Masalan, kecha eshitdim, bir ayol: «Alloh mening duolarimni qabul qilmayapti», – debdi.

Banda Allohdan bir narsa so'rab, duo qilsa va qilgan iltijosi duoning shartlariga muvofiq kelsa, albatta, Alloh qabul qiladi. Hadisi shariflardan ma'lumki, harom yeydigan, harom narsalar so'zlaydigan, harom kiyinadigan kimsaning duosi qabul bo'lmaydi. Ammo, halol yeb-ichadigan, pokiza va duoning shartlariga muvofiq keladigan insonning duosini Alloh uch shaklda qabul qiladi:

1. Duosini ijobat qiladi. «Ey Rabbim, paykalim qurib ketdi, ertaga yomg'ir ehson qil. Bo'lmasa halok bo'lamiz, ko'p zararlar ko'ramiz», – deydi. Qarabsizki, ertasiga sharillab yomg'ir yog'adi.

2. Ba'zan istaganidan yanada a'losini beradi. Bu nimaga o'xshaydi? Bemor shifokorga: «Menga aspirin bering!» – desa, hakim: «Yaxshi, lekin oshqozoningda yara bor, yallig'lanish bor... Aspirin ichsang, oshqozoning umuman xarob bo'ladi. Sen aspirinni boshing og'riyotganligi uchun so'rayapsan. Men senga aspirin bermayman, lekin bosh og'rig'ini qoldiradigan yanada yaxshiroq dori beraman», – deydi.

Alloh ham shunga o'xshash: qul bir narsani so'raganida bermayotgan bo'lsa, demak, yanada yaxshirog'ini beradi. Biroz sabr qilish lozim.

Payg'ambarimiz aytadilarki: «So'radim, lekin Alloh bermadi, deb shikoyat qilmang, biroz sabr qiling, kuting! Inson sabrli bo'lishi lozim!»

Shuning uchun shoshilmaslik kerak, tinmay so'rayverish kerak! So'ragandan keyin odob bilan kutmoq lozim! Alloh ba'zan so'raganingizdan a'losini beradi, ko'rasiz hali. Kuting,

bunday misollar sizning hayotingizda ham uchraydi. Mening hayotimda ham ko'p misollar bor bunga.

3. Ba'zan mukofotini Alloh oxiratda beradi. Shunday narsa so'rabdiki, bu dunyoda bo'lmaydi. Masalan, otasi yoki domlasi, yoki o'g'li yoki bo'lmasam, birorta sevgan kishining kuni bitib, vafot etmoqchi. Yonidagilar qo'l ochib duo qilmoqdalar: «Yo Rabbim, bunga sog'liq ber, salomat qil, oyoqqa turg'az...». Ammo u odam vafot etadi.

Bunday duolarga ham Alloh taolo mukofotini beradi. Qulining duosini qabul etib, uning mukofotini dunyoda emas, oxiratda beradi. Chunki so'ralgan narsa qadari ilohiyga muvofiq kelmasa, iloji bo'lmaydi.

Ba'zan shunday duolar ham bo'ladi: Dehqon yomg'ir yog'ishini, tandirchi quyosh chiqishini xohlaydi. Dunyoda har bir inson o'z manfaatidan kelib chiqib duo qiladi. Ikkalasi ham solih qul bo'lishi mumkin lekin, bir-birlariga zid narsalarni so'ramoqdalar. Shunda ijobat bo'lmaydiganiga Alloh oxiratda mukofotini beradi.

Muhtaram birodarlarim! Biz doim ilm-ma'rifat uchun xizmat qilgan ummatmiz. Musulmon ajdodlarimiz dunyo tarixida misli ko'rilmagan olimlar bo'lishgan, dunyo turguncha o'qib-foydalaniladigan asarlaribitib qoldirishgan. So'nggi davrlarga kelib ilm-ma'rifatga mehru muhabbatimiz biroz zaiflashdi.

Yapon xalqini yaxshi biladigan bir birodarimiz gapirib berdi. «Domla, yaponlar ko'p kitob o'qiydilar. Yevropaliklar orasida olmonlar ko'p o'qiydi, lekin yaponlar ulardan ham ko'p mutolaa qilishadi» – dedi. Qarang ajnabiy xalqlar ko'p kitob o'qimoqdalar. Biz ham vaqtimizni zoe' o'tkazmasdan ko'p mutolaa qilaylik. Yonimizda doim zarur kitobimiz bo'lsin. Farzandlarimizgi ham shu odatni o'rgataylik.

Bir birodarimiz doim yonida kitob olib yurardi. Bir kun yonidagi kitobni ko'rib: «Qanday kitob?», – deb so'radik. Kitobga razm solganimizda, ko'rdikki Abdulqodir Giyloniy quddisa sirruhuning va'z kitobi tarjimasi ekan. Men esa, u holda bir sahifa oching-da, Abdulqodir Giyloniy quddisa sirruhuning bizga aytgan nasihatlaridan o'qing, dedim. Shunda ushbu hadisi sharif nasihat bo'lib chiqdi: Oxiratda, Mahkamai Kubroda, gunohlar-savoblar tortiladigan vaqtda, ba'zilar daftarlarida muazzam savoblar yozilganini ko'rar ekanlar. Shunda ular «Rabbim, men bu savoblarga qaerdan erishdim ekan?» – deb so'raydilar.

Shunda Alloh taolo: «Ey, qulim! Bu savoblar Menga duo qilganing uchun nomai a'molingga yozilgan. Chunki sening o'sha paytda xohlagan narsalaring Men belgilagan qadari ilohiyga zid edi, bo'lishi mumkin emas edi. Ammo qilgan duoning sababli senga bu savobni baxshida qildim. Seni duoyingga shunday javob qaytardim», – der ekan. Shunda u yerdagi savoblarning buyukligini ko'rgan qullar: «Koshki, Alloh taolo dunyodagi barcha duolarimizning savobu mukofotini shunga o'xshab oxiratda bersaydi», – deb tamanno qilar ekanlar.

Demak, inson haram-harishga bulg'anmasa, Alloh nazdida nomaqbul holatda bo'lmasa, duosi qabul bo'ladi. Chunki Alloh taoloning:

**«Menga duo qiling, duoningizni qabul qilaman!»** va'dasiga ko'ra duo qabul bo'ladi.

Duosi qabul bo'ladigan toifalardan yana biri bemorlardir. Kasal insonning uyqusi – ibodat, sukuti – tasbeh, duosi – ijobat. Xastalangani uchun bajarishga ko'nikkan solih amallarini bajara olmasa ham bajarayotgandek savob yozilaveradi amal daftariga. Natijada nomai a'molidagi barcha gunohlar o'chiriladi.

Ro'zadorning ham holati shunday: uyqusi – ibodat, sukuti – tasbeh, duosi – ijobat va amali – muzoafdir. Muzoaf – qo'sha-qo'sha, ortig'i bilan baholangan, ko'paytirilgan degani. Ro'zadorning tutgan ro'zasidan tashqari, barcha qilgan amallarining savobi 70 martaga ko'payadi. Chunki Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam xabar berishlaricha, Alloh taolo aytarmish: «Ro'za men uchun tutiladi. Shuning uchun uning mukofotini men o'zim beraman!» Shu bois ro'za tutishning ajru mukofoti behisobdir.

Ramazonga tegishli yana bir hadisi sharif keltiraman. Abu Haysam raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Bir ramazondan kelasi ramazongacha, ikki ramazon orasi», (Val hajju ilal hajji), «Avval qilingan haj bilan keyin qilingan haj orasi», (val jum'atu ilal jum'ah), oldingi jum'a bilan yangi kelgan jum'a orasi (vas sola'tu ilas solah), oldinroq o'qilgan namoz bilan keyingi o'qilgan namoz orasi (kaffa'ratun lima' baynahunna)dagi gunohlarga kafforattir. Ya'ni gunohlarning kechirilishiga sabab bo'ladi, gunohlar o'chiriladi. Demak, ramazon ro'zasini odobiga ko'ra tuta olsak, u – o'tgan yilgi ramazondan bu yilgi ramazongacha qilgan gunohlarimiz, xatolarimizga kafforat bo'ladi. Bu biz uchun bir xushxabar.

Agar bir necha marta hajga borgan bo'lsak va hajlarimiz halol pul evaziga qilinib, maqbul bo'lgan bo'lsa, oradagi gunohlarga kafforat bo'ladi. Tabiiyki, hajga hamma ham bora olmaydi, ammo ramazonga hamma erishadi.

Bir jum'a oldingi jum'a bilan oralaridagi gunohlarga kafforattir. Shuning uchun ham musulmonlar jum'a namozini tark etmasliklari lozim! Chunki u oldingi gunohlarning o'chirilishiga sabab bo'ladi. Albatta, jum'alarda gunohlar o'chirilishining boshqa yo'llari ham bor. Jum'aga kelishidan oldin g'usl qilib, yuvinsa, o'n kunlik gunohi kechiriladi. Qur'oni karimning o'n beshinchi porasida surai Kahf bor. Surai Kahfni jum'a kuni o'qigan kishining o'n kunlik gunohi kechiriladi degan mujda ham bor.

Ko'rib turibsizki, kechayu kunduz xato qilamiz, qusurlarimiz bo'lishi mumkin, ammo ibodatda bardavom bo'lsak, jum'ada doim bo'lsak, haj vazifalarini bajarsak, ramazonni go'zal kechirsak, bu ibodatlarning barchasi xatolarimizni yuvib-tozalaydi. Natijada mahshar kuni yuzimiz oq bo'ladi. Qusurlarimiz sababidan jazoga giriftor bo'lmaymiz.

Ammo:

**«Bas, kim (hayoti-dunyodalik paytida) zarra misolichalik yaxshilik qilsa (Qiyomat kunida) o'shani ko'rur. Kim zarra misolichalik yomonlik qilsa uni ham ko'rur»**, – oyati karimasiga ko'ra, ahvolimiz og'ir bo'lishi ham mumkin...

Bir inson haj qilsa, uning gunohlari shunday o'chirilib, toza bo'larkanki, qayta turib «Ajabo, Alloh meni afv etdimi, deb taraddudga tushsa, ilk gunoh yozila boshlaydi», – deyiladi hadisi shariflarda. Ya'ni inson ikkilanmasligi kerak. Alhamdulillah, gunohlardan forig' bo'ldim, deydi. Ammo buning sharti nima? Hajni halol pulga ado etmog'i lozim. Masala aylanib-o'rgilib, yana avliyoulloh buyuklarimiz aytib o'tgan nuqtalarga kelib

to'xtamoqda: halol luqma yeb, haromdan yiroqlashish. Ya'ni og'izga harom luqma kirmasligi kerak.

Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhunging bu xususda juda ham talabchan bo'lganligini yaxshi bilasiz. Kimdir ularga bir tovoq hadya keltiribdi. Ma'qul ko'rib, bir luqma yebdilar va «Qaerdan keldi bu?» – deb so'rabdilar. Hadyaning harom joydan kelganini bilgach, barmoqlarini tomog'iga tiqib, qusib tashlabdilar. Keyin shunday debdilar: «Harom bilan oziqlangan vujudni shubhasiz, jahannam otashi kuydirmay iloji yo'q!»

Shu bois ham avliyulloh bobokalonlarimiz, murshidi komillarimiz aytadilarki: «Musulmon eng avvalo halol luqma yeyishga diqqat etishi lozim! Birovlarning haqqini, haromni yemasligi kerak. Harom va halolni yaxshi farqlashi zarur!» Bu biz uchun juda jiddiy bir ko'rsatmadir.

Hazrati Umar raziyallohu anhu xalifalik chog'larida taftish etish maqsadida qamchini qo'lga olib, bozorga kirar ekanlar. Bozordagilardan harom va haloldan, shar'iy muomaladan so'rar ekanlar. Qanday muomala harom, qandayi halol, nima qilsa, foyiz bo'ladi, nimani bajarsa, harom bo'ladi, deb ularni qattiq imtihon qilar, tegishli chora-tadbirni qo'llar ekanlar.

Hayotdagi hamma ishlarimiz halol luqmaga bog'liq. Bu yerda maqsadimiz ramazonni tushuntirish bo'lsa-da, o'rni kelganda, katta harflar bilan: «Hamma narsa halol luqmaga bog'liq bo'lganidan daromadimiz halol bo'lishi va harom luqma iste'mol qilmaslikka juda diqqatli bo'lishimiz shart. Farzandlarimizga harom luqma yedirmaslikka harakat qilishimiz zarur. Halol rizq talab qilish yo'llarini yaxshi va to'g'ri o'rganib, o'zlashtirishimiz lozim», – deb yozib, tagiga chizib qo'yishni taklif qilardim.

Bizning fakultetlarimizda turli mutaxassisliklarni – shifokorlik, muhandislik, ziroatchilik, huquqshunoslik sohalarini yaxshi o'rgatishadi. Juda ham yaxshi, Alloh bu maslak sohiblarining sonlarini ko'paytirsin. Ammo, eng avvalo, o'z mutaxassisliklari bo'yicha nima halolu nima harom ekanligini o'rgatishini xohlardim. Chunki harom luqma yedimi, uning ibodati ham qabul bo'lmaydi, shubhasiz, jahannamga kiradi. Juda ham ayanchli holatga tushib qoladi. Shuning uchun halol luqmaga ahamiyat berishingizni yana bir karra eslatyapman.

Ikki ramazon, ikki haj, ikki jum'a, ikki namoz orasidagi gunohlarga kafforat bo'ladi, dedik. Faqat bir shart bilan: (Majtunibatul kabairi). Gunohi kabira – katta gunohlardan qochgan holdagina katta gunohlar bu – odam o'ldirish, o'g'irlik, zino va boshqalar. Mana shunday gunohlardan o'zini saqlab, hushyor yurgan kishining chapdan, o'ngdan bilmasdan aralashib qolgan gunohlari o'chiriladi. Lekin katta gunohlardan saqlangan taqdirdagina.

Barchamiz mo'min va mo'mina bo'lganimiz uchun ham gunohi kabiralardan saqlanamiz. Ya'ni, o'g'irlik qilmaymiz, alhamdulillah. Odam o'ldirmaymiz, alhamdulillah. Alloh bunday gunohlarga ro'para qilmasin. Biroq hozirgi davrda mo'min uchun eng tahlkali gunoh bu – zino. Afsuski, zamona ko'plab kishilarni zinoga bulg'ab tashlamoqda. Davr shartlari har kishini ozmi-ko'pmi zinoga bog'lamoqda.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam:

«Ko'zlar ham zino qiladi», – dedilar. Ko'z zinosi nima? Qaralishi mumkin bo'lmagan ayollar, nomahram avrat a'zolarga qarash. (Val yada'ni tazniya'n). «Qo'llar ham zino qiladi», – deydilar. Qo'llar ham saqlanishi, haromga tegmasligi, harom narsalarni bajarmasligi lozim! Ayniqsa, ko'zdan bo'ladigan zinodan qattiq saqlanish darkor!

Ko'z zinosi qanday bo'ladi? Bunga ba'zan gazeta va jurnallar sabab bo'ladi. Men bugun kelishimda birodarlarimizga ba'zi gazetalarni olmang, dedim. Yana bir nechasini o'chiraman va bularni ham olmang, deyman. Ammo hayotni bilish, voqealarni eshitish uchun uch-to'rt dona gazeta olish kerak. Domla bo'lganligimiz uchun sizlarga biror narsa tayyorlash maqsadida ba'zi gazetalarni sotib olamiz. Bitta gazetada bir erkakning bir erkak bilan tushgan tasviri bor. Bu juda ham qo'rqinchli narsa! Bundan tashqari, yalang'och ayollarning rasmlari borki, bular fojiali narsalar. O'sha jaridalarning bir qismi aynan shu narsani o'z vazifasi deb biladi. Ular axloqsizlikning eng yomon shaklini reklama qiladilar. Odamlar bu jaridalarni olsin deb, odamlarning qitig'iga tegadigan mavzularni oldinga suradilar. Diniy nuqtai nazardan esa, bularning barchasi zinoga kiradi, haromga olib boradigan narsalar.

– Xo'p bo'ladi, domla, o'sha gazeta-jaridalarga qaramaymiz! Gazeta peshtoqlariga qaramasdan, to'g'riga qarab o'tib ketamiz!

– Yaxshi, lekin uyingdagi televizor nima bo'ladi? Uydagi televizorlar tufayli ham musulmon katta zararlarga kirib ketayпти.

Kecha Ko'nyada va'z o'qiyotganimda, qog'ozga savollarni yozib jo'natibdilar:

«Domla! Televizori bo'lgan uydan imonli o'lik chiqmaydi, demoqdalar. Shu to'g'rimi?»

«Yo'q, unchalik emas. Allohning ishiga hech kimsa aralasholmaydi! Imon masalasi... U qadar ham deya olmaymiz, lekin televizorning tahlikasi ham oz emas», – deb aytdim.

Esimda bor. Anqaraga va'z o'qigani borgandim. O'sha kechasi Mahmud Alining «32-kun» degan ko'rsatuvida asli yunonli bo'lgan pop-musiqachi Yusuf Islomning lavhasi, reportaji bor edi.

Men Yusuf Islom bilan tanishdim. Istanbulda kasal bo'lib yotganimda ziyoratimga keldi. Alloh rozi bo'lsin. Mojarosini ham bilaman. Yaxshi, ixlosli musulmon, mendan uzun soqoli bor. Egnida jubba, boshida salla bilan yuradi. Uni ko'rgan kishi beixtiyor «Bu bizning qoradengizli mullalardan», – deb o'ylaydi. Ya'ni shu qadar e'tiqodi sog'lom bir musulmon birodarimiz.

Qanday qilib musulmon bo'libdi? Dengizda cho'kib ketib, bo'g'ilib qolib: «Yo Rabbim! Agar meni o'ldirmasang, bundan keyin senga yaxshi ibodat qilaman. Haq din ustida senga chiroyli qullik qilaman», – deb aytibdi. Alloh bir vasila bilan uni qutqazibdi. Qutilibdi. U esa bergan so'zini unutibdi.

Inson farzandi shunday, muhtaram birodarlarim! Zilzila bo'lsa, hamma duo aytishga tushadi, tugashi bilan yana unutadi. Urush bo'lsa, Qibrisga yuborish boshlansa, kimning qanday bo'lishini hammangiz yaxshi bilasiz.

Gazeta-jurnallarning, radiolarning havosi o'zgaradi. U tugashi bilan din va imonga bo'lgan munosabat kamayadi. Kemaga mingandan keyin, to'liqlar kemaga urila boshlashi bilan:

**«... chin ixlos bilan Allohga iltijo qilurlar».**

Ixlos bilan Allohga duo qiladilar, quruqlikka chiqqanlarida esa unutadilar. Inson farzandining turgan-bitgani shunday...

Yusuf Islom ham bergan so'zini unutibdi. Ammo «Hoy sen, «Ey Rabbim, agar meni qutqarsang, senga yaxshi ibodatlar qilaman», deb va'da bergan eding! Nima bo'ldi?» – deb bir necha marta tush ko'raveribdi va oxiri musulmon bo'libdi. Alloh uni ogohlantirgan ekan.

Bu birodarimizni yaxshi bilamiz, uni hurmat qilamiz. Qani, tomosha qilaylik, dedim. «32-kun» dasturi boshlanish soatida televizorni qo'ydik. Bu ko'rsatuvni tayyorlaganlarning jazosini Alloh bersin. Bu aslida musulmonlar tomosha qiladigan Yusuf Islom haqidagi bir dastur edi. Men ham shuning uchun tomosha qilmoqchi bo'ldim. Dasturning boshiga behayo bir filmning yotoqxonah sahnasini kiritibdi – xalqni masxara qilayotgandek. Men uni kutmagandim-ku, men sening dasturingni – Yusuf Islomning qanday musulmon bo'lishini tushuntirib berasan, deb tomosha qilmoqchi edim. Nega behayo sahnani kiritib, meni gunohkor qilasan? Zotan, o'zing gunohga botib turibsan...

Biz Yusuf Islomni tomosha qilmoqchi edik, lekin bu dasturni ko'rgan, ko'zimizni yopdik, lekin xohlaganingcha berkit, uying ichida ham mayxona, ham diskoteka, ham cherkov, ham pop, ham kazino, umuman hamma narsa bor. Bu televizor har narsa...

Shuning uchun ham, muhtaram birodarlarim, ko'z zinosi masalasida juda ehtiyot bo'ling! Payg'ambarimiz bejizga: «Ko'z ham zino qiladi» demadilar. Ya'ni haromga qaradimi – ko'zning zinosi bo'ladi. Zino ham gunohi kabira. Gunohi kabira qiladigan insonning esa duosi aslo qabul bo'lmaydi.

Bir kishi ko'chada biror ayolga ko'zi tushsa, birinchi boqish kechiriladi. Ikkinchi marta nazari tushsa, gunoh yozila boshlaydi. Chunki ikkinchi qarash shaytondan. Birinchi marta ko'zi tushganda, nima qilsin, ma'sum, chorasi yo'q. Ikkinchi qarashi shaytondan bo'lib, gunohga boshlaydi. Shuning uchun ham bizning naqshbandiya tariqatimizning asoslaridan biri: «Nazar bar qadam». «Nigohing oyog'ing uchida bo'lsin», – deyiladi. Bu nima degani? Atrofga qaramasdan, bokira qizdek hayoli bo'l, degani. Chapga, o'ngga qaradimi, agar ko'rib qolsa gunohga kirgani shu.

Shoir nima deydi:

*Ko'z ko'rdi, ko'ngil sevdi, o mening yuzi mohim!  
Qurboning bo'lay, bormi, bunda mening gunohim?*

– Ha, bor. Ko'z ko'rgani uchun gunoh yoziladi. Nomahramga qaramasliging kerak edi. Ko'chaga chiqadigan ayolingni yarim-yalang'och emas, yopinchiqqa o'ratib chiqarishing kerak. Qizingni esa bolalagidanoq hayoga, odobga o'rgatasan...

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilini bdi, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuribdilarki:

«Kim ramazonda ro'zasini tutsa, ya'ni, kim ramazon ro'zasini tutib, ramazonning maxsus sunnati bo'lgan tarovih namozini o'qisa, imon keltirib, mo'min holda savobini Allohdan kutib bu amallarni bajarsa, uning oldingi va kelajakdagi gunohlari kechiriladi».

Boshqa bir mashhur hadisi sharifda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ramazon oyini ta'riflab aytadilarki: «Ramazonning boshi Allohning rahmatiga, marhamatiga erishmoqdir. O'rtasi gunohlarning kechirilishi, afvu mag'firat etilishidir. Oxiri esa, jahannamdan ozod bo'lishidir». Banda ro'za tutishni boshlashi bilan Ramazonning boshida Allohning marhamatiga erishadi, o'rtasida mag'firat etiladi, oxirida esa «Sen endi jahannamdan qutulding, ozod bo'lding!» – degan mujdaga erishadi va jahannamdan najot topadi, inshoalloh. Ammo:

«Agar kishi shunday chiroyli savoblari bo'lgan ushbu ramazon oyida Allohning rahmatiga erisha olmasa, xayrlarga noil bo'lolmasa, demakki, u qaroqchidir», – deb aytmoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam.

Qaroqchi deganida, tog'lardagi qaroqchi tushunilmaydi. Islom adabiyotida inson ikki toifaga bo'linadi: birinchisi – suado, saidlar zumrasi, ya'ni, dunyo va oxirat saodatiga erishib, jannatga boruvchilar. Ikkinchisi – ashqiyodir. Shaqiylar, ya'ni Allohning rahmatiga erisholmagan do'zaxiyalar zumrasi degani... Shaqiy – jahannamiy, said – jannatiy deganidir. Demak, «Ashqiyo ramazon oyining fayzidan, barakatidan, rahmatidan foydalana olmaganlar. Aslida haqiqiy saodatdan mahrum qolganlar shu toifadir», – demoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam...

Hozir yo'lda ko'rdim, birov sigaretini olib yoqdi. Eski hammom, eski tos. Sen Ramazonda kunduzlari Alloh hatto halol qilgan narsalariga sabr qilgan eding: yemasding, ichmasding, sen uchun odatiy hol bo'lgan narsalarni bajarmasding. Oqshom esa, nima uchun makruh, ba'zilariga ko'ra harom bo'lgan narsani bajarayapsan? O'zingni tutishing kerak edi! Demak, sen bu ishning ruhini fahmlay olmabsan. Ramazon taqvo sohibi bo'lishing, nafsingga hokim bo'la olishing, yomonliklarni tark eta oladigan holatga kelishing lozim edi. Bu holga yetib kelmabsan. Ammo, hali ramazon tugagani yo'q, ish nihoyasiga yetganicha yo'q. Yana o'n to'qqiz kun bor, oldimizdagi kunlarda g'ayrat ko'rsatib, Alloh taoloning rahmatini qozonishga harakat qilaylik!

Alloh taolo barchamizni tavfiqi samadoniyasiga mazhar qilsin. Bu go'zal oyning xayru barakatidan foydalanib, Alloh sevgan taqvo ahli, solih bir mo'min holiga kelishni nasib etsin. Yomon xulqlarimizni tark etib, go'zal axloqlarga erishishni nasib aylasin.

Yana bir hadisi sharif bor, uning ta'siri ramazondan keyin ma'lum bo'ladi. Bir inson ramazondan keyin ramazondagi chiroyli axloqlarini tark etib, ramazondan oldingi holiga – past saviyaga tushib qolsa, bu – tutgan ro'zalari, qilgan toat – ibodatlarining qabul bo'lmaganligi alomati. Qabul bo'lganligining alomati esa holatining yanada yaxshi holga o'zgarishidir. Ramazondan oldingi holidan farqli, ramazondan keyingi holati juda ham chiroyli bo'lishi kerak!

Alloh taolo barchamizni g'aflat uyqusidan uyg'otsin, orif, ogoh qullaridan qilsin. Umrimizni o'zining rizosi yo'lida kechirishga muvaffaq aylasin, tavfiqini rafiq etsin, xos bandalaridan bo'lishimizni nasib qilsin. Husni xotima ila oxiratga borishni lutf aylasin. Hammamizni jannati va jamoliga musharraf etsin.



Bi hurmati asrori suratil fотиha.

10 fevral 1995/ 10 Ramazon 1415

### «JAHANNAMGA KIRADIGANLAR»

A'uzu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

Assalamu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu aziz va muhtaram birodarlar!  
Alloh taolo ro'zalarimiz, namozlarimiz, ibodatlarimizni qabul aylasin. Dunyo va oxiratdagi murod-maqсадlarimizga noil qilsin.

Sizlarga bu xufton namozidan keyin ikki oyati karima va bir hadisi qudsiyni tushuntirib bermoqchiman.

Alloh taolo qator oyati karimalarida bizlarga taqvoni amr etmoqda. «Muttaqiy qul bo'ling, taqvo ahli bo'ling, taqvoga ergashing, taqvoni shior qiling!» – deb bizdan taqvoni talab qilyapti. Xudovandi karim «Hashr» surasida shunday buyuradi.

*Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.*

Bu oyatni ilgari ham sizlarga eslatib, sharqlab berganman. **«Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqinglar va har bir jon erta (Qiyomat kuni) uchun nimani (ya'ni qanday ezgu amalni) taqdim etganiga qarasin! Allohdan qo'rqinglar! Albatta Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardordir».**

Bugun degani – shu doril-dunyodagi hayotimiz. Ertaga degani – oxirat. Kishi bu dunyoda oxirat uchun nimani hozirlagan bo'lsa, o'shani qarasin! Oxiratga nimani yuboryapti, nimani taqdim etmoqda? U yerga nimalarni tayyorlayapti?

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir o'xshatish bilan bu masalani izoh etib o'tganlar:

«Dunyo oxiratning ziroat yeri, paykalidir». Bu yerda oxirat mahsulotlaridan nimani eksangiz, u yerda o'shani yig'ib olasiz. Hech kim bug'doy ekib, paxta olmaydi. Juda ham oddiy, qishloqdagi avom ham, olimu fozillar ham tushuna oladigan tarzda, ikki karra ikki to'rtga o'xshash ochiq haqiqatlar.

«Kishi bu dunyoda oxirat uchun nimalar hozirayotganiga nazar solsin?» – deb Rabbimiz amr etmoqda. U holda, biz har kuni qilayotgan ishlarimizga nazar solishimiz, orqaga o'girilib, bir qarab olishimiz. Har kecha bir hisob-kitobdan o'tkazishimiz lozim!

Ba'zi buyuklar bu ishni o'ta jiddiy tarzda ado etishgan. Qo'lga qog'oz-qalam olib, kunduzi qilgan gunohlari-yu savoblarini, daftarining savob-gunoh bo'limlariga yozib borgan.

Hazrati Umar raziyallohu anhu tavsiya qilyaptilar:

«Oxiratda hisob-kitobga tortilmasdan turib, o'zingizni hisob-kitob qiling!»

Har bir inson «Oxiratga nimalarni yuboryapman?» – deb o'ylashi kerak! Har kecha yotmasdan oldin o'sha kunning tafsilotlarini bir marta xotirlab, «Ertalab nima qildim? Uydan qachon chiqdim, nima ishlar qildim?» – deb hisob-kitob qilishi kerak!

Madinai munavvarada hol sohibi bir muborak inson bor ekan. Muhammad alayhissalomning qabrlarini ziyorat qila turib, «Assalotu vassalamu alayka yo Rasululloh!» deganida, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning ham uning salomiga javob qaytarganlarini eshitar ekan. Holining naqadar go'zal ekanligiga qarang! Salom bersa, salomi qabul bo'lib, alik olinishi eshitilmoqda. Go'zal hol!

Bir kun uning oldiga hamshaharlari kelishibdi. Kelganlardan qiziqib: «Ahvollar qanday? Nima yangiliklar bor?» – deb ona shahri haqida so'rabdi. Keyin namoz vaqti kirishi bilan Masjidi Nabaviyga borib, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga salotu salomlar aytibdi, biroq bu safar salomga alik qaytarilmabdi.

«Ey voh! Biror xato qildim, shekilli!» – deb, o'shangacha nimalar qilgan bo'lsa, hammasini xotiriga keltira boshlabdi. «Men nima xato qildim, ey Rabbim? Nima uchun Rasululloh mening salomimga alik olmadilar?» – deb o'ylay boshlabdi.

Menimcha: «Oh, ona shahrimning qatiqlari, qatiqmisan qatiq-da, juda ham chiroyli, qaymoqli. Bu yerning qatiqlari uning oldida nima bo'libdi? Bu yerda yaxshi qatiq ichmaymiz», – degan gapim tufayli bo'lsa kerak, deb oxiri xatosini topibdi.

Senmisan hali Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning shaharlaridagi hayot tarzini ma'qul ko'rmagan? Shu bois martabasidan tushibdi. Keyin uzoq vaqtgacha tavba-istig'forlar aytib, ko'z yoshlarini to'ka-to'ka eski holiga qaytibdi. Inson orqasiga qarab astoydil qidirsam, nima yaxshiyu, nima yomonligini tushunib oladi.

Yaxshi nima degani? Insonning ko'ngliga huzur-halovat beradigan narsalar. Gunoh nima ekan? Insonning ko'ngliga botadigan, og'irlik beradigan, yoqmagan narsalar. O'lchov shu. «Taqvo qiling, Allohdan saqlaning. Taqvo ahli bo'ling, muttaqiy qul bo'ling!» – degani. Kishi hozirdan erta uchun nimani taqdim etayotgan bo'lsa, qarasin! Qaraymiz, demak, hisob-kitob qilamiz. Gunohdan saqlanamiz, savob ishlarni ko'p bajaramiz.

Bu ramazon oyidagi muborak ro'za ibodati Qur'oni karimdagi «Baqara» surasining 183-oyatda hamda «Hashr» surasining 17-oyatida alohida ta'kidlangan.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyurganlarki: «Alloh go'zallarning go'zalidir, go'zallikni sevadi». Faqatgina Allohga oshiq bo'linadi. Unda Allohdan nima uchun saqlanadi? Allohning azobidan, jahannamidan saqlanadi.

«Jahannamga tushishdan o'zingizni himoya qiling, qo'riqlang, saqlaning, viqoya qiling!».

Viqoya qilmoq – asramoq degani. Ya'ni: «Ey mo'minlar, o'z o'zingizni jahannamga tushib qolishdan asrang, asrab qoling!».

Qanday asraydi? Gunohlar qilmaslik yo'li bilan saqlanadi. Chunki jahannam ta'riflarga sig'maydigan darajada fojiali, mudhish, qo'rqinchli yerdir. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki: «Allohning jahannamdagi gunohkorlarga ichiradigan

zaqqumining bir tomchisi dunyodagi ulkan daryolaru dengizlarga tushsa edi, butun dengizlar zahar kabi achchiq bo'lib ketardi. Buni ichib tozalanadigan insonlarning holiga voy!».

Yana Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki: «Ey mo'min birodarlar, ey musulmonlar! Jahannamga tushib qolmaslikka harakat qiling!» Ba'zi insonlar aytib bo'lmaydigan gaplarni aytayaptilar. Jahannam hazil joy emas. Chunki inson ichiga bir marta tushdimi, tamom... Mo'minlardan ham do'zaxga kiradiganlar bor... Kimlarning kirishi bir hadisi qudsiyda keltiriladi, sanab chiqamiz.

Mo'min bo'la turib, jahannamga kiradiganlar kimlar? Allohning qilmagin degan ishlarini qilgan gunohkorlar. Qilmasligi lozim edi, lekin qildi. Mo'min bo'lganligi uchun do'zaxga kirmasligi lozim edi, ammo kiradi va qilgan gunohiga yarasha jazosini tortadi.

«Jahannamga kirmaslikka g'ayrat qiling!» – demoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Chunki jahannamga kiradiganlar u yerda ancha qoladi.

**«U yerda huqublar qadar qoladilar»** («Ular u joyda uzoq zamonlar (ya'ni abadul-abad) qolguvchidirlar»). Huqub – arablardagi bir vaqt o'lchovi. Bir huqub sakson yil atrofida, ya'ni bir umrga teng. Ahqoban – umrlarcha qoladi degani. Ahqobaning eng kami qancha ekan?

«Ko'pchilikning eng kami uchlikdir», – deydi arablar. Chunki ikkining arabchada boshqa siyg'asi bor.

Eng kami uch huqub miqdoricha, ya'ni uchta sakson yillik muddat davomida qoladi. Bu ikki yuz ellik yil degani. Jahannamga tushgan inson, hatto mo'min bo'lsa ham u yerda kamida 250 yil qolar ekan.

Shu bilan tugadimi? Yo'q, hali hisob-kitob tugaganicha yo'q!

Qur'oni karimda buyurilmoqdaki:

**«Darvoqe, Parvardigoringiz nazdidagi bir kun(lik azob) sizlarning hisob-kitobingizdagi ming yilga barobardir».**

Allohning bir kuni, bizning ming yilimizga teng bo'lsa, demak, bizning bir yilimiz 365 kun, 1000 yil esa 365000 yilga teng bo'ladimi? Endi 250 yilni 365000ga ko'paytiring. 91.250.000. Inson mo'min bo'lsa ham, jahannamga tushdimi, u yerda million yillarcha qoladi. Shunday ekan, Allohning:

**«Va kofirlar uchun tayyorlab qo'yilgan do'zaxdan qo'rqingiz!»** – deyishida hikmat bor. Chunki Alloh mo'min qullariga achinadi.

Achingani uchun ham Qur'oni karimning ko'p joylarida bizlarni jahannamdan saqlanishga amr etmoqda. Va jahannamdan qanday saqlanish yo'llarini o'rgatmoqda. Qanday o'rgatayotganining farqiga borayapsizmi? Ko'p kishi uning farqiga bormaydi. Chunki shoir aytadiki:

**Ul baliqlar, ki daryo ichradur, daryoni bilmaslar...**

Hozir muborak ramazon oyida turibmiz. Ramazonda bir oy taqvo bosqichini o'taymiz.

Musulmon har yili bir oy kursga olinib, taqvo darsidan ta'lim oladi. Inson har yili o'ttiz kun bir kursga qatnashsa, o'sha ishning professori bo'ladi. Ro'za taqvo uchun, taqvoni, saqlanishni, asrashni o'rganish uchun. Mana, Alloh bizga jahannamdan saqlanishni qanday o'rgatayapti.

Suv ichmasdan yashay olamizmi? Yo'q! Suv bizlarga ham, hayvonlarga ham, daraxtlarga ham, gullarga ham lozim! Alloh osmondan suv yog'dirmasa, hayot tugaydi.

**«(Ey Muhammad, u mushriklarga) ayting: «Xabar beringiz-chi, agar (banogoh ichar) suvlaringiz (er tubiga) singib ketar bo'lsa, u holda kim sizlarga oqar suv keltira olur?!»** Alloh osmondan suvni yog'dirmasa, xalq suvsiz nima ham qilardi? Halok bo'ladi!

Ozuqa ham juda muhim, yemasdan turolmaymiz, yashamaymiz. Bir muddat yashaymiz, keyin kunimiz bitadi.

$365000 \times 250 = 91250000$  yil... Jahannamda eng oz yonadigan musulmon to'qson bir million ikki yuz ellik ming yil yonadi! Qani, endi gunohga yaqinlashib ko'r-chi! Har haromga qara-chi! Harom yeb ko'r-chi! To'qson bir million ikki yuz ellik ming yil gurillab yonadigan olovga chidab ko'r-chi... Quyoshning haroratiga chiday olasanmi? Soyani qidira boshlaysan, boshingni gazeta bilan berkitasan yoki nimanidir kiyib olasan. To'qson bir million ikki yuz ellik ming yil!

Shuning uchun aziz va muhtaram birodarlarim, ro'zamizni tutaylik! Odamga o'xshab deganda, mardlaracha, risoladagiday tutaylik, demoqchiman.

Ro'za faqatgina oshqozon tarbiyasi, yo'qlik, ochlik, suvsizlikka chidash degani emas. **Jinsiy tuyg'ular tarbiyasi hamdir.** Chunki shahvatni jilovlash ham savob.

Zero, odamlarni yer bilan bitta qiladigan, razilu rasvo aylab, jahannamga kiritadigan quvvatli tuyg'ulardan biri – shahvat tuyg'usi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam insonlarni jahannamga eng ko'p kiritadigan sabab ikkita narsa ekanligini ta'kidlab o'tganlar:

1. «Ikki labning orasi». Ya'ni til. Til bilan biror nobop gapni gapiradi-da jahannamiy bo'ladi-qoladi.
2. «Ikki oyoq orasi». Ya'ni, zino va shahvat asiri bo'lish. Ko'pchilik o'sha sabab bilan ketadi jahannamga. Allohdan qo'rqmaydigan, uyalmaydigan ba'zi noshirlar ham zino tufayli kun kechirmoqdalar. Gazeta-jurnallarda shahvoniy tasvirlar chop ettiradilar. Kinolar, teatrlar, mayxonayu diskotekalar bor. Ularning ustidan tijoratlarini yuritmoqdalar. Jahannam ustidagi ko'prikda tijorat do'konini qurganlar. Bunga yana eng ko'zga tashlanadigan reklamalar, eng qimmatli yerlar, turli tuman mast qiladigan ichimliklar. Hammasi zinoga xizmat qilmoqda.

Inson farzandining jur'atiga qarang, jahannam ustidagi kayfu safosidan yuragi titramaydi ham! Qandayin ahmoq, johil, g'ofil, tepsa tebranmas, bir qadamdan u yog'ini ko'ra olmaydigan yaralmishdir bu inson farzandi!

Shuning uchun ham bu bir oylik ro'za kursi bizlarga foyda berishi kerak! Bu kursdan o'tganligimiz to'g'risida guvohnoma olishimiz lozim! Bu kursni muvaffaqiyatli bitirib, taqvoni o'rganishimiz joiz!

Taqvo faqatgina yemaslik, ichmaslik, jinsiy munosabatlardan uzoq turish degani emas.

**Ko'ngilning ham taqvosi bor.** Ko'ngilning taqvosi – haromga qaramaslik. Chunki yuqorida ham aytganimizdek, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki: «Ko'zlar ham zino qiladi!». Agarda ko'zlar ham zino qiladigan bo'lsa, ko'zimiz haromga qaradimi, ro'zamizning savobi ham ketadi. Shuning uchun ro'zadormisan, Allohning harom qilgan taraflariga qaramaysan!

Tilning ham ofatlari bor. U ham gunohlardan saqlanadi. Quloqning ham ofatlari bor, uni ham haromlardan qo'riqlaysan. Tilni ham haromdan saqlanadi, qo'lni haromlarga uzatmaydi, qadamlarini harom tomonga tashlamaydi, bormaydi. Butun a'zolarini taqvoga o'rgatganidan so'ng, ro'zasi qabul bo'ladi.

Imom G'azzoliy ro'zaning uch martabasini ko'rsatadilar:

**1. Avomning ro'zasi.** Avomning ro'zasi qanday? Och qolish, suvsiz qolish, jinsiy munosabatlardan o'zini saqlash. Juda ham oddiy.

**2. Xoslarning ro'zasi:** Yemaydi, ichmaydi, ko'zlarini, qulog'ini, tilini haromdan saqlaydi. Qo'lini ham haromga uzatmaydi, oyog'i bilan ham haromga bormaydi. Har tomondan gunohlardan saqlanadi.. Asl ro'za – shu.

Agar ko'zini haromdan, tilini g'iybatdan, yolg'ondan, chaqimchilikdan saqlamasa, xoslarning ro'zasi ochiladi, savobi ketadi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki:

«Qancha ro'za tutadigan insonlar borki, tutgan ro'zasining unga hech qanday foydasi yo'q. Kechgacha faqatgina suvsiz va och yuradilar». Binobarin, avomning ro'zasi maqbul bo'lmadi. Nima uchun? Chunki, ko'zi bilan haromga qaradi, qulog'i bilan haromni eshitdi, tili bilan haromni gapirdi, qo'lini haromga uzatdi... Shu sababdan ham qabul bo'lmaydi.

**3. Xoslar xosining ro'zasi.** Ular Allohdan boshqa hamma narsadan o'zlarini saqlaganlar. Mosivalloh – Allohdan boshqa biror narsaga iltifot ko'rsatmaydilar, e'tibor bermaydilar, faqatgina Allohning jamoliga ko'zlarini tikib, jamolulloh mushohadasiga ishtiyoqmandlar. Ro'zalarini ham mosivallohdan aloqalarini uzgan holda tutadilar.

Albatta, biz ularning holini anglay olmaymiz. O'rtadagisini biroz tushungandek bo'lamiz. Och qolish, suvsiz qolish bilan birga, boshqa gunohlardan ham saqlanishni o'rgansak bo'ldi. O'shanda ro'za qabul bo'ladi.

Bu oy davomida kunduzlari gunohlardan saqlanib, kechasi gunoh qilsak, yana to'g'ri bo'lmaydi! «Oqshomda so'z berib, tongda so'zidan qaytish bo'ladimi?» – deydi shoir. Kunduzi ro'za tutadi, kechga borib ro'za tugashi bilan yana gunoh yo'lida. Bo'lmadi, sen bu ro'zani o'zi nimaga tutding-u, nima uchun yana gunohga qo'l urding?

Shoir Muhammad Okif rahmatlik «Safahot» asarida bir narsani tushuntiradi:

Bir aroqxo'r qaytib ichmaslikka qaror qilib:

«Bo'ldi, so'z berdim, tavba qildim, boshqa ichkilik ichmayman!» – debdi.

Mayxonaning oldiga har kelganida yuragi qattiqroq urar ekan. Eshik tomonga hayajon bilan qarar, shunda u o'ziga taskin berib, aytarkan «Qara, sen so'z berding, hayajonlanma! Eshik tomonga qaramasdan, to'g'riga yurib ket!». Eshik oldiga kelganda yana ojiz qoladi. Bo'lmadi, eshikdan o'tib ketadi, aqli orqada qolib ketgan. Ko'zlari oldinda. Mayxonaning eshigi orqada qoldi. Biroq joni hali ham xohlayapti. Chetroqqa yetib borganida:

«Ofarin, sen bu ishni muvaffaqiyatli bajarding. Kel, senga bir qadah mukofot!» – deydi, yana ortga qaytadi.

Endi nima bo'ldi? Tavbasi, bergan so'zi nima bo'ldi? Shunday tavba ham bo'ladimi?

Kunduzlari ro'za tutib, kechalari gunoh qilish ham bo'ladimi, muhtaram birodarlarim? Shuning uchun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki: «Alloh sizlarga bu muborak oyning kunduzlarida ro'za tutishni farz qildi, majburiyat qildi, kechalari namoz o'qishni tatavvu' – nafl ibodatni savobli qildi». Kunduzi ro'za tutasiz, kechasi esa tahajjud namozi o'qiysiz! Kechani ham namozu niyoz bilan o'tkazasiz.

Ba'zi amakilarga qarayman, muazzin «Allohu akbar» deyishi va iftor vaqti kirishi bilan sigaretni tutatadilar. Ey birodar, sen kunduzi sabr qilmadingmi? Kechga ham sabr qil! Kechga kelib nima uchun ahdingni buzding? Bu ham makruh.

Olimlarimiz tekshiruvlar, tadqiqotlar olib borib, sigaretani makruh, deb ataganlar. Bu – fiqh olimlarimizning so'zi. Ammo ba'zi olimlar harom ham deydi. Haromligini isbot qilish uchun, domlalar shunday asos keltiradilar. «Isrof harom emasmi? Harom. Salomatlikka zararli narsa Harom emasmi? Harom. Sassiqlik bilan atrofdagilarga ziyon yetkazish harom emasmi? Harom. Demak, bu ham haromdir», – deydi.

Men universitetda domla bo'lib yurgan paytimda Istanbuldagi Sahhoflar (kitobchilar) bozoriga bordim. U yerdan juda qimmatli bir qo'lyozma asarni sotib oldim. Uch asr oldin eski yozuv bilan yozilgan ekan. Kitobni yozgan olim sigaret endi chiqqan paytda Makkai mukarramadagi to'rt mazhab qozisiga, ya'ni hanafiy, shofiiy, molikiy, hanbaliy qozilariga borib: «Bu narsa haqida nima deysizlar?» – deb fatvosini so'ragan ekan. Hammalari harom, degan ekanlar! Do'xtirlar ham: «Sigaret cheksang, muddatingdan tezroq qariysan», – deydi.

Kasalxonalarda aytiladiki: «Marhamat qilib, bu yerda sigaret chekmang! Sigaret chekish ta'qiqlanadi!» Ba'zi muassasalarda chiroyli lavhalarini osib qo'yadilar: «Sigaret chekmaganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz». Avtobusda, uchoqda sigaret chekish mumkin emas. Chunki sog'liqqa ham, atrofdagi o'tirgan chekmaydiganlarga ham zararli. Chekuvchi chekdimi, uning tutuni atrofdagilarni bezovta qiladi.

Kunduzi ro'za tutib, ro'zasini sigaret bilan ochadigan kishilarga aytaman: Ey muborak inson, Alloh senga fursat beribdi – kunduzi sabr qilding, endi kechga ham, ertaga ham sabr qil, tugasin shu ish, qutulgin shu marazdan! Shu la'natidan qutulib, sog'ligingni tikla!

Bir do'stim tushuntirib berdi. U bilan Akademiyada birga ishlardik, ba'zi kunlari

darslarimiz bir kunga to'g'ri kelib qolardi. Hozir huquqshunos-professor, lekin ishni prokurorlikdan boshlagan ekan. Prokuror bo'lganligi uchun odam o'ldirish va boshqa shunga o'xshash turli jinoyatlarni rasmiylashtirishda qatnashgan. Bir kuni 18-20 yoshlardagi suzish bo'yicha chempion bo'lgan yosh bir yigit cho'kib o'libdi. Prokurorni shunga chaqirgan ekanlar. U yerga Istanbul morgi (o'lik xonasi)dan mashhur bir olmon professori ham boribdi. Haligi olmon professorining yonidagi talabalari domlalariga qarab:

«Suv ostida ichiga havo kirib tiqilib o'lgan», – debdilar.

Olmon professori esa:

«Yo'q! Havo tiqilganda chempion o'zini tutib olardi, cho'kmasdi», – debdi.

«U holda qanday qilib o'lgan?» – deb talabalar so'rashibdi.

«Barmoqlariga qarang! Bu sigaretning ashaddiy bangisi» – deb javob beribdi. Sigaret ushlagan joylari jigarrang, to'qrang bo'lib qolgan. Sigaretning tutuni o'sha joylarga ta'sir ko'rsatgan».

«Xo'sh, qanday o'lgan ekan?»

O'likning ko'kragini yorib, o'pkasini chiqaribdilar. Professor do'stim tushuntiryapti: «O'pkani tashqariga olganlarida, uning pastki qismi qop-qora, yuqorisi esa jigarrang bo'lib qotgan. Shunday bir siqqan edi, undan munchoq-munchoq mum sizilib oqdi». Shunda olmon professori: «Qaranglar, bu yigit o'pkasini sigaret tutuni bilan to'ldiribdi. Suzayotgan paytda, vujudning kislorodga ehtiyoji ortib boradi, chunki hamma a'zo harakatga kiradi. Shunda, o'pka vujudga lozim bo'lgan kislorod miqdorini yetkazib berolmagan. Harakat qilgan, biroq kislorodsizlikdan o'lgan», – debdi.

Chekadiganlaringiz bo'lsa, bundan ibrat olsin.

Aziz va muhtaram birodarlarim! Shu bir oy davomida gunohlardan, yomonliklardan, makruhlardan voz kechishni o'rganaylik.

Bir hadisi qudsiyda aytiladiki: «Gunoh qilgan paytingda uning kichikligiga emas, kimga qarshi qilinganiga qara!». Allohga qarshi qilingan bo'lsa, uning kichikligi qolmaydi. Inson ramazon oyida barcha kichik va katta gunohlardan saqlanishi lozim.

Bir hadisi qudsiyini o'qiyman. Unda do'zaxga kiruvchilar sanab o'tiladi.

«Ey Odam farzandi!». Biz hammamiz aka-ukalarmiz, chunki otamiz Odam alayhissalom.

(Ma haza'n – nira'nu). «Bu olov shular uchundir», – deb gunohkorlarni, qusurlilarni sanashni boshlaydi, esingizda saqlang:

1. (Illa' li kulli a'qqil va'lidayn). Ota-onasiga osiy bo'lganlar uchun.

Agar oralaringizda ota-onasi bilan arazlashib qolganlar bo'lsa, borsin-da qo'lini o'pib, yarashsin! Ota-onangizning ko'nglini oling! Chunki ota-onasiga osiy bo'lgan jahannamga otilar ekan. Do'zax ular uchun hozirlangan ekan.

Bilasizmi, ota-onaga sarf etiladigan xarajatlarning biriga yetti yuz qaytariladi. Jihodga sarflangandek qiymatli. Shuning uchun ota-onangizning ko'nglini oling!

Bir kun fakultetdagi bir talabam yonimga keldi. Eshikni taqillatib: «Kirish mumkinmi?» – deb so'radi.

«Kiring!» – dedim.

Soqolli yigitcha ekan.

«Siz bilan gaplashmoqchi edim», – dedi.

«Marhamat, gapir».

«Ustoz! Otam meni uydan haydadi, farzandlikdan chiqardi!»

«Ey voh! Nima uchun?».

«Soqol qo'yding deb, oq qildi».

«Otang nima ish qiladi?» – deb so'radim.

Otasi cholg'u asboblari yasaydigan usta ekan. O'g'lining soqol qo'yishi, dindor bo'lishi unga ma'qul kelmabdi. O'g'lini haydab yuboribdi.

«Endi nima qilayapsan?» – deb, yordam berish maqsadida yana so'radim.

«Moddiy ahvolim yaxshi, moddiy yordam lozim emas. Turadigan joyim bor. Faqat ahvol shunday», – dedi.

«Ota-onaning rizosi juda muhim, sen ularga bir maktub yoz! Maktubda juda ham chiroyli bir uslubni ishlat! Aytginki: «Sevgili va hurmatli, boshimning toji otajonim, onajon! Qo'llaringizni, oyoqlaringizni o'paman. Mening Islom dinim sizlarga juda ham yaxshi farzandlik qilishga amr etadi. Men shuni bajarishni xohlayman. Iltimos siz menga shu imkoniyatni bering! Siz meni uydan haydadingiz, oq qildingiz, ruxsat bering men sizning qo'llaringizni, oyoqlaringizni o'payin, sizga xizmat qilayin! Sizga farzandlik burchimni chiroyli ado etayin! Allohga osiy bo'lishimni xohlamang! Allohning yo'lidan qaytishimni so'ramang! Allohning amrlarini bajarmasligimni talab qilmang! U holda majburan, balki parchalanib bo'lsa ham Allohning yo'lini afzal ko'raman. Chunki U olamlarning Rabbisidir. Mening Parvardigorimdir. Unda Allohning amrlarini tutib, sizga esa itoat qilolmayman. Nima bo'lganda ham meni bu mushkul holga tushirib qo'ymang! Men sizga xizmat qilishni xohlayman!» – deb yoz!» Yigit o'zi yaxshi niyatda kelgan edi. Alloh shuning uchun menga bularni gapirtirdi. U «Xo'b bo'ladi, ustoz!» – deb ketdi.

Oradan bir necha oy o'tdi. Boshidan-oyog'igacha berkitilgan, qo'llari qo'lqopli bir yosh qiz bilan keldi. Eshikni ochib:

«Ustoz, kirish mumkinmi?» – deb so'radi.

«Marhamat!» – dedim.

Yonida ro'molli qiz borligini ko'rib, «Bizning talaba uylanmoqchi shekilli», – deb o'yladim.

«Ustoz, bu qizni taniyapsizmi?» – deb so'radi.

«Birinchi marta ko'rib turishim, qaerdan taniyman?» – deb aytdim.

«Bu – mening singlim. Siz menga bir maktub yoz, deb aytgan edingiz, men ham maktubni siz aytgan shaklda qilib yozdim. Mening maktubim uyimizda bomba kabi portlabdi, uyga sig'may ketibdi. Otam yig'labdi, onam yig'labdi, ukalarim yig'labdi».

Maktubdagi samimiyatdan ota yo'lga kirib, «kechirdim bolam», debdi. Bizning talaba uyga boribdi, yarashibdilar, alhamdu lilloh.

Biroz muddat o'tganidan keyin yigit yana oldimga keldi.

«Ustoz kirish mumkinmi?»

«Marhamat, kir ichkariga!»

«Ustoz, xushxabar! Otam, onam, ukalarim – hammamiz hajga ketyapmiz!»

Alhamdulilloh, qanday yaxshi! Demak, ota-onangiz bilan biror kelishmovchiligingiz bo'lsa, shunday hal qiling!

Ba'zan otalar ham nohaqliq qilishadi.

Masalan, «Do'konga aroq qo'yaman!» – deydi otasi.



«Nima uchun?»

«E o'g'lim, xaridor kelmayapti. Aroqqa o'xshash ichkiliklar bo'lsa, mast-alastlarni tutamiz, keladilar, pullarini olamiz. Ichkiliksiz do'konda foyda topib bo'lmaydi».

«Ota! Aroq qo'ymoqchi bo'lsangiz, ruxsat bering, men uydan chiqib ketaman! Chunki, haromdan topilgan luqmani og'zimga ham ololmayman! Mening uydan ketmasligimni xohlasangiz, aroq qo'ymang!»

Ba'zan otalar noto'g'ri yo'lda bo'ladi, farzand to'g'ri yo'lga solib qo'yadi. Ba'zan farzand yosh bo'ladi, boshida har xil fikru xayollar kezib yuradi. Ota-onasi to'g'ri yo'lda bo'ladi va farzandlarini to'g'ri yo'lga kiritishga harakat qiladilar. Ammo, farzand gapga kirmasdan, ota-onasini ranjitadi va osiy bo'ladi. Buni nima deydilar? Aqil validayn – ota-onasini xafa qilgan, ota-onasiga osiy bo'lgan... Ana o'sha jahannamga ketadi.

2. (Va likulli baxi'lin). Xasis, baxil bo'lganlar ham jahannamga kiradi.

– Baxillikning haddu chegarasi, o'lchovi qanday, ustoz? Hamma ham cho'ntagidan chiqarib pul bera olmaydi, oson emas. Pul degani jonday aziz narsa, inson sevadi uni. Cho'ntagida puli bo'la turib, yana xohlayveradi. Bunday baxillikni qanday qilib bartaraf etish mumkin?

– Baxillikdan, xasislikdan qutulishning yo'li zakot. Zakotini bergan, baxillikdan oqlanadi. Zakotini bermagan esa xasisdir. Demak, baxillikdan qutulishning eng oddiy chegarasi bu – zakot berishdir.

Zakotingizni ramazonda berishga harakat qiling! Ramazonda bersangiz, savobi 70 martaga oshadi. Ammo bir narsani unutmang. Zakot – saxiylikning eng quyi darajasi.

– Yuqorisi nima ekan?

– Yuqorisi hamma narsasini Alloh uchun bermoqlikdir.

– Bu ishni bajargan kishi bormi o'zi dunyoda?

– Bor, albatta. Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu hamma narsasini berdi.

Hazrati Umar raziyallohu anhu ham yarmini berdi. Hazrati Umar raziyallohu anhu:

«Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam biror xayr ishni buyursalar, Hazrati Abu Bakr mendan o'tib ketadi. Bu safar shunday ko'p berayinki, Abu Bakrdan o'tib ketayin!» – deb o'ylabdi va molining yarmini Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga berishga ajratibdi. Bir mahal kelib eshitalarki, Hazrati Abu Bakr bor-budini beribdi, hech narsasi qolmabdi.

Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam so'rabdilar:

«Bolalaringga nima qoldirding, ey Abu Bakr?»

«Alloh va Rasulini qoldirdim», – deb javob qaytaribdi. Demak, inson siddiq bo'lsa, imoni o'sha martabada bo'lsa, hamma narsani –jonini ham jon-jon deb beradi.

3. (Va namma'min). Nammam – gap tashuvchi, orani buzuvchi degani. Uning aytganini bunga, buning aytganini esa unga aytib, orani buzadi. Bunday gap tashuvchilar ham jahannamga kiradi.

4. (Va muroi). Muroi ham jahannamga kiradi. Muroi nima degani? Oxirat amallarini dunyo manfaatini saqlab qolmoq uchun xo'jako'rsinga qilish. Ya'ni birovlar, ko'rsin deb riyo uchun ixlossiz qilingan amal.

5. (Va ma'ni'iz zaka'ti). Ya'ni zakotga mone'lik, to'sqinlik qiluvchi. Zakotini bermaydigan ham jahannamga kiradi. Ammo zakotga mone'lik, to'sqinlik qiluvchi kishining gunohi undan ham og'ir. Ba'zi insonlar boshqalarning berayotgan zakotiga mone'lik, to'sqinlik

qilishi mumkinmi? Ha, shundaylar ham bor. Bizning bir birodarimiz anchagina miqdordagi pulni xayr bo'lsin deb, vaqfimizning shahridagi shu'basiga beribdi.

«Ey, bu qadar saxiylik qilinmaydi!» – debdi. Xayrni ko'p qilib yubording, deb unga tashlanibdi. U esa: «Amaki, bilaman, siz otamning do'stisiz. Ammo, qarang, otam vafot etdilar», – debdi. Ya'ni «Inson o'lib qolishi mumkin, xayru hasanot qilish lozim! Otam o'ldi, sen otamning do'stisan, sen ham o'lasan bir kun, shuning uchun sen ham xayr qilgin!» – demoqchi bo'libdi. U ham gap nima haqida ekanligini tushunib:

«Jim bo'l, meni o'lim bilan qo'rqitma!» – debdi.

«Ustoz, Allohning ibratli ishiga qaraginki, bir necha kun o'tdi. Shahar o'rtasidagi eng qimmat, bir metr joyi million lira foyda beradigan joyda do'koni bor edi. Hokimiyatdan kelib, uni chiqartira boshladi», – dedi. Senmidning hali boshqalarning xayriga monelik qilib, bajarmaydigan? Qara-chi, qo'lingdagi do'kning qoldimi? Hukumat olib qo'ydi. Evaziga qancha berdi? Arzimagan pulni beradi. Shunga o'xshash kimlardir birovlarining berayotgan zakotiga to'sqinlik qiladi.

6. (Va a'kilur ribo). Foiz – ribo yeydigan. Foiz oluvchi, foiz beruvchi, foiz yeyuvchi. Bu toifa ham jahannamga kiradi.

7. (Va sha'ribul xamr). Ichkilik, aroq ichuvchi. U ham jahannamga kiradi.

8. (Va zolimil yatim). Yetimga zulm qilgan. Ota-onasi, qarovchisi yo'q deb urib tepib, ham molini sarflab, ham o'ziga zulm qilgan kimsa ham jahannamga kiradi.

9. (Val aji'ril g'a'dir). Ishchini ishlatib, haqqini bermagan, haqsizlik qilgan ham jahannamga kiradi. Ba'zi zo'ravon kishilar bor: «Shuncha olding, yetadi, yo'qol endi!» – deydi. Noinsof mansabdor yo biror korxonaning boshlig'i, ishchining haqqini esa o'ylab ham ko'rmaydi. O'ylamaydi, lekin Alloh bir kun yoqasidan tutadi, ana shunda jahannamga kiradi.

10. (Van-na'yihati). O'likka yig'lovchilar. Arablarda shunday xotinlar bor edi. Ular pul evaziga birovlarining uyida o'likka yig'lab beradilar. Sochlarini yulib, dod-faryod solib, «Oh, bunday edi! Oh, shunday edi, qora ko'zli edi!» – deb baqirib-chaqirib yig'lardi. Bunga nayiha deyiladi. Bular ham jahannamga kiradilar.

11. (Va ja'mi'il-harom). Harom mol-dunyo to'plaganlar. Ular ham jahannamga kiradi.

12. (Va na'sil-Qur'on). Qur'onni yodlab, unutib yuborganlar ham jahannamga kiradi.

Muhtaram birodarlar! Qur'oni karimni ikki yo'l bilan unutish mumkin:

Birinchisi yodlaydi, lekin qaytarmaydi, natijada Qur'oni karimni unutadi. Bundaylar ko'p, balki sizlarning orangizda ham bordir. Yodlaganini unutish katta gunoh.

– «Ar-rohman» surasini yoddan bilasizmi?

– Bilardim, lekin hozir o'qiyolmayman.

– «Taboraka»ni bilarding, o'qi!

– Unutdim.

– Bu gunoh. Bilgan suralaringni unutish gunoh...

Ikkinchisi: Qur'oni karimning ahkomlarini unutadi, amal qilmaydi. Musulmon nima qilishi kerak? Qur'onning ahkomlariga amal qiladi. Allohning buyrug'ini bajaradi, harom ishlardan qochadi.

13. (Va likulli fa'jir). Fajr – gunoh qilmoq degani. Gunoh qiluvchilar ham jahannamga kiradi.

14. (Va mu'zil-jiron). Qo'shnisiga jafo, ziyon yetkazgan kishi. Bir shaharga borgan edik, o'sha yerlik bir kishi shikoyat qilib keldi:

«Domla! Men falon mahallada yashayman. Shunday qo'shnilarim borki, to'pponcha qadab, tahdid soladilar!» – dedi.

«Alloh seni ularning yomonligidan saqlasin! Yo ularni isloh qilsin, yo seni ularning orasidan qutqarsin, yo bo'lmasam ularni u yerdan daf' qilsin!» – dedim.

Demak, qo'shnisiga aziyat bergan ham jahannamga kiradi.

– Domla, agar mazkur illatlardan ba'zilari bizlarda bo'lsa, xasislik, chaqimchilik, riyokorlik yoki zakot bermaslik bo'lsa, nima bo'ladi endi? Albatta, riyokor bo'lmaslik, g'iybat qilmaslik, chaqimchilik qilmaslik oson ish emas.

– Ha, bu yerda bitta qutulish eshigi bor:

Agar bularni qilib, keyin tavba qilgan bo'lsa...

Hazrati Ali raziyallohu anhu aytadilarki: «So'zda astag'firulloh al-azim va atubi ilayh», – deyishlik yolg'onchilarning tavbasi. Tavba – qaytish degani. Turgan holda turib, bajarayotgan ishini bajarib, yana tavba desa, yolg'onchilarning tavbasi bo'ladi. Asl tavba gunohni tark etib, gunohdan voz kechmoqdir.

Tavba qilgan avvalgi yo'lidan qaytadi. Ba'zan aytamiz-ku: «Falonchi odam o'z yo'lidan qaytibdi. Tavba qilib insofga kelibdi. Qur'on kursiga qatnab, mutaddayyin musulmon bo'libdi. Islomni yoyishga xizmat qilmoqda. Ichkilik ichardi, tashlabdi. Qamoqxonaga tushib, tavbakor bo'lib chiqibdi, yaxshi inson bo'libdi».

Ammo haqiqiy tavba qilganlar va imonini qutqarib, amali solih qilganlar Allohning rahmatiga erishadi.

Alloh ularni kechiradi, kechiribgina, gunohlarini tozalabgina qolmasdan, ana o'sha gunohlarini hasanotga aylantiradi. Gunohlarini savobga almashtiradi. Nima uchun? Tavba qildi deb. Tavba qilganning oldingi gunohlari kechiriladi.

«Chunki Alloh taolo G'afurdir, Rahimdir». G'afur – ko'p-ko'p mag'firat qiluvchi degani. Rahim – marhamati ko'p degani. Alloh ko'p marhamatlidir, ko'p mag'firatlidir. Shuning uchun tavba qilib, imonini quvvatlantirib, yaxshi inson bo'lib, solih amallar qilsa, ham kechiriladi, ham gunohlari tozalanadi hamda gunohlari hasanotga aylantiriladi.

U holda, ey mening qullarim, o'zingizga marhamat qiling! Chunki shu badanlar azobga chidolmaydi, zaifdir, olovga chidolmaydi. O'zingizga achining! Oxirat yo'lchiligi, uzoq-uzun yo'lchilikdir, yuklar, vazifalar og'irdir. Badan zaif, yo'l uzoq, yuk og'ir. Isrofil alayhissalom surnayga puflab, insonlarni Arosat maydoniga chaqiradi. Kim qaerga ko'milgan bo'lsa, o'sha joyidan turib, u yerga borib to'planadilar.

Alloh ogohlantiradi: «Ey bandam, o'z nafsinga rahm qil, badanlar ozg'in, manzil yiroq, yuk esa og'ir», ko'zingni och, hushyor bo'l. Safar tadorigini ko'r, bo'lmasa sharmanda bo'lasan». Chunki, (Van na'ra talazza'). Jahannam otashining olovlari otilib chiqib turadi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir hadisi sharifda tushuntiradilar: Farishtalar mahshargohga jahannamni olib keladilar. O'zi muazzam, juda ham keng bo'lishiga qaramay, farishtalar uni mahshargohga olib kelishadi. Chapga-o'ngga og'ib turadi.

Mujrimlar – gunohkorlar jahannamning ichiga otiladi. Shunda Alloh taolo jahannamdan so'raydi:

«Ey, do'zax to'ldingmi, ichingda joy qolmadimi?»

Jahannam javob berar ekan:

«Yana bormi, ey Rabbim, agar bo'lsa, jo'nataver!»

(Val qozi', rabbul a'lamiyn). Alloh taolo Mahkamai Kubrosini quradi va insonlarning bu dunyoda bajargan amallaridin hisob so'raydi. Zarra miqdoricha xayrning mukofoti bo'ladi, zarra qadar sharning jazosi bo'ladi.

(Va yuhazzirukumullohu nafsahu). «Alloh oldindan sizlarni o'zidan ogoh etayapti, saqlayapti, qo'rqiyapti», – deb aytilmoqda hadisi qudsiyda.

Aziz va muhtaram birodarlarim! Fursat hali qo'ldan ketgani yo'q. Ramazon tugagani yo'q. Ishlash imkoniyati bor hali. Allohdan qo'rqing! Taqvoni shior qiling, taqvoga rioya qiling! Kunduzi ro'za tutib, kechasiga gunoh qilmang! Alloh yo'lida doimo sog'lom shaklda yuring! Orif guvohnomasini qo'ldan boy bermang! Ramazon fursatini boy berib qo'ymang, keyingi ramazonga chiqolmaydiganlar ham bo'lishi mumkin. Keyin bu fursatni tutolmaslik ham mumkin!

Alloh taolo bizni g'aflat uyqusidan ogoh etsin! Sevgan amallarini bajarishga muvaffaq qilsin. Yo'lida doim, zikrida qoyim aylasin. Huzuriga o'zi sevib, rozi bo'lgan bir qul bo'lib borishni nasib aylasin!

Bi hurmati habi'bihi Muhammadinil mustafo va bi hurmati shahri ramazonal muborak va hurmati asrori suratil fотиha!

*11 fevral 1995 / 11 Ramazon 1415*

## **OXIRATGA HOZIRLIK KO'RISH**

*A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.*

*Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.*

Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beadam, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!

Amma ba'd:

Alloh taolo Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning ruhlarini shod qilib, hayot bo'lganlarga sihatu ofiyat va chiroyli xizmatlarni nasibu muyassar aylasin!

Rahmatli birodarim Fikriy Yovuz tarjima qilgan «Qirq qudsiy hadis» kitobidagi 26-hadisi sharifda shunday deyiladi:

«Alloh taolo buyuryaptiki, – demoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Ey odam farzandi!».

Hammamiz Odam alayhissalom farzandlarimiz. Shuning uchun hammamiz, aka-ukalar, birodarlarmiz. Odam alayhissalomning tuproqdan yaratilganligiga ko'ra barchamizning asl xamirturushimiz tuproq bo'lganligi uchun buni unutmashimiz, kamtarin bo'lishimiz lozim. Alloh taolo bizlardagi barcha yomon axloqlarni shu muborak ramazon oyida isloh qilsin. Kibr, ujb, g'urur, hasad, kin va shunga o'xshash yomon illatlardan xalos etib, axloqi hamidaga erishtirsin.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Me'roj kechasi Odam alayhissalom bilan uchrashib, gaplashganlar. Ul zot O'ng tomonlariga qarab kularkanlar, chap tomonlariga qarab yig'larkanlar. O'ng tomonlariga qaraganlarida imonli – mo'min farzandlarining ruhlariga qarab, ularning jannatiy bo'lishlaridan sevinib kularkanlar.

Chap taraflariga qarab esa, g'ofil, johil, mujrim va gunohkor farzandlarini ko'rib, ularning azobga giriftor bo'lishlarini o'ylab, yig'larkanlar.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki: «Dunyodagi insonlarning amallari jum'a kechalari oxiratga ketgan, vafot etgan buyuklariga qabrda arz qilinarkan. Shunda ular dunyodagi farzandlarining bajargan savob ishlaridan sevinar, qabrlarida yorug'lik ortib, mamnunliklari ortar ekan. Bajargan yomonliklari arz etilgudek bo'lsa, u holda suyaklari zarar ko'rib, xafa bo'larkan».

Shuning uchun ham Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bu hadisi sharifning oxirida bizlarga tanbeh berib:

«Allohdan qo'rqing va o'tganlaringizga ozor bermang! O'ldilar, ketdilar, endi ularni qabrda bezovta qilib, ranjitmang!» – demoqdalar.

Gunoh qilish bilan kishi o'ziga zulm qilgan bo'ladi, bu – bir. O'ziga zulm etibgina qolmasdan, boshqalarga zarar ham yetkazadi. Birinchi bo'lib sevgili ota-onasiga zarar beradi. Qabrda ularni bezovta qiladi, ranjitadi. Chunki, ularning ruhlari his etadilar, nimaiki yomonlikni bajarsalar, farishtalar ularga bildiradi.

Agar ota-onangizni sevsangiz, agar ularga nisbatan farzandlik burchini chiroyli ado etishni xohlasangiz, agar ularni sevintirishni o'ylayotgan bo'lsangiz, ular uchun gunohlardan voz keching! Alloh uchun voz keching, nafsingizni qutqarish uchun voz keching, ota-onangizning xotiri uchun, bobongizning xotirasi uchun voz keching! Chunki, ularga bildiriladi va ular ranjyidilar.

Hadisi sharifda o'qigan edim, gunohning boshqalarga ham zarari tegadi.

Gunoh boshqa kishi uchun ham shumlik keltiradi. Agar biror kishi gunohkorni «Hayf senga! Shunday ham bo'ladimi? Uyatsiz, ahmoq...», – deb ayblasa, aybini oshkor qilsa, Alloh shu qusurni gunohkorni ayblagan kishining ham boshiga solib qo'yadi. Chunki Alloh birovning aybini oshkor qilgan odamni yomon ko'radi. Hattoki, ochiq bir aybi tufayli birovni izza qilgan, uyaltirgan, unga ta'na qilgan odamni ham Alloh yomon ko'radi. Demak o'zi ham gunohga botmasligi uchun, Allohning g'azabiga uchramaslik uchun, hech kimni, hattoki, ochiqdan ochiq gunoh ish qilayotgan odamni ham ayblab bo'lmaydi.

Agar gunoh qilgan kishini boshqalar gapirib yursa, «Falonchi shu gunohni qildi. Qanday yomon, uyatsiz!» – desa, uni g'iybat qilgan bo'ladi va ular ham gunohga botadilar. Gunohni gapirganlar ham gunohkor bo'ladilar. Bir-biri bilan gaplashib, bironing g'iybatini qilganligi uchun, aybini ochganligi uchun, ular ham gunohga botadilar.

Birov qilgan gunohga rozilik bersa, joiz desa, «Qilaversin, menga nima? Men bo'lganimda, men ham qilardim!» – desa, yoxud uni ma'qullasa, unda qatnashmagan bo'lsa ham, roziligi sababli ishtirok etgandek gunohga sherik bo'ladi, bu juda yomon holat.

Masalan, mikroavtobusda ketayapmiz, biri aytyapti:  
«Hoy, eshitdingmi? Falonchi dindor odam farzandiga to'y qilib, ichkiliklarni tarqatibdi».

Unisi esa:

«Qilsa nima bo'libdi, o'zi bittagina o'g'li bo'lsa, men ham shunday qilgan bo'lardim!». – deydi. Mana shu: «Men bo'lganimda, men ham shunday qilardim», so'zi bilan, u ishni qilmasa ham rozilik bergani uchun mikroavtobusda turib, unga sherik bo'ldi. U ham gunohga botdi.

Ko'ryapsizmi, gunoh zararining doirasi naqadar keng. Gunoh qiluvchining zarari ota-onasiga, jamiyatga yetadi... Ayblaganga, qilgan gunohini orqasidan gapirganlarga, rozi bo'lganga – hammasiga zarari bor. Shunday bo'lsa, nima uchun bu aqlli musulmon gunohlarga qo'l uradi? Alloh taolo inson farzandiga aql bermadimi? Yaxshi-yomonni o'lchaydigan tarozisi, muhokama qobiliyati yo'qmi? Insonni taajjublantiradigan narsa...

Alloh taolo bizlarni Haqni ko'rib, Haqqa ergashadiganlar zumrasidan qilsin! Botilni ko'rib, o'zini tutadiganlardan aylasin!

«Yo'l ozig'ini ko'p ta'minlab oling, chunki boradigan yo'l juda ham uzoq!».  
markablaringiz (minadigan narsalaringiz)ni yangilab oling; chunki dengiz chuqur.

Amalni xolis qiling, chunki sizni tanqid ko'zi bilan ko'ruvchi, yaratgan Parvardigor hamma narsani juda yaxshi ko'rib turibdi. Binobarin, niyatingdagi buzuqlikni chiqarib tashla. Ishingni ixlos bilan bajar!  
Fosiqlarni, fojirlarni sevmasdan, o'zingni jahannamdan uzoqlashtir! Allohning abror, xos va xolis qullarini sevish bilan jannatga kir!

**«Zotan, Alloh chiroyli amal qilguvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas».**

Alloh taolo Qur'oni karimda inson farzandi yaxshi anglasin, xotirasiga chuqur o'rnashsin, tasavvur qilsin, deb ko'plab tashbihlar, misollar keltirgan.

Bu so'zlardan murod shuki, insonlar dunyoga vaqtinchalik mehmon bo'lib kelganlar. Bu yer doimiy turadigan joy emas, balki vaqtinchalik kelib ketadigan joy. Binobarin, dunyoga kelgan insonlarning hammasi yo'lchi. Qarang, tug'ilishdan-o'limga, dunyodan oxiratga qarab ketayaptilar. Bu uzun va mashaqqatli yo'lchilikning bekatlari qabr, barzax olami, oxirat olami va mahshargohdir... Mahsharda, Mahkama kunida ming yillarcha kutishlik... Amallarni o'lchaydigan, insonlarni hisob-kitobga tortadigan, gunohkorlarning jazosini, yaxshilarning mukofotini beradigan bir marhala-bosqich... Undan keyin oxirgi marhala-so'nggi bekat bo'lgan jannat – mo'minlar uchun, jahannam – kofirlar uchun.

Bu haqiqatdan ham bir yo'lchilikdir... Haqiqatan ham biz o'sha tomonga – oxiratga qarab safar qilayapmiz. Shu bois yo'l uzoq bo'lganligi uchun, bizlarga oziqlanmog'imiz lozim bo'lgan g'izolar, va yo'l ashyolarining zarurligi aytilmoqda.

«Ajabo, yo'l ashyosi, ozuqasi nima ekan?» – deb so'rasangiz darhol xotiramizga oyati karima keladi:

**«Va (haj qilish uchun yo'lga zarur ozuqa bilan) ta'minlanib oling! Eng yaxshi ozuqa (ya'ni o'zingiz bilan birga bo'lishi lozim bo'lgan eng yaxshi narsa) Allohdan qo'rqishdir».** Bu oyatda «Yo'l ozuqasini tayyorlanglar ey mo'minlar. Ey inson! «Yo'l ozuqasining eng xayrlisi taqvodir»,» – deya ta'kidlanmoqda. Modomiki, yo'lchilik uchun bizga zodu g'izo lozim ekan, (zod ham Qur'oni karim ifodasi bilan taqvo degani), uni qaerdan olamiz?

Ramazon aynan mana shu ozuqani tayyorlash oyidir. Chunki bu oyda ro'za tutishni bizlarga farz qilgan Rabbimiz buyuryaptiki:

**«Ey imon keltirganlar! Sizlarning bo'yingizga ro'za tutishlik farz qilib yozildi. Vazifa bu. Ro'za tutasiz. Sizdan oldingi ummatlarning bo'yniga ham bu ro'za farz qilib yozilgandi.** (Ularning ham aslida namozlari, ro'zalari bor edi)» («Baqara» surasi, 183-oyat).

Yuqoridagi oyati karima ro'zaning farz qilib yozilganini ko'rsatib turibdi. Inson farzandining tabiati, kasalliklariga beriladigan dori bir xil bo'lganligidan, har davrda bir xil dori Alloh tomonidan amr etilgan. Bizning kasalligimizga davo bo'lgan ro'za oldingi ummatlarga ham farz qilingan edi, endi bizlarga ham farz qilindi. Oyatda kelgan (La'allakum tattaqu'n). «Toki ittifoq qiling, taqvo sohibi bo'lasiz, taqvoni o'rganasiz deb...» – degan muhim ishoraga ham diqqatni qaratishimiz kerak.

Demak, bizning oxirat yo'lchiligimizda taqvo degan narsani qo'lga kiritish mavsumini, zamonini, yo'l-yo'rig'ini, shaklu shamoyilini Ramazon va taqvo tarzida Alloh taolo har kishi foydalana oladigan bir shaklda bildirib qo'ygan. Chunki barcha amallarning biz uchun ham dunyoda, ham oxiratda muazzam foydasi bor. Zero, dinimiz Islom shaxsiy, ruhiy, badaniy, oilaviy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va hokazo har qanday sohadagi muammolarning yechimidir.

Islomda barcha kasalliklarning davosi bor. Tabiiyki, buni inkor etayotganlar ham vaqt o'tishi bilan uni, e'tirof qilmoqdalar. Bular orasida hatto imon keltirganlari ham uchramoqda.

Bir fors shoiri aytganki:

*Agar pandi xiradmand zi jonu dil nayomo'zi,  
Jahon andar ba talxi biyomo'zad turo ro'zi.*

«Agar sen aqllilarning nasihatlarini jonu dildan eshitib o'rganmasang, nasihatdan hissa olib, ahvolingni tuzatmasang, jahon va zamona boshingga achchiq voqealarni keltiradi va u nasihatlarni achchiq-achchiq qilib senga o'rgatadi. Burningni ishqalab-ishqalab o'rgatadi».

Ha, 1400 yil muqaddam barcha dardlarning davosi bo'lmish Islom ne'mati, islom dorisi kelgan edi. Ba'zilar unga qarshi chiqdilar, ammo vaqtlar o'tib, botil yo'qolib, haqiqat yuzaga chiqqach, insoniyat Islomning haqiqiy mohiyatini tushunish yo'liga kirib bormoqda. Sharqu g'arb, shimolu janubning ko'plab mutafakkirlari, tadqiqotchilari musulmon bo'lishyapti. Bir paytlar betaraf bo'lgan professoru faylasuflar, yozuvchiyu siyosatchilar, buyuk olimlar islomga kirishyapti. Chunki har narsaning asrorini, avvalu oxirini, eng chiroylisini Alloh taolo biladi. Dunyoni va bashariyatni yaratgan zot, insoniyatning dard-muammolariga qanday davo lozimligini biladi va o'rgatadi. Anglagan va bundan unumli foydalangan inson shifosini topib, dunyo va oxirat saodatiga erishmoqda.

Anglab yetmagan ham u deb, bu deb oxiri qiynalib bo'lsa ham tan olayotir. Faqat bu tan olish ajali yaqinlashib, ko'zidan pardalar ko'tarilib, har narsaning haqiqatini ko'rish holatiga kelgan paytda ro'y bermasin. Fir'avnning imoni kabi bo'lmasin.

Fir'avn Muso alayhissalomga qarshi munozarayu mujodala qildi. Uni ta'qibu tazyiqlariga duchor etdi. Muso alayhissalomning ashoblarini qirish uchun ular ortidan qo'shin jo'natdi. Ular ashobni Dengiz qirg'og'iga qadar quvib kelishdi. Muso alayhissalomning ashoblari orqalariga qarasalarki, Fir'avnning qo'shinlari dahshat solib kelishyapti, oldilarida esa dengiz.

**«Endi qachonki ikki jamoat bir-birlarini ko'rishgach, Muso alayhissalomning hamrohlari: «Biz aniq tutildik»,** – dedilar. Chunki qochib-qutuladigan joyning o'zi yo'q edi. Oldilarida – dengiz, orqalaridan esa, chang-to'zon ko'tarib, qilich yalang'ochlagan Fir'avn qo'shini bilan yaqinlashardi. Bular ozchilik, ular esa ko'pchilik edi. Shunda Muso alayhissalom:

**«(Musu) aytdi: Yo'q, aniqki men bilan birga Parvardigorim bor. Albatta U meni (najat) yo'liga boshlar».**

Alloh taolo: **«Ey Muso, dengizga hassangni ur!»** – dedi. Hassasini urishi bilan dengizda o'n ikkita yo'l hosil bo'ldi. Muso alayhissalomning ashobi qabilalar, guruhlar hoida daryodan o'tib borardi. Fir'avn esa qo'shinlari bilan ularning ortidan tushgan edi. Muso alayhissalomning ashoblari qirg'oqqa yetishlari bilanoq Allohning dushmani, ma'budlik davosini qilgan o'sha mazlumlar qotili va zolim qavmu qo'shinlari bilan suv ostiga g'arq bo'ldi. Shunda Fir'avn:

**«Endi unga (Fir'avnga dengizda) g'arq bo'lish (payti) yetganida esa, u dedi: Hech qanday iloh yo'q, magar Bani Isroil imon keltirgan zot – Allohgina borligiga imon keltirdim. Men musulmonlardandirman – Allohga bo'sunguvchilardandirman»,** – deydi.

Fir'avnga qarang, avval (ana robbukumul a'la') «Men sizning buyuk rabbingizman!» – degan kishi, (Hatta' iza' adrakahul g'araq) suvga cho'ka boshlaganida, (Qola la' ila'ha illalazi' a'manat bihi' banu' isro'ila va ana minal muslimin), ya'ni «Bani Isroil ishongan Alloh taolodan boshqa iloh yo'qligiga men ham ishondim, «la ilaha illolloh», men ham musulmonlardanman», – deydi. Holbuki, keyingi oyati karimada: «Endi aqling kirdimi? Ajal vaqting yetdi, ko'zingdan pardalar ko'tarildi, hayotning barcha narsasi orqada qolib, umidsizlanganingda aqling kirdimi? Vaholanki sen oldin buzg'unchi mufsidlardan eding»,



– deb Fir'avnning ayanchli ahvolidan xabar beriladi.

Shuning uchun har bir inson hayoti dunyoda uyg'onsin, ko'zini ochsin. Solih amallar qilsin. Alloh taolo rozi bo'ladigan ishlarni bajarsin va Uning huzuriga komil imon bilan borsin, yuzi yorug' bo'lsin, rahmati ilohiyga erishsin. Buning uchun esa inson taqvoni shior qilib olishi lozim!

Qur'oni karim va Islomning amru ta'qiqlari tadqiq etilsa, ularning barchasi insonga, uning nas-liga, moliga, ruhiga, diniga foydalidir. Alloh tomonidan joriy bo'lgan u amru-taqiqlar insonni dunyo va oxirat saodatiga erishtiradi. Ularga bashariyat guvoh bo'lganliklari uchun ham imon keltirmoqdalar.

Demak, Ramazon ro'zasi ham bizni saodatga eltuvchi, sabrga, taqvoga o'rgatuvchi oydur. Bir oy ertalabdan kechgacha nafsimiz bilan kurashamiz, ro'za tutib, tarbiyalanamiz. Kechasi ertalabgacha tarovih namozlarini o'qiyamiz. Qur'on tilovat qilamiz, tahajjud namozlariga turamiz. Kechalari qiyom, kunduzlari siyom bilan birga, boshqa qator ibodatlar, amrlar insonning taqvoni o'rganishiga qaratilgan.

Taqvo – insonning o'zini Allohning azobidan, jahannamidan qo'riqlashidir.

**«Va kofirlar uchun tayyorlab qo'yilgan do'zaxdan qo'rqingiz!»** – deb, oyati karimada amr qilingan. Bu esa gunohlari qilmaslik yo'li bilan amalga oshadi. Gunohlar hillamaslik uchun esa iroda quvvati lozim! Nafsga hokim bo'lish, nafs orzularini nazorat qila olish lozim! Ramazonda biz nafsning eng quvvatli orzularini cheklay olish ta'limini o'rganamiz.

Nafsning eng quvvatli orzulari nima ekan? Yeyish. Demak, yedirmaymiz. Ichish, demak, ichirmaymiz. Nafs orzularini bajarmaslikni, ularga quloq solmasdan sabr qilishni, o'zimizni tutishni o'rganamiz. Shu tariqa quvvatli bir ta'lim bo'ladi.

Eng xayrli ozuqa shu yo'l bilan, dinimizning amrlarini tutishlik bilan o'z-o'zidan insonning hayot tarziga aylanib boradi. Taqvo ta'sirida namozlar o'qib ro'zalarni tutib, savob olamiz. Boz ustiga ramazonda bajariladigan ibodatlarning mukofoti bir necha barobar ortig'i bilan beriladi.

Ammo ibodatning ham sharti bor. Ibodatning birinchi sharti uning ixlos bilan bajarilishidir. «Ilohi, anta maqsudi va rizoka matlubi», – deb bajarilishidir. Allohning rizosidan boshqa niyat, manfaat tuyg'usi, shuhrat va boshqani tushunmaslikdir. Allohning yakka, yagonaligini, tug'magan va tug'ilmaganligini e'tirof etishdir. Allohga sherik qilganlar yoki uni qandaydir shakllarga o'xshatganlar aniq zalolatdadir. Qur'oni karimda aytiladiki:

**«Alloh – Masih binni Maryamdir, degan kimsalarning kofir bo'lganliklari aniqdir»** (Moida surasi, 17).

Allohning Payg'ambari Iso alayhissalomni biz ulardan ko'proq yaxshi ko'ramiz. Bolalarimizga Iso, Muso, Dovud, Sulaymon nomlarini qo'yamiz, qizlarimizni sevib Maryam ataymiz. Ammo ular noto'g'ri qilyaptilar: Iso alayhissalomni Allohning o'g'li, deyдилar.

Qur'oni karimda aytilishicha, Qiyomatda Alloh Iso alayhissalomdan so'raydi:  
**«Eslang (ey Muhammad), Alloh: Ey Iso binni Mar-yam, odamlarga: Allohni qo'yib, meni va onamni Xudo qilib olinglar, deb sen aytdingmi? – deganida...»**

Iso alayhissalom xijolat chekib, terlab shunday javob berar ekanlar:  
**«Yo Rabbim! Bu savolning nima uchun so'ralayotganini bilaman. Aytgan bo'lsam, sen bilasan. Ya'ni mening senga javob berishimga biror hojat bormi? (Innaka anta alla'mul g'uyub). Sen g'oyibni bilasan! (Ma qultu lahum illa' ma' amartani' bihi'). Men unday qilmadim, unday demadim, ey Rabbim!.. Men bu qullarga sen nimani buyurgan bo'lsang, shularni aytdim. (Ani'budulloh). Faqatgina Allohga ibodat qiling, deb, Sen nimaniki buyurgan bo'lsang, shuni aytdim»**, – deydi Iso alayhissalom.

Demakki, Iso alayhis salomning shahodat berishicha nasroniylar noto'g'ri yo'lda, Hazrati Iso alayhissalom xohlamagan yo'lda. U buyurmagan narsalarga sig'inadilar, bu – aniq.  
**«Albatta Alloh nazdida maqbul bo'ladigan din faqat Islom dinidir».**

**«Sizlar uchun (faqat) Islomni (haqiqiy, o'zimga maqbul) din qilib tanladim».**

Butun dunyo xalqi bilsinki, Alloh rozi bo'lgan, sevgan, uning nazdida maqbul bo'lgan din faqat Islom dinidir. Demak, bandalar Islom diniga kirgandan keyingina Alloh ulardan rozi bo'ladi. Bashariyat Islom tufayli najot topadi, saodatga erishadi!

Insonlarga Allohning amrini din olimlari ko'rsatadi. To'g'risi – shu. Mayli, kim nimani bajarsa, shunga yarasha jazosini oladi. Alloh taolo noto'g'ri ishni qildirmasin. Yanglish yo'lda yurganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatsin. Bu daryo to'lqinlidir, inson uning ichida o'z e'tiqodini sog'lom saqlashi kerak. Ibodatini go'zal va ixlos bilan bajarishi lozim! Aks holda ibodatining qiymati bo'lmaydi!

«Alloh taolo ixlos bilan bajarilmagan amallarni qabul qilmaydi».

Ixlos haqida gap ketganda bir voqea esimga tushdi. Bir ayol masjid qurilishi uchun katta miqdorda moddiy yordam berdi. Mutavalliy hay'ati masjidga uning nomini qo'ymoqchi bo'ldi. Shunda ayol kamoli odob bilan: «Bolam, men shonu shuhrat xohlamayman! Pul beraman. Lekin na ismimni yozing va na tilga oling. Alloh bilsin, Alloh sevsin, shu kifoya...», – dedi.

Ixlosga qarang! Inson ibodatni Alloh uchun bajaradi, boshqa narsa uchun emas!

(Fain-nanna'qida basi'run). Alloh barcha qilayotganimizni ko'rib turibdi va qanday niyatda bajarayotganimizni ham bilib turibdi. Ixlos bilan bajarilmasa, uning ham jazosi bo'lishi muhaqqaq. Ixlosning ziddi riyodir. Riyo bilan bajarilgan amalni Alloh qabul qilmaydi.

«Fojirlarni sevmaslik yo'li bilan jahannamdan uzoqlash!». Inson fisqu fujurni sevmaydi, fisqu fujur ahlini ham sevmaydi. Inson qiyomatda sevgan kishisi bilan qayta tiriladi. Shuning uchun inson kimni sevishga, kimdan o'rnak olishga alohida e'tibor berishi lozim!

Sevgi – buyuk tahluka: yomon insonni sevsa va sevgisini yanglish jihatga bag'ishlasa,

sevgani bilan halok bo'ladi, yo'q bo'ladi.

– Taqsir, men falonchi artistni juda ham sevaman! Grata Karlaning sochlarini, Grey Keyvirning mo'ylovini, Jeyms Bondning... va boshqalar.

– Bo'lmaydi!..

– Inson kimlarni sevadi?

– Sevgisi foyda beradigan jannatliy kishilarni sevadi! Chunki inson oxiratda sevgan kishisi bilan birga tiriladi, sevganining oldiga boradi. Oqibat u bilan birga bo'ladi. Yaxshilarni sevgan, ularga muhabbat qo'ygan, ular bilan do'st bo'lgan kishi, yaxshilarning yoniga borishga ilhaq bo'ladi; yomonlarni sevgan kishi, yaxshilarning orasida bo'lsa hamki, yomonlar orasida bo'lishga intiladi.

Shuning uchun dinimizning eng muhim, har bir musulmon ahamiyat berishi lozim bo'lgan ishlaridan biri, bu – Alloh uchun sevmqlik. Alloh uchun yomon ko'rmoqlik. Alloh uchun Haq do'stlarini, Uning solih bandalarini, xayrparvar, saxovatpesha, fozilu komil insonlarni sevish lozim: Alloh uchun yomonlik qiladigan, yomon qullardan esa yiroqlashish lozim!

«Agar bir inson birorta fosiq yoki fojir kishiga (Ya sayyidi!). «Ey do'stim!» – desa, Arshi a'lo titraydi», – deydilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Arshi A'lo nima uchun titraydi? «Ey voh juda ham yomon ish qildi bu odam! Hozir Allohning bir g'azabi keladi, juda ham yomon bo'ladi!» – deb titraydi. Fosiqlarga iltifot ko'rsatilmaydi.

Fisqu fujur ahliga nasihat qilish lozim! «Bu qilganing to'g'ri emas!» – deb tanbeh berish kerak. Uning ishini olqishlamaslik kerak! Bunday kimsalarni mo'min sevmaydi ham, unga tabassum ham qilmaydi, qarab ham qo'ymaydi. Alloh rizosi uchun unga achinadi. Nima uchun? Alloh rizosi uchun, yomonlik tarqalmasligi uchun. Toki o'sha badbaxt «Falonchi menga kuldi, ma'qul ko'rdi meni», – demasin.

Islomda hubbun filloh bor – Alloh uchun sevmq, bug'zun filloh bor – Alloh uchun sevmaslik. Otasi, farzandi, do'sti, birodari bo'lsa ham biror yomonlikni bajarsa... «Yo'q, yo'q, bu bo'lmadi! Bu qilganing to'g'ri emas!» – deyish lozim!

Latifalar aytadilar: «Taqsir, domla unday qildi, bunday dedi... Shuni qildi...». Domla latifa mavzusi bo'lmaydi, sen buni tark et! Sen din dushmanimisan? Sen dinni yomonlashni xohlaysanmi? Domlani nimaga latifaga kiritib, kuladigan darajaga tushirasan? «Falonchi domla shunday dedi, shunday qildi. Dasturxon atrofida o'tirganimizda shunday yeydi. Taqsir, «O'lik ko'zidan yosh, domla uyidan osh chiqmas ekan». Chiqmasdan bo'ladimi?

Anqaradagi Hoji Bayram Vali masjidining Zakiy domla degan bir imomi bor edi. Bomdod namozini o'qidik. Domla jamoatga burilib: «Ey jamoat, hammangizni choyxonaga taklif qilaman, marhamat, birga ovqat yeymiz!» – dedi. Orqasidan qo'shib ham qo'ydi: «Qani, ko'raylik-chi, o'lik ko'zidan yosh chiqadimi-chiqmaydimi, imom uyidan osh chiqadimi-chiqmaydimi!» – dedi.

Bu qora dog'ni domlarning peshonasiga kim chapladi? Shu qadar saxiylik qiladi, g'ayrat ko'rsatadi, din uchun fidokorlik qiladi, mashaqqat chekadi. Sen tijorat qilasan, pul yig'asan, u esa bu yerda Qur'oni karim o'rgataman, deb harakat qilib yotibdi. Sen

qaerdan bunaqa gaplarni o'ylab topib, domlani masxara qilasan? Nima uchun uni yerga urasan?

Birov mening soqolimni, oyog'imdagi kovush-mahsimni ko'rib, shunday savolga tutdi: «Qori, kel bu yerga! O'tir! Qani gapir-chi, qaerdansan nima ish qilasan? Muazzinmisan, imommisan?».

«Nafaqaxo'rman».

«Qaerdan nafaqaga chiqding?».

«Universitetdan».

«Qorovulmidning, qahvachimiding, yo choyxonachimiding? Kim bo'lib ishlagan eding?»

«Professor edim, taqsir».

«Ha-a, uzr so'rayman, domla».

«Ey! Sen Allohdan kechirim so'ra! Nima uchun qorini, hofizni, muazzinni, imomni kamsitasan, past ko'rasan! Bir inson hofiz bo'lsa, osonlikcha hofiz bo'libdimi!»

Shuning uchun, muhtaram birodarlar, mo'minlarni sevamiz, fosiqlarni esa fisqu fasodlari uchun yomon ko'ramiz.

«Bunday hazil, latifa to'qima!» – deymiz. Dinni pastga uradigan latifalarni nima uchun ramazonda, iftorlik dasturxonini atrofida boshqalarga aytib beryapsan? Shunday latifa ham aytiladimi, gapirishga boshqa narsa topa olmadingmi? Erkak bo'lsang, Sutchi Imomning qahramonligini tushuntirib ber! Qani, odamlar haqiqatni bilsin!»\*.

Shuning uchun «Yaxshilarni sevishlik bilan jannatga kiring!» – deydi Alloh.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam naql qilmoqdalar: Allohning yaxshi qullarini, abrorini, taqvo ahlini sevasiz. Solih avliyo, muborak qullarini sevasiz. Ular Alloh rizosini o'ylaganlar, molu dunyoga, mavqe-maqomga, uy-joyga berilmaganlar, bitta ko'ylak bilan yashab o'tganlar.

Avliyullohdan biri hajga ketayotgan ekan. Bir shaharchaga yetib kelib, u yerdagi masjidning ichiga kirib o'tiribdi. Jamoat bilan namoz o'qibdi, undan keyingisini ham o'qibdi. Tashqariga ham chiqmas ekan. Inson och bo'lsa, tashqariga chiqishga ham hojat qolmaydi.

Bu odam ham masjidda o'tiraveribdi. Uch-to'rt kun o'tganidan keyin jamoat. «Bu odam kim? Tashqariga chiqmaydi, yemaydi-ichmaydi. Eng vaqtli kelganimiz ham, eng kech ketganimiz ham uni masjidda ko'ramiz», – debdilar. Zotan, qoshiqdek kichik shahar. Biror harakat ro'y bersa, darhol bilinadigan joy. Nihoyat oldiga borib:

«Ey, muborak, sen kim bo'lasan? Insmisan, jinmisan? Na ichasan, na yeysan?» – deb so'rabdilar.

«Men falonchi yerdan kelgan ojiz birodaringizman», – deb javob qilibdi.

«Ie, bizning uyga yur!» – deb boshlab ketibdilar.

Shunday solihlardan yana biri Madinai munavvaraga – Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning masjidlariga kelibdi. Och-nahor, cho'ntagida pul yo'q, kallada esa ilm bor. Turibdi, turibdi, turibdi. Issiqlik toqatini toq qilibdi. Ko'zini yumibdi-da: «Yo Rasululloh! Men sizning ziyoratingizga keldim, sizning mehmoningizman, ochman», – debdi. Holsizlanib, kuchsizlikdan cho'zilib qolibdi. Birozdan keyin kimdir yelkasiga uribdi-da: «Tura qol, ey muborak!» – debdi. Qarasaki, sayyidlardan birisi. Qiyofasidan, sallasidan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning naslidan ekanligi ma'lum. U tushida Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni ko'ribdi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam:

«Masjidimda mening bir musofir do'stim bor, necha kundir och yotibdi, nega xabar olmadingiz?» – deb aytibdilar. Shuning uchun ham «Bobomiz aytdilar, unga biz haqimizda shikoyat qilgan senmiding? Qani, yur ovqatga!» – deb olib ketibdi. Ma'naviy xabarlashuvni qarang! Rasululloh sallallohu alayhi vasallam qanday xabardor etmoqdalar.

Bu olimlar pul topishni bilmaydilar, aqlari yo'qmi? Aqlini pul topishga ishlatganida edi, dunyoning eng boy-badavlari bo'lishi mumkin edi. Ammo dunyoning eng boyi bo'lgan Qorun nima bo'ldi? Fir'avn dunyoning eng boy-badavlari bo'lgan edi, nima bo'ldi? Allohning sevgisini qozonmagandan keyin nima ham bo'lardi? Shuning uchun yaxshilarni sevish lozim! Allohning yaxshi abror qullarini qidirib topib, sevmoq lozim!

Hotami Asom quddisa sirruhu Madinai munavvaraga kelibdi. Orif inson. Atrofga bir nazar solibdi. Odamlarga yaqinlashibdi «Assalomu alaykum!» – deb, Rasulullohning saroyini ko'rsatishlarini so'rabdi.

«Begona, sen juda ham johilga o'xshaysan», – debdilar. Hotami Asom ulug' shayx, buyuk avliyulloh, lekin tanimabdilar.

«Rasulullohning ham saroyi bo'lgan ekanmi? Uning uyini bilganingda yig'larding! – deb aytibdilar. – Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hayoti juda ham mutavoze' edi. Tuproq, bo'yra ustida yotardilar».

Kichik bir hujra edi. Pok zavjalarining xonalari eniga bir arshin, bo'yiga uch arshin edi. Xonalari juda ham tor, go'yo katak kattaligida edi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning qo'llarida shox-shabbdan to'qilgan bo'yra izini ko'rgan Hazrati Umar raziyallohu anhu yig'lab: «Kisrolar, qaysarlar qanday yashayaptilar-u, siz esa Allohning xos Payg'ambari, sevgili habibi bo'la turib qanday yashayapsiz?» – debdilar. Shunda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Kuyinma, ey Umar! Ularning mukofoti shu dunyoda beriladi. Alloh bizlarning mukofotimizni oxiratda berajak». (Ma' li' va lid dunyo). «Mening dunyo bilan nima ishim bor?» – deganlar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam.

Hotami Asom so'rabdi:

«U holda bu saroylar kimniki?»

«Bu falonchiniki, bu pistonchiniki...»

«Demak, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning shaharlarini Fir'avnlarni to'ldiribdi», – debdilar.

Hamma yer saroy. Qani, qaerda tavoze', mahviyat? Qani, qaerda erta uchun tashvish chekmasdan, kelgan mol-dunyoni kechga qoldirmasdan faqirlarga tarqatib yuborishlik? Qani, qaerda Alloh rizosi uchun xayru saxovat qilish, faqirlikdan qo'rqmaydigan jo'mardlik?

Shuning uchun abror zotlarning hayotini yaxshi o'rganmasdan turib islomni to'g'ri o'rganib bo'lmaydi. Zamonaga emas, solih insonlarga qarang! Ularning hayotidan ibrat oling, ularni seving, chunki kishi yaxshi ko'rgani bilan birga tiriladi.

Savbon raziyallohu anhudan bir mujdani sizlarga yetkazaman:(Savbon raziyallohu anhu – Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning xizmatchilari). Bir kun Savbon

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning yuzlariga muhabbat, sevgi bilan qarabdi. Quyoshga o'xshab porlab turgan nuroniy yuzni hayron bo'lib tomosha qilib turgan ekanlar. Uning bu qarashini Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam sezib qolibdilar: «Ey, Savbon, tinchlikmi, nima bo'ldi? Tikilib qolding?».

Savbon debdi:

«Sizning jamolingizga qarab, mamnunu masrur bo'laman, yo Rasululloh, oxiratni eslab esa ko'nglim cho'kadi. Chunki siz oxiratda Firdavsi a'loga kirasiz, Maqomi Mahmudga erishasiz, jannatdagi eng yuksak darajalarga yetishasiz! Men esa hatto jannatga kirish-kirmasligimni ham bilmayman? Jannatga kirgan taqdirimda ham sizning maqomingiz qaerdayu mening darajam qaerda? Ajabo, Sizni u yerda ko'ra olarmikanman?».

«Milliardlarcha inson, millionlarcha musulmon – hammalari Rasululloh ishqida. Hovlimiz Rasulullohnikini bilan qo'shni bo'lsin», – deb duo qilib turibdi. Qayoqda, biz u davlatmandning yoniga yaqinlasha olarmidik?» – deb xavotirga tushibdi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam:

«Xafa bo'lma! Kishi sevgan odami bilan birga bo'ladi!» – deb lutf aylabdilar. Alloh qodir, sevganni sevgilisidan ayirib qo'ymaydi. Jannatda g'amginlik yo'q.

Demak, inson yaxshilarni sevsa, qiyomatda ular bilan hashr bo'ladi.

**«(Ey Muhammad, mashaqqat va ozorlarga) sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal qilguvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas».**

Chunki Alloh yaxshilarni, muhsin qullarini zoe' qilmaydi.

Muhsin – biror narsani chiroyli bajargan degani. Ehsan – ishini chiroyli qilmoq degani. Ibodatdagi ehsan nima ekan? Ya'ni ibodatni qanday qilib chiroyli bajaramiz, mukammal ado etamiz?

«Ehsan nima degani, ey Rasululloh?» – deb so'raydi Jabroil alayhissalom:

«Ehsan – Allohni ko'rayotgandek Unga ibodat qilishingdir, agarchi sen Allohni ko'rmasang ham U seni ko'rib turadi», – deb buyuradilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam.

Sen «Allohu akbar» deyishing bilan uning huzurida bo'lasan. U senga shoh tomiringdan ham yaqin.

**«Sizlar qaerda bo'lsangizlar U sizlar bilan birgadir».**

**«Ko'zlar unga yeta olmas. U ko'zlarga yetar!»**

Asablar ko'zdan idrokni miyaga olib boradi. Alloh o'shalarni ham biladi.

Ibodatdagi ehsan – shu. Allohni ko'rib turgandek Allohning ko'rayotganini bilib, Alloh menga qarayapti, ko'rib turibdi, deb ixlos bilan ibodat qilmoqlik. Ammo:

«Alloh har narsada insonni ehsonga amr qilgandir». Mo'min bajarayotgan har narsani

yaxshi, chiroyli bajarishga buyurilgan. Etikdo'z etigini mustahkam tikadi. Nonvoy nonini yaxshi yopadi, tikuvchi narsalarni bejirim tikadi, xattot chiroyli yozadi. Har bir kishi bajarayotgan ishini eng go'zal shaklda bajaradi. Qassob hayvonga azob bermaslik uchun pichog'ini yaxshilab o'tkirlaydi. Chunki Alloh muhsinlarning, chiroyli bajaradiganlarning ajrini zoe' qilmaydi. Mukofotini beradi, chunki mo'minga har narsaning chiroylisi yarashadi. Mo'minga chiroylisini bajarish va chiroylisiga mazhar bo'lish yarashadi.

Alloh taolo amallarimiz, fe'llarimiz, toatlarimiz va ishlarimizni chiroyli, go'zal qilib bajarishni nasib aylasin! Va mukofotlarining eng go'zaliga, ne'matlarining eng mukammaliga erishishni, yurtlarning eng go'zali bo'lgan jannat diyoriga kirishlikni, Allohning eng sevimli bandalari bilan qo'shni bo'lishlikni nasib aylasin!

«Subha'naka la' ilma lana' illa' ma' allamtana innaka antal ali'mul haki'm». Subha'na rabbika rabbil izzati amma' yasifu'n va sala'mun alal mursali'n val hamdu lilla'hi rabbil a'lamiyn», al-fotiha!

12 fevral 1995 / 12 Ramazon 1415

### **KUNDALIK ZIKRLAR**

*A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.*

Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beaded, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!

Aziz va muhtaram birodarlarim.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bomdod namozini masjidida jamoat bilan o'qib bo'lgach, o'tirib zikr qilishni va ibodatlar bilan mashg'ul bo'lishni sevardilar. Bu go'zal odatni o'z hadisi shariflari orqali bizlarga ham tavsiya etganlar.

Imom Termiziy raziyallohu anhu hazratlarining, Sihahi Sitta kitoblarining birisidagi, Anas raziyallohu anhudan rivoyat qilingan bir hadisi sharifda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday buyurganlar:

Imom Termiziy bu hadisi sharifni ahsan hadis, deb ataganlar. Ma'nosi shunday: Kim bomdod namozini jamoat bilan masjidida o'qib, keyin quyosh chiqqunicha o'tirib, Allohni zikr qilsa va karohiyat vaqti chiqqanidan keyin turib ikki rak'at namoz o'qisa, shu qilganlari unga to'la haj va umranning savobini olishga sabab bo'ladi, to'la haj va umranning savobini, to'la haj va umra savobi!» – deb uch marta buyuradilar. Bu xususda boshqa rivoyatlar ham bor.

Hazrati Umar raziyallohu anhu shunday rivoyat qiladilar:

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Madinai munavvarada bo'lgan paytlarida

mushrik qabilalari ustiga bir islom qo'shinini yuboradilar. Qo'shin juda ham qisqa muddatdan so'ng katta g'animatlar va zafar bilan Madinai munavvaraga qaytadi. Bundan hamma mamnun bo'ladi. Chunki bunda ham zafar bor edi, ham ko'plab molu dunyo va podalar qo'lga kiritilgandi. Shunda birisi: «Qanday yaxshi! Qisqa zamonda bu qadar buyuk g'animat!» – dedi. Rivoyatlarga ko'ra, bu Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu bo'lganlar.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki:

«Men sizlarga bundan ham ulug' g'animatning xabarini beraymi?»

«Bering, yo Rasululloh!» – dedilar.

«Kim bomdod namozini jamoat bilan o'qib, keyin o'tirib zikrulloh bilan mashg'ul bo'lsa, bu uning uchun yanada buyuk g'animatdir, ma'naviy yutuqdir».

Shuning uchun ham Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning bu go'zal tavsiyalarini va odatlarini avliyoi kirom, ulamoi izom davom ettirganlar. Bomdod namozidan keyin ishroq vaqtigacha zikru ibodat bilan shug'ullanib, keyin ishroq namozini o'qiganlar.

(Summa qaada yazkurulloha). « So'ngra o'tirib Alloh ni zikr qilsa...», – deyilmoqda. Zikr – arabchada xotirasida saqlash, yodga olish degani. Zikrning turlari bor. Tili bilan «Alloh», «La ila'ha illalloh», – deyish. Asmoi husnaning birisini qaytarish, «Alhamdu lilloh. Subhanalloh. Allohu akbar», – deb kalimai tayyibani qaytarish, qo'lga tasbeh olib, takror-takror o'qish zikrdir. Zikr deganda birinchi bo'lib bizning aqlimizga keladigani – shu.

Keyin Qur'oni karim zikrdir. Hatto Qur'oni karimning ismlaridan birisi ham zikrdir. Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«Zikrni biz tushurdik, uni biz qo'riqlaymiz»**, – oyati karimasidagi «az-zikr» so'zidan murod – Qur'oni karim. Ya'ni: «Qur'oni karimni biz tushirdik, uni biz qo'riqlaymiz», – demoqdir.

Namoz ham zikr bo'lib, zikrlarning eng buyugi, muazzam bir majmuidir. Boshlanishi, o'rtasi, oxiri ham zikr. «Allohu akbar» bilan boshlanadi. «Subhanaka» – hamd, Qur'oni karim, ruku va sajdalardagi tasbehtar, tahiyatlar, salotu salomlar bilan davom etib, oxiri salom bilan tugaydi.

Faqat zikrning zikr bo'lishi, zikr deb hisoblanishi – Alloh nazdida maqbul bo'lishi uchun zokir, ya'ni zikr qiluvchi Allohga mute' – itoatkor bo'lishi lozim. Bir inson Allohga itoatda bo'lganligi uchun ham zikr qiladi, chunki itoat qilmoqda. Nima uchun itoat qilmoqda? Alloh xotirasida bo'lganligi uchun ham Allohga osiy bo'lmayapti, shuning uchun ham u zikr holatida. Agar bir inson Allohga osiy bo'lib isyon etish holatida bo'lsa, tilida biz biladigan, tushunadigan bir qator chiroyli kalimalarni takrorlayotgan bo'lsa ham zikr qilayotgan bo'lmaydi.

Bu jihatdan zikr Allohga itoat bilan birga bo'ladigan bir ishdir. Til bilan zikr, ya'ni: «Alloh», «La ilaha illalloh» deyish yoki asmoi husnani, boshqa kalimoti toyyibotni takrorlash, asl maqsad bo'lgan Allohni ongida, xotirasida, zehnida jonlantirish uchundir. Shuning uchun ulamolimiz buyurganlarki:

«Doimiy ravishda Alloh bilan birga bo'lish holi davomli zikr qilish orqali hosil bo'ladi» ga o'xshash. Ya'ni «Olimlik o'rgana-o'rgana, ta'lim olish bilan bo'ladi». Zikr ham tafakkur



bilan o'zini majburlash orqali bo'ladi. Inson harakat qilib-harakat qilib, oxirida shunday bir holga keladiki, bunga zikri mudom holi deyiladi, ya'ni Alloh taolo xotirasidan hech chiqmaydi. Hech bir narsa uni Alloh zikridan to'xtatib qo'yolmaydi.

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«Ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan mashg'ul qila olmas»** holi unda ro'yobga chiqadi. Alloh doimo xotirasida bo'ladi. Hayoti Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hayotiga o'xshab boradi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam duoyu zikr bilan yotardilar. Yonlarida misvok bo'lardi. Orada uyg'onsalar, duo va zikr qilar, misvoklarini ishlatardilar. Tursalar ham, o'tirsalar ham tillari va dillari zikru duoda edi. Hojatga ketishlarida zikr qilardilar, Allohga sig'inardilar. Hojatdan qaytganlarida yana zikr qilib, Allohga hamd aytardilar. Tahorat olganlarida ham, masjidga borayotganlarida ham, namozni o'qib bo'lib, chiqayotganlarida ham, kiyim kiysalar ham, yechsalar ham, ovqat yesalar ham, yeb bo'lganlaridan keyin ham zikr qilardilar, duo etardilar.

Bu hol nimani ko'rsatadi? Har onda Alloh taolo bilan birga bo'lganligini ko'rsatmoqda. Har lahza zikri haqiqiy, zikri mudom holida bo'lganliklarini ko'rsatadi. Biror lahza ham g'aflatda bo'lmaganliklarini ko'rsatadiki, maqsud – shu, inson shunday bo'lishi lozim.

Shuning uchun tasavvufning asoslaridan biri – hush dar dam bo'lish. Sulaymon Chalabiy:

*Har narsada Alloh yodin aytgil mudom,  
Alloh oti birla bo'lur har ish tamom,*

– deb yozganidek, har nafasda Allohni xotirasida saqlash, Allohni unutmaslik, Allohga qulligini bilish holatidir. «Xilvat dar anjuman» bo'lish tavsiya etilmoqda. Ya'ni xalq orasida bo'lsa ham Xoliq bilan birga bo'lish, qo'li ishda, ko'ngli yorda bo'lsin. «Dast ba koru dil ba yor». Buni tilimizda: «Qo'l ishda, ko'ngil bilishda», – deyiladi. Bilish –Mavlosi, Rabbini tanish, unga imon keltirish demak. Zikr shunday bo'ladi.

Shuning uchun inson bomdod namozidan keyin o'tirib zikr bilan mashg'ul bo'ladi. Yo qo'lga tasbeh olib, zikrlarni qiladi. Yoki bo'lmasam, Qur'oni karimni tilovat qilib, vaqtini unumli o'tkazadi. Namoz o'qimaydi, chunki bomdod namozidan keyin quyosh chiqquncha bo'lgan muddatni karohiyat – makruh vaqt, deyiladi. Agar kishi bomdod namozini quyosh chiqquncha turib o'qiyolmagan bo'lsa, makruh vaqti tugamagunicha qazosini o'qiyolmaydi.

Karohiyat vaqti quyosh chiqib, 25-30 daqiqa o'tganidan so'ng tugaydi, yoki bo'lmasam, quyosh yer sathidan bir nayza balandligicha ko'tariladi. Tabiiyki, hozir bizning yonimizda nayzamiz yo'q, uning qanchalik balandligini ham bilmaymiz. Ammo inson ufqqa qaraganida, quyoshning ufqdan biroz yuksalganini ko'radi. Quyoshga qaraganda ko'zlarini hali qamashtirmayotgan bo'lsa, shu ishroq vaqti. Agar quyosh yaxshigina ko'tarilgan bo'lsa va unga qarab bo'lmaydigan holga kelgan bo'lsa, u holda ishroq vaqti o'tib, zuho namozi vaqti kirgan bo'ladi.

Bu yerda quyosh 25-30 daqiqa o'tganidan keyin turib ikki rakat namoz o'qish tavsiya qilinyapti. Va boshqa bir hadisi qudsiyda Parvardigorimizning: «Ey Odam farzandi! Sen

menga kunning avvalida ikki rakat namozni (kafolat) qil, keyin men senga kunning oxirigacha holingning chiroyli bo'lishiga kafil bo'lay!» – deb buyurgani rivoyat qilinadi.

Hadisi qudsiydagi ikki raka'at namoz, bir qator rivoyatlarga ko'ra, ishroq namozidir. Kunduz deganda biz quyoshning chiqib ko'tarilganini tushunamiz. Tabiiy, nahori shar'iy fajrdan, subhdan boshlanadi. Sharq ufqidan oydinlik boshlanishi bilan subhi sodiq bilan birga, nahori shar'iy boshlanadi va biz ro'za tutishni boshlaymiz. Bomdod namozini ham o'sha paytda o'qiymiz. Shu sababdan ham olimlar «Mukofot va'da qilingan namoz bomdod namozining boshidagi ikki raka'at sunnatidir», – deganlar.

Hadisi shariflar ishroq namozini o'qishlikni tavsiya qiladi. Ba'zi hadisi shariflar ishroq namozining o'qilishi inson rizqining ortishiga sabab bo'lishini bayon etadi.

«Bir insonning atroflarni kezib, rizq talab etishidan ko'ra, bomdod namozidan keyin masjidga o'tirib, shunday ibodat qilishi unga yanada ko'proq rizq keltiradi», – degan rivoyatlar ham bor. Chunki, insonga Alloh beradi. Hamma boy bo'lishni xohlaydi. Ammo bo'lmaydi. Hamma qornini to'ydirishni xohlaydi, ammo to'ydirolmaydi. Hamma mo'l-ko'l barakani xohlaydi, ammo Afriqodagi insonlar ochlikdan qirilayapti.

Yomg'irni yog'dirgan, o'tlarni o'stirgan, rizqni bergan Alloh taolo bo'lganligi uchun va musabbibul asbob ekanligi tufayli banda Xudovandi karimning roziligiga mufoviq harakat qilsa, u zot albatta rizqining kafolatini beradi.

Inson ko'chaga chiqib, oldi-sotdi qilsa, shu yerdan mol olib, boshqa joyga olib borib sotsa, uyda bola-chaqam bor, ularning rizqini ta'minlashim kerak, deb harakat qilsa, muhaqqaq tijorat qilgan bo'ladi va foyda qo'lga kiritadi. Biroq masjidga shunday ibodat qilganida esa Alloh taoloning yanada ko'proq rizq beraman, degan va'dasi bor. Parvardigorning va'dasi haqdir, aytganini bajaradi. Razzoqi olamdir. Hatto yerdagi o'rgimchakka rizqni qanoat qilib yuborib turadi. O'rgimchakning rizqi yerto'laga kirib boradi va uning ozuqasiga aylanadi.

Buyuklarimizdan shunday hikmat rivoyat qilinadi: *«Agar inson Alloh so'ragan, talab qilgan bandalikni unutib, rizq topish dardida ibodatni tark etsa, bu uning ko'z ko'rligining alomatidir».*

«Senga yozib qo'yilgan, kafolatini berib qo'ygan rizq ortidan yugurishing, (va taqsi'ruka amman tuliba minka) va sendan talab etilgan qullik vazifalarini tark etishing, (dali'lun alan timasil basi'rati anka) basiratingning yopiqligi alomatidir».

Ey inson! Sen Allohning amrini tut, Alloh senga nimalarni bermaydi. Avval Alloh buyrug'ini bajar keyin boshqa ishlaringni ado qil! Alloh taolo talab qilgan shaklda bajarishlik oqil insonlarning foydasidir. Namoz vaqtida namoz, uyqu vaqtida uyqu, ish vaqtida ish. Har narsaning vaqtini bilish lozim.

Insonlar esa aksini qiladilar: uyqu vaqtida qimor o'ynaydilar, ish vaqtida uxlaydilar, ibodat vaqtida ishlaydilar. Ba'zan orada dinimizning amrlarini ham bajarib turadilar.

Xo'sh, biz nima qilishimiz kerak? Kunimizni Allohning rizoligiga muvofiq tarzda tartibga keltirishimiz lozim! Bizning kunimiz tahajjud namozi bilan boshlanadi. Chunki:

«Kechasi o'qigan ikki rakat namoz, dunyodan va dunyodagi hamma narsadan xayriroqdir», – deb buyuradilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Va Qur'oni karimda,

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«Kechaning (bir qismida) uyg'onib o'zingiz uchun nafl (ibodat) bo'lgan namozni o'qing! Shoyadki, Parvardigoringiz sizni (Qiyomat kunida) maqtoqli (ya'ni gunohkor ummatlaringizni shafolat qilib oqlaydigan) maqomda tiriltirur»**, deb Alloh taolo Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga kechalari turib tahajjud namozi o'qishni tavsiya qilmoqda. Hatto bu namoz vahiyning birinchi nozil bo'lgan «Muzammil» surasining ilk oyatlarida, «Kechaning yarmi o'tganda, uchdan biri o'tganda, uchdan ikkisi o'tganda turgin va Allohga ibodat qil!» – deb payg'ambarlikning ilk zamonlaridayoq tavsiya qilingan.

Ashobi kirom Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga nozil bo'lgan bu oyati karimalarni eshitib, amal qilib, kechalarini toat-ibodat bilan ihyo qilardilar. Shundan keyin uzun ibodatlarini yengillashtirish, ya'ni safarda, kasallik va turli sabablar bo'lgan paytda yengil bajarishga doir oyatlar nozil bo'ldi.

Bu yerda biz uchun ma'naviy bir tashviq bor: modomiki, bu namoz dunyo va undagi barcha narsalarni egallashtan afzal ekan va Alloh taolo unga juda ham katta mukofot berar ekan, u holda soatlarimizni to'g'rilab qo'yib, tahajjud namoziga turishimiz lozim! Hozir saharlikka turamiz. Saharlikda ham baraka bor, u ham sunnat. Bu saharlikka turish odatimizni, inshaolloh ramazondan keyin ham davom ettiramiz. Kechalari turib tahajjud namozini o'qiymiz va buni qo'ldan boy bermaymiz. Bu – birinchi. Ikkinchi: musulmon kishi bomdod namozini masjidida o'qishi lozim! Olimlarimiz, oriflarimiz, buyuklarimiz, «Bir inson butun kechani ibodat bilan o'tkazib, bomdod namozini ham uyida o'qib yotishidan ko'ra butun kechani uyqu bilan o'tkazib, bomdod namozini masjidida o'qigani xayriroq», – deganlar. Chunki bomdod namozi fazilati benihoya cheksiz namozlardan. Xufton namozi ham xuddi shunday. Bu ikki namozni ado etish uchun munofiqlar jamoatga qatnasha olmaydilar. Kechasi kelish, ertalab vaqtli turish ularga og'ir keladi.

Mo'minlar uchun esa munofiqlar ahvoliga tushish to'g'ri kelmaydi va ular buni xohlamaydilar ham. Mo'minlar Payg'abarimiz sallallohu alayhi vasallamga va taqvodor imon sohiblariga o'xshashni istaydi. Shuning uchun bomdod namozini masjidida o'qish har bir mo'minning asosiy vazifasi bo'lishi lozim! Tahajjud namozini uyida o'qishi va bomdodga masjidga kelishi lozim.

Islomiy davrlarda mo'minlar ertalab ish boshlardilar, bozorlar vaqtli ochilardi. Hammaning ishi peshingacha qariyb tugab qolardi. Hamma kech tushmasdanoq o'z qishlog'iga ravona bo'lardi. Oldinlari shunday bo'lgan. Ishlar hatto asrgacha tugab bo'lardi. Ammo hozir zamon o'zgardi. Kechalari uxlashmaydi. Bomdod vaqtida uxlaydi, namozga turolmaydi. Tahajjud u yoqda tursin, bomdod namoziga ham turolmaydi. Soat to'qqiz-o'nlarda bozorga borsangiz ham ba'zi do'konlar yopiq bo'ladi. Bozor kunlari kechasi uxlamaganliklari uchun chorsu bozorlari juda ham kech ochiladi. Holatlar o'zgargan, ammo diniy jihatdan olib qarasa, unday emas.

«Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam kunning o'rtasida, peshinda uxlardilar». Bu

pehshindagi «qaylula» uyqusi bo'lib, salomatlikka ko'p foydali, odamga ko'p hordiq beradi. Kechki ibodatga ham yordam beradi. Chunki ertalab vaqtli turgan vujud peshinga kelib biroz dam olishni talab qoladi. Shuning uchun peshinda uxlab olgan kishi yangilanib olgandek bo'ladi. Tabiiyki, peshindan keyin ishlarini bitiradi va shomgacha uyiga yetib keladi.

Bizlarning oldingi odatlarimiz shunday edi. Shom mahalida hamma uyda yig'ilardi. Biz katta yigit bo'lib qolgan bo'lsak ham shom namozi azonidan keyin uyga bormoqchi bo'lsak, qo'rqib-qo'rqib kirib borardik. «Ey voh! Katta xato qilib qo'ydim...», – deb qo'rquvdan titrab-titrab borardik. Chunki shom namozi paytida hamma uyda to'planadi. Chunki ro'za tutganlar bor, ro'za ham shom namozidan keyin ochiladi.

Kunduzgi reja qanday tuziladi? Inson bu rejani namozlarni jamoat bilan o'qiydigan shaklda tuzishi lozim. Bizning ba'zi birodarlarimiz bor edi. Do'konlarini ochib turardilar, namoz vaqti kirib qolsa, xaridori bo'lsa, hatto «Namozga boraman, yuring, birga boramiz! Keyin, agar kerak bo'lsa, keling!» – deb aytardi. Keyin do'konni yopib, namozga ketardi. Dunyoning ishi tugamaydi, ammo namozning vaqti o'tib ketadi. Bordi-yu o'tib ketsa, u vaqtdagi fazilatni qaytib topib bo'lmaydi.

Bizlarning asosiy va asl ishimiz – Allohning roziligi va savobli ishlar bo'lishi kerak. Binobarin, ishlarimizni to'xtatib, peshin namozini masjidga borib o'qishimiz lozim. Do'kondagi peshtaxtaning yonida yolg'iz o'qilgan namozdan ko'ra, masjidga borib jamoat bilan o'qilgan namozning savobi 27 marta ortiq bo'ladi. Agar jome' masjidlarda, jum'a o'qiladigan masjidlarda o'qilsa, savobi 50 martagacha ortadi. Agar cho'pon tog'da, dehqon paykalda azon aytib, namoz o'qisa ham savobi 50 martaga ortadi. Chunki, u tog'u toshga «Allohu akbar», – deb nido etgan bo'ladi. Atrofida Allohning qanchadan-qancha maxluqlari borki, ular ham yig'iladilar, shuning uchun savobi 50 marta ko'p.

Shuningdek, mo'min kishi peshingacha ishlaydi va dam olib, namozini borib masjidida o'qiydi. Peshindan keyin ishini yana davom ettiradi va asrda mutlaqo masjidida bo'ladi.

Asr namozi muhim namoz bo'lganligi uchun Alloh taolo («val-asr»), – deb asr bilan qasam ichadi.

Asr namozining vaqti – inson dunyo ishlariga butunlay ko'milib ketgan vaqt. Tijorat eng qaynagan, chorsu bozorini berkitishga tayyorgarlik zamoni. «Qorong'u tushmasdan ishni to'xtatib olay», – deb har bir kishining shoshilayotgan vaqti. Insonlarning eng ko'p bahona topib, namozni tark etadigan vaqti. «Shoshilib qoldim, tahorat ololmadim, unday bo'ldi, bunday bo'ldi», – deydigan paytlar. Asr paytida kishi ishdan ayrilishni istamaydi.

Albatta, mufassirlar «Asr» so'zining boshqa ma'nolarini ham aytib o'tganlar. Payg'ambarimizning oldilariga bir kishi kelib: «Juda ham xafaman, parishon bo'ldim», – deb dardini tushuntirib ketibdi. Payg'ambarimiz uni eshitib: «Men seni asr namozini qazo qilibsang, deb o'ylabman», – dedilar. Ya'ni, sening darding u qadar muhim emas, demoqchi bo'ldilar. Zero, asr namozini tark etmaslik, balki uni ham masjidida o'qish lozim.

Bizning mamlakatimizda keng tarqalgan bir yomon odat bor: Shom namozlari ramazon oyida yo'qqa o'xshab qoladi. Axir, ramazon ibodat oyi emasmidi? Bunday qusurlarimizni

o'rganib, ularni tuzatishga harakat qilishimiz lozim. Shom namozi ramazonda yo'qdek. Nima uchun? Odamlar ro'za tutadi, ro'zani ochamiz, deb masjidga kelmaydilar va namozlarini uylarida o'qiydilar. Shom namozi ramazonda go'yoki olib tashlangandek. Bunday bo'lmaydi, bu – noto'g'ri! To'g'risi qanday? Og'iz ochish uchun kerakli ozuqani yoniga olib, shom paytida namozini masjidda o'qiydilar va asta-sekin ovqatlanish uchun uylariga boradilar.

Arabistondagi mo'min birodarlarimiz bunga katta ahamiyat beradilar. Arabistonda har azondan keyin ma'lum miqdor kutish diniy idora tomonidan joriy etilgan bo'lib, bu devorlarga osib qo'yilgan. Unda masalan: «Peshin azoni aytilganidan 30 yoki 20 daqiqadan keyin farz namozi o'qiladi. Asr azonidan 20 yoki 30 daqiqadan o'tgach, farz o'qiladi» va shunga o'xshash.

Ramazonda umraga borganlar biladilar: Makkai mukarrama va Madinai munavvarada o'ziga xos bir odat mavjud. Masjidlarning ichida dasturxonlar yoziladi. Har bir kishi o'z dasturxonini ochadi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam masjidlarida har bir boy kishining o'z dasturxonini bor. Dasturxonni 5, 10, 20, 30 metrgacha ochib boradilar. Xurmolar va boshqa narsalar keltirib, zam-zam suvlar to'ldirib qo'yiladi. Ichkarilarda yana boshqa dasturxonlar hozirlanadi. Masjidning eshigidan kirishingiz bilan «Biznikiga keling!» – deb qo'lingizdan tortib olib ketib qoladilar. Ya'ni to o'zingizning dasturxonigizga yetib borguningizgacha 40 martalab da'vat qilinasiz. «Birodarlarimizning dasturxonida bizga ham joy berilgan edi!» – deb zo'rg'a o'tib borasiz.

Azon aytiladi. Shom kirganidan so'ng har kishi o'z xurmosi-yu, zam-zami bilan ro'zasini ochadi. Besh daqiqa kutiladi va keyin dasturxonlar yig'ishtiriladi. Undan keyin iqomat keltirib, namoz o'qiladi. Jamoatni sira tark etmaydilar. Bizda esa, ramazonda jamoat bilan namoz faqat to'rt vaqtdir. Nima uchun? Chunki, shom yo'q, shomda hamma uyida ovqatlanadi. Bo'lmaydi! Masjidga kel, namozingni jamoat bilan o'qigin 27 marta savob ko'payadi, keyin esa uyingga boraver!

Inson yana dam ham oladi. Kecha shomda qanday mazza qildik. Iftor vaqti bir masjidning yonida birodarlarimiz bizlarni to'xtatdilar va birgalikda namoz o'qidik. Ikki kishi – bir imom va bir qariya bor ekan. Masjidning asosiy qismini ochmabdilar, bir xonasida o'qiyaptilar, chunki jamoat kelmayapti. Atrofida uylar yo'qmi? Bor, lekin masjidga kelish odatlari yo'q! Bizning noto'g'ri odatlarimizdan biri – shu. Boshqasi esa azondan keyin darhol namoz o'qishligimiz.

Men yashagan mahallada shunday edi. Mening uyim masjiddan to'rt yoki besh xonadon uzoqroqda edi. Azonni eshitishim bilan eshikdan chiqsam ham farzga zo'rg'a yetib kelardim. Sunnatni shosha-pisha o'qib, farzga yetishib olasiz. Nima bo'ldi? Nima uchun meni chaqirding? «Hayya alas solah». «Qani namozga kel!» – deb minoradan meni chaqirmadingmi? Men uydaligimda «namozga kel!» – demadingmi? Mana keldim, nima uchun meni kutmasdan o'qiding? Biroz kutsang, bo'lmasmidi!

Kutish yaxshi. Biz ham «har azondan keyin o'n-o'n besh daqiqa kutamiz, jamoat tahoratini qilib olsin, – degan bir qoida qabul qilsak. Masalan, bir inson uxlab yotgan edi. Azonni eshitib turadi, tahoratini qilib, yetib keladi. Tahorat qilib kelishiga ruxsat ber, kelgandan keyin esa sunnatini o'qib olishga imkon ber va keyin farzga turing! Bizning

shoshilishimiz bu – birinchisi.

Ikkinchisi esa, namozlarni juda ham tez o'qimoqlik. U ham bir bid'atdir, noto'g'ridir. Chunki:

«Shoshilish shaytondan», – deb buyurilgan. Ibodatda viqor sakinat bo'lishi lozim! Namozlarda ta'dili arkon vojib, ba'zilarning nazdida farz deyilgan. Har bir ruku'ning haqqini berish lozim, shoshilmaslik kerak! Namozni shoshiltirmaslik lozim, chunki namoz juda ham chiroyli va ulug' bir ibodat. Namozlarda shoshilishimiz, ruknlarni to'la ado qilmasligimiz – xato.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir kuni shoshilib namoz o'qigan kishini ko'rib qoldilar. Uni yonlariga chaqirdilar:

«Sen namozingni qaytadan o'qi, chunki sen namoz o'qimading!» – dedilar.

Holbuki, o'qigan edi. Demak, qabul bo'lmadi. «Ajabo, kamchiligim bormikan?» – deb yana o'qidi. Bu safar yana tez o'qidi.

«Sen yana namoz o'qimading!» – dedilar.

Bundan keyin yana shoshilib namoz o'qiganidan so'ng Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam yonlariga chaqirib:

«Shoshilma, tik turganda, qiyomda, ruku'ga borganingda butun a'zolaring qaror topgunicha tur! Turganingda, to a'zolaring dam olgunicha, rohat olgunicha tur! Har ruknning haqqini ado et!» – deya tavsiya qildilar.

Demak, namozni shoshilib o'qishlik ham sunnatga xilof bo'lib, bid'at hisoblanadi.

Bundan tashqari, yana ko'p qusurlarimiz bor. Azon o'qiladi, masjidga kelinmaydi, uyida o'qiladi. Holbuki, agar masjid uyiga qo'shni bo'lsa, o'qigan namozi namoz bo'lmaydi! Azonni eshitganidan keyin inson unga ijobat qilishi kerak.

Abdulloh ibni Ummu Maktum raziyallohu anhu Payg'abarimiz sallallohu alayhi vasallamdan so'radi:

«Yo Rasululloh, bilasizki, mening ikki ko'zim ko'r. Kimdir mening qo'limdan ushlab, masjidga olib kelsa, bora olaman, kechalar juda ham qiyin bo'ladi. Yo'l yo'q, iz yo'q. Har tarafda chuqurlik bor. Shuning uchun men namozni uyimda o'qisam bo'ladimi?»

«Mayli, uzring bor, mumkin» – dedilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam.

Faqat biroz yurganida yana chaqirdilar.

«Sen azonni eshitasanmi?»

«Ha, eshitaman».

«Eshitsang, kelasan», – dedilar. Bir inson azonni eshitdimi, Alloh da'vat etmoqda uni, bormasa, da'vatga ijobat qilmagan bo'ladi. Shunga o'xshash qusur-kamchiliklarimiz ham bor. Alloh qusurlarimizni tuzatishni nasib aylasin.

Bizning bu ma'ruzalarimiz ham zikr. Sizing eshitganingiz ham zikr. Nima uchun? Ulumi diniyaning muzokarasi ham zikr. Unda ham ko'p savoblar bor. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning «Insonning ilmdan bir bo'lim o'rganishi, dunyo va dunyodagi hamma narsadan xayrlidir», – degan mujdalari bor.

Binobarin, biz ham bu yerda bir masala to'g'risida gaplashdik. «Ibodatlaringizni qanday qilamiz, kunimizni qanday o'tkazamiz?» – deb gaplashdik. Kunni qanday o'tkazish borasida shom namozigacha keldik, undan keyingi xuftonni tushuntirmadik. Xufton namozini ham jamoat bilan o'qish lozim! Charchagan bo'lsangiz, o'qib bo'lib, keyin uxlang! U yoki bu bahona bo'lmasligi lozim!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam va sahobai kirom xuftondan keyin darhol dam olardilar. Hatto masjidida bir-birlari bilan ko'p ham gaplashmasdilar. Tahajjudga turish uchun erta yotardilar.

Xuftondan keyingi uzun suhbatni arab tilida musomaratul layl, deyiladi. Musomaratul layl – kechasi bilan suhbatlashmoq degani. Bu to'g'ri emas, chunki tahajjud namozini tahlikaga solib qo'yadi. Hatto bomdod namozini ham.

Shuning uchun vaqtli yotib, tahajjudga bimalol turish lozim! Kechasi yotishdan oldin buyuklarimiz tavsiya qilgan bir odat bor, shuni ham eslatib o'tsak: yangi tahorat olib, to'rt rak'at namoz o'qib, tahorat bilan yotiladi! Chunki farishtalar tahorat bilan yotgan kishiga butun kechani ibodat bilan o'tkazdi, deb yozadi. Maloikalar samodan uning vujudini nurdek ko'radilar va yoniga tushadilar. Shu yerda bir banda tahorat bilan yotibdi, deb uning atrofiga izdihomli bir shaklda yig'iladilar va uning haqqiga duo qiladilar: «Yo Rabbii! Sening bu quling tahorat bilan yotdi, sen uning gunohlarini mag'firat qil!» – deb. Shayton yaqiniga kelolmaydi, kechasi esa uning uchun xayrli, muborak bir kecha bo'ladi. Agar ajali yetib o'lsa, imon bilan o'lishga vasila bo'ladi.

Demak, xuftondan keyin ko'p o'tirmaslik kerak! Ba'zi kishilar televizor tomosha qiladilar. Ko'p vaqtini bekorga o'tkazmasdan, tahajjudga tura olishi uchun, tahoratini olib, namozini o'qib, vaqtli uxlashi kerak!

Kunni shunday o'tkazish lozim. Allohning rizosini topishga harakat qilish kerak!

Alloh taolo har ishimizni Qur'oni karimga va Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning sunnati saniyyasiga muvofiq, dinning asliga, o'ziga muvofiq tarzda bajarishni nasib aylasin! Bizlarni bid'atlardan, xatolardan, g'aflatdan, shoshma-shosharlikdan, tanballikdan, qusurlardan pok qilsin. Bizda sevimagan qanday axloq, fikr, odat va tushuncha bo'lsa, bizlarni ulardan qutqarsin! Bizlarni O'zi sevadigan sifatlarga ega qilsin. Maqbul amallarni bajarishga muvaffaq aylasin! Mahbub qullaridan qilsin. Sevgan, rozi bo'lgan qul bo'lib huzuriga borishni, jannatiyu jamoliga musharraf bo'lishni, rizvoni akbariga erishishni nasib etsin!

Bihurmati shahri ramazonal muborak va bi hurmati habi'bihi Muhammadinil mustafo va bi hurmati asrori suratil fotiha!

*13 fevral 1995 / 13 Ramazon 1415*

## MAG' FIRAT OYI

A'uzu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beaded, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!*

Amma ba'd:

Aziz va muhtaram jamoati muslimin! Qimmatli birodarlarim! Alloh taolo barchamizdan rozi bo'lsin! Namozlaringizni, niyozlaringizni, ro'zalaringizni, ibodatu toatlaringizni qabul qilsin!

Alloh taolo bir hadisi qudsiyda buyuradiki:

«Ey Odam o'g'li!» Darhaqiqat, Hazrati Odamning farzandlari bo'lgani uchun Odam alayhissalom avlodlarining barchasi qardosh-birodardir. Bundan tashqari, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam «Odam tuproqdandir», – deb buyurganlar, shu bois, aslimiz tuproq bo'lganligi uchun mutavoze' bo'lishimiz lozim.

Zod – arabchada yo'l ozuqasi, xaltaga solingan yegulik-ichgulik degani. Qadim zamonlarda yo'lchilar safarga chiqishdan oldin yo'l ozuqalarini g'amlab olardilar. Chunki yo'llar hozirgidek qulay emas edi. Albatta, yo'llarda hozir turli-tuman imkoniyatlar mavjud: benzin quyish shaxobchalari, tahorat olish yerlari. Yo'lda yeyish-ichish uchun ozuqa g'amlash tashvishi yo'q.

Ammo oldinlari bunday emas edi. Cho'lga chiqqan odam nimalar qilishi kerak edi, bir o'ylab ko'raylik: nima yeydi, nima ichadi? Bu ham o'ziga yarasha bir muammo? Meshga suv to'ldirib, minadigan hayvonining bir tomoniga osib qo'yardi. Yeyish uchun qotgan nonmi, qovurilgan unmi, umuman, yo'lda aynimaydigan, bug'doy, xurmoga o'xshash quruq yeguliklarni ham yoniga olishardi.

Yo'llarda ham ko'p qiyinchiliklarga uchrardilar. Bir tomondan charchoq, ikkinchi tomondan esa uzoq masofani zahmat bilan bosib o'tish, shular qatori yeyish-ichish tashvishi ham bor edi. Shu sababdan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning hadislaridan birida:

«Cho'lda yo'lovchi bo'lib musofir bo'lsangiz, zarurat paytida insonlardan musofirlik haqqingizni talab etishingiz mumkin», – deganlar.

Nima uchun? Chunki musofir hayotida xafv bor, unga lozim bo'lgan paytda insonlar biror narsa in'om qilishlari lozim! Chodirdagi yoki o'sha qishloqdagi inson musofirga hech bo'lmaganda bir qultum suv yoki bir burda non berishi kerak! «Agar bermasa, olishga haqqingiz bor. O'lib qolmaysiz, oling!» – deyaptilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Albatta, bu o'sha ishning muhimligini, jiddiyiligini ko'rsatmoqdalar.



Shu yerda sahobai kiromning bir sayohatini eslab qoldim: bir guruh sahobai kirom yo'lga chiqibdilar. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning qanday vazifa topshirganlarini bilmaymiz. Cho'lda qumlarga botib, jazirama issiqda terlab-pishib, charchab, nihoyat bir vohaga yetib kelibdilar. Qarasalar, bir necha chodir atrofida xurmo daraxtlari va suv ko'rinibdi. Sevinib boribdilar:

«Biz yo'lchimiz, qornimiz och», – deyishibdi.

Ular esa musofirlarni mehmon qilmabdilar. Sahobalarning kimligini bilmabdilar, na ovqat, na suv beribdilar, chodirlariga hatto taklif qilmabdilar. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam huzurida xizmat qilib yuradigan, har biri Valiy zot bo'lgan bu insonlarga vohadagilar iltifot ko'rsatib mehmon qilmabdilar. Ular esa chodirlarning atrofida, qumlarning ustiga hech bo'lmasa charchoq ketsin, deb cho'zilibdilar. Birozdan keyin chodirlarning biridan baqir-chaqir, to'polon ovozi eshitilibdi. Bir joriya yuzini berkitib-yashirib, ularning oldiga kelib:

«Bir zaharli ilon qabila raisini chaqib oldi. Ichingizda davolaydigan birortasi bormi?» – deb so'rabdi.

Sahobalardan biri:

«Men biroz bilaman», – debdi.

Uni qabila raisining yoniga olib boribdilar. Sahoba faqatgina Qur'oni karimni o'qibdi. Shishib borayotgan vujud tuzala boshlabdi. Bundan sevingan voha aholisi ularga ko'p izzat-ikrom ko'rsatibdilar: yediribdilar, ichiribdilar, dam oldiribdilar. Yo'lga chiqishlarida qo'y-qo'zilar va hokazo hadyalar berib jo'natibdilar.

Ular olgan hadyolari bilan Madinai munavvara tomon yura boshlabdilar. Faqat Qur'on o'qigan kishi aytibdiki:

«Men bu ishga ko'p xafa bo'ldim».

«Nima uchun?»

«Bu hadyalarni Qur'oni karimni o'qiganimdan so'ng berdilar. Qur'oni karimni moddiy manfaat yo'lida ishlatdim, deb xavotirdaman. Rasululloh sallallohu alayhi vasallamdan buni so'rayman. Berilgan narsalarga qo'l tekkizmang», – debdi.

Madinai munavvaraga yetib kelibdilar. Borib Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga bo'lgan voqeani tushuntirib beribdilar. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam:

«Sen haqlisan, xavotirlanadigan joyi yo'q. Niyating juda ham xolis va pok bo'lgan. Olgan hadyalaringsizdan bemalol foydalanaveringsizlar. Hatto menga ham ikrom etishingiz mumkin», – debdilar.

Keyin Qur'on o'qigan sahobadan so'rabdilar:

«Nimani o'qigan eding, doridek ta'sir qilibdi?»

«Yo, Rasululloh «Fotiha» surasini o'qidim», – debdi sahoba.

Bu hadisi sharifdan ilohiy duo bilan har qanday kasallikdan xalos bo'lish mumkin, degan xulosaga kelamiz. Zero, Alloh taolo hamma narsaga qodir. Omana va soddaqna qodir. Fotihani o'qish bilan kasal tuzaladida.

Ramazon – mohi g'ufiron. Alloh taolo O'z bandalarini eng ko'p afvu mag'firat qilgan oy. Bu oyda Alloh duolarni qabul qiladi. Chunki, «Ro'zadorning duosi maqbuldir», – deyidilar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Shom vaqti kirib kelishi, yaqinlashishi bilan

azon chaqiradigan paytda: «Ey Rabbim! Meni, onamni, otamni, jami mo''minlarni mag'firat qil!» – deb duo qilishimizni Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam tavsiya qilmoqdalar.

Ramazon – bandalar mag'firat qilinadigan, ko'plab jahannamiy kimsalar do'zaxdan ozod bo'ladigan oy. Mohi g'ufron va yoxud arabcha ta'bir bilan aytganda, shahri g'ufron – qullar afvu mag'firat qilinadigan oy.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam xabar berganlaridek:

«Boshi – Alloh rahmati tajalli qilgan, (va avsatuhu' mag'firatun) o'rtasi – qullari Alloh tomonidan mag'firat qilingan (va a'xiruhu' itqun minan-na'r) oxiri – qullar jahannamdan ozod bo'lgan oy».

Chunki Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ramazon oyida Qur'oni karimning barchasini to'laligicha Jabroil alayhissalomga o'qib berib, muqobala qilar edilar. Hofizlarning masjidlarda Qur'oni karimni o'qishlari va jamoatning uni tinglashlari o'sha odatning davomi. Demak, ramazon ayni paytda, Qur'oni karimga mahkam yopishish, Qur'oni karimni o'qish, Qur'oni karim bilimini takrorlash oyidir.

Tabiiyki, banda qusurlar, gunohlardan xoli emas. Ichkilik, yolg'on, g'iybat, haromga qarash, harom yeyish – hammasi gunoh. Qur'oni karimdan yod olgan sura-oyatlarini unutilib yuborish ham buyuk gunoh.

Shuning uchun Qur'oni karimni har kuni takrorlash lozim! Bundan tashqari, Qur'oni karim xastaliklarga davo hamdir. Sahoba «Fotiha» surasini o'qisa, og'ir kasal tuzalib ketdi. O'lar holatda edi, hayotga qaytdi. Demak, Qur'oni karimning ma'naviy savobi ham, moddiy shifosi ham bor...

Bu rivoyatni nima uchun eslatdik?

Cho'lga sayohatga chiqqan kishi och qolishi, chanqashi, turli tashvishlarni boshidan kechirishi mumkin. Shuning uchun yo'lga chiqishdan oldin xaltasini to'ldirib chiqishi lozim! Suv, oziq-ovqat, hammasini olishi kerak! Hamma narsani olganidan so'ng yo'lga chiqishi lozim!

Alloh taolo hadisi qudsiyda aytmoqdaki:

«Yo'l ozuqasini ortig'i bilan oling, chunki yo'l uzoqdir!»

Bundan maqsad nima? Inson farzandining dunyodagi hayoti bir yo'lchilikka o'xshatilmoqda. Inson farzandi dunyoga keladi. Keyin chaqaloqlikdan o'rta yoshgacha, o'rta yoshdan qarilikkacha borib yetadi. So'ng vafot qilib, oxirat olamiga ketadi. Undan keyin barzax olamida uni ruhlar kutadi. Qiyomat qo'padi. Mahshargohda insonlar yig'iladilar. Hisob-kitoblar bo'ladi. Sirot ko'prigidan o'tganlar jannatga doxil bo'ladilar.

Demak, inson farzandining yo'lchiligi u hali dunyoga kelmasdan oldin – ruhlar olamidan boshlanib, dunyoga kelishi bilan davom etadi, o'limi bilan boshqa olamga o'tadi. Qiyomatdagi hisob-kitoblardan so'ng yo'lchilikning oxirgi abadiy bekati jannat yoki jahannam keladi: kofirlar – jahannamga, mo''minlar – jannatga kiradilar. Ammo,

tabiiyki, qusurli, gunohkor, osiy bo'lgan mo'minlar ham jahannamga kiradilar. Ular jahannamda belgilangan muddatgacha jazolarini oladilar, keyin jannatga kiritiladilar.

«La' ila'ha illalloh» degan kishi jannatga kiradi. Ammo Allohning sevgan, muborak, baxtiyor qullari daftar va devonlar ochilmasdan, hisobga chaqirilmasdan, savol-javob qilinmasdan jannatga kiradilar.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida marhamat qiladilarki: «Mening ummatimdan yetmish ming kishi hisob-kitobsiz jannatga kiradi».

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam qo'shinlariga bosh qo'mondon qilib tayinlagan sevgili, muborak sahobalardan biri Ukkosha ibni Mihson as-Saqafi roziyallohu anhu o'rnidan turib: «Yo Rasululloh sallallohu alayhi vasallam, duo qiling, men ham o'sha baxtiyorlardan birisi bo'layin va jannatga hisob-kitobsiz kirayin», – debdi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam kulib turib: «Sen ham o'shalardan birisan», – dedilar.

Keyin aytadilarki:

«Alloh taolo menga «Yetmish ming kishi jannatga hisob-kitobsiz kiradi», – deganida, men Xudovanddan bu miqdorning orttirilishini so'radim. «Yo Rabbim! Yana ko'paytir, 70 mingni ziyoda qilgin!» – deb aytdim. Shunda Alloh taolo yetmish mingning har biriga yana yetmish ming bag'ishladi».

70 mingni 70 mingga ko'paytirsak, 4 milliard to'qqiz yuz million mo'min jannatga hisob-kitobsiz kiradi ekan. Yana hadisi sharifda sirli bir ifoda ham bor: «Unga Rahmonning hovuchlaridan bir necha hovuch qo'shiladi». Bozorda oldi-sotdi qilganda sotuvchilar, molni tortib bo'lgandan keyin «Bu tarozining haqqi», – deb, xaridorga bir-ikki hovuch qo'shib beradilar. Alloh taoloning bir hovuchi qancha ekanligini biz bilmaymiz...

Jannatga eng birinchi Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam kiradilar. Bu haqda shunday deyдилar:

Men jannatning eshigi oldiga boraman. Jannatning qorovuli Rizvon so'raydi: – «Sen kimsan?».

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytadilar:

– «Men Allohning sevgili quli, habibi, elchisi Muhammad Mustafo bo'laman».

U holda jannatning vazifali farishtasi Xozin:

– «Savol berganimning sababi shuki: Alloh bu eshikni sizdan oldin boshqaga ochmaslikka amr qilgan edi, shuning uchun so'radim. Marhamat, yo Rasululloh!», – deydi.

Jannatga kirishdan oldin maxshargohda har mo'min Payg'ambarimizning Livoul Hamdlari ostida yig'iladilar. Shuning uchun: «Ey Rabbim! Bizni Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamning hamd bayrog'i – Livoul Hamd ostida, Payg'ambarlar, siddiqlar, shahidlar, solihlar bilan birga tiriltir», – deb duo qilamiz.

Odam alayhissalomdan boshlab barcha payg'ambarlar Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning bayroqlari ostida yig'iladilar va to'g'ri jannatga kirib boradilar. Ular duxul-avvalin – deb ataladi. Duxul-avvalin birinchi bo'lib kirgan muboraklar degani. Jannatga birinchi bo'lib kiradiganlar – payg'ambarlar, lekin jannatning eshigi oldiga birinchi bo'lib kelgan va uning eshigini birinchi bo'lib ochgan kimsa sarvari anbiyo Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamdir.

Shundan keyin hisob-kitob qilinmasdan kiradiganlarga navbat keladi. Bular muborak shahidlar, avliyulloh, muqarrabing a o'xshash Alloh taoloni eng ko'p yaxshi ko'rgan qullari. Alloh taolo Qur'oni karimda: «Voqe'a» surasida bildirilgan mo'minlarni eng yuksak, sharaflil, Alloh qullarining tanlagan tabaqasi ekanliklaridan xabar beradi.

Bundan so'ng, hisob-kitob qilib jannatga kiradiganlar bor...

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hayotlik davrlarida o'nta sahoba, jumladan, «Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali jannatiydirlar», deb mujda berganlar. Masjidlarda, daftarlarga, dumaloq lavhalarga jannatliy bo'lgan kimsalarning ismlarini yozib, osib qo'yganlar. Demoqchimizki, hisob-kitobsiz jannatga kiradiganlarning boshida sahobalar, so'ng tobe'iymlar so'ng taba'a tobe'iymlar so'ngra keyin keladiganlar turishadi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam sahobalarining qanday yuksak darajada bo'lganligini bilamiz. Ya'ni sahobaning darajasiga birorta ham avliyo yetisha olmaydi. Ahli sunnat e'tiqodiga ko'ra, hatto, eng yuksak avliyoning darajasi sahobalarnikidan past turadi.

Chunki Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuryaptilarki: «Asrlarning eng xayrlisi, mening asrimdir, insonlari eng xayrlidir. Avval Payg'ambarimizni ko'rgan ashoblar, keyin ashobni ko'rgan tobeinmlar, so'ng tabaa tobeinmlar», ya'ni tobeinmlarni ko'rganlar, – deb bu uch naslning juda ham muborak ekanligini bayon qilganlar. Ulardan keyin esa hazrat Payg'ambarimiz ummatlaridan yolg'onchilar va johillar chiqishidan xabar berganlar. Darhaqiqat, Rasulullohni ko'rishning o'zi kifoya. Suhbatlariga erishmoq, sahobasi bo'lish inson sharafliligini yuksaltirib yuboradi.

Ashobdan ikki kishiga Hazrati Payg'ambarimizga qabrdoshligi bo'lishlik nasib qilgan, boshqasiga buyurilmagan. Birisi – Abu Bakr Siddiq hazratlari, ikkinchisi – Umarul Foruq hazratlari... Payg'ambarimizning qabrlari orqasida ularning ham qabrlari bor... Madinai munavvarada, Qubbai G'adroning yonida...

Shuning uchun ramazonda Allohning mag'firat etgan qullaridan bo'lish uchun jon-jahdimiz ila harakat qilamiz, bor kuchimiz bilan intilamiz! Chunki, Alloh bizni bir hisob qilsa, holimiz xarobdir. Mag'firat qilsa, qanday baxt!..

Hotami Asom hazratlari namozga turayotganlarida ro'parasida Ka'bai Musharrafa, oyoqlarining ostida Sirot ko'prigi, orqalarida Azroil alayhissalom turganday his qilar ekanlar. O'qiyotgan namozlarini eng so'nggi namozim, deb o'ylarkanlar. Qo'rquv bilan oxiratga rag'bat etib, ixlos ila «Allohu akbar», deya namozga turar ekanlar.

Biz ham shu ramazonimizni eng oxirgi ramazonimiz degan idrok bilan uni jonlantiraylik.

Robiya Adaviyya har sahar aytar ekanki: «Bugun sening eng so'nggi kuning, ibodatingni qilib qol!..»

Har kecha aytarkanki:

«Bu kecha sening eng so'nggi kechangdir, eng so'nggi kechasini inson qanday o'tqazsa, ana shunday ibodat qil!..»

Muborak zotlar ana shunday fikru idrok bilan harakat qilganlar, yolvorganlar va ixlos bilan ibodat qilib, yuksak maqomlarga yetishganlar. Biz esa ulardan ibrat olishimiz kerak. Biz ularning oyoqlari changiga ham arzimaymiz, ularning darajasiga erishmoq uchun ko'p g'ayrat qilishimiz kerak bo'ladi.

Alloh taolo buyuradiki, «Yo'l ozuqasini g'amla, chunki yo'l uzundir» deya.. Bu qanday yo'l?.. Mana shu hayotimiz, umrimiz.. Undan keyin oxirat, oxiratdagi Mahkamai Kubro. Undan so'ng mo'min qullarga oxirgi bekat bo'lgan jannat... Osiy, gunohkor qullarga esa jahannam...

Tabiiyki, jannatga kiradiganlarning darajalarini anglatgan edik. Hisobi ko'rilar ekan, savobi gunohdan g'olib kelganlar jannatga kiradilar. Ularning ham o'z darajalari bor... Qaysi biri yashin tezligida, bir ko'z yumib-ochgunga qadar Sirotdan o'tib oladilar. Qaysi biri yugurib o'tadi, kimdir yiqilib-qqilib o'tadi. Yugurib, emaklagan holda, yiqilib-qqilib Sirotdan o'tib, jannatga doxil bo'ladilar. Jannatga kirdimi, bu eng katta baxt!..

**«Bas, kim do'zaxdan chetlatilib, jannatga kiritilsa, muhaqqaq (baxt-saodatga) erishgay».** Endi u yerdagi ne'matlarning chegara va hisobi yo'qdir.

Mo'min bo'lgan holda, gunohlari tufayli azob chekkan kimsalar ham bo'ladi. Ham qabrda azob chekkan bo'ladilar, ham jahannamga tushib azoblanadilar.

Qabrdagi azobning ko'rinishi hadisi sharifda keladi. Mo'min banda qabrga qo'yar-qo'yilmas, azob malaklari olovdan qilingan cho'qmor bilan shunday qattiq uradilarki, sochilib ketadi. Azoblar chekib: «Yohu, men musulmonman! Nega meni bunday azoblayapsan? Nega meni urayapsan?..» deyishi bilan farishtalar: «Ha, sen albatta musulmonsan, ammo hayotligingda zolimlar bir mazlumga jabru jafo qilayotganlarida sen ularning oldidan o'tib ketding, ammo mazlumga yordam bermading. Bu ana shuning jazosidir!» – deydilar.

Yana bir hadisga ko'ra Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam ikki qabr yonidan o'tib ketayotgan bo'ladilar. Bu qabrlarda mo'minlar yotgan bo'ladi. Aytdilarki: «Bu ikki qabrdagi shaxslar azob chekayaptilar». Chunki hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam basirat ko'zi bilan qabrlarning ichini ko'rayotgan edilar. Hatto avliyullohning ham avliyolik martabalaridagi ilk darajalari kashful qulub va kashful quburdir. Ya'ni ko'ngildan o'tganini va qabrdagilarning ahvolini biladi.

«Qarang, bu ikki qabrdagi shaxs azoblanmoqda».

«Nima uchun?..»

«Birisi yolg'onni u yoqdan-bu yoqqa tashib, odamlar orasini buzardi. Buning yolg'onini unga, unikini esa bunga. Gap tashuvchi, deydilar buni. O'rtani buzuvchi, yolg'on

tashuvchidir, uning yolg'onini bunga yetkazadi, josusga o'xshaydi xuddi... U yerdan-bu yerga xabar yetkazadi, bu yerdan esa u yerga... Shuning uchun ham azob chekadi.

Ikkinchisi esa, kichik tahorat ushatayotganda, siydikdan ehtiyot bo'lmasdi», deyiladi ta'rifda... «Endi bularga yangi novda keltiring, deydilar. Yangi novdani ikkiga bo'ldilar. Birisini bir qabrning ustiga, ikkinchisini narigi qabrning ustiga sanchib qo'yadilar. «Endi bu tayoqlar quriguncha ular azob chekmaydilar».

Demak, bu hadisi sharifdan shuni tushunamizki, mo'min bo'lgani bilan yomon xulq va odatlari bo'lsa, qabrda azob chekadi.

Yashirin gunoh qilganlari uchun ba'zi insonlar jahannamning ilgaklariga ilib qo'yiladilar. Ba'zilar esa Mahkamayi Kubroda hisobi buzuq chiqqanligi uchun, gunohlari savobidan ko'p bo'lganligi uchun, gunohlarining jazosini tortmoq uchun jahannamga kiradilar.

Yana bir hadisga ko'ra, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sahobalardan so'rabdilar: «Muflis kimdir?»

«Tijorati o'lgan, do'koni talon-taroj bo'lgan, qo'lida biror narsasi qolmagan kishiga muflis derlar», – dedilar.

Aytdilarki:

«Asl muflis Mahkamayi Kubroga, tarozining boshiga tog'lar kabi savoblari bilan keladi. Namoz o'qigan, ro'za tutgan, sadaqa bergan, xayr-hasanot qilgan... Hisobi qilinayotganda o'zida haqqi va oladigani bo'lgan kimsalar qarshisiga keladilar:

«Yo Rabbii, bunda bizning haqqimiz bor, haqqimizni istaymiz», – deydilar va oladilar.

Butun savoblari ularga berilib, o'zida qolmaydi. Yana keladilar haq so'rovchilar:

«Yo Rabbii, bizning haqqimiz ham bor bunda! Savobi qolmadi-ku, nima bo'ladi endi?..»

«Siz gunohlaringizni tashlang!»

Savob olmagach, bu safar gunoh berish yo'li bilan haqlarini olgan bo'ladilar. Butun gunohlar u yerga to'kila boshlaydi. Hisobi tugaganda, mezonning boshiga tog'lar kabi savob bilan kelgan kishi oxirida tog'larday gunohlar bilan jahannamga uloqtiriladi».

Bundan chiqadigan xulosa shuki, oxiratda yoqamizga insonlar yopishadigan ahvolga tushmaslik uchun harakat qilishimiz lozim! Savoblarimizni oxiratda talon-taroj qildirmasligimiz uchun tirikligimizda har kimning haqqini berishligimiz lozim! Hech kimga azob, jabru zulm qilmaslikka harakat qilishimiz lozim!

Ba'zi mo'minlar hisobi to'g'ri bo'lmagani, gunohlar yiqqani uchun jahannamga kiradi va u yerda lov-lov yonadi. Hatto butlarga sig'inganlar ham ularni masxara qilarkanlar: «Qarang, musulmon bo'lishligingiz sizga foyda qilmadi. «La' ila'ha illalloh» dedingiz, ammo baribir jahannamda yonmoqdasiz», – deydilar.

Bir hadisi sharifda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytadilarki: «Ey mo'minlar, ey musulmonlar! O'zingizni jahannamdan asrang! Jahannamga tushmaslikka g'ayrat ko'rsating, ehtiyot bo'ling... Jahannamga bir tushsangiz u yerda ahqoban qolasiz».

Ahqoban so'zi Amma surasida keladi:

Ichishga narsa topolmaydilar. Guvullab ich-tashlari yonadi, azobga uchraydilar. U yerda

ahqoban qoladilar.

Ahqoban huqublar deganidir. Huqub 83 yil degani. Arabchada 83 ni huqub deydilar. Eng kamida uch huqub bo'ladilar. Ya'ni, uchta sakson uch ikki yuz ellik yil degani. Jahannamga bir kirgan eng kamida 250 yil azob chekadi. Hatto oyati karimada ham bu haqda marhamat qilingan.

Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

**«Alloh taoloning nazdida bir kun sizning bu dunyo vaqtiga ko'ra ming yildir».**

Ya'ni, oxiratda bir kun bu dunyomizdagi ming yilga teng ekan. Unday bo'lsa oxiratdagi bir yil 365 000 yil bo'ladi, 250 yil esa to'qson bir million ikki yuz ellik ming yilga to'g'ri keladi. Shuncha vaqt jahannamda qoladi degani.

Shuning uchun muhtaram birodarlarim, bu hadisi sharifan xulosamiz shuki, jahannamga tushmaslikka g'ayrat qilmog'imiz kerak! Chunki u yerga bir tushgan kishi millionlarcha sana azob chekadi...

Alloh taolo Qur'oni karimdagi ko'pgina oyati karimalarida bizga:

**«Ey imon keltirganlar, Allohdan qo'rqinglar!»** deb buyuradi. Va yoxud:

**«Odamlar va toshlar o'tin bo'ladigan do'zaxdan qo'rqing!».**

Osiyoda Tomas Irvin ismli kanadalik bir diplomat olim musulmon bo'lgan, Islom yuzasidan kitob yozadi. Musulmon bo'lganligini anglatar ekan, bir narsa mening diqqatimni tortadi. Tabiiyki, biz musulmonlikni ota-onadan ko'rdik; namozimizni o'qiymiz, o'rganamiz, ro'zamizni tutamiz... Ammo tashqaridan bir inson Islomga qanday qaramoqda, Islomning qaysi tomonini ma'qullamoqda? Bu – muhim.

Musulmon bo'lgan Tomas Irvin deydi: «Men xristian bir o'lkada tug'ildim, xristianlikni bilaman. 346 ta Osiyo dinlarini ham bilaman». Kimlar bor o'zi Osiyoda? Hindlar bor, xitoyliklar bor, laosliklar, taylandliklar, vetnamliklar... Bularning buddizm, braxmanizm, shintoizm kabi dinlari bor... «Bularning dinlarini o'rganib chiqdim, xristianlikni ham bilaman. Bu odamlarning dinlarini ko'rdim, ibodatlarini ham. Musulmonlikni ham ko'rdim».

Musulmonlikda ibodatlar nimalardir?.. Namoz o'qishlik bor, ro'za tutmoqlik, zakot berishlik, hajga bormoqlik, zikr qilishlik... Xayr-hasanot qilishlik bor... «Islomning butun amrlarini juda go'zal, juda mantiqli, ko'p foydali, nihoyatda hikmatli ekanligiga ishonch hosil qilganim, boshqa dinlarning esa ibodatlarini bo'm-bo'sh, maqsadsiz, foydasiz, g'oyasiz, zaruratsizligini ko'rganim uchun musulmon bo'ldim», – deydi...

Bizning fakultetimizda Abdulxoliq Bek degan bir professor bo'lardi. Avvaldan xalq ta'lim vazirligi vazifasida ishlagan. Olmoniyaga borganida diplomatik bir ziyofatda uning oldiga ichkilik qo'ymoqchi bo'ladilar.

U deydi:

«Ichkilik qo'ymang!..»

«Nechun taqsirim?»

U faylasuf bo'lganligi uchun, shunday javob berdim, deb tushuntiradi:  
«Allohning ichkilik sanalmish turlaridan juda ko'plab halollari borki, u halollarni tashlab, haromga qo'l uzatishga hojat yo'q!»

Bir latifada aytadilar: Oldingi davrda shaharlarda ichkilik ta'qiqlangan ekan. Kechki yo'lovchilar karvon bilan ketayotgan ekanlar. Dasturxon yozibdilar, ichkilik bilan yeyish uchun gazak qo'yibdilar. Tuyakash dasturxonga qarab, ishtahasi ochilib, nafsini jilovlay olmay: «Boylar, ulug' kishilar dasturxon yozganlar. Kim biladi, qaymoq bordir, asal bordir, shirinliklar bordir, shaharliklarning ovqatlari bordir..», – deya xayolidan o'tkazayotsa, «Kel!» deb, uni ham taklif qilishibdi.

U ovqatlardan totib ko'ribdi. Bir qadah aroq ichibdi. Og'zidan ichaklarigacha olovdek lov-lov yonibdi. Ko'zlaridan-da o't chiqib ketibdi. O'qchibdi, aksiribdi. Ko'zdan yoshlar oqibdi. Keyin odamlarga achingan ko'yi boqib: «Og'aynilar, siz buni hukumat kuchi bilan ichasizmi?» – debdi. Ya'ni hukumat zo'rlayaptimi, bu chirkin, iflos, achchiq, sog'liqqa zararli, jigarni xarob qiluvchi, oshqozonni shiluvchi narsani ichayaptilar?.. Qonuniy majburiyat bormi, tepangizda askar qarab turibdimi?..

Sigaret ham shunday. Orangizda qanchalab sigaret chekkanlar bordir. Sigaretaning ham foydasi yo'q! Tutunini yel olur, pulini el olur, sizga esa dard qolur... Zahar tarqatadi, kasallik va rohatsizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun halollar bor ekan, halollardan foydalanish kerak, azizlar...

Buni qarangi, Ramazon oyida ehtiyojimiz bo'lgani holda Allohning halol qilgan narsalaridan ham tiyilamiz. Ehtiyojimiz bo'lmagan, nomini tilga olib bo'lmaydigan haromlarga esa aslo qo'l uzatmaymiz. O'zimizni tutishni o'rganamiz. Bir oy taqvo darsini olgan bo'lamiz. Ro'zaning hikmatlaridan biri: Alloh insonlarga jahannamdan ehtiyot bo'lishni, saqlanishni amr etdi, jahannamdan saqlanish uchun inson o'z orzu-havaslarini jilovlashi lozim! Buning uchun esa irodani tarbiyalash kerak.

Milliy ta'lim-tarbiya tizimimizning eng katta nuqsonlaridan biri – ilm o'rgatadilar, lekin axloq-odob o'rgatmaydilar. Vijdon darsi yo'q, axloq darsi yo'q; faqat ilm o'rgatadilar, xolos. Holbuki, axloq darsi hammasidan ko'ra muhimroq... Inson ilmsiz bo'lishi mumkin, ammo go'zal axloqli bo'lsa, ko'p foydali bo'ladi.

Islomning ilk davrlarida, Hazrati Umar xalifa ekan, Makkayi mukarramaga yo'l oladi. Yoniga birodarlaridan (do'stlaridan) birini olgan; askar yo'q, tantana yo'q, oddiy bir yo'lovchi kabi Makkaga qarab ketayaptilar. Charchab, bir yerga o'tiradilar. U yerda bir cho'pon qo'ylarini o'tlatib yurgan bo'ladi. Hazrati Umar cho'ponni chaqirib: «Shu qo'ylaringdan bittasini bizga sot!» – deydilar.

Bola qarshisidagi kishining kimligini bilmaydi, aytadiki:  
«Qo'ylar meniki emas... Men oddiy bir cho'ponman, egasi emasman, sotolmayman!».  
«Sotaver, bo'ri yedi deysan, nima bo'lardi?..»

Shunda cho'pon bola:  
«Xo'p, qo'ylarning egasini ham alday oldik, deylik, Allohni ham alday olamizmi?..», – deydi.



Bu nimani ko'rsatadi? Hazrati Umar zamonida tog'dagi oddiy bir cho'pon ham soppa-sog'lom axloq egasi bo'lgan... Shuning uchun haqiqiy mo'min soxtakorlik qilolmaydi, muttahamlik, yolg'onchilik qilolmaydi.

Hazrati Umar kechalarning birida Madinaning ko'chalarida kezib yurarkan, bir uydan ovoz keladi. Bir ayol qiziga:

«Qizim, soqqan sutingning ichiga bir oz suv qo'shib yubor!» – deydi.

Hazrati Umar devor ortidan ketayotgan edi, ammo ovoz eshitilib turardi.

Qizi e'tiroz bildiradi:

«Onajon! Hazrati Umar: «Sutlaringizga suv aralashtirmang, xolis soting!» – deb aytmadimi?»

«Hazrati Umar qaerdan ham bilardi? Qo'shaver!» deydi.

«Hazrati Umar bilmaydi, ammo Alloh ham bilmaydimi, onajon?..»

Qarang, yosh qiz nimalar deyapti, tog'dagi cho'pon ham nimalar dedi!.. Bu axloq darsidir. Nima bo'libdi o'zi? Islomning xamirturishi pishib, undan xalq musulmon bo'lib yetilibdi; Alloh qo'rquviga, taqvoga ega bo'libdi. Zo'rlasa ham gunohni qilmayapti: sutga suv qo'shmayapti, qo'yini sotmayapti...

Hozir-chi? Hozir ham shunday bilim bor, ammo davlat rahbarlari shikoyat qiladilar: «Porani yo'qota olmayapmiz!» deb. Chunki olgan ham rozi, bergan ham rozi...

Bu yerda milliy ta'limning eng katta xatosi yuzaga chiqdi. Ha, albatta, muhandis yetishtirdik, doktor yetishtirdik, ziyolilarni yetishtirib chiqardik, ko'ring, hammasini yetishtirdik, ammo ilm o'rgatdigu, axloq-odob o'rgatmadik. Shuning uchun porani yo'qotib bo'lmayapti, mafiyalar hukmron, suiste'molchiliklar bo'lmoqda... Har kun ro'znomalarda ming xil razolatni o'qiyamiz.

Shuning uchun axloq ta'limiga, taqvo tarbiyasiga, ruh darsiga ahamiyat bermoq lozim! Bilasizki, inson vujudida nafs bor. Bu nafs asos-e'tibori bilan insonga fikr-tuyg'ular bag'ishlaydi, turli xil orzu-istaklarni vasvasa qiladi. Nafsning istaklari bu – quvvatli orzular degani. Ya'ni inson bolasini nafs istaklari sudraydi. Inson bularga berildimi, haromlarga botadi:

**«Nafs – agar Parvardigorimning O'zi rahm qilmasa – albatta barcha yomonliklarga buyurguvchidir»**. Ko'p kimsalar nafsning orzulariga ergashib, gunoh qiladilar, gunohlarga botadilar. Bu gunohlarga botishi bilan, mo'min bo'lsa-da, jahannamga boradi, millionlarcha yil azob chekadi. Shunday ekan shahvati nafsoniyaga ergashmaslik lozim! Havoyi nafsga qarshi turmoq kerak. Insonning vujudi bir o'lka bo'lsa, bu o'lkani aql boshqarishi kerak!.. Imonli aql, Qur'onga tayangan, dinga tayangan bir aql boshqarishi lozim!..

Agar aql emas, insonning ichidagi nafsni ammorasi insonni boshqarsa;

**«Darhaqiqat uni (ya'ni o'z nafsini-jonini imon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topdi. Va u (jonni fisq-fujur bilan) ko'mib xorlagan kimsa nomurod bo'ldi»**. Nafsini tarbiya qilishlik lozim!.. Mana shu nafsning tarbiyasi va nafsga taqvoni o'rgatishlik ro'za oyida amalga oshadi. Islomning besh buyuk farzidan uchtasi qilinadi: Chunonchi, kalimayi shahodat ramazonda bor... Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam

buyuradilar:

«Ramazonda 4 narsani ko'p-ko'p ado qiling:

1. Kalimai shahodat – ashhadu an la' ila'ha illallohni ko'p ayting!
2. Astag'firullohni ko'p ayting! Bu – «Yo Rabbii, meni mag'firat ayla, ayblarimni, gunohlarimni o'chirgin» degani.
3. Allohdan jannatni istang!..
4. Jahannamdan saqlashini so'rab Allohga sig'ining!..»

Demak, ramazon – bu kalimai shahodat, namoz, ro'za, zakot va hokazo ibodatlarni o'zida mujassamlantirgan muborak bir ta'lim oyidir. Bu oyda irodamizni kuchaytirib, vujud mamlakatimizga Allohga ishonib, tayangan, Qur'onga bog'langan, imonli aqlni sulton qilamiz.

Xo'sh, nafsi ammorasiga qul bo'lganlar nima qiladilar? Namoz o'qimaydilar, sigaret tutatadilar, ko'chalarda taom yeb, ichkiliklarini ham ichib yuraveradilar. Aslo uyalmaydilar, siqilmaydilar ham.

Qadimda g'ayrimuslimlar ramazonni bilganlari uchun: «Bu oyda musulmonlarning ro'za oyi, tashqarida non yemanglar!» – deb bolalarini chaqirib olar ekanlar.

Hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida buyuradilarki: «Ramazon oyining ajridan, barakatidan foydalana olmagan inson shaqiydir», – deydilar. Shaqiy do'zaxiy degani... Shaqiy u kimsadirki, ramazon keladi, o'tadi, lekin ramazonning xayriga noil bo'lmaydi, mahrum qoldiriladi Alloh tarafidan.

Bilasizki baroat kechasida maxsus duo o'qiladi. Alloh bu vaqtda taqdirni belgilaydi, deya duo qilamiz: «Yo Rabbii, agar mening ismimni shaqiylar (badbaxtlar) daftariga yozgan bo'lsang, shu muborak baroat kechasida mening otimni u badbaxtlar daftaridan o'chir; ismimni saidlar (xushbaxt, jannatiylar) daftariga yoz, yo Rabbii!.. Agar mening otimni saidlar daftariga qayd etgan bo'lsang, ey, bor Xudoyo, ismimni u yerda sobit qil, joylashtir, menga yordam qil!..», – deb duo qilamiz, said bo'lishni orzu qilamiz, oxiratda jannatga kirib, abadiy saodatga erishmoqni istaymiz.

Bu eng ulug' bir baxtki, hammaga ham nasib qilmaydi. Bu ne'matning qiymatini, qadrini biling!.. Atrofingizdagi qo'shnilaringizdan, do'stu birodarlaringizdan, tanishlaringizdan, harbiy xizmatdagi do'stlaringizdan tortib yo'ldagi, mahalla-ko'y, maktabdagi o'rtoqlaringiz, do'kondagi do'stlaringiz kim bo'lmasin, barchasini o'z vaqtida ogohlantiring, to'g'ri yo'lga boshlang. Bu oyning xayru barakatidan mahrum qolmasinlar!..

Talabalik davrimda fakultetimizda bir domla bo'lardi. Ilohiyot fakultetida ham bir guruh domlalar bor edi. Ular Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamga «Muhammad» deyishardi. «Muhammad keldi, Muhammad ketdi...» Bu qanday odobsizlik?! Nima, Muhammad sening askarlikdagi do'stingmi?.. Axir u zot Allohning eng suyuqli quli!.. Habibi, Allohning sevgilisi, rasuli...

Sen: «Falonchi keldi, Falonchi ketdi», deya olasanmi jumhuriyat raisiga?.. «Muhtaram jumhuriyat raisi!» deyiladi; «Muhtaram bosh vazir, muhtaram vazirim, hurmatli

mudir...» – deyiladi, hurmat ko'rsatiladi. «Muhammad» deyishga nima haqqing bor? G'ayrimuslimlar buni tushunib, Ya Abul Qosim, «Ey Qosimning otasi!» der edilar. Aslzodalarga kunyasi bilan murojat qilinardi, ismi bilan chaqirilmas edi.

Otangning ismi Ahmad bo'lsa, sen otangga «Ahmad kel!» deya olasanmi? Bir shapaloq tushirar otang senga. Otasiga «Muhtaram otajonim!» deydi inson, ismi bilan xitob qilmaydi.

Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning ismi tilga olinishi bilan biz unga ishq va shavq bilan salotu salom keltiramiz. Chunki dinimizning eng muhim asoslaridan biri Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni sevmuqlikdir. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hazratlari qasam ila aytadilar:

«Jonim qo'lida bo'lgan Allohga qasam ichib aytamanki, sizdan hech biringiz haqiqiy mo'min bo'la olmassiz; toki meni otasidan-da, farzandidan-da, barcha insonlardan-da ortiq sevmaguningizcha!»

Mo'minning vazifasi va haqiqiy mo'min bo'lishlikning sharti Rasulullohni hammadan ortiq sevishlikdir. Ashobi kirom «Onam-otam, jonim sizga fido bo'lsin, ey Rasululloh!» der edilar.

Shuning uchun «Muhammad» deyishlari bilan jonimiz og'zimizga keladi. Sevganimiz, boshimizning toji, ko'zimizning nuri Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam deymiz, sevgi va hurmat ko'rsatamiz.

Men 1981 yil o'n besh kishilik bir hay'at a'zosi sifatida Eronga bordim. Inqilob qutlovi tantanalarida qatnashdik. Bizni eng katta mehmonxonalarda mehmon qildilar. Inqilob himoyachilari, oldinda mashinalar, orqada mashinalar; marosim rasmiga ko'ra yig'ilishlarda bo'ldim. Bu vaqtda Humayniy ma'naviy peshvo edi. Ishoningki, har doim «Imom Humayniy» deyilganda, salondagi har bir kishi oyoqqa turib: «Allohumma solli a'la Muhamadin va a'la Muhammad», – der edilar. Bir gapdan keyin yana «Imom Humayniy» deyilsa, yana har kim o'rnidan turib «Allohuma solli a'la Muhamadin va a'la Muhammad», – derdi. Ya'ni shunday hurmat ko'rsatardilar.

Biz esa nima qilamiz? Biz ham Hazrati Payg'ambarning ismi tilga olindimi, sevgidan jo'shib salot va salom keltiramiz. «Bu ishni qilmagan bir insonga la'natlar bo'lsin! Burni yerda ishqalansin!» – deydi Jabroil alayhissalom. Bu – birinchisi.

Ikkinchi: ona-otamizga yaxshi farzand bo'lamiz, duosini olamiz, roziligini qozonamiz. Qo'lini o'pamiz, hadya beramiz, xohlagan joyiga olib boramiz «Biror xizmat bormi?» – deymiz. Ertalabdan oldilariga bir kirib chiqamiz, kechqurun yana bir kirib xabar olamiz.

Rahmatli onam aytar edilar: «Bolam, bir kun kelib uylanib, bola-chaqali bo'lasiz, holi-ahvolimizni o'zingiz so'rang, birovning qiziga tashlab qo'ymang!» – derdilar. Fikr bilan tushuntiradilar: Bir odam shaharga bozorga tushmoqchi bo'libdi, xotiniga aytibdiki: «Onam biror narsa istarmikan, bir so'ra-chi!»

Kelin ham boradi:

«O'g'lingiz bozorga bormoqchi, ona, dur-munchoq xohlaysizmi?» -deydi.

Onaning jahli chiqib:

«Xohlamayman!» – deb baqirib beradi.

Qariyalar munchoqni nima qiladi? Keyin kelin keladi-da:

«Ana, eshitgandirsiz, xohlamayman, dedi. Vag'ir-vug'ur baqiradi, senga jahli chiqdi», – deydi, fasodlik chiqaradi. Unday bo'lmang.

«Siz o'zingiz kelib so'rang holimizni!», – deya o'rgatardilar rahmatli onamiz.

Ana shunday. Boshqasiga havola etmaysan. Erta bilan kirasan, «Otajonim!» deb qo'lini o'pasan. Kechqurun yana qo'lini o'pasan. Qorovulni jo'natib, «Ehtiyoji bo'lsa olaver!» demaysan, o'zing olasan! O'zing tanlaysan, o'zing keltirasan! U bo'lsa deydi-ki: «Alloh rozi bo'lsin mening shu bolamdan... Olgani oltin bo'lsin! Ikki jahonda aziz bo'lsin! Alloh jannatiyu jamoli ila musharraf aylasin...» Tamom.

Jannat onalarning oyog'i ostidadir. Onasiga, otasiga yetishdimi, duosini oldimi, Alloh qabul etadi, jannatga kiradi. Bu fursatni qo'ldan boy berdimi, burnini yerga surtadi. Surtsin, jannatni bo'lolmagandan keyin surtsin, la'natlar bo'lsin!

Onamiz, otamiz sog' bo'lsa, hurmat qiling, jannatni qozonishni biling...

Uchinchi esa, biz ichida bo'lgan oyga taalluqli. Ramazon kelib, o'tib ketsa-da undan foyda ololmagan insonlardan bo'lmaslikka g'ayrat qiling, ko'p diqqat qiling! Ramazonni jiddiy qabul qiling!.. Ko'p harakat qiling, ko'p yolvoring! Ko'p namoz o'qing, ko'p duo qiling, ko'p Qur'on o'qing, ko'plab sadaqa qiling! Nima qilib bo'lsa-da, ramazonda mujdani oling, Allohning mag'firat etgan, jahannamdan ozod etgan qullaridan bo'ling!..

Mening talabalarimdan biri guruh boshlig'i bo'lib Hijozga ketdi. Qaytishi bilan uyiga kelib, kaminani ziyorat etdi:

«Ustoz, bizni guruh boshlig'i qildilar. Yettita avtobus bor edi qo'limizda. Quruqlikdagi yo'l bilan hajga olib bordik va qaytdik», – dedi.

«Hojilarning ahvoli qanday?» – dedim.

«Xojam, afsuski, millatimiz johil! Kechqurunlari bir-birlariga olgan narsalarini ko'rsatadilar. Sen buni necha riyolga olding? Qaerdan olding?.. Haramning nechta minorasi bor, nechta eshigi bor?.. Bilmadim, nima bo'ldi... Bo'lmaydigan narsalar bilan mashg'ul bo'ldilar», – dedi.

Evoh, hajga borgan odam ham vaqtini bozorda, chorsuda o'tkazadimi?.. Umrida bir marta borish nasib qilgan joy bo'lsa... Tashlagan bir qadami uchun yetti yuz Makka hasanasi savob beriladi. Makkada qilgan ibodatlarini yuz ming misli... Inson vaqtini shunaqa ham behuda o'tkazadimi?.. Bor, Hazrati Sharifda Qur'on o'qi, namoz o'qi, xayr qil, hasanot qil...

«Shunday uxladilar, g'aflatda vaqt o'tkazdilar... Yolg'iz bir donagina oshiq inson bor edi guruhimizda», – dedi. Madinaga borishimiz bilan avtobusdan tushishini ko'rsangiz edi! Avtobusdan tushiboq yerlarni o'pdi, yig'lar edi.

Hajni juda go'zal o'tkazdi. Ibodatini go'zal qildi, hech kimni ranjitmadi. Xayr-hasanotini ham go'zal qildi. So'ngra Madinai munavvaraga keldik», – dedi.

Qarang, muhtaram birodarlarim: tush ko'radi bu oshiq... Tushida Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hazratimizni ko'radi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hazratlari: «Farzandim, hajing qabul bo'ldi. Qog'oz-qalam keltir, bu hajingning qabul bo'lganligini bir qog'ozga yozib, imzolab berayin!» – demishlar tushida...

U ham ichkaridagi xonaga kirib ketibdi; qog'oz qidirarmish, qalam qidirarmish, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga qog'oz olib borib berayin, deb... Qog'oz, qalamni topib, olib kelibdi. Qarasa, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam o'tirgan joyda shayxi o'tiribdi. Tabiiy, buning ma'nosi shuki: shayxi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning haqiqiy vorisi, degani...

Inson hajni tugatgunga qadar bu qadar iltifotga erishmog'i naqadar go'zal emasmi?.. Hajing qabul bo'ldi, farzandim! Keltir, qog'ozga buni yozib, imzolab berayin!» – deyaptilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam tushda... Qanday baxt?.. Bu voqea meni juda ham ta'sirlantirdi.

Shuning uchun aziz va muhtaram birodarlarim!.. Shu muborak kunlarda duo qilaylikki, Alloh tushlarimizda bizga ham Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni ko'rsatsin. «Ramazoning qabul bo'ldi, farzandim», – deya Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning iltifotini Alloh barchamizga nasib aylasin!

«Subha'naka la' ilma lana' illa' ma' allamtana' innaka antal ali'mul haki'm». Subha'na rabbika rabbil izzati amma' yasifu'n va sala'mun alal mursali'n val hamdu lilla'hi rabbil a'lamiyn», al-fotiha!..

13 fevral 1995/13 Ramazon 1415

## **RAMAZON ORTIDAN**

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beadam, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!.*

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu aziz va muhtaram birodarlarim!.. Barchangizga Alloh taolo hazratlarining salomi, rahmati, barokati, lutfi, ehsoni, ikromi bo'lsin! Alloh taolo ramazondan ayrilganimizdan keyin bayramga yetishgan shu kunimizda hammamizni mag'furin guruhiga doxil aylasin... Bizlarni ham rahmatiga erishgan baxtiyorlarning qatoriga qo'shsin...

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hazratlari ramazon oyini madh etib, bir hadisi shariflarida marhamat qilganlaridek, bu shunday bir muborak, barakot va xayr oyidirki, Alloh taolo hazratlari bu oyda rahmatini tushiradi, bandalarining xatolarini, gunohlarini avf etadi, duolarini qabul qiladi. Qullarining ibodatlaridagi musobaqasiga, g'ayratiga

boqib, malaklariga: «Qarang, mening qullarim ibodat va toatda ilgarilab, qanday g'ayrat ko'rsatayaptilar!» deya faxrlanadi. Bu oyda shu qadar rahmat eshiklari ochilar, malaklar qullarga tavba va istig'for aytar, shaytonlar bog'lanar, shu qadar xayr imkonlari bor ekan, ulardan foydalana olmagan kimsa haqiqatdan shaqiydir, qaroqchilardandir. Ya'ni asl qaroqchi u kimsadirki, bu oyning xayru barakatidan foydalana olmaganidir.

Alloh taolo bizni ular toifasidan etmasin... Balki bu oyning rahmati va mag'firatidan barchamizni hissamandu hissador aylasin!..

Ming oydan afzal bo'lgan xayrli bir kecha o'rin olgan Ramazon oyini o'tkazdik. Ro'zalar tutdik, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida ro'zani shunday madh etadilar:

Ya'ni, «Tongni ro'zador holda kutib olgan biror banda yo'qdirki, unga samo eshiklari ochilmasin!» Alloh taolo uning uchun o'rtadagi ma'naviy to'siqlarni ko'taradi. Duolarning ko'kka ko'tarilishi uchun to'siq bo'luvchi sabablar bordir, osmonning darvozalari bor; u yerdan o'tolmaydi. Ammo Alloh taolo hazratlari osmon darvozalarini u ro'zador uchun ochadi.

«Ro'zadorning butun a'zosi tasbeh aytadi va u ajrni qozonur. Oqshom tushib, quyosh botgunga qadar ko'kdagi mavjudotlarning hammasi, osmon ahli ro'zador uchun tavba va istig'for aytar. Ro'zador ikki rakat namoz o'qisa, uning uchun osmon nur sochadi. Uning uchun jannat hurlari: Yo Rabbi, uni bizga nasib et! Kelsin bizga... «Biz u ro'zadorning diydoriga mushtoqmiz», – deydilar.

Agar «La' ila'ha illalloh», – desa, «Subha'nalloh», – desa, «Allohu akbar», – desa, uning huzuriga yetmish ming malak tashrif buyuradi va uning savobini quyosh botgungacha yozib turadilar». Biz ana shunday muborak oyni o'tkazdik. Bu hadisi sharifni Hazrati Oisha roziyallohu anho validamiz naql etganlar.

Dinimizning tayanchi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga muhabbat asosida qurilgandir. Hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamni sevmasdan, uning sunnatiga ergashmasdan insonning biron martabaga erishishi, ma'lum bosqichga ko'tarilishi mumkin emas. Tasavvufdagi ilgarilash ham shunga o'xshash bo'lib, shayxiga muhabbat orqali bo'ladi.

Alloh taoloning rahmati shu qadar keng bo'lmasa, bu qadar gunoh, qusur, qabohatlari bilan insonning jannatga kirishi mumkin bo'larmidi!.. Shu qadar avf ettiruvchi narsalar bo'lgani uchun inson ular sabab jannatning jamoliga erishadi.

Bir boshqa hadisi sharifda Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hazratlari buyuradilarki:

«Kim haj yoki umra qilsa va o'sha yilda o'lsa, jannatga kiradi». Chunki hajga bordi, umraga bordi, poklandi, tozalandi. O'sha yilda o'lsa, jannatga kiradi.

«Kim G'azotga, jihodga ketsa va o'sha yilda o'lsa, jannatga kiradi».

«Kim ramazon ro'zasini tutsa-da, o'lsa, jannatga kiradi».

«Kim ramazon ro'zasini tutsa, ramazon ro'zasining haqqini berib, ta'qiqlariga tajovuz etmasa, oyoq bosmasa va ro'zador holida saqlanishi kerak bo'lgan narsalardan saqlansa, eski gunohlari avf etilur».

Demak, ro'zador ro'zaning shartlariga, ahkomlariga rioya etadi. U ahkom nimalar ekan? Hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki:

«Besh narsa ro'zadorning ro'zasini xuddi ovqat yeb, ro'zasini buzgan kabi buzadi va savobini ketkazadi:

1. **Yolg'on.** Yolg'on gapirdimi, savobi ketdi.
2. **G'iybat.** Haqiqatan haqli bir qusuri bo'lsa-da, bironing orqasidan gapirsa.
3. **So'z tashimoq.** uning so'zini bunga, bunikini unga borib aytishlik, buzg'unchiga o'xshab o'rtalarini buzmoq.
4. **Shahvat ila nomahramga boqmoq.**
5. **Yolg'onga qasam ichmoq».**

Odamlar, odatlanib qolgan, eng kichik narsalar uchun ham «Xudo haqqi, Xudo ko'rib turibdi...» – deya qasam ichaveradilar. Holbuki, bu ro'zaning savobini ketkazadi.

Ro'za tutgan kimsa nafsiga hokim bo'lishi, axloqini chiroyli qilishi, tilini behuda so'zlardan tiyishi kerak. Bu shartlarga rioya qilgan taqdirda, ro'za tufayli uning eski gunohlari avf etiladi, rahmati ilohiyyaga, mag'firati Rahmonga erishtiradi.

Ramazon oyining oxirgi o'n kunida ming oydan ko'ra xayrli bir kechening – Qadr kechasining borligi hadislarda bildiriladi. Aniq vaqti sir tutiladi, ammo «So'nggi o'n kundan izlang!» – deganlar Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hazratlari. O'zlari ham bizga namuna bo'lsin deb ramazonning so'nggi o'n kunini masjidida o'tkazadilar. Toat-ibodat qiladilar. Chunki hadisi sharifda keladiki «Bir banda masjidida namoz vaqtini kutarkan, kutgan vaqti ibodat qilgandek qabul etiladi. Demak, e'tikofga kirgan inson namoz o'qimasa ham, uxlasa yoki tasbeh o'girsas, Qur'on o'qisa, ibodat bilan mashg'ul bo'lsa, masjidida bo'lgani uchun ulug' ajrlarga erishadi. Shuning uchun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki:

«Ramazonning so'nggi o'n kunida e'tikofga kirganlarga ikki haj va ikki umra savobi beriladi», – deya marhamat etadilar Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam yuqoridagi hadisi sharifda. Alloh qodir, xohlasa beradi. Bunga shubha yo'q!

Qanday baxt Allohning yo'lida yurganlarga, ana shunday ibodatlarni o'rniga qo'yib, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning sunnatiga tobe' bo'lganlarga!..

Shunday qilib, ramazon tugadi, iyd bayramining birinchi kunidamiz. Bir oz o'tgach, bayram namozini o'qiyamiz. Bu yog'i endi shavvol oyi. Bu xususda hadisi shariflar rivoyat etiladi. Yuqoridagi hadisda aytilmoqdaki: «Shavvol oyida kim olti kun ro'za tutsa, yil bo'yi iftor qilmasdan ro'za tutgan kabi bo'lur». Ketma-ket ham, ayri-ayri ham bo'laveradi; ya'ni ketma-ket tutish majburiyati yo'q. Bugun mustasno, Chunki hayitning ilk kuni ro'za tutish ta'qiqlangan. Bayram qilamiz, quvonchli kunlar bugun. Keyin tutiladi.

Ramazon o'ttiz kun. Ro'za tutilgan bir kunga o'nta savob beriladi. Shunga ko'ra savobi

300 kun... Oltitasi esa bu oydan, u ham oltimish kun... Demakki, 360 kun, butun yilni ro'zador holda o'tkazgandek ajr qozonadi inson... Inshoalloh, bu shavvol oyining ham ro'zasini tutamiz!..

Bu xususda Ahmad Ibni Hanbal hazratlarining kitoblarida, Muslimning mashhur sahih kitoblarida, Abu Dovudda, Nasoiyda, Termiziyda, Ibni Mojada, Ibni Hibbonda hadislar naql etiladi... Bu hadisning roviysi boshimizning toji Abu Ayyub al-Ansoriy hazratlaridir.

Bu qadar sog'lom hadis manbalarida zikr etilgan bu ro'zani tuting!..

**«Bas, (Ey Muhammad), qachon siz (kishilarni haq yo'lga da'vat qilishdan) forig' bo'lsangiz (o'rningizdan) turing. Va yolg'iz Parvardigoringizga yuzingizni buring!».**

Inson dam olganidan keyin qaytadan jonlanadi, kuchga to'ladi. Chunki ichida muhabbat bor, sevgi bor; uni bo'sh qo'ymaydi turgan joyida...

Demak, ramazon tugadi, endi shavvol ro'zasini tutamiz. Keyingi ramazonni shavq bilan kutamiz. Inshoalloh, Alloh u ramazonga muhabbatimizdan, shavqimizdan, orzumizdan, bu ro'zaga bo'lgan muhabbatimizdan butun yilimizni ham ro'zador kabi maqbul sanasin. Modomiki, jome'da namozni kutayotgan insonga, namozdagi kabi savob berilarkan, ramazonni sevganga ham butun yil bo'yi ro'zador bo'lganlik kabi Alloh ajr beradi.

Muhtaram birodarlarim!.. Biz mana shunday bir muborak, qadru qiymatli bir oyni kechirdik. Tabiiyki, inson Ramazon tugashi bilan nima qilishini bilmay shoshib qoladi. Men shaxsan shu ko'ygga tushdim: ramazonning ketgani uchun yig'lasammi, iyd bayramining kelganiga sevinsammi? Chunki, Alloh taolo hazratlari iyd bayramini tayin etgan. Ramazon ketadi, ammo Alloh yana necha-necha ramazonlarga sog'-salomat yetkazsin... Ramazonda erishganimiz go'zal sifatlarni bundan keyingi kunlarda asrash biz uchun eng muhim ishdir.

Xo'sh, ramazonda qanday edik? Birinchidan, shirin uyqudan voz kechib sahar likka turardik. Endi bundan keyin ham aynan o'sha sahar vaqtida yana turamiz, ikki rak'at namoz o'qiymiz, undan keyin yana yotamiz!.. Sahar vaqti – duolar qabul bo'ladigan paytdir. Alloh taolo dunyoga nuzul aylab, qullariga o'zini da'vat qilib, xitob etib: «Ey qullarim! Mendan biron narsa tilasangiz, so'raganingizni beraman!» – deydigan vaqtdir. «Duo qilgan yo'qmi, duosini ijobat qilaman!» – deydigan paytdir. «Mag'firat istagan yo'qmi, mag'firat etaman!» – deydigan palladir.

Ramazonda bir oy saharlikka turib ko'nikdingiz. Qani endi bu bir oylik odatingizni ko'raylikchi, bundan keyin ham sahar vaqtida chiroqlaringiz yoniq turarmikan!

Ikkinchisi: Ro'za tutdik. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning tavsiyalari bor edi ro'zada; yaqinda ozgina o'qidik: g'iybat qilmaymiz, haromga boqmaymiz, yolg'on qasam ichmaymiz... Hatto bittasi kelib bizga baqirsa, turtsa, janjal ko'tarib baqirsa ham o'zimizni bosamiz. Siz mashinadasiz, siz haydayotgan mashinaga baqiryapti... Axir, Allohning odobli va odobsiz har xil qullari bor, katta shahar ... Dunyoda har turli insonlar bor... Ro'zador nima deyishi kerak: «Men ro'zadorman!.. Men ro'zadorman!..» deydi, ya'ni unga bas kelmaydi.



«Hali senmisan menga tegishayotgan? Mening sendan kam joyim yo'q; sen menga yopishasan, men ham sendan ustun kelaman!» – deya oladi, ammo Payg'ambar hazratimiz sallallohu alayhi vasallam unday deyishni to'g'ri hisoblamaganlar. Hatto birortasi kelib, unga kufr so'z aytsa, haqoratlasa, borib turib, turtisa, «Tavba, yo Rabbi!.. Men senga teng kelmayman, men ro'zadorman, men ro'zadorman!..» – deydi. Bu qiyin bir narsadir. «Alloh taologa ibodat holida bo'lganim uchun senga teng kelmayman, sening so'zingga qarshi turmayman, sen bilan janjallashmayman!» – deydi, o'zini tutadi... Ramazondan keyin ham bu go'zal holni davom ettiramiz.

Ramazonda sigaretni tashladik, ramazondan keyin ham chekmaymiz. Ramazonda birortasi bizga g'azablansa «Fasubhonalloh... La ilaha illalloh... La havla vala quvvata illa billah...», – dedik va unga teng kelmadik, sabr qildik, o'zimizni tutdik; bu go'zal holni ramazondan keyin ham saqlab qolish eng muhim ishimiz bo'ladi bizning... Shu kundan e'tiboran eng muhim ishimiz!..

Ramazon o'tdi, ibodat tugadi, degani emas. «Ramazonda ibodat qildik; ramazon ketdi, endi tamom... To'ppa-to'g'ri dala hovliga, plyajga, kayfu safoga, ko'ngil ochishga... Ramazonda qilolmaganimiz ta'qiqlangan butun ishlar yig'ilib qoldi, endi ularni qilishga chopamiz!» – deb o'ylagan odamning ramazonini Alloh qabul etmagandir. Bu Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning hadisi shariflari ila sobitdir. Chunki ramazon ibodatlari qabul bo'lishi, insonning ramazondagi go'zal holatining ramazondan keyin ham davom etishida ko'rinadi. Demak, Ramazondagi holimizni davom ettirishlik – e'tibor bermog'imiz lozim bo'lgan eng muhim ish bo'ladi.

Oldimizda ta'til bor. Endi ramazondan keyin har kim qishloqqa ketadi yoki qarindoshinikiga, kattalarini ziyorat qilgani ketadi; maktab ham ta'til bo'lgani uchun bir-ikki oyga qoladi. Shunday ekan, bu go'zal ta'tilda fursatdan foydalanib, bu ramazonda o'rgangan narsalarimizni va ramazonda olganimizni yosh bolalarimizga ham o'rgatamiz. Chunki ramazonda dinimizga bog'liqligimiz ortdi, ko'nglimiz yorishdi, tozalandi.

Shunday qilib bolalarning, nevaralarning orasida bo'lamiz; bolalarimizning tarbiyaga ko'p ehtiyoji bor, kamchiliklari bisyor. Men bandman, siz bandsiz, unday qilmaysiz; bolalarimizni atrofimizga to'playmiz. Bir oz birga bo'lganimizdan so'ng, «Bolalar, keling, bir nechta hadis o'qiymiz!.. Bu hadislarni bir-birimizga tushuntiramiz!.. Sen bolajonim, nima tushunding mening aytganlarimdan, menga takror aytib ber-chi!.. Qani, xotin sen gapir-chi!..» – deymiz.

«Oshxonada ishim bor!..»

Bir oz ana shunday bir narsa bilan band bo'ldingmi, shunday javob qiladilar. Ya'ni:

«Har narsaning to'sig'i bor, ammo, ilm o'rganishga turishing bilan ko'kdan to'siqlar do'l kabi yog'iladi». Turli to'siqlar...

«Xotin, kel, o'tir shu yerga, ozgina ibodat, duo, tasbeh, bilmadim, yana nima... Dinimizdan bir ma'lumotlar o'rgataman senga, aytib beraman!» – deysan;

«Dazmol qilish kerak, oshxonada ishim bor...»

«Sen ularning hammasini qo'y!.. Hozir shu soat bizning diniy bilimlarni o'rganish soatimiz...», – deymiz.

Shunday dasturni yo'lga qo'yamiz, intizomli inson bo'lamiz!.. Bolalarimizni yaxshi voyaga yetkazganimizda, Alloh taolo hazratlari daftarimizni qoraytirmaydi.

Hammamiz ham bir kun kelib bu dunyodan o'tamiz. O'tgan yil oramizda bo'lganlar bu yil yo'q. Kelgusi ramazonga yo yetamiz, yo yetmaymiz. Alloh imon ila o'tishni nasib aylasin... Orqamizdan daftarimizni naslimiz davom ettiradi. Bolalarimiz bo'lmasa, bizning holimiz nima kechadi?.. Ular bizning orqamizdan duoi xayr qiladilar, Qur'on o'qitadilar, xatm tushiradilar, sadaqa beradilar... O'zlari ham namoz o'qib, Qur'on tilovat qilib, tasbeh o'girib, hajga boradilar!.. Ularni chiroyli tarbiyalab ulg'aytirsak, Alloh bizning daftarimizga doimiy savob yozaveradi.

Bir narsa esimga keldi: hozir men ro'za bilan bog'liq hadisi shariflarni o'qigunga qadar, ko'nglimda paydo bo'lgan narsa, taxmin qilamanki, sizning ham ichingizda paydo bo'ldi: «Ey voh, Allohim!.. Yana shu ramazonni yaxshi o'tkazolmadik... Yana Rabbimizga loyiq bir ibodat qilolmadik... Koshki yana bir oz g'ayrat qilsam, yana bir oz harakat qilsam edi. Ro'zador bo'lishning savobi qanchalik qiymatli emish!..» – deydi inson... Bu narsalarni o'qish-eshitish bilan shunday deydi. E'tikofga bog'liq narsani o'qishi bilan «Koshki men ham e'tikofga kirgan bo'lsaydim! Toki haj va ikki umra savobi yozilsa edi. O'n kun tishimni tishimga bosardim, o'sha savobga erishardim», – deydi. Ammo o'tib ketdi, endi ramazon tugadi, bunga imkon qolmadi.

Umrni ham shunga qiyos qilsak bo'ladi.

– Ajabo, umrimning so'nggida holim nima kechadi?..

O'tgan umriga hamma pushaymon bo'ladi. Oxirgi nafasda yaxshilar ham, yomonlar ham pushaymon bo'ladi... Namoz o'qigan, e'tikofga kirgan, ro'za tutgan, Qur'on o'qigan musulmonlar «Oh, koshki biroz yana g'ayrat etsaydim!» – deya nadomat chekadilar. «Ey, Alloh, koshki shu bo'sh, bekorchi narsalarga bog'lanmagan bo'lsaydim... Koshki edi doim har onimni Alloh taolo hazratlarining rizosi yo'lida sarf qilgan bo'lsaydim», – bular umrimiz oxirida tuyajak tuyg'umizdir.

Shu uchun, vaqtimizni unumli o'tkazishga harakat qilaylik. Bir lahzamiz ham bekor o'tmasin... Yo zikr qilamiz; qalblarimizdan, ichimizdan «Alloh» deymiz, «La' ila'ha illalloh» deymiz, «La' havla va la' quvvata illa' billa'h» deymiz, «Subhonalloh» deymiz, «Alhamdulillah» deymiz, «Allohu akbar» deymiz!.. Hadislarda ham bularga ishorat etilgan. Yo ilm o'rganamiz, o'rgatamiz; yo bir xayrli ishni bajaramiz!.. Yo xasta ziyoratiga boramiz, yo birovga yordam beramiz, xizmatiga bel bog'laymiz!.. Keksalarga hurmat ko'rsatamiz, kichiklarimizni izzat qilamiz, ularni tarbiyalab, yetishtirishga g'ayrat qilamiz!..

Xullas, vaqtimizni bekor o'tkazmaymiz, Chunki har bir o'tgan vaqt uchun bir hasrat, nadomat bo'ladi!.. U hasratning qanday bo'lishini hozir totib ko'rdingiz. Ramazon tugaganidagi kabi, umrimizning so'nggida ham u hasrat bo'ladi. Shu uchun bu omonat umrni mumkin qadar Alloh rizosi yo'lida o'tkazishga intilaylik!..

Buyuklarimiz shuning uchun: «Banda zikri mudom hoida bo'lsin!» Doimo har oni ibodat bo'lsin, deya zikri mudom tavsiya etganlar. Masalan, mashhur avliyullohdan «Ma'rifatnoma» sohibi Ibrohim Haqqiy Arzirumiy hazratlari kitobda yozgan, chizgan, tushuntira-tushuntira, qanchalab satrlarni, varaqlarni to'ldirganlar. G'oyasi nima edi? Bandani g'aflatdan uyg'otmoq, zikri mudom holiga keltirmoq. Doimo Haqni tushungan, Haqni zikr etgan inson holiga kelgan kishining har bir lahzasi ibodat bo'ladi. Insonning qalbi odatlanib, doimo Haqni zikr etuvchi bo'lsa, u holda har bir oni ibodat bo'ladi.

Masalan, mansub bo'lganimiz Naqshbandiya tariqatining asoslaridan biri – «Hush dar dam», ya'ni har lahzada hushyor, shuurli holda, uyg'oq va ogoh bo'ladi... Askar kabi soqchilik qiladi musulmon.

Alloh barchamizni g'aflat uyqusidan uyg'otsin. Doimo chegarada -dushmanning qarshisida turadigan askar kabi hushyor, basirati ochiq, quroli qo'lida bo'lgan, uyg'oq kimsalardan aylasin. Chunki atrofimizda har xil dushmanlar bor. Payg'ambar Hazratimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilarki:

«Musulmonning atrofida beshta musibat, balo bor. U shu balolar ichida...

1. O'z jinsidan musulmonlardirki, hasad qiladi, janjallashadi, urishadi. Hasad qilgani uchun, unga bir yomonlik qilishga intiladi. Undan bir zarar ko'radi. Alloh hasadchining sharridan asrasin...

Hasadchini rozi qilish mumkin emas, chunki qo'lga bergan bir narsa bilan qanoatlanmaydi, sening qo'lingdagi ham chiqsin, deydi.

2. Ikkinchi dushman munofiqlardirki, yuziga kulib, orqasidan qizishgani uchun unga zarar keltirishga harakat qiladi. Orqasidan xanjar urishga harakat qiladi. Yuziga qarab hech nima qilolmaydi. Chunki tushunadiki, musulmon quvvatli, munofiq zaif; to'g'ridan-to'g'ri xusumat qilolmaydi. Shuning uchun orqasidan yurib, uni ovlashga intiladi. U ham bir dushman...

3. Kofir ham u bilan jang qiladi. Bunga hatto ba'zi davlatlarni ham misol qilib ko'rsatish mumkin. Har joyda musulmonlarga qurol ko'targan dushmanlar to'la... Xullas, Alloh ularga yordam bersin... Shu go'zal dinimizga kirishlari uchun ularga ham duo qilamiz!. Chunki biz ro'za tutdik, Alloh taolo hazratlari «Tilang tilagingizni, ijobat qilaman!» – deb marhamat qiladi.

4. Botinimizdagi nafs tarbiyaga muhtoj, u tarbiyani qabul qiladi, to'g'ri boshqarilsa go'zal bir shakl oladi, ammo tarbiya etilmagan vaqt:

**«Nafs – agar Parvardigorimning O'zi rahm qilmasa - albatta barcha yomonliklarga buyurguvchidir».** Insonga yomonliklarni amr etadi: «Ich shu ichkilikni, shu gunohni qil, shu yaxshilikdan voz kech!.. Kel, yot, namoz o'qima!.. Zakotingni, sadaqangni berma, puling kamayadi...» U ham bir dushmandir.

5. Yana bir ko'rinmas boshqa bir dushman bor: ham tashqarida, ham inson tomirlari ichida qon kabi aylanib yuradigan shaytondir. U insonga vasvasa beradi. Yomon ishlarni talqin etib, haq yo'ldan chiqarishga, jahannamiy qilishga intiladi.

Ana shuncha dushmanlarning ichida musulmonlar kimdan panoh izlaydi? Alloh taolodan!

**«Albatta, imon keltirgan va yolg'iz Parvardigoriga tavakkul qiladigan zotlar ustida (shayton) uchun hech qanday saltanat – hukmronlik yo'qdir».** Toat-ibodatlar, tutilgan ro'zalar ila Alloh taolo musulmon insonga nafsini tarbiyalashni nasib etadi. Qarang, birgina ramazon oyida ko'p narsalarni o'rgandik, jumladan, nafsimizni nazorat etishni o'rgandik. Chunki nafs ham doimiy tarbiyaga muhtoj. Kofir, munofiq, hasadchi va hokazo – hammasiga qarshi «Hasbunallohu va ni'mal vakil» deymiz. Qanchalik dushman ko'p bo'lishiga qaramay inson Allohga qul bo'lgach va Unga suyangach, Alloh taolo hazratlari unga dunyo va oxiratning xayrlarini ehson etadi.

Alloh bizni O'ziga jonu ko'ngildan ishonuvchi haqiqiy mo''minlardan aylasin! Qalbimizni imoni komil ila, Hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga muhabbat ila, Alloh taolo hazratlariga sevgi ila to'ldirsin! Haq yo'lidan adashtirmasin! O'ziga tavakkul etgan baxtiyorlardan aylasinki:

**«Albatta, Alloh O'ziga suyanib (ish qilguvchilarni) sevadi»**, – deb buyuradi.

Bir mashhur hadisi sharifni eslatay sizga:

«Quyidagi uch narsa kimning ichida joylashsa, u imonning lazzatini tuyadi, dimog'i imon lazzati ila to'ladi, mo''mini komil bo'ladi, hech kim uni yo'lidan qaytarolmaydi. Alloh taolo hazratlarining yo'lida shod-xurram ibodat qilar:

1. «Alloh va Rasulini boshqa hamma narsadan ortiqroq sevish».

Bu esa mol-mulk va dunyo sevgisi, farzand sevgisi, mavqe, maqom, shon-shuhrat sevgisi kabilarga yuqori baho bermaslik bilan, ularni ko'ngildan chiqarib tashlash bilan bo'ladi. Bularning hammasini inson o'zidan yiroqlashtiradi va Allohga va Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga bog'lanadi.

2. «Musulmon birodarlarini faqat Alloh uchun sevadi».

Mana, bu sevgini ham o'rganishimiz lozim! Bayram hurmati uchun kibru hasaddan, ujub va jaholatdan, gina-kudurat, kek saqlashdan qalbimizni pok tutamiz. Alloh rizosi uchun bir-birimizni sevamiz!.. Bu sevishni bardavom etmagunicha insonning kamolatga yetishishi mumkin emas. Masalan, masjidida birgalashib bir qatorda namoz o'qiymiz, qalblarimiz esa biz istaganchalik bir-biriga iliq emas.

3. Alloh imon nasib etib, najot topganidan keyin takror kufrga botishdan xuddi olovdan qo'rqqandek qo'rqishi lozim insonning!..

Bu hadisi sharifni hayotga qanday tadbiiq etamiz? Ramazondan oldin biz boshqa bir holda edik. Ramazonda ahvolimizni tuzatdik, go'zal bir holatga erishdik. Endi takror eski holimizga tushib qolishdan, otashda yonishdan qo'rqqan kabi qo'rqamiz. Vabodan qochgandek qochamiz. Bu go'zal holni muhofaza qilishga intilamiz.

Alloh taolo hazratlari barchamizni rahmatu mag'firatiga noil aylasin! Necha-necha ramazonlarga sog'-salomat qovushmoqni nasib etsin!

Dunyo va oxiratning biz bilgan-bilmagan har turli xayrlariga– ramazon oyining hurmati uchun, qadr kechasi hurmati uchun, muborak iyd bayrami hurmati uchun erishtirsin! Dunyoviy va uxroviy biz bilgan-bilmagan har turli yomonliklardan bizlarni doim hifzu himoyasida asrasin!

Imoni komil ila oxiratga ko'chib, huzuri izzatiga O'zi sevgan va rozi bo'lgan bir banda o'laroq borishni barchamizga nasib aylasin!

Bihurmati asma'ihil husna' va habi'bihil mujtaba' Muhammadanil mustafo sallallohu alayhi vasallam...

20 iyun 1985 / 1 Shavvol 1405

### **MUBORAK UCH OYLAR VA MUBORAK KECHALAR**

A'u'zu billa'hi minash shaytonir raji'm.  
Bismilla'hir rahma'nir rahi'm.

*Olamlarni tarbiyat qiluvchi Alloh taologa beadam, go'zal va muborak (barakotli) hamd bo'lsin! Uning Zoti azamatiga va saltanatining buyukligiga qandayin hamd sazovor bo'lsa, shunday hamdu sanolar bo'lsin! Va Sayyidimiz – Muhammad alayhissalomga va uning ahli xonadoniga va ashoblariga va Unga sidqidildan tobe' bo'lgan barcha izdoshlariga salotu salomlar bo'lsin!*

Amma ba'd.  
Aziz va muhtaram birodarlarim!

Alloh taolo barchamizdan rozi bo'lsin. Barchangizni ikki dunyo saodatiga erishtirib, ikki jahonda aziz qilsin... Ulug' iltifotlar ko'rsatib, jannatiyu jamoliga yetkazsin...

Yilning bahor, yoz, kuz, qish kabi to'rt fasli bo'lganidek, ma'naviy tomondan ham diqqatni jalb etadigan ikki muhim mavsum bor. Bu mavsumlardan biri – zulqa'da, zulhijja va muharram oylari. Bu – insonlar haj qilish uchun harakatga kirgan mavsum. Allohning amrini ado etish, tengsiz moddiy va ma'naviy manfaatlar hosil qilish, ko'plab ibratli, hikmatli tajribalarga erishish, ma'naviy hollarni mushohada etish uchun uzog'u yaqindan insonlar, oshiqlar, fidokorlar yo'lga chiqadilar, «Labbayka Allohumma labbayk», – deb, Alloh amr etgan haj vazifalarini ado etish uchun ko'z yoshlari bilan tog'lardan oshib, vodiylarni kezib, dengizlardan, havodan, quruqlikdan u yerga yetadilar va buyuk savoblarga erishadilar.

Alloh taolo hazratlari:

**«Tongga qasam. (Zul-hijja oyidagi avvalgi) o'n kechaga qasam»**, – deb, o'n muborak kechaga qasam ichmoqdaki, bu kunlarda haj ibodatlarini bajariladi.

Qur'oni karimdagi shunga o'xshash oyatlardan bu davr ko'p savobli va ko'p muborak ekanligi anglashilmoqda. Bu mavsumda qilingan ibodatlarining ahamiyati ulug', tutilgan ro'zalarning savobi cheksiz. Haj qilmaganlar uchun hatto «Qurbon hayiti arafasida

tutilgan ro'za uchun ikki yillik – o'tgan va kelgusi yillarning gunohlari mag'firat qilinadi» – degan rivoyatlar bor... Hajda bo'lganlar haj vazifalarini bajaradilar, ammo, haj qilmay, o'z mamlakatida bo'lgan kishilar uchun qurbon hayiti arafasida tutiladigan ro'zaning g'oyatda savobli ekanligi bildirilmoqda. Zulhijja oyining ilk to'qqiz kunini, o'n kechasini ihyo qilish: bedor holda toat-ibodat bilan o'tkazishning juda ham ulug' savob ekanligi kitoblarimizda bitilgan.

Bu mavsum haj mavsumi deb atalgan oylarni o'z ichiga oladi. Bu oylarda haj qilish lozim bo'lganligi uchun ham insonlarning bir-birlari orasidagi kina, adovat, dushmanliklarni bartaraf etish oyidir. Qilichlar g'iloflarga solinadigan o'zaro hisob-kitoblar bir tomonga qo'yiladigan oylardir. Shu bois Harom oylar deb atalmoqda... Jangu jadal yo'q, hajga ketuvchilarga hech qanday mone'lik yo'q. O'tasining qotilini ko'rgan bir arab yuzini o'girib, ko'rishmasdan, eshitmasdan o'tib ketibdi. Nega? Chunki bu oylar muhtaram va muborak bo'lganligidan urush-adovat harom qilingan.

Hammamiz haj Islomning eng muhim ibodatlaridan biri ekanligini bilamiz. Ham aqliy, ham ijtimoiy, ham moddiy, ham ma'naviy tomondan juda muhim bir ibodat ekanligini: musulmonu g'ayrimusulmon e'tirof etmoqda. «Juda ham muazzam bir ibodat, bunday ibodat boshqa bir dinda ko'rinmaydi!» – deb hayron qolganliklarini ifodalamoqdalar. Haj ibodatining hikmatlariyu, go'zalliklariga qoyil qolgan ba'zi g'ayrimuslimlar Islomga kirmoqdalar.

Haj – muhtasham bir ibodat. Dunyoning barcha burchaklaridan kelgan mo'minlar bir yerga to'planadilar. Bir xil qiyofada, bir xil shaklda, bir xil tavoze'da Allohga ibodat qilish uchun yugurib keladilar. Ko'plab foydalar hosil bo'ladigan bir yig'in, ibodat maqsadi bilan hamjihat bo'lib birlashish... Dunyoni hayron etgan muazzam bir hodisa...

Rajab, sha'bon, ramazon oylarini birlashtirib uch oylar nomini olgan yana bir muborak mavsum bor... Bu uch oyning muborak oylar ekanligi, behad ko'p savoblarga egaligini Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida aytib o'tganlar va uni o'zlarining xulqu atvorlari, holatlari, ibodatlari bilan ham amalda ko'rsatganlar. Ramazondan keyin Rasullulloh sallallohu alayhi vasallam eng ko'p ro'za tutgan oylar – bu rajab oyi. Rajab oyida ro'za tutish nihoyatda savoblidir.

Anas raziyallohu anhu orqali rivoyat qilingan hadis:

Ya'ni: «Rajab oyi kirgan vaqtida Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday duo qilar edilar: «Yo Rabbii, rajab va sha'bon oyining xayru barakoti, ne'matlaridan hissasini olib, barakotlariga erishganlardan qilgin! Bizni rajab va sha'bon oylarini chiroyli o'tkazgan bir qul o'laroq ramazonga yetkazgin...» Jum'a kechasi bo'lganda shunday derdilar: «Bu naqadar baxtli, nurli, dabdabali bir kechadir va naqadar baxtli va nuroniy kundir».

Bu hadisi sharifdan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam rajab oyining boshidanoq ramazon oyini ko'zlamoqdalar. Ramazonni orzu qilmoqdalar va ramazonga yetishishni tilamoqdalar. «Rajab va sha'bonni bizga muborak qilib, ramazon oyiga yetishtir», – demoqdalar. Rajab, sha'bon, ramazon – biz bilmaymiz-ku – lekin bular bizlarning Uch oylarimiz. Bobolarimiz ularga bu ismlarni qo'ygan ekanlar, Alloh ulardan rozi bo'lsin. Dinimizga aloqador kitoblarni, manbalarni o'qib, har narsani yaxshilab tekshirib, ibodatlarni o'z o'rnida bajarib, Alloh roziligiga

erishish uchun g'ayrat qilgan muborak ajdodlarimiz nur ichida yotsinlar, qabrlari nurga to'lsin, ruhlari shod bo'lib, maqomlari a'lo bo'lsin...

Bu Uch oylar ichida zarur fursatlar, juda ham yaxshi kechalar bor. Ularning eng birinchisi bu – rag'oib kechasi... Rajab oyi kirganidan keyin birinchi payshanbani jum'aga bog'lagan kecha bu – rag'oib kechasi. Rag'bat ko'rsatilishi va ibodat qilinishi lozim bo'lgan muborak kechalardan biri.

Rajabning 26-sini 27-siga tutashtirgan kecha bu – me'roj kechasi, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam me'rojga chiqqan muborak kecha. Bulardan keyin sha'bon oyining o'n beshinchisida baroat kechasi bor. Bu - taqdir, hodisa-voqealar, qismatlar belgilanadigan bir kecha. Fazilatli bir kechadir. Shu sababdan ham u kechaga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu kechada Alloh taolodan saidlar qatoriga qo'shishini, osiylar qatoriga qo'shmaslikni so'rab iltijo qilish uchun hozirlik ko'rish lozim!..

Rajab oyi - tavba oyi. Tavba bu - qaytish degani.

«Qul Allohga yo'nalsa, Alloh ham unga yo'naladi». Demak, tavba - insonning xato yo'ldan, johilona yashashdan, johilona ishlardan, gunohlardan, haromlardan, qusurlardan, g'afatlardan voz kechib, Janobi Haq yaxshi ko'rgan yo'lga qaytishi degani. Shuning uchun ham rajab oyi bu - ulug' bir tavba oyidir.

Said ibni Abu Rashid tomonidan Tabaroniyda rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyuradilar:

Ya'ni, «Rajab - muazzam bir oy, muhim, hurmatli va buyuk bir oy. Alloh taolo bu oyda qilingan yaxshiliklarni qo'sha-qo'sha mukofotlantiradi. Ya'ni boshqa oylarda qilingan ibodatni rajab oyida bajarsa, u oydagilarga nisbatan oshig'i bilan mukofotlaydi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning bu oyda eng ko'p qiladigan ibodatlaridan biri bu ro'za tutishlari edi. «Rajab oyida bir kun ro'za tutgan kishi, bir yil ro'za tutganlik savobiga ega bo'ladi», – deya Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytmoqdalar hadisning davomida. Rabbimiz akramul-akramin saxiylarning saxiysi bo'lganligidan bizning ojizona qilgan ibodatlarimizga qo'sha-qo'sha buyuk mukofotlar bermoqda.

«Bu oyda yetti kun ro'za tutgan kishi uchun jahannamning eshiklari yopiladi». Bilasizki, rivoyatga ko'ra yetti qavat jahannam bo'lib, uning yettita eshigi bordir. Bu degani jahannamga kirmaydi.

«Sakkiz kun ro'za tutgan kishi uchun jannatning sakkizta eshigi ochiladi». Bilasizki jannatning sakkizta eshigi bor...

Kim bu oyda o'n kun ro'za tutsa, Alloh so'raganini beradi, agar o'n besh kun ro'za tutsa, osmonlarda uning gunohi kechirilgani haqida nido qiluvchi nido qilib, ma'lum qiladi. Qancha ko'p ro'za tutsa Alloh ham ajrini ziyoda qilaveradi.

Nuh alayhissalom haqlarida ko'p so'zlashishimiz kerak! Nuh alayhissalom Iroqda yashayotgan davrlarida Alloh taolo u zotga kema yasagin, deb amr qilgan, u zot yasashni boshladi. Qavmi esa: «Alloh, Alloh. Bu yerda suv yo'q, daryo yo'q, nega kema

yasayapsan», – deb uni masxara qildilar.

Alloh taoloning lutfi cheksiz - har narsani biladi. Allohning xos Payg'ambarlari xato ish qilmaydilar. Allohning amrini tutadilar. Tabiiy, u kemani yasab bo'ldi, keyin to'fon boshlandi. To'fon boshlanishi bilan u Alloh amr etgan kishilarni kemaga oldi. Ular Nuh alayhissalom kemaga olgan maxluqlar bilan birga to'fondan omon qoldilar. U kemaga rajab oyida minganliklari va ro'zador bo'lganliklari yuqoridagi hadisi sharifning davomida bildirilmoqda.

Boshqa bir hadisi sharif bilan bu suhbatimizni tugatamiz. Hasan Basriydan rivoyat qilingan hadisi sharifga ko'ra, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday buyurganlar:

«Rajab - bu Allohning oyi, Sha'bon - mening oyim va Ramazon - ummatimning oyi», – degan ekanlar. Rajab – Allohning oyi deyilishi bu, Alloh tomonidan qullarning avfu mag'firat qilinishi sababidan aytilgan. Alloh rajab oyida qullarining tavbasini qabul qiladi, ularning gunohlarini kechiradi. Shunda bandalarining amal daftarlari oppoq bo'ladi.

Yuqorida ham aytib o'tganimizdek: «Rajab - bu ekish oyi, sha'bon - ekinga qarash oyi, ramazon - esa o'rim-yig'im oyidir».

Demak, naql qilingan barcha rivoyatlarni umumiy olib qaraganimizda, bu uch oylik davr ichida inson Alloh taolo rozi bo'lgan yo'lga kirishi, tavba qilib, ibodatlarini kuchaytirishi yaxshi bir musulmon bo'lib, ro'zalar tutib nafsini isloh qilishi, irodasini quvvatlantirib, botiniyu zohirini poklab, ramazon kirishi bilan bularni yanada ziyodalashtirib, yuksak mukofotlarga ko'z tikishi kerak. Bu bandalarga berilgan bir imkoniyat va fursatdir.

Rajab oyining juda ham qiymatli oy ekanligini Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytib o'tmoqdalar. Qur'oni karim ham to'rt oyning muborak oylardan ekanligini bayon etmoqda. U to'rt oylardan birisi – rajab oyi... Zulqa'da, zulhijja, muharram ketma-ket keladi. Bu oylarda hajga ketadilar, hajdan keladilar. Ammo rajab oyi ulardan besh oy keyin keladi. Sanaymiz: muhar ram, safar, rabiul avval, rabiul oxir, jumodul avval, jumodul oxir, rajab... Shuning uchun bu muhtaram oyni rajabul fard (yagona rajab) deb aytadilar. Hurmat, izzat, ikrom va e'tibor, jangu jadaldan uzoq turish rajab oyida ham bor...

Bu oyda savoblar nomai a'mollarning savob xonalariga mo'l-ko'l to'kilishi sababidan rajabul sabba deb ataladi. Ya'ni savoblar mo'l-ko'l, sharillab-sharillab to'kiladigan degani. Sabba – arabchada to'kmoq degani. Daryoning tog'lardan sharillab oqadigan yeri mujab deb ataladi. Rajabul sabbe – Alloh rahmati, ikromu ehsonlari qullariga sharillab, keladigan oy degani.

Yana bir sifati rajabul asam, ya'ni kar, eshitmas degani... Qullar dushmanlarini ko'rsa-da ko'rmaslikka oladi, sening falonchi raqibing falonchi joyda ketmoqda, desalar qulog'ini kar qiladi. Shuning uchun ham rajabul asam deb ataganlar. Yana boshqa xil talqin va izohlar ham qilingan. Rajab oyining qiziqarli, diqqatni jalb qiluvchi muhim oy ekanligi rivoyatlarda aniq-tiniq bildirilgan. Hozir bu oyning birinchi kechasiga kirib turibmiz.

Oriflar, din olimlari o'z kitoblarida rajabning ekin ekish, ziroat oyi ekanligini yozadilar. Bu



oyda ro'za tutish, tavba qilish va hokazo savobli ishlar qilinadi. Rajab – ekin ekish, uni parvarish etish oyi bo'lsa, ramazon hosilni yig'ishtirib olish oyi deganlar. Demak, rajab oyi bizni ramazonga tayyorlaydigan bir mavsumning ilk odimi ekan.

Ramazon – o'n bir oyning sultoni. Unga inson to'satdan kirmaydi, balki, o'zini tayyorlab, hozirlanib kiradi. Shuning uchun ham «Rajab oyi – tavba oyi», deganlar. Qul nima qiladi? «Yo, Rabbi! Men tushunmadim, xato qildim, bilolmadim, aybdorman, qusurim bor, meni kechir...», – deb xatosini e'tirof etib, Janobi Haqning yo'liga kiradi.

Sha'bon – ibodatlarda davom etish oyi. Ramazon esa – mukofotlarni olish oyi. Shuningdek ularning o'zaro aloqadorligi turlicha bayon qilingan.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilinishicha, rajab shahrullohdir. «Shahr» – arabchada «oy» degani. Shahri ramazon – ramazon oyi, shahri rajab – rajab oyi degani. Rajab – Allohning oyi. Tabiiyki, butun oylar, butun yillar, butun zamonlar, butun makonlar, butun borliqlar, butun insonlar – hamma narsa Allohga tegishli. Hamma narsa Allohnik bo'lganidan keyin «Rajab – Allohning oyi», – deyishdan maqsad nima? Bu: «Rajab – Alloh taolo hazratlari o'z bandalarini ko'p mag'firat qiladigan, ko'p afv etadigan, tavba qilgan qullarini kechiradigan oy», – degani.

Shu jihatdan Allohning qullariga tavba, afv etish, mag'firat qilish eshiklarini ochadigan bir oyning eshigidan kirgan bo'lamiz. Buni eslatish men uchun ham, siz uchun ham ko'p foydalidir! Chunki o'zimizni tartibga solishimiz – hisoblarimizni qilib, savob va gunohlarimizni o'lchab, xatolarimizni tan olib, bo'yimizni egib, Allohga yolvorib tavba qilish fursati kelgan bo'ladi. Buni bajaramiz.

Bizning musulmon bo'lishimiz faqatgina o'zimiz uchun emas, butun Ummati Muhammadiy uchun, ona vatanimiz uchun lozim, dunyo uchun lozim!.. Bizning yaxshi musulmon bo'lishimiz, boshqalarning ham haqni eshitib-o'rganishi, Janobi Haqning yo'lini tushunib (agar biz yaxshi tushuntira olsak, albatta) Uning yo'liga kirishi uchun bir sabab bo'ladi.

Ma'lumki, jum'a kechasi munavvar bir kecha bo'lgani uchun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam unga «Al-laylatul g'arro» – (Munavvar, nurli kecha) deb bejiz aytmaganlar. Shu bois jum'a kechasini qadrlash kerak. Qolaversa, har kechani Allohning rizosiga muvofiq o'tkazmoq kerak.

Biz bugun Rajab oyining birinchi kechasida turibmiz, ya'ni muborak kecha, bu birinchidan. Ikkinchidan, bugun jum'a kechasi, yuqorida aytganimizdek muborak kechalardan. Uchinchidan bugun rajabning ilk jum'a kechasi, ya'ni rag'oyib kechasi. Demak, biz bugun uch muborak kechani qutlayapmiz.

Rag'oyib – bu ilohiy mukofotlar, iltifotlar, izzat-ikromlarga rag'bat etish demakdir. Bu kechani bedor o'tkazib, toat-ibodatlar bilan jonlantirgan kishi Allohning ajri mukofotlariga erishgani uchun farishtalar unga «Laylatur-rag'oyib» (rag'oyib kechasi) deganlar.

Endi mazkur muborak kechalarni qanday qilib o'tkazish kerakligi xususida to'xtalsak. Albatta, bunday munavvar, barakotli kechalarni toat-ibodat bilan zikru tasbeh bilan

ihyo qilish – bedor o'tkazish zarur. Birinchidan, o'sha kecha xufton namozi va ertalab bomdod namozini jamoat bilan ado etish kerak. Bu nafaqat kechening balki butun kunning fayzli o'tishini ta'minlaydi. Tongga qadar, shomga qadar ibodat qilganning savobini oladi. Shuning uchun Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Bu ikki namozni masjidga ado etishga harakat qiling», – deganlar. Chunki, bu ikki namoz vaqtlarida inson faoliyati susayadi. Nafs va shayton u insonni «ko'p charchading, masjidga bormay, uyingda namozingni o'qib qo'yaqol», – deb vasvasaga soladi. Issiq yotog'idan turib masjidga borib jamoat bilan namoz o'qishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bois Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Munofiqlar bu ikki namozni bajarishda qiynaladilar», – deganlar. Bu ikki namozni masjidga jamoat bilan ado etish komil, mo'min-musulmonlarning ishidir.

Zero, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytganlaridek: «Jamoat bilan namoz o'qishning savobi yigirma yetti barobar ortiqdir». Mahalla masjidida namoz o'qisa shunday. Katta jome masjidlarida o'qilgan namozga esa ellik barobar savob beriladi.

Yana bir xususni eslatib o'tmoqchiman. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam deydilar: Ya'ni, «Bir yerda beshta musulmon uyi bo'lsa, besh uyning birlashgan joyida azon aytish, iqomat keltirib, jamoat bilan namoz o'qish lozim. Agar azon aytilmasa, iqomat keltirmay, namozni jamoat bo'lib o'qimasalar, shayton ularga o'z hukmini o'tkazadi va istaganicha ezadi. Natijada ular shaytonning buyrug'i ostiga kiradilar», – deb aytdilar. O'lchov – beshta uy. Bu besh uy qaerda bo'lmasin, yaylovdami, qishloqdami, dam olish joyidami – farqi yo'q, ularning birlashgan joyida azon aytiladi, jamoat bo'lib namoz o'qiladi. Shayton hukmronligi ostida bo'lgan insonlarning uyidan shovqin-suron, to'polon arimaydi.

Negaki, ular shaytonning hokimiyatiga kirdilar. Unga asir bo'ldilar. Shayton ularni barmoqlari kabi o'ynatadi...

Shayton-aldashga usta, tajribali, Hazrati Odam Ato zamonidan beri insonlarni aldab kelayotgan bir maxluq. Inson shaytonning qo'liga tushdimi, changaliga kirdimi, bas, uni mahv etadi.

Buning chorasi nima? Shayton o'z hokimiyatini qurolmasin deb azon aytiladi, iqomat keltiriladi. Namoz shuning uchun foydali, jamoat shuning uchun zarur. Biror yerda azon aytilmasa, iqomat keltirilmasa, shayton u yerga hokim bo'ladi.

Go'la tog'lari etagida joylashgan bir o'rtog'imizning qishlog'iga bordik. Soatga qaradik: azon o'qishmadi. «Nimaga?» – dedik. Imom nafaqaga chiqibdi, yangi imom kelmabdi, qishloqda azon aytilmayapti. Ahvolingiz yomon bo'ladi, dedim! Qishloqda masjid bor, minora bor, jamoat bor, lekin namoz o'qilmayapti. Hamma uyida o'qimoqda. Nima, birorta azon aytadigan inson yo'qmi? Chiroyli bo'lishi shart emas, axir go'zallik musobaqasi bo'lmayapti-ku?! Chiq, ovozing boricha o'qi, ixlos bilan «Allohu Akbar» degin – tovushingni to'rt tomon eshitadi.

Uy egasiga: «O'zing azon aytasan, o'zing imomlik qilasan va shu qishloqni azonsiz tashlab qo'ymaysan. Qani, masjidga ketdik!» – dedim. Masjidga bordik, u minoraga

chiqib, azon aytdi. Jamoat bo'lib namoz o'qidik, keyinroq eshitdikki, ayollar: «Xudoga shukur, qishlog'imizda azon aytiladi», – deb yig'lagan ekanlar.

Ikkinchisi: kechasi uyquga yotayotib yangi tahorat olib, ikki yoki to'rt rakat namoz o'qib, tahorat bilan uxlashlik ham kechani ihyosidir. Nega? Chunki Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida aytadilarki: «Bunday qulning ichki kuyligi bilan terisi orasida bir farishta bo'ladi, yo Rabbi! Bu quling toza yotdi, tahoratli yotdi, sen uni mag'firat qil! – deb duo qiladi». Bilmagan bilmas, ko'rmagan ko'rmas, ko'rgan gapirmoqda, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytmoqdalar.

Keyin amal daftarini yozuvchi farishtalar, u qulni bomdodgacha ibodat qildi, – deb amal daftariga savob yozadi. Tahoratli yotdi, deb qator-qator ibodat savobi yoziladi insonning daftariga». Bu ham Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytgan narsalar. «Samodan maloikalar u kishining tahoratli yotib uxlaganligini, vujudini ma'naviy tomonidan, ruhoniyyatidan ko'radilar. U qulning atrofida g'uj bo'lib to'planadilar» – deb aytmoqdalar sayyidimiz. Ya'ni, maloikalar tahoratli yotganligi uchun u kishining atrofini gavjumlashib o'rab olishar ekan.

Kechaning asl ma'nodagi ihyosi – bu biroz uxlagandan keyin tun yarmida turib, Alloh rizosi uchun tahorat olib, namoz o'qish hisoblanadi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytadilar:

«Kechasi turib o'qilgan ikki rak'at namoz dunyodan va uning ichidagi hamma narsadan ham xayrli». Buni bizga Hazrat rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytmoqdalar. Gapiruvchilarning eng to'g'ri so'zlovchisi, Allohning habibi adibi; U zotni so'zlariga ishonamizmi, muhtaram birodarlar? Shak-shubhasiz! So'zning, kalimalarning ma'nolarini tushunishimiz lozim! «Dunyoda va dunyodagi hamma narsadan xayrliroqdir», – demoqdalar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam. Nega? Chunki «Shammatur min ma'rifatulloh». Ma'rifatullohning hididan boxabar bo'lamiz, ma'rifatulloh tomon qadam tashlagan bo'lamiz.

Kechasi turasiz, tahorat olasiz, xonangizda sizdan boshqa hech kimsa yo'q, yolg'izsiz. Birovga ko'z-ko'z qilish ehtimoli yo'q. Riyokorlik ehtimoli yo'q. Xolis Rabbingizga yo'nalasiz, Olamlarning Rabbisi. Alhamdu lillohi rabbil olamin. Qanday muhtasham kalima! Ulkan koinotning sohibi, yaratuvchisi Alloh taoloning devonida turibsiz.

«Senga hamd bo'lsin, ey Rabbim!» – deysiz. Ruku' qilasiz, sajda qilasiz. Ibodatning mazasini totiy boshlaysiz.

Agar biror kishi uni kuzatib tursa, uyaladi, siqiladi, hatto ko'rsatishni xohlamaydi, qilmoqchi bo'lsa ham qilmaydi. Ammo kechasi yolg'izsiz, hech kimsa yo'q. Joynamozingizga yopishasiz, yig'laysiz, ko'z yoshlaringizni to'kasiz. Sajda qiladigan yeringiz nam bo'ladi. «Ey, Allohim!» – deysiz. Juda ham qiymatli bu tuyg'ular insonni avliyolik darajasiga yetkazadi. Bu his-tuyg'ular insonni boshqalarga eng chiroyli shaklda xizmat qiladigan martabaga ko'taradi. Bu zavqni inson kechasi turgan vaqtidagina topishi mumkin.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga shunday amr bo'ldi:

**«Ey (kiyimlarga) o'ralib olgan zot, kechasi (bedor bo'lib, namozda) turing! Faqat ozgina – uning (kechani) yarmida (uxlab orom oling) yoki (uyquni**

**kechani) yarmidan ham bir oz kamaytiring yoxud unga (biroz) ziyoda qiling (ya'ni, kechani yarmidan ko'prog'ida uxlab, istirohat qiling) va Qur'onni tartil bilan (ya'ni dona-dona qilib) tilovat qiling!»**

Eng birinchi nozil bo'lgan oyatlar «Iqra'» surasining besh oyati. Ikkinchi nozil bo'lgan oyatlar bir rivoyatga ko'ra «Yo ayyuhal – muddassir»ning boshidagi oyatlar, boshqa bir rivoyatga ko'ra «Yo ayyuhal – muzzammil» surasining boshidagi oyatlar. Bular – ikkinchi yoki uchinchi nozil bo'lgan oyatlar. Ya'ni uchinchi vahiyda Payg'ambarimizga: «Kechalari tur, ey Rasulim!» – deb amr qilindi.

U kechalarning hashamati, u kechalarning chiroyliligi... Bu betonli uylar orasidagi yangi nasllar uni bilmaydilar. U kechalarning dabdabasi naqadar go'zal! Naqadar ruhoniylidir u kechalar!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytmog'dalarki: «Kechasi osmonning eshiklari ochiladi». Osmonning eshiklari bormi? Bor. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam me'rojga chiqqanlarida Quddusi Sharifga bordilar. Quddusi Sharifdan Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam va Jabroil alayhissalom me'rojga chiqdilar. Birinchi osmonga kelgan vaqtlarida farishta to'xtatdi.

Birinchi osmon nima ekan?

**«Darhaqiqat, Biz eng yaqin osmonni chiroqlar (yulduzlar) bilan bezadik»,** – deb aytmoqda. Yulduzlar bilan liq to'la bo'lgan osmonning ustida nimalar bor – unisini Alloh biladi.

Birinchi osmonning qorovuli to'xtatmoqda, Jabroildan so'ramoqda. Jabroil kim? Allohning to'rt buyuk farishtasidan biri. Payg'ambarimizga vahiy keltirgan muazzam maloika. Unga savol bermoqda farishta... Qaysi farishta? Birinchi osmonning qorovuli bo'lgan farishta... – Kimsan? – Men Jabroilman.

O'zini tanishtirmoqda... Islomiy odobda o'zini tanitish bor, muhtaram birodarlar! Eshik taqilladi. «Kim u?» – deyiladi ichkaridan... Eshikni taqillatgan «Men» deydi. Ey voh, subhonalloh!.. Har kishi men deydi, men deb javob ham berishadimi, nomingni aytasan!.. Qaragin, nima demoqda «Men Jabroilman!» – bundan inson odob o'rganmoqda.

Men deganidan keyin, ikkinchi marotaba – so'ramoqda. Bu safar: «Kimsan?» «Menman, och eshikni!» – demoqda.

Taniysan, ammo hammaga eshik ochilmaydi-ku! «Hammaga eshikni ochmang, bilak-uzuklaringizni qo'lingizdan oladilar», – deydilar. Uyiga bostirib kirib, pichog'ini tiraydi. Insonning yaxshisi bor, yomoni bor, axir... Odobga rioya qilib kim ekanligingni aytasan!..

Keyin:

- Xo'p, yoningdagi kim?
- Muhammad Mustafo – Allohning elchisi!..
- Xo'p, unga bu yerlardan o'tish uchun ruxsat berildimi?..

- Ha, berildi.
- U holda, o'ting!

Osmonlarning shunday xususiyatlari bor, hurmatli birodarlarim! Jabroilni savolga tutgan, to'xta, turib tur, degan qorovul bor... Eshigi bor – osmonning eshigi bor... Bilmaymiz; ko'rgan ko'radi, bilgan biladi. Bilganlar, ko'rganlar tushuntirmoqda: bu kecha – osmon eshiklarining ochilish vaqti. Osmonning eshiklari ochilmoqda... «O't, bolam!» – deganga o'xshab.

Ikkinchisi: Alloh taolo dunyo osmoniga tushib, qullariga nido qiladi, ya'ni Alloh taolo qullariga yaqinlashib: «Yo'qmi mendan afvini, mag'firatini istagan? Qani xohlasin – mag'firat qilaman! Yo'qmi mendan biror narsa talab qiladigan! Qani xohlasin – talabini beraman. Yo'qmi kasal bo'lib shifosini istagan? Shifo beraman! Yo'qmi shunday bo'lgan, yo'qmi bunday bo'lgan?» – deb nido qiladi deb aytganlar Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam o'zlarining bir hadisi shariflarida.

Qaysi vaqtgacha?  
**«To tong otgunicha...»**

Kechaning oxiri qaeridir? Tong vaqti. Tong yorishdimi, kecha ham tugaydi.

**«U (kecha)da farishtalar va Ruh (ya'ni Jabroil alayhissalom) Parvardigorlarining izni-ixtiyorida (yil davomida qilinadigan) barcha ishlar bilan (osmondan zaminga) tushurlar. U (kecha) to tong otgunicha tinchlik-omonlikdir».**

Maloikalarning tushishi u futuhot ya'ni, ochilish qaysi vaqtgacha ekan? Tong otguncha.

Shunga ko'ra ko'zimiz bilan ko'ra olmasak: osmon bilan oshnoligimiz bo'lmasa, taqvimdan tong vaqtini ko'ramiz. Tongdan oldinroq biror vaqtni belgilab turamiz, tahorat olamiz, namoz o'qiyamiz: «Men borman, ey Allohim, sening afvingni xohlagan! Men borman, ey Rabbim, muhtoj bo'lgan! Men borman, ey Allohim, tilagi bo'lgan!» – deb biz ham xohlaymiz.

Xohlash zamonidir. Chunki qullarining xohlaydigan, Allohning esa beradigan zamonidir. Bu vaqtda ibodat qilish solihlarning, anbiyo va avliyoullohning odati. Inson Alloh bilan tanho qolishlik zavqini o'rganishi lozim! Yolg'izlikdan uzoq-uzoqlarga qochmaslik kerak!

Odam kiyinib ko'chaga chiqsa, ketishda:  
– Xotin, men ketdim!  
– Qaerga ketyapsiz?  
– Choyxonaga!  
– Nega?  
– Yolg'izlikdan zerikib ketdim!

Yanglish. Inson yolg'izlikni sevishi kerak. Yolg'izlikning mazasini tota bilish kerak: «Oh! Ko'p shukurki, hech kimsa yo'q. Rabbim bilan tanho bir o'zim qoldim», – deb tafakkur qilishi kerak. Yolg'izlikdan zavqlana bilish kerak. Yolg'izlik – ulug' ruhlarning ozig'i. Yolg'izlik – muhim narsa. Yolg'izlikda Parvardigori bilan aloqa bog'lash juda ham muhim.

Ayniqsa, yarim tunda...

Shuning uchun ham tunni ihyo qilish, yarim kechasi turib tahorat olib, Alloh buyurgancha ikki rakat, to'rt rakat, olti rakat, sakkiz rakat, o'n rakat namoz o'qish kerak. Chunki namoz – ibodatning eng go'zal shakllaridan biri. Ibodatning ko'p xillari bor. Eng to'liq shakli bu – namoz. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam buyurmoqdalar:

«Ko'zim namoz tufayli orom topadi. Ko'zimning zavqlanishi, nuri namozdan». Bu – dilim rohatlanyapti, degani.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning dillarini rohatlantirgan, ko'zlarini quvontirib, huzur baxsh etgan namozdan zavq ololmagan kimsa o'zini nazorat qilsin. Ya'ni: «Men nega bu namozdan zavq ololmayapman?» – deb so'rasin. Demakki, jihozlari zanglayapti, tuyg'ulari xusronga uchrabdi, demakki, ko'p johil, demakki, bu xususida ancha orqada, hali g'o'r, pishmaganligini tushunadi. Shu bois inson yolg'izlik mazasini totishi kerak, muhtaram birodarlarim.

Qur'onni o'qish juda savobli. Hozirgi kunga kelib bizning Qur'oni karim bilan bo'lgan oshnoligimiz ancha qusurli holga kelib qoldi. Inglizcha, nemischa, frantsuzcha va boshqa ko'p tillarni o'rganyaptilar-ku, ammo arabchani o'rganib, Qur'oni karimni yodlash xususida shavq va g'ayrat sarf etilmayapti. O'rganganlarning esa hali xurmati joyiga qo'yilmayapti.

– Qori, keling, o'tiring, o'qing! Bo'ldi, oling shu tugunchaning ichidagi pulni. Ammo «Qori bu yerga keling!» – deganining o'zidayoq u odam achchiqlanadi, o'zini noqulay tutadi... Nojo'ya harakat qilib qo'ygandek bo'ladi. Hofizlikni, ya'ni Qur'oni karimni yod olishni maqbul bo'lmagan bir ish sifatida ko'radilar, o'ylaydilar. Hofizlik shonu shuhrati, qadr-qimmatini bilinmaydigan holatga kelindi.

Holbuki, Qur'oni karim – Allohning kalomi, unga nazar solishning o'zi ham savob. Ma'nosini tushunib, hayoti davomida unga amal qilsa, ta'riflab bo'lmas darajada savoblarga noil bo'ladi. Qur'oni karimni o'qishning o'zi ulug' savob. Albatta, arab tilini bilmaydiganlar ma'nosini tushunmaganidan ko'ngildagidek lazzat ololmaydi.

Kechani bedor o'tkazishning yana bir shakli bu – zikr. Zikr nima o'zi? Ba'zi muborak kalimalarni takrorlash. Masalan, «La ilaha illalloh». Bu kalima insonning jannatga kirishiga sabab bo'ladi. Yoki: «Allohumma solli ala' sayyidina' Muhammadin va ala' a'li sayyidina' Muhammad» ham juda savobli kalima. Agar siz Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga salotu salom keltirsangiz, uni farishtalar darhol u zotga yetkazadilar. Shuningdek, «Astag'firulloh» ham bir zikr. Allohdan avf-mag'firat so'rashlik. «Subhonalloh», «Alhamdu lilloh», «Allohu akbar», «La' havla va la' quvvata illa' billa' hil aliiyyil azi'm», – bular hammasi muborak kalimalar. Bularni zikr etish g'oyatda savobli.

Yoxud Alloh taoloning ismi azalini, lafzi jalolini yoki «asmoul husna»dan birortasini aytish ham zikr. Masalan, «Alloh, Alloh», «Ya' Qayyu'm, ya' Qayyum», «ya' Vadu'd, ya' Vadu'd», – deb aytsa ham zikrga kiradi. Demak, zikr – kechani ihyo qilishning bir chorasi.

Biror banda Allohni zikr etsa, Alloh ham uni zikr etadi:

«**Bas, Meni eslangiz, Men ham sizni eslayman**» – deb buyurmoqda Alloh taolo. Banda Allohni biror jamoat bilan birga zikr etsa, Alloh ham u qulini biror xayrli jamoat orasida zikr etadi. Shu asnoda zikr Alloh bilan qulining yaqinlashuvi, Allohning o'z qulini sevishi va qulda Allohga bo'lgan ishq ilohiy – muhabbatullohning hosil bo'lishiga olib boradi. Bu jihatdan zikr – ibodatlarining afzali va kechani ihyo qilish shakllaridan biri.

Ba'zi namozlar borki, ularni Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hayotlik davrlarida o'qigan ekanlar. Shulardan biri – tasbeh namozi. Bu namozni o'qish davomida uch yuz marotaba: «Subhonalloh val hamdu lilla'hi vala' ila'ha illallohu vallohu akbar», – deb aytiladi. Har o'ntadan yoki o'n beshtadan keyin «Va la' havla' vala' quvvata illa' billahil aliyyil azi'm», – deb qo'shib qo'yiladi. To'rt rakatli bu namozni bir kishi o'qisa ham, jamoat bo'lib o'qisa ham bo'ladi. Bu Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning sahih hadislaridan rivoyat qilingan juda ham fazilatli namozlardan biri. Bunga o'xshash ibodatlar bilan kechangizni ihyo etishingiz mumkin...

Alloh taolo hammangizdan rozi bo'lsin...

*23 noyabr 1995 Rag'oyib kechasi*

## SHA'BON OYI

Muborak uch oylardan Sha'boni sharif kirib keldi. Ramazonga oz qoldi. Baroat kechasi yaqinlashgani sababli ko'nglimiz taloshlandi. Sha'bon oyi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hazratlarining oyidir. Chunki ul zot bu oyda ko'p ro'za tutar edilar, kechalari tongga qadar ibodat qilib chiqar edilar. Oisha onamiz buning sababini so'rganlarida:

«Ey Oisha, bu oy malakul-mavt – o'lim farishtasi Azroilga yil davomida vafot etadiganlar ro'yxati yozdiriladigan oydir. Men esa bu oyda ismimning ro'zador holda qayd etilishini istayman», – deb marhamat qildilar U zot sallallohu alayhi vasallam.

Sahobai kirom va o'tmish avliyulloh ulug'larimiz ham bu oyda ko'p ro'za tutishar, Qur'oni karim tilovat qilishar, Payg'ambarimizga salovotlar aytishar, Allohdan afvu mag'firat tilab, ul zotni vasila qilar edilar. Boylar kambag'allarga zakotlarini berib, ularning ramazon ro'zasini qiynalmay tutishlarini ta'minlar, voliylar shariatga muvofiq mahkumlarni hibsdan ozod etar, tujjorlar qarzdorlarning qarzlarini uzib, ularni qarzdorlikdan xalos etishar va nihoyat ramazon hilolini ko'rgach, g'usl tahorati olib e'tikofga kirar edilar.

Baroat kechasi sha'bon oyining eng muhim kechasidir. Shuningdek, yilning eng muborak, eng e'tiborli, qadrlanadigan qimmatli kechalaridandir. Bu kecha yer yuziga ilohiy rahmat, barakat va xayr nozil bo'lgani uchun uni, hatto malaklar ham bayram qilishadi.

Alloh taolo bu kecha shirk keltirganlar, bir-birlariga kina, adovat tutganlar, do'stu qarindoshlaridan aloqani uzganlar, sehrgarlar, kohinlar, sarxushlar, yulg'uchlar, nomussizlardan tashqari ko'plab imon egalarini avfu mag'firat qiladi.

Baroat kechasida ajallar, rizqlar, hajga boradiganlar, vafot etadiganlar, saidlar – oxirat saodatiga erishuvchilar, shaqiylar – oxirat saodatidan benasiblar, yilning muhim voqealari qat'iy belgilanib yoziladi...

Baroat kechalarining birida Hasan Basriy hazratlarini yuzi sarg'aygan holda ko'rganlar, uning bu tashvishli holatini so'rab-surishtirganlarida: «Allohga qasamki, kemasi to'fonga uchragan bir kishi mendan ham battar yomon ahvolda bo'lmasa kerak. Chunki qilgan gunohlarimni bilaman, ammo yaxshi amallarim qabul qilindimi yo'qmi, ahvolim nima bo'ladi? – deya tashvishdaman», – deb javob beribdilar.

Muhtaram birodarlar! Bu muhim kechaga avvaldan tayyorlaning, ro'zalar tuting, zakotlar, sadaqalar bering, salovotlar ayting, zikru tasbehlar aylab, tavba-istig'for qiling, Qur'on o'qing, nafl namozlar o'qing, silai rahm etib, ko'z yoshlar ila duo qilingki, Parvardigorimiz sizni mag'firat qilsin, nomimizni «Devoni suado» (saidlar devoni)ga kiritsin. Ma'naviy fayzu futuhlarga mazhar etsin, ustimizdagi baloyu musibatlarni daf etsin, barchamizni ikki jahonda azizu baxtiyor aylasin! Bu o'tkinchi dunyoda ummati Muhammadni g'aflat uyqusidan uyg'otsin, Haqni ko'rib, Haqqa bo'ysunishni, botilni ko'rib undan saqlanishni, oxiratga munosib bir tarzda hozirlanishni nasibu muyassar aylasin.

Omin. Valhamdu lillahi rabbil a'lamin!

1996 yil, yanvar

### ***Muxlis Namangoniy***

#### **ALVIDO, EY MOHI RAHMAT!**

Alvido, ey mohi rahmat, shahri sufron, alvido,  
Aylading azmi safar, bo'lduk parishon, alvido,  
Afv qil nuqsonimiz, ey yaxshi mehmon, alvido,  
Boisi savmu salotu<sup>25</sup>, xatmi Qur'on, alvido,  
Alvido, ey rahmati Haq, mohi tobon, alvido.

Bir necha kun xoni<sup>26</sup> ehsoningga hojatmand eduk,  
Ham salotu xatmi Qur'oning bilan xursand eduk,  
Band edi iblislar, mehringla shakkarxand eduk,  
San ato, ma'nidakim, bizlar sanga farzand eduk,  
Tifl<sup>27</sup> yanglis aylading bizlarni giryon alvido.

Hurmatingdin kechavu kunduz duo erdi qabul,  
Hamdu lillah, bizga bo'lding xosi merosi rasul,  
Kelganingda shod etib, ketgoninga qilding malul,  
Gar ato azmi safar qilsa qolur yislab o'sul,  
Tez kel, qaytub bizi qil shodu xandon, alvido.

Shomdin ilgori amr aylar malaklarga G'afur,  
Bir qarang bandamga oldinda taom, obi tahir<sup>28</sup>,  
Bim<sup>29</sup> etib mandin yemaykim intizori shom erur,



Ham taomu obin ustiga to'kunlar pok nur,  
Afv qildim, qancha qilgan bo'lsa isyon, alvido.

Bir ajab mahsan hama mahlar aro qurbing azim,  
Kim sani e'zoz qilsa, hashrda<sup>30</sup> bexavfu bim,  
Hurmatingdin hurlar tobt yangi, ko'hna kiyim,  
Sohibi iftor erur mahsharda ozodi jahim,  
Qaysi mah san yangli sohib, xayru ehson, alvido.

Hurmatingdin sarqi nur erdi bu jismu jonimiz,  
Ravshan erdi xatmi Qur'oning bilan imonimiz,  
Xasta erduk, sandin erdi necha kun darmonimiz,  
Alvido, ey rahmati Haq, ko'b erur nuqsonimiz,  
Jurm isyonimni qil, Haq so'rsa pinhon, alvido.

Xo'<sup>31</sup> qilib erdim, ketib qilding mani oshufta hol,  
Garchi badman<sup>32</sup>, yaxshi arz et, so'rsa gar Vojib taol,  
Umruga yo'q e'timodim<sup>33</sup>, to keluncha yangi sol<sup>34</sup>,  
Xizmating erdi manga ayni rizoyi Zil jalol,  
Ey mahi farxundai nuri shabiston, alvido!

Kim sani boringda behad erdi ehsonu savob,  
Emdi xush ket, to keluncha bo'ldi ahvolim xarob,  
Kim sani e'zoz etar, jannat egosi behisob,  
Xatm qildim<sup>35</sup> arzimi, vallohu a'lam bis-savob,  
Mashrablingdin<sup>36</sup> rozi bo'l, ey yaxshi mehmon alvido!

*Ushbu muxammas «Tuhfatul obidin» («Obidlar tuhfası») kitobidan olindi. (Toshkent, 1915, 79-80 betlar).*

---

<sup>25</sup> Savmu salot – ro'zayu namoz.

<sup>26</sup> Xon – dasturxon.

<sup>27</sup> Tifl – go'dak, yosh bola.

<sup>28</sup> Obi tahur – juda toza, pok suv.

<sup>29</sup> Bim – qo'rquv, xavf.

<sup>30</sup> Hashr – tirilish, to'planish, o'lganlarning tirilish chog'i, yig'iladigan yeri.

<sup>31</sup> Xo' qilmoq – o'rganib qolmoq, bog'lanib qolmoq.

<sup>32</sup> Bad – yomon.

<sup>33</sup> E'timod – ishonish, suyanish.

<sup>34</sup> Yangi sol – yangi yil.

<sup>35</sup> Xatm qilmoq – tugatmoq.

<sup>36</sup> Mashrab so'zi taxallus ma'nosida qo'llanmagan (Tarjimon).

## Hadislar

Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bunday deb aytganlar: «Ro'za (tutmoqlik) do'zax o'tidan asrovchi vositadir! Binobarin, ro'za tutgan kishi haqorat so'zlarini tilga olmasin, so'zlashganda baqirmasin, birovni masxara qilmasin! Agar biror kishi ro'zador birlan urishsa yokim uni haqorat qilsa, ro'zador ikki bor: «Men ro'zamen», desin! Allohga qasamyod qilib ayturmenkim, ro'zadorning og'zidan kelgan bo'y, Alloh nazdida mushk-anbar bo'yidan ham xushbo'yroqdir, chunkim Alloh taolo: «Ro'zador meni deb yeb-ichmas va meni deb ro'za

tutar, binobarin uning mukofotini o'zim berg'aydirmen va har bir yaxshilig'i evaziga mendan o'n barobar mukofot olg'usidir», – deydir».

\* \* \*

Sahl raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: «Jannatda Rayyon nomli bir eshik bordir, – deyдилar Janob Rasululloh sallallohu alayhi va sallam, – bul eshikdan ro'zani kanda qilmay tutganlarga kirg'aydirlar, xolos. Qiyomat kuni «Ro'zadorlar qani?» deb nido qiling'aydir. Shunda ular o'rinlaridan turib mazkur eshikdan kirishg'aydir. So'ng eshik yopilg'aydir. Ulardan boshqa birorta odam bu eshikdan kira olmas».

\* \* \*

Kimki yolg'on so'zlamoqni tark etmasa va Alloh qaytargan narsalardan qaytmasa, ro'za tutib, yemay-ichmay qo'ygani birlan ro'zasi qabul bo'lmag'aydir. Alloh unga rahmat nazarini tashlamag'aydir.

\* \* \*

Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bunday deganlar: «Alloh taolo: «Bandalarimning odamlar ko'zi tushgulik barcha qiladigan ishlari (namoz o'qimoqlari, xayr-ehson qilmoqlari, zakot bermoqlari) o'zlari uchundir, tutadigan ro'zalari ersa, men uchundir (Xudo uchun bo'lmaganda erdi, yashirincha yeb-ichib olmoq mumkin erdi, chunkim uni hech kim ko'rmag'aydir), binobarin, uning mukofotini o'zim berg'aydirmen», – deydir. Ro'za do'zax o'tidan saqlovchi vositadir, agar sizlardan birortangiz ro'zador bo'lsangiz, gunoh bo'ladingan so'zlarni so'zlamangiz, birov birlan janjallashmangiz, agar birov haqorat qilsa yokim urishsa, men ro'zadormen, deb aytingiz. Allohga qasam ichib ayturmenkim, ro'zadorning og'zidan keladigan bo'y Allohning nazdida mushkdan ham xushbo'yroqdir! Ro'zador ikki bor xursand bo'lur, biri – og'iz ochganda (ya'ni, iftor qilganda), ikkinchisi – ro'za tutib, yorug' yuz birlan Allohga yo'liqqanda!».

\* \* \*

Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Agar Ramazon kirsas, osmon eshiklari ochilib, do'zax eshiklari berkitil-g'aydir hamda shaytonlar kishanlang'aydir», – deganlar.

\* \* \*

*(Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al jomi' as-sahih. (Ishonarli to'plam). 4-jildlik, 1-jild. Toshkent, «Qomuslar bosh tahririyati», 1997 y., 509-513-betlar).*

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=776.0>  
Internet uchun Naqshbandiy tayyorlagan.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)  
2007